

**B.B. Berkinov, Ye.A. Yarmolik,
Q.Q. Quvnoqov**

***INDIKATIV
REJALASHTIRISH***

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

B.B. Berkinov, Ye.A. Yarmolik, Q.Q. Quvnoqov

INDIKATIV REJALASHTIRISH

(O'QUV QO'LLANMA)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan magistratura mutaxassisligi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

TOSHKENT – 2014

Berkinov B.B., Yarmolik Ye.A., Quvnoqov H.Q. Indikativ rejalashtirish: O'quv qo'llanma.-T.: TDIU, 2011. - 170 b.

Mas'ul muharrir i.f.d., prof. Bekmurodov A.Sh.

Ushbu o'quv qo'llanma fanning o'quv dasturi asosida yozilgan, unda indikativ rejalashtirishning mazmuni va moqiyati, uni tashkil etishning nazariy - uslubiy asoslari izoqlangan. Qo'llanmada asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyoti, uning tarmoqlari va soqalari qamda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini indikativ rejalashtirish usullari va yondashuvlarini yoritishga qaratilgan. Qo'llanma oliy o'quv yurtlarining talabalari, o'qituvchilar, aspirantlar va indikativ rejalashtirish bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. Shodiev T.Sh., i.f.n., dos. Fayzullaev Yo.Sh.

БеркиновБ.Б., ЯрмоликЕ.А., КувнаковХ.К., Индикативное планирование: Учебное пособие.-Т.: ТГЭУ, 2010. – 170 с.

Ответственный редактор д.э.н., проф. Бекмуродов А.Ш.

Данное учебное пособие написано на основе учебной программы предмета, в нем рассмотрены теоретические – методологические основы, сущность и содержание индикативного планирования. В учебном пособии основное внимание уделено освещению методов и подходов индекативного планирования социально-экономического развития страны, ее регионов, а также отдельных отраслей и сфер экономики. Пособие предназначено для студентам, преподавателям высших учебных заведений, аспирантам и лицам интересующихся индикативным планированием.

Рецензенты: д.э.н., проф. ШодиевТ.Ш., к.э.н., доц. ФайзуллаевЁ.Ш.

Berkinov B.B., Yarmolik E.A., Kuvnakov H.K., Indicative planning: Teaching manual.-T.: TSUE., 2010. – 170 p.

Editor in chief p.h.d., prof. Bekmurodov A.Sh.

Given scholastic allowance is written on base of the scholastic program of the subject, in him are motivated theoretical - methdological bases of the composition and characteristic indecative planning. Illumination acceptance is pointed In scholastic allowance main attention in world practical person main indicator on factor planning to economy. The Allowance targeted for student of the high educational institutions, teachers, graduate student and interesting with indicative planning.

Reviewrs: p.h.d., prof. Shodiev T.Sh., p.h.d., prof. Fayzullaev Yo.Sh.

© -Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2011 y.

MUNDARIJA

Kirish.....	13
1-BOB. Bozor iqtisodiyotida rejalashtirishning mohiyati va roli.....	15
1.1. Indikativ rejalashtirish fanining maqsadi, mazmuni va predmeti.	15
1.2. Bozor xo'jaligini davlat yo'li bilan tartibga solish—indikativ rejalashtirishning ob'ekti sifatida.....	17
1.3. Indikativ rejalashtirishning mohiyati va uning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni tartibga solishdagi roli.....	20
2-BOB. Jahon iqtisodiyotida indikativ rejalashtirishning evolyutsion rivojlanishi va tartibga solinishi hamda ularning hozirgi holati.....	32
2.1. Indikativ rejalashtirish shakllarining evolyutsiyasi.....	32
2.2. Jahonda, shu jumladan O'zbekistonda prognozlashtirish va rejalashtirishning holati.....	41
2.3. O'zbekiston Respublikasida indikativ rejalashtirish konsepsiyasi.....	48
3-BOB. Bozor xo'jaligida rejalashtirish metodologiyasi va ularni tashkil etish.....	53
3.1. Indikativ rejalashtirish metodologiyasining tizimi.....	53
3.2. Bozor sharoitida muvozanatlashgan rejalashtirishning zaruriyati.	57
3.3. Dasturiy-maqсадli rejalashtirish.....	62
4-BOB. Rejalashtirish boshqaruv vositasi sifatida.....	65
4.1. Rejalashtirish tushunchasi va uning maqsadlari.....	65
4.2. Rejalashtirishning asosiy vazifalari va bosqichlari.....	69
4.3. Korxonada rejalashtirishning tarkibiy qismlari.....	76
4.4. Qishloq xo'jaligini rejalashtirishda prognozlashning ahamiyati...	81
5-Bob. Indikativ rejalashtirishning tashkiliy asoslari.....	88
5.1. Indikativ rejalashtirishni tashkil etish.....	88
5.2. Indikativ rejalashtirishda iqtisodchilarning funkstiyalari va majburiyatlari.....	90
5.3. Iqtisodiyot ko'rsatkichlarini indikativ rejalashtirishda axborot texnologiyalarining ustunliklari.....	94

6-BOB. Indikativ rejalashtirish va iqtisodiy hodisalarning tamoyillari	99
6.1. Indikativ rejalashtirish funkstiyalari.....	99
6.2. Indikativ rejalashtirish metodologiyasining asosiy qoidalari.....	100
6.3. Iqtisodiy inqirozlar va rejalashtirish tajribalari.....	102
6.4. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot konstepstiyalari.....	103
7-BOB. Indikativ rejalashtirish usullari.....	107
7.1. Indikativ rejalashtirishda umumiy yondashuvlar.....	107
7.2. Indikativ rejalashtirishda tizimli yondashuv.....	109
8-BOB. Indikativ rejalashtirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ssenariy shartlarini aniqlash.....	113
8.1. Siyosiy qarorlar variantlarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar rivojlanishiga ta'siri.....	113
8.2. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini tarkibi.....	114
9-BOB. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida indikativ rejalashtirishning maqsadi va vazifalari.....	119
9.1. Mintaqaviy indikativ rejalashtirish – mintaqa boshqaruv tizimining asosiy unsuri.....	119
9.2. Mintaqaviy rejalarni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari.....	121
9.3. Mintaqani kompleks tarzda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi.....	126
9.4. Mintaqaviy rejalashtirish amaliyotidagi asosiy muammolar. O'zbekistonda mintaqaviy rejalashtirish amaliyoti.....	128
10-BOB. Moliyaviy oqimlar indikativ rejalashtirish va tartibga solishning ob'ekti sifatida.....	132
10.1. Byudjetlashtirish va byudjetning asosiy tushunchalari.....	132
10.2 Davlatning makroiqtisodiy siyosati va ularni boshqarishda byudjet resurslarining ahamiyati.....	134
10.3 Davlat byudjeti rejasi va byudjetni rejalashtirish shakllari.....	136
11-BOB. Demografik jarayonlarni prognoz qilish.....	145
11.1. Demografik prognoz qilishning mohiyati.....	145
11.2. Demografik prognozlar tasnifi.....	146
11.3. Aholi o'sishini prognoz qilish usullari.....	150

11.4. Aholi turmush darajasi va bandligini indikativ rejalashtirish.....	153
11.4.1. Rejalashtirishda insoniyat rivojlanishining indikatorlari.....	153
11.4.2. Aholi bandligining indikatorlari.....	157
12-BOB. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni indikativ rejalashtirishning holati.....	163
12.1. Ishlab chiqarish va uning asosiy sohalarini indikativ rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi	163
12.2. Indikativ reja tuzishda iqtisodiy organlarning funkstional hamkorligi.....	165
12.3. Rejalarni amalga oshirish mexanizmlari va vositalari.....	170
Tavsiya etilayotgan adabiyotlar.....	175
Glossariy.....	178
Ilovalar.....	188

СОДЕРЖАНИЕ

Предисловие.....	13
Глава 1. Значение и роль планирования в рыночной экономике.....	15
1.1. Цель, значение и предмет курса индикативного планирования.....	15
1.2. Регулирование рыночного хозяйства государственным путём как объект индикативного планирования.....	17
1.3. Значение индикативного планирования и её роль в регулировании социально – экономических ситуаций.....	20
Глава 2. Эволюционный развития индикативного планирования в мировой экономике и его современное состояние.....	32
2.1. Эволюция форм индикативного планирования.....	32
2.2. Состояние прогнозирования и планирования в мире, и в том числе Узбекистане.....	41
2.3. Концепция индикативного планирования в Республике Узбекистана.....	48
Глава 3. Методология планирования и её организация в рыночном хозяйстве.....	53
3.1. Система методологии индикативного планирования.....	53
3.2. Необходимость сбалансированного планирования в экономике в условиях рынка.....	57
3.3. Программно – целевое планирование.....	62
Глава 4. Планирование как элемент управления.....	65
4.1. Понятие и цель планирования.....	65
4.2. Основные задачи и этапы планирования.....	69
4.3. Структурные части планирования в предприятий.....	76
4.4. Значения разработки прогнозов планирование сельского хозяйства.....	81
Глава 5. Организационные основы индикативного планирования.....	88
5.1. Организация индикативного планирования.....	88

5.2. Обязанности и функции экономистов при индикативном планировании.....	90
5.3. Приоритет информационных технологий в индикативном планировании экономических показателей.....	94
Глава 6. Закономерности экономических явлений и принципы индикативного планирования.....	99
6.1. Функции индикативного планирования.....	99
6.2. Основные правила методологии индикативного планирования.....	100
6.3. Экономический кризис и опыт планирования.....	102
6.4. Концепции социально–экономического развития.....	103
Глава 7. Методы индикативного планирования.....	107
7.1. Общие подходы в показателях индикативной планирование.	107
7.2. Основные группы методов индикативной планирование.....	109
Глава 8. Определение условий сценария социально–экономического развития в индикативном планировании.....	113
8.1. Влияние вариантов политических решений в развитие социально–экономической системы.....	113
8.2. Структура концепции социально–экономического развития страны.....	114
Глава 9. Цели и задачи индикативного планирования социально–экономического развития регионов.....	119
9.1. Региональное индикативное планирование основной элемент системы регионального управления.....	119
9.2. Основные направления разработки региональных планов.....	121
9.3. Программа комплексного социально – экономического развития региона.....	126
9.4. Основные проблемы региональной практике планирования. Практика регионального планирования в Узбекистане.....	128
Глава 10. Финансовые потоки как объект индикативного регулирования и планирования.....	132
10.1. Бюджетирование и основные понятия бюджета.....	132
10.2. Ресурсы бюджета и значение их управлений макроэкономической политике государства и их управления.....	134

10.3. Планы государственного бюджета и форм бюджетного планирования.....	136
Глава 11. Прогнозирование демографических процессов.....	145
11.1. Сушность демографического прогнозирования.....	145
11.2. Классификация демографических прогнозов.....	146
11.3. Методы прогнозирования роста населения.....	150
11.4. Уровень жизни и индикативное планирование занятости населения.....	153
11.4.1. Индикаторы человеческого развития в планирование.....	153
11.4.2. Индикаторы человеческой занятости.....	157
Глава 12. Современное состояние индекативного планирования социально-экономическогоразвития в Республике Узбекистан.....	163
12.1. Основные этапы индикативного планирования социально-экономического развития.....	163
12.2 Функциональные взаимодействие экономических органов при составление индикативных планов.....	165
12.3 Средства и механизмы реализации планов на практике.....	170
Глоссарий.....	175
Список рекомендуемой литературы.....	178
Приложение.....	188

C O N T E N T S

Foreword.....	13
Chapter 1. Importance and role of the planning in market economies.....	15
1.1. Purpose, importance and subject of the course indicative planning.....	15
1.2. The Regulation market facilities by state way as object indicative planning.....	17
1.3. Importance indicative planning and her(its) role in regulation social - economic situation.....	20
Chapter 2. Evolyucionny progress and regulation indicative planning in world economy and his(its) modern condition.....	32
2.1. Evolution of the form indicative planning.....	32
2.2. Condition of the forecasting and planning in world, as well as in Uzbekistan.....	41
2.3. Concept indicative planning in Republic Uzbekistan.....	48
Chapter 3. The Methodology of the planning and her(its) realization in market facilities.....	53
3.1. The Systems methdological indicative planning.....	53
3.2. Efficiency of the balanced planning in market economy.....	57
3.3. Planning software – target.....	62
Chapter 4. Planning as element of management.....	65
4.1. The Notion and purpose of the planning.....	65
4.2. Main duties and stages of the planning.....	69
4.3. Structured parts of the planning enterprise.....	76
4.4. Importance development planning in production of the agriculture.....	81
Chapter 5. The Organizing bases indicative planning.....	88
5.1. Realization indicative planning.....	88
5.2. Duties and functions economist on indicative planning.....	90
5.3. The Priority information technology in indicative planning the economic factors.....	94

Chapter 6. The Principles economic event and indicative of the planning.....	99
6.1. Functions indicative planning.....	99
6.2. The Main rules methodology indicative of the planning.....	100
6.3. The Economic crisis and experience of the planning.....	102
6.4. The Concepts social-economic progress.....	103
Chapter 7. The Methods indicative planning.....	107
7.1. The Systems of the factors indicative planning.....	107
7.2. The Main groups of the methods indicative planning.....	109
Chapter 8. Define the condition a scenario social-economic progress in indicative planning.....	113
8.1. The Influence variant political resolutions in progress social-economic system.....	113
8.2. Formation social-economic progress concept country.....	114
Chapter 9. The Purposes and problems indicative planning social-economic progress region.....	119
9.1. Regional indicative planning main aspect governing the regional system.....	119
9.2. Main trends in development regional plan.....	121
9.3. The Program social - an economic progress of the region in gross order.....	126
9.4. The Main problems regional practical person planning. The Practice of the regional planning in Uzbekistan.....	128
Chapter 10. The Financial headwaterses as object indicative regulations and planning.....	132
10.1. The Budgets and main notions of the budget.....	132
10.2. Resource budget and macroeconomical politicians state and their control.....	134
10.3. The Plans of the budget and planning the budgetary forms in state.....	136
Chapter 11. Demographic planning.....	145
11.1 Demographic planning and purpose of the forecasting.....	145
11.3 Categorizations of the demographic forecast.....	147
11.3. The Methods forecasting population.....	150

11.4. Level of living and indicative planning to employment population.....	153
11.4.1. Indicators of the human progress in planning.....	153
11.4.2 Indicators human occupation.....	157
Chapter 12. Social-economic developments indicative planning on present-day condition in Republic Uzbekistan.....	163
12.1. Social-economic developments indicative planning plan production and their main stage.....	163
12.2. Joint functional economic organs in condition indicative plan....	165
12.3. Realization plan, mechanisms and facility.....	170
List of recommended literature.....	175
Glossary.....	178
Appendix.....	188

KIRISH

O'zbekistonda mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridan boshlab 5 tamoyil asosida¹ amalga oshirilgan institutsional islohotlar natijasida shakllangan xususiy mulk ustuvor bo'lgan ko'p ukladli iqtisodiyotni boshqarish, uni tarmoq va korxonalarini tartibga solishning tubdan yangi tizimi barpo etildi. Ana shu yaratilgan tizimni uzviy bir qismini iqtisodiyotni boshqarishning muhim funkstiyasi sifatida mamlakatimizda qabul qilingan ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish va rejalashtirish konstepstiyasi tashkil etadi. Konstepstiyaning asosiy bosqichlarini amalda ijrosini ta'minlash prognozlashtirish va rejalashtirishning turli usul va vositalarini qo'llashni taqozo qiladi.

Ana shunday vositalardan biri jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan indikativ rejalashtirish hisoblanadi. Indikativ rejalashtirish bozor iqtisodiyotini davlat yo'li bilan tartibga solishning muhim vositasi sifatida uzoq takomillashuv yo'lini bosib o'tdi va o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatdi.

Hozirgi vaqtda bozor iqtisodining rivojlanishi va uning globallasuvi sharoitida indikativ rejalashtirish o'zining strategik shakliga ega bo'ldi va alohida fan sifatida shakllandi.

Ushbu fanning so'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz bergan moliyaviy – iqtisodiy inqirozi kabi vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish vositasi sifatida roli beqiyosdir. Gap shundaki, indikativ rejalashtirish iqtisodiy o'sish, moliyaviy oqimlarni prognozlashtirishni, ularni real iqtisodiy jarayonga yaqin bo'lgan holatini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan bir vaqtda indikativ rejalashtirish ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyot sohasidagi bo'lajak mutaxassislar o'rganadigan fanni o'zida namoyon etuvchi taklif etilayotgan "Indikativ rejalashtirish" o'quv qo'llanmasi ushbu vazifalar mazmun – mohiyatini va zaruriyatini tushunib etishga yordam beradi. Indikativ rejalashtirishning tarkibiy shaklining qaror topishi, bu borada etakchi rivojlangan mamlakatlarning indikativ rejalashtirish tajribalarini o'rganishni faollashtirish asosida O'zbekistonda indikativ rejalashtirishning tashkiliy – huquqiy asoslarini yaratish, milliy iqtisodiyotning global muammolarini hal etish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi.

O'quv qo'llanma 12 bobdan iborat bo'lib, uning har bir qismi ushbu

¹ И. Каримов Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б.10-11.

fan o'quv dasturiga kiritilgan mavzular mazmunini ochib berishga qaratilgan bilimlarni o'z ichiga oladi. O'quv qo'llanma "Indikativ rejalashtirish" fani bo'yicha ilk bor yozilgan o'quv adabiyoti hisoblanadi. Shu bois ushbu qo'llanmani yaxshilash yuzasidan xolisona bildirilgan takliflarni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladi. Ularni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Makroiqtisodiyot" kafedrasiga yo'llash mumkin.

I bob.

BOZOR IQTISODIYOTIDA REJALASHTIRISHNING ROLI VA AHAMIYATI

- 1.1. Indikativ rejalashtirish maqsadi, kursning predmeti va ahamiyati.**
- 1.2. Bozor xo'jaligini davlat yo'li bilan tartibga solish— indikativ rejalashtirishning obyekti sifatida.**
- 1.3. Indikativ rejalashtirishning mohiyati va uning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni tartibga solishdagi roli.**

1.1. Indikativ rejalashtirish maqsadi, kursning predmeti va ahamiyati

Kursning maqsadi bo'lajak mutaxassisni oldinda turgan harakatlarni iqtisodiy asoslash metodologiyasiga o'qitishdan iborat. "Bilimlar – yo'lni yo'lsizlikdan farqlash uchun mavjud", - degan edi sharq mutafakkirlaridan biri. Ilmiy oldindan ko'ra bilish tamoyillari va usullarini bilish tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassisga sodir bo'layotgan hodisalarning mohiyatini tushunishga va turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Har bir inson olamni umid uchqunlarida ko'radi. Shuning uchun nafaqat boshlovchi, balki tajribali tadbirkor ham o'z imkoniyatlariga ortiqcha baho berib yuboradi. U birinchi galda biron narsaga erisha olish haqida emas, balki nimaga erishishni xohlashi haqida o'ylaydi. Lekin uning harakatlarining strategiyasi va taktikasi real hayotni tushunish va ilmiy iqtisodiy oldindan ko'ra bilish asosida qurilishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy rivojlanishini ilmiy oldindan ko'ra bilish metodologiyasini o'rganish "Indikativ rejalashtirish" **kursining predmeti** hisoblanadi. Har qanday boshqarish prognoz yoki reja shaklida ilmiy oldindan ko'ra bilishni talab qiladi. Bu - xo'jalik yuritishning istalgan sohasini boshqarish aksiomasi. Biroq firmaga istalgan prognoz yoki reja emas, balki kelajakning yaxshi asoslangan timsoli kerak. Haqiqiy voqealarning nazarda tutilayotgan voqealarga mos kelishi asoslash sifatining bosh mezon bo'ladi, bu firmani tanlangan xo'jalik yuritish maqsadlariga yaqinlashtiradi. Xo'jalik yuritish subyekti va obyekti sifatida firma faoliyati davlat iqtisodiyotining tashkiliy tizimi doirasida

ko'rib chiqiladi. Biznes o'z munosabatlarining takroriy namoyon etilishi, ularning moslashuvchanligi va ijtimoiy jarayonni ta'minlash qobiliyati bilan tavsiflanadi, bu hamma vaqt hozirgi holatning o'zgarishi va kelajakka ta'sir etish bilan bog'liq, chunki iqtisodiy oldindan ko'ra bilish o'tmishni aks ettiradi, hozirni o'z ichiga oladi va kelajakni ko'zlaydi.

Ushbu fanni o'rganish jarayonida mutaxassis iqtisodiy asoslash vositalari sohasida bilim oladi. Biroq ushbu vositalar qanchalik aniq bo'lmasin iqtisodiyotning haqiqiy asoslarini tushunmasdan turib ular hech qachon samarali natijaga olib kela olmaydi. Faqat iqtisodiy oldindan ko'ra bilish vositasi orqali aks ettirilgan iqtisodiy tendensiyalar, hodisalar, kategoriyalar va o'zaro bog'liqliklarning mohiyatini bilish asosida haqqoniy foydali prognoz yoki reja tuzilishi mumkin. Iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalari iqtisodiy nazariya, makro va mikroiqtisodiyot, marketing, menejment, moliya, audit kabi ko'plab fanlar tomonidan o'rganiladi. Aslida, kelajakni oldindan ko'ra bilish – bu aksariyat fanlarning asosi hisoblanadi. Lekin ushbu holat nuqtai nazaridan kelajakni aniq asoslash imkonini beruvchi hisob-kitoblar metodologiyasini anglab etish imkonini aynan ushbu fan beradi. Prognozashtirish va rejalashtirishning *mazmuni* iqtisodiy nazariya tomonidan belgilanadi; *rejalashtirish shakli* menejmentga bog'liq bo'lib, u rejalashtirishni boshqaruvning bir qismi sifatida ko'rib chiqadi; rejali ishlanmalar *uslubi marketing texnologiyalari* bilan bog'liq. Lekin barcha reja va prognoz hisob-kitoblari tamoyillari, usullari, ularning bosqichma-bosqichligini, iqtisodiy oldindan ko'ra bilish indikatorlarini tanlashni belgilab beruvchi yagona metodologiyaga amal qiladi.

Kursning mazmuni davlat darajasida ham, tarmoq, korxona darajasida ham indikativ rejalashtirish jarayonining nazariy-amaliy masalalarini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy oldindan ko'ra bilish tabiati, ko'rsatkichlar va parametrlar tasnifi, mutaxassislarning prognozashtirish va rejalashtirish masalalari bo'yicha fikrlari va qarashlari, xorijiy mamlakatlarning ushbu sohadagi tajribasi, faoliyatning turli sohalarini iqtisodiy jihatdan asoslash, shu jumladan rivojlanish strategiyalarini tanlashga nisbatan tavsiya etilayotgan yondashuvlar, tanlangan qarorlarining iqtisodiy samarasini aniqlash, reja tarkibi, mamlakatda rejali ishni takomillashtirish vazifalari – bularning barchasi va qator boshqa masalalar o'rganilayotgan fanning mazmunini tashkil qiladi. Mazkur kursni bilish bo'lajak mutaxassisga tanlangan xo'jalik yuritish maqsadlari, ko'zlangan natijalarga erishish, faoliyat ko'rsatishning iqtisodiy muammolarini hal etish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur

bo'lgan harakatlarni malakali asoslash imkonini beradi.

Kursning metodologik asosini dialektika tashkil etadi. Aynan dialektika, ko'plab ilmiy fanlarning metodologiyasi bo'lgani holda, mutaxassisga turmush, jamiyat va tafakkur rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqidagi bilimni beradi. Xo'jalik yuritish muhitini tushunishni belgilab beruvchi uning kategoriyalari hayot faoliyati unsurlarining tutashish nuqtalarini aniqlash, ularda bir lahzali va tasodifiy holatlarni olib tashlab, obyektiv va alohida holatlarni ko'rish imkonini beradi.

Dialektika kategoriyalari va qonunlari iqtisodiy hodisalar tadqiqotlari qoidolari va usullarini tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, iqtisodiy tahlil istalgan rejalashtirish jarayonining majburiy qismi hisoblanib, u nihoyasiga etgach, alohida hisob-kitoblarning o'zaro ta'siri va to'ldirishini tekshirish orqali ularni sintez qilish zarur. Bunda fanlarni bilish dialektikasi namoyon bo'ladi.

Indikativ rejalashtirishning zamonaviy amaliyoti davlatning o'tmishdagi ko'rsatmali rejalashtirishini tubdan qayta anglab etadi. Biroq, bir necha yildan so'ng rejalashtirish darajasiga nisbatan yangi talablar rejalashtirish nazariyasining ko'plab hozirgi talqinlaridan voz kechishga majbur qiladi. Mana shunda ham – kursni o'rganish dialektikasi har qanday ilmiy fan rivojlanishining qonuniy jarayoni hisoblanadi, chunki yangidan jamg'arilgan tajriba, odatda, vaqt o'tishi bilan ilgari yondashuvlarning maqsadga muvofiqligini inkor qiladi, ularning faoliyat yuritishning yangi sharoitlariga xos bo'lgan sifat jihatdan yangi tarkibini belgilab beradi.

Insonni, ayniqsa, muayyan korxona sharoitlari nuqtai nazaridan rejalashtirish sohasidagi iqtisodiy hisob-kitoblarni malakali tarzda bajarishga o'rgatish qiyin. Lekin uni ilmiy oldindan ko'ra bilish metodologiyasi bo'yicha bilimlar tizimiga, pirovardida esa, - u fikrlash xilidagi tafakkur bilan birgalikda malakali prognozlar va rejalarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi iqtisodiy tafakkurga o'rgatish mumkin. Bu mutaxassisning iqtisodiyot sohasidagi kelgusi bilimlarining garovidir.

1.2. Bozor xo'jaligini davlat yo'li bilan tartibga solish— indikativ rejalashtirishning obykti sifatida

Iqtisodiy mustaqillikning mustahkamlanishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish zarurati yanada qat'iylashdi. Yangi sharoitda davlatning tartibga soluvchi roli iqtisodiyotni rivojlantirishning

qonunchilik va huquqiy asoslarini yaratish, faol sanoat, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish hamda hayotni ta'minlovchi muhim tizimlar – infratuzilma, fan-texnika sohasi, fuqarolar xavfsizligini to'g'ridan-to'g'ri davlat yo'li bilan boshqarishdan iborat. Rivojlangan mamlakatlarda indikativ rejalashtirish iqtisodiyotni tartibga solishning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va boshqaruv organlarining ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va hududni rivojlantirishdagi boshqa muammolarni hal etish yuzasidan o'zaro munosabatlari iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish jarayonining asosiy mazmunini tashkil etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va boshqaruv organlari o'rtasida o'zaro munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq muammolar majmui ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish predmeti hisoblanadi.

Davlat jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish choralarini ko'radi. Davlat miqyosida raqobat, talab va taklifni shakllantirish bilan bog'liq va ayrim boshqa hodisalarning istiqbollari prognoz qilinadi. Bu ularning haqiqiy mazmunini buzib ko'rsatish ehtimoli tufayli iqtisodiyotga davlatning to'g'ridan to'g'ri aralashuvi ko'ngilsiz bo'lgan holat. Biroq mamlakatda hamma vaqt davlat ularni stixiyali bozor ta'siriga tashlab qo'ya olmaydigan qator faoliyat sohalari mavjud bo'ladi. Bunday sohalar jumlasiga milliy mudofaa, huquq-tartibot, ilmiy tadqiqotlar, ta'lim, shuningdek ayrim energetika tarmoqlarining faoliyati kiradi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga soluvchi hujjatlar ro'yxati quyidagilarni o'z ichiga oladi: iqtisodiyot va u bilan bog'liq sohalar rivojining prognozlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi, mamlakat, mintaqalar, tarmoqlar va yirik ko'p tarmoqli majmualarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari. Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanish ustidan oqilona rahbarlik qilish uchun indikativ rejani ishlab chiqish zarur. Ishlab chiqiladigan prognoz hujjatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning alohida sohalari o'zgarishini aks ettiruvchi alohida prognozlari, xususan:

- mamlakatdagi demografik vaziyat;
- tabiat muhitining holati, shu jumladan tabiiy qazilmalarning aniqlangan zahiralar, er, suv va o'rmon resurslari;
- fan-texnika yutuqlarining holati va ularni ishlab chiqarishga joriy etish;

- aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabining hajmi va dinamikasi;

- asosiy ishlab chiqarish omillari: sarmoya, mehnat, investitsiyalarni prognoz qilish;

- xalq xo'jaligi alohida tarmoqlari, hududlar va faoliyatning boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik sohalarining rivojlanishini prognoz qilish.

Hech bir xo'jalik, strategik qaror ehtimoliy oqibatlarning oldindan ko'ra bilmasdan, strategik ustuvor yo'nalishlarni, va ularni amalga oshirishning aniq maqsadga yo'naltirilgan harakatlarini tanlamasdan turib qabul qilinishi va bajarilishi mumkin emas. Buning uchun mamlakat va uni tashkil etuvchi mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirish, strategik va indikativ rejalashtirish, dasturlash kabi sinab ko'rilgan vositalardan foydalaniladi. Bu bilan davlat nafaqat iqtisodiy hayotni umumiy tartibga solish Funktsiyasini, balki mamlakatni rivojlantirish istiqbollari va uning jahon xo'jaligidagi o'rnini hisobga olgan holda tarkibiy siljishlar va innovastion rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi o'zining *strategik-innovastion* Funktsiyasini ham bajaradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'p qirrali, ko'p omilli va ziddiyatli bo'lib, shuning uchun prognozlar va rejalar odatda ehtimoliy o'zgarishlarni baholash uchun ko'p variantlidir. Bu iqtisodiy tizimning rivojlanishidagi o'tish, tanglik bosqichlari sharoitida juda muhim, chunki bunda u beqaror bo'lib qoladi.

Prognozlar davlat organlari uchun, birinchi galda, uzoq muddatli va o'rta muddatli davrlarga mo'ljallangan rivojlanishning ustuvor yo'nalishlar va strategiyalarini asoslash uchun, ya'ni *indikativ rejalashtirish uchun* zarur. Markazlashgan-rejali tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish *rejalashtirishning roli va ahamiyatini* tubdan oshirdi. Ilgari asosiy qarorlar ittifoq markazida qabul qilinib, ular fan-texnika taraqqiyotining yig'ma dasturi va ularning 20 yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, 15 yilga mo'ljallangan mamlakatning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish bosh sxemasi kabi uzoq muddatli prognozlarga asoslanar edi. Endilikda korxonalar, tashkilotlar, banklar, xoldinglar xo'jalik qarorlarini qabul qiladi va ular oqibatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Sifatli prognozlar uchun talab keskin oshdi. Ular endilikda bozorning barcha agentlariga talab etiladi. Biroq har bir tadbirkor milliy va jahon xo'jaligidagi o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishga qodir emas. Davlat organlari va ilmiy tashkilotlarning roli hamda prognozlarning asosliligi va ishonchliligi uchun javobgarligi oshdi.

1.3. Indikativ rejalashtirishning mohiyati va uning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni tartibga solishdagi roli

Tadbirkorlar ichida sodir bo'layotgan voqealarni sust kuzatuvchi insonni uchratish qiyin. Istalgan mulkdor o'zining shaxsiy manfaatlarini boshqa insonlar ehtiyojlaridan foydalangan holda amalga oshirishga intiladi. Bu esa faoliyat maqsadlari va ularga erishish bo'yicha sa'y-harakatlarni anglab etishni talab qiladi. Shuning uchun xo'jalik yurituvchi subyekt darajasida prognozlashtirish jarayoni monand ravishda unda hayotning obyektiv shart-sharoitlarini tushunishga tadbirkorlik manfaatlarini aks ettiruvchi subyektiv omillar qo'shimcha qilinadigan rejalashtirish jarayoniga aylanadi. Biznesda subyektiv omillarga rejalar orqali erishiladi.

Reja – bu xo'jalik yuritish muhitining kon'yunkturali prognozi asosida barpo etilgan bo'lib, ijrochilar, vaqt va resurslar bilan ta'minlangan tadbirkorlik subyeksi tomonidan oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish ishchi vositasidir.

Rejaning yuqorida keltirilgan ta'rifi quyidagi asosiy so'zlarni o'zida mujassam etgan:

"Vosita" – bu reja maqsadning o'zi emas, balki maqsadga erishish vositasi ekanligini anglatadi. Maqsadga erishish vositalarining majmui iqtisodiy, ruhiy, tijorat, tashkiliy, kadrlar, texnologik va boshqa harakatlarni o'z ichiga oladi. Maqsadga erishish vositalari o'zgarishi mumkin va "ishchi vositasi" tushunchasining mazmuni ana shundan iborat. Bunday yondashuv rejani moslashtirishning uning barqarorligidan usunligini anglatadi;

"Oldinga qo'yilgan mahsadlarga erishish" – xo'jalik yuritish obyekti xodimlarining shaxsiy va jamoaviy manfaatlarining qoniqishini belgilab beradi. Maqsad – istalgan natija va rejadagi intilishlar markazi sifatida belgilangan muddatga aniq amalga oshirilishi lozim;

«Kon'yunktura prognozi asosida» – bu shuni anglatadiki, reja ijrochilarining subyektiv harakatlari asosida ularning xo'jalik muhiti mavjud bo'lishining obyektiv qonuniyatlarini tushunishi va undan foydalanishi: bozor mexanizmini bilish va rejalashtirishning dastlabki qismi sifatida prognozni ishlab chiqish yotadi;

"Ijrochilar, vaqt va resurslar bilan ta'minlangan" – shuni anglatadiki, harakatlar rejasi resurslar bilan ta'minlanishi shart, ya'ni ijro etish muddatlari bo'yicha moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Bunday ta'minotsiz reja hayolga aylanadi.

Rejaning yuqorida keltirilgan ta’rifi asosida rejalashtirishning asosiy maqsadi va asosiy vazifasini ta’riflash mumkin. *Rejaning asosiy maqsadini* amalga oshirilgan voqea tashkil etadi. *Rejalashtirishning asosiy vazifasi* ijrochilar, vaqt va resurslar bo’yicha muvazanatlashgan mavjud resurs cheklovlari sharoitida harakatlarni tanlashdan iborat.

Rejaning asosiy xususiyatlari:

- kelajakka faol ta’sir ko’rsatish;
- kelajak haqida subyektiv tasavvurni aks ettirish;
- boshqaruv faoliyatining bir turi hisoblanadi;
- istalgan maqsadga erishish uchun foydalanilishi mumkin;
- kelgusi rivojlanishning son modelini o’zida namoyon qiladi;
- kelajakni amalga oshirish uchun javobgarlikni nazarda tutadi;
- xo’jalik yuritishning tashqi muhiti shart-sharoitlari, shu jumladan bozor kon’yunkturasi hisobga olinishini aks ettiradi;
- xo’jalik yuritishning ichki muhiti imkoniyatlarini, shu jumladan mavjud resurslarni hisobga oladi;
- real, ya’ni bajariladigan bo’lishi kerak;
- faoliyat ko’rsatishning eng qulay sharoitlariga erishish uchun xatti-harakat tartibini belgilaydi;
- kelajakdagi harakatlarning motivastiyalangan sxemasi hisoblanadi;
- xodimni qiziqtirish va uning ishini baholashning bosh omili hisoblanadi;
- fors-major holatlar uchun zahiralarga ega bo’lishi kerak;
- ijrochilar uchun javobgarlik choralari nazarda tutishi lozim;
- firmaning barcha tarkibiy bo’linmalari manfaatlarini aks ettirishi kerak;
- yozma ravishda hujjatli rasmiylashtiriladi;
- firmaning ichki hujjati hisoblanadi;
- sheriklar va sarmoyadorlar bilan alohalarni o’rnatish uchun foydalaniishi mumkin, buning uchun odatda rejaning qisqartirilgan variantidan foydalaniladi;
- firma rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi;
- vaqtga ko’ra ancha barqaror bo’lishi kerak;
- ishning yangi sharoitlariga moslashish imkoniyatiga ega bo’lishi lozim.

Rejalashtirish – bu o’z maqsadlariga erishish uchun xo’jalik yurituvchi subyektning oqilona xatti-harakatini iqtisodiy asoslash jarayonidir. Rejalashtirish maqsadlarni shakllantirish, unga erishishning ustuvor yo’nalishlari, vositalari va usullarini belgilash jarayonini o’zida

aks ettiradi. Unga ko'pincha prognozashtirishning yakuniy bosqichi sifatida qaraladi.

Rejani insonning avtomobilda qandaydir yakuniy manzilga sayr qilishi bilan taqqoslash mumkin. Faoliyat maqsadi – bu sayr qilishning yakuniy manziliga erishish. Reja – bu avtomobil ketadiga yo'l; u ko'plab boshqa yo'llar ichidan tanlanadi va eng qisqa, xavfsiz va qulay bo'lishi kerak. Tadbirkorlikni tartibga soluvchi rasmiy qonunlar, me'yorlar va yo'riqnomalar – yo'l harakati belgilari va qoidalari. Bu yo'l bo'ylab mashina haydashni bilish esa butunlay sayyohning o'ziga bog'liq.

Rejalashtirish ham ustunliklarga, ham kamchiliklarga ega.

Rejalashtirishning ustunlik tomonlari:

- vazifani oqilona tarzda va kam harajatlar bilan hal etishga urinish;
- xo'jalik yuritish muhitining bo'lajak ustunliklaridan foydalanishga chuqur o'ylab tayyorgarlik ko'rish;
- ijrochilar harakatlarini muvofiqlashtirishni yaxshilash;
- manfaaddor shaxslarning birgalikdagi sa'y-harakatlari hisobidan kuchlarni sarflashning jamoaviy imkoniyatlarini kuchaytirish;
- cheklangan resurslardan oqilona foydalanish;
- voqealarni nazorat qilish imkoniyati va faoliyatdagi muammolarni aniqlash.

Rejalashtirishning kamchiliklari:

- rejada, ayniqsa murakkab tashkil etilgan tizimlarda hayot sharoitlarining barcha xillarini aks ettirish imkoniyatining yo'qligi;
- qabul qilingan qarorning barqarorligi, bu biznesning o'zgaruvchan sharoitida zarar keltirishi mumkin;
- rejani ishlab chiqish uchun resurslar (vaqt va mablag'lar) zarurligi.

Rejalashtirish bo'yicha xorijlik mutaxassislar rejani ishlab chiqishga nisbatan o'z munosabatlarini quyidagicha bildiradilar:

1) muvaffaqiyatni rejalashtirishning uzoq vaqtli (odatda 2 yildan ortiq) tajribasi keltiradi;

2) tadbirkor uchun yirik muvaffaqiyatlar ko'pincha rejalashtirishning emas, balki omadning, uning ishbilarmonlik va ijodiy qobiliyatining natijasi hisoblanadi;

3) rejalashtirish faoliyatda ustunlikni hosil qiladi.

Shuning uchun, tadbirkor biznesning murakkab va tez o'zgaruvchan (xususan, sotish va raqobat) sharoitlari tufayli rejaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari tadbirkorda voqealar rivoji bo'yicha bir necha variantlarni ishlab chiqish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bunday ishlanma kamdan kam holatda ekspromt bilan amalga oshiriladi. U hamisha vaqt talab qiladi.

Shunday qilib, rejani barcha ofatlardan balogardon deb hisoblab bo'lmaydi. Uni qo'llash quyidagilar bilan shartlangan qator cheklovlarga ega:

- xo'jalik yuritish muhitining noaniqligi. Shuning uchun ijrochi uchun, birinchidan, qo'shimcha ishonchli (shu jumladan, yangi) axborotni qidirib topish va ikkinchidan, uning ehtimollik darajasini prognoz qilish va aniqlash zarur;

- mamlakat qonunchilik bazasining takomillashmaganligi;
- resurslar bo'yicha cheklanishlar;
- agar jamiyatda tadbirkorlik ahloqining asoslari shakllanmagan bo'lsa va biznes madaniyati mavjud bo'lmasa, ahloq xususiyatlari muammolari.

Bundan tashqari, rejalashtirishning roli quyidagi sabablarga ko'ra bo'lib ko'rsatilishi mumkin:

- firma rahbariyatining avtoritarligi;
- ijrochilar qarashlarining subyektivizmi;
- noaniq va to'liqsiz axborot;
- fors-major holat;
- ijrochilar harakatlarining moliyaviy ta'minlanmasligi;
- iqtisodiy hisob-kitoblardagi xatolar.

Faoliyat rejasi yozma shaklda aks ettirilishi lozim. Kelajakning konturi sifatida hayoliy va og'zaki reja bo'lishi mumkin. Lekin, agar bir kishining rejasi uning hayolida bo'lishi mumkin bo'lsa, bir necha shaxsning rejasi yozma ravishda ifodalangan verbal shaklga ega bo'lishi kerak, bu ijrochilar tomonidan rejaning yaxshi tushunilishi uchun zarur. Bundan tashqari, bunday rejani keyinchalik nazorat qilish oson.

Shuning uchun foydalanishning qulayligi nuqtai nazaridan rejaning quyidagi *shakllari* mavjud:

- zaruriy hujjatlar to'plami;
- tuzilmaning ichki mantig'ini aks ettiruvchi tuzilmalar;
- tabaqalangan vazifalari ko'rsatilgan holda ijrochilar ro'yxati;
- nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan harakatlar ro'yxati;
- zarur harakatlarning izchilligiga muvofiq ko'rsatilgan ijro etish muddatlari;
- xarajatlar smetalari;
- oldinga qo'yilgan vazifalar sonli ifodalanishi iqtisodiy samarasining hisob-kitobi.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda sinovdan o'tgan iqtisodiyotni tartibga solish institutlari, shu jumladan indikativ rejalashtirishdan

foydalanishdan voz kechish, masalan, Rossiya iqtisodiyotining chuqur inqirozga yuz tutishiga sabablardan biri bo'ldi. Unga barham berish, so'nggi yillardagi o'nlab iqtisodiy maqolalarda ta'kidlanganidek, iqtisodiyotga davlat ta'sirining kuchayishini, shu jumladan indikativ rejalashtirishning amaliy tizimini tashkil etishni nazarda tutdi. Biroq bunda xujalik mexanizmini byurokratlashtirishga nisbatan haddan ziyod markazlashuvga yo'l qo'maslik lozim edi. J.K.Gelbreytning so'zlariga ko'ra, «rejalashtirish manfaatlarini emas, balki jamiyat manfaatlarini aks ettiruvchi rejalashtirish talab etiladi»². Yana bir bor shuni ta'kidlash lozimki, rejalashtirish bozor rag'batlari asosida amalga oshirilishi lozim. Reja bilan bozorning o'zaro ta'siri bo'yicha chet el va mamlakatimiz (ham ijobiy, ham salbiy) tajribasini hisobga olish hamda, eng asosiysi, uni hozirgi sharoitga moslashtirish zarur.

Afsuski, indikativ rejalashtirish mavzui bizdagi adabiyotlarda etarlicha namoyon etilmagan. Chet el tajribasini yorituvchi va O'zbekistonda indikativ rejalashtirishni amalga kiritish yuzasidan muayyan xulosalar va tavsiyalarni o'zida mujassam etmagan ishlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Indikativ rejalashtirish tushunchasining umumiy e'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas.

Indikativ rejalashtirishning mohiyati va mazmuniy o'ziga xosligini ishlab chiqishning muhim nazariy-metodologik yo'nalishlari italiyalik olim B.Dallago tomonidan tadqiq etilgan. Uning ta'kidlashicha, «indikativ rejalashtirish davlat boshqaruvining ongli faoliyati sifatida ta'riflanadigan makroiqtisodiy rejalashtirishning bir turi bo'lib, uning maqsadi ma'lum vaqt o'tishi bilan umuman milliy iqtisodiyotni istalgan holatga olib kelishdan iborat»³.

Xitoylik mualliflardan birining yozishicha: «Xitoyda makroiqtisodiy rejalashtirish iqtisodiyotning xususiy va davlat sektorlarini uyg'unlashtirishga asoslangan. Davlat korxonalarining faoliyati iqtisodiy mustaqillik sharoitida amalga oshirilishi tufayli, bizningcha, Xitoyda rejalashtirish direktiv emas, balki indikativ xususiyatga ega»⁴. Ushbu tushuncha “kechki” ittifoqdagi to'liq xo'jalik hisobida sharoitida xalq xo'jaligini rejalashtirishning talqin etilishiga, shuningdek quyidagi zamonaviy talqinga juda yaqin: «Indikativ rejalashtirish – bu mamlakat iqtisodiyotining davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga mos keladigan

² Гэлбрейт Дж.К. Экономические теории и цели общества. – М.: Прогресс, 1979 г. – 168 с.

³ Даллаго Б.. Есть ли будущее у макроэкономического планирования в Восточной Европе? // Российский экономический журнал. 1992 г. № 3. – с.105..

⁴ Цзиньвэнь Ли. Роль государственного регулирования в экономике Китая // Вопросы экономики. 1997 г. №7. – с.156..

holatini va rivojlanishini tavsiflovchi parametrlar (indikatorlar) tizimini shakllantirish va ko'rsatilgan indikatorlarga erishish maqsadida ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga davlatning ta'sir etishi chora-tadbirlarini belgilash jarayoni»⁵. Yana bir ta'rif: «Indikativ rejalashtirish shuni anglatadiki, davlat butun millat manfaatlarini yo'lida, mintaqalar, shuningdek bozor subyektlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda butun xalq xo'jaligini (shu jumladan xususiy sektorni) iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqadi; muayyan xo'jalik yo'nalishlarini, shu jumladan makroiqtisodiy parametrlarni va resurslar bilan ta'minlangan tarkibiy ko'rsatkichlarni belgilaydi. Bu bilan mulkchilikning barcha shakllaridagi tadbirkorlarning ham, mintaqalarning ham umuman jamiyat uchun muhim bo'lgan loyihalarning amalga oshirilishidagi manfaatli ishtiroki motivastiyalanadi».

So'nggi keltirilgan yondashuv amalda ikkinchi yondashuvga bog'lanadi, unga ko'ra indikativ rejalashtirish – xususiy korxonalarni davlat tomonidan ifodalangan vazifalarning bajarilishiga yo'naltirish: “Yaponiyada umumdavlat iqtisodiy rejalashtirish indikativ xususiyatga ega. Boshqacha aytganda mamlakatda ishlab chiqilayotgan umumdavlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari rasmiy qonunlar hisoblanmaydi, balki iqtisodiy tuzilmaning alohida bo'g'inlarini milliy manfaatlardagi ushbu dasturlarning bajarilishiga yo'naltiruvchi va safarbar etuvchi davlat dasturlarini o'zida namoyon etadi”⁶.

Uchinchi yondashuv tarafdorlari ko'plab mamlakatlar tajribasiga tayangan holda shuni alohida ta'kidlashadiki, indikativ rejalashtirish davlat uchun va davlat sektori uchun majburiy vazifalarni o'zida mujassam etgan. Xususiy korxonalar, xatto bu ular uchun majburiy bo'lmasada, bozor tizimidagi eng qudratli “o'yinchi” – davlatning rejasi ostida indikativ rejalashtirishga yo'naltiriladi. O'z navbatida o'tish davridagi davlat rejasini “iqtisodiyotning turli sektorlarini, birinchi galda, davlat sektorini markazlashgan tarzda boshqarishni va bilvosita tartibga solishni amalga oshiruvchi ko'rsatkichlar tizimi sifatida talqin etish taklif qilinadi. U korxonalar, tarmoqlar va respublikalar uchun faqat axborot ahamiyatiga ega bo'lgan yo'naltiruvchi ko'rsatkichlarni (nazorat raqamlarini) ham, ko'rsatmali ko'rsatkichlar – davlat buyurtmasi (tarmoqlararo va respublikalararo mahsulot etkazib berish topshiriqlarini o'zida mujassam etgan markazlashgan tarzda boshqarishning muhim shakli), me'yorlar, iqtisodiy tartibga soluvchilarni (shu jumladan narxlar, soliqlar, foiz

⁵ Хлынов В. Общегосударственное планирование рыночной экономики // Экономист. 1994 г. №4. – с.90..

⁶ Безруков В. Организация государственного планирования и регулирования экономики // Плановое хозяйство. 1990 г. № 3. –с.69..

stavkalari, iqtisodiy me'yorlarni) ham o'z ichiga oladi"⁷.

To'rtinchi yondashuvga muvofiq indikativ rejalashtirish – davlat va iqtisodiyotning boshqa subyektlarining harakatlari va manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmi. Gap shundaki, axborot ahamiyatidan tashqari bunday rejalashtirish muvofiqlashtiruvchi rolni ham o'ynaydi, ya'ni “markaz”, tarmoqlar va korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish-xo'jalik dasturlarining mustaqil ravishda ishlab chiqilishi jarayonida ular faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu nuqtai nazarga qo'shiluvchi mualliflar birinchi galda fransuz amaliyotidan kelib chiqadi, unda indikativ rejalashtirish instituti maksimal darajada rivojlangan bo'lib, uning doirasida «hukumat iqtisodiy rivojlanishga qarorlar qabul qilish va ko'rsatmalar berishdan ko'ra, ko'proq muvofiqlashtirish va axborot bilan ta'minlash orqali ta'sir ko'rsatadi. Hukumat va xususiy tadbirkorlar o'rtasida rejalar va axborot almashuvi natijasida hukumat tashkilotlari liniyasi bo'yicha o'zaro bog'liq loyihalarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy o'sish sxemasi aniqlanishi kerak. Milliy iqtisodiy reja sxemasi ana shunday umumiy ko'rinishga ega»⁸. Fransiya iqtisodiyoti bo'yicha mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, ushbu mamlakatda indikativ rejalashtirishga o'tish «davlat bilan xususiy biznes nuqtai nazarini demokratik asosda muvofiqlashtirish» imkonini berdi, ular Fransiya rejalashtirish tizimining «demokratik xususiyatiga» alohida faktologik urg'u berishadi, bu «davlat boshqaruvi organlariga xo'jalik jarayonlarini davlat byurokratiyasi bozor subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishini to'sqinlik qilmaydigan darajada tartibga solish imkonini beradi. Oddiy “yuqoridan quyiga” ierarxik tizimni o'rnatish o'rniga maslahat berish va kelishish tamoyillariga asoslangan va turli “jamoaviy manfaatlar” vakillari: davlat xizmatchilari, tadbirkorlar, kasaba uyushmalari, iste'molchilar uyushmalarining teng huquqli ishtirokini o'z ichiga oluvchi “quyidan” rejalashtirish qaror topdi. Mazkur tizimga muvofiq, reja ko'p pag'onali integrastiyalar natijasida paydo bo'ladi va uning amalga oshirilishiga nisbatan konsensusdan barcha ishtirokchilar manfaatdordir. Shu bilan birga reja ko'rsatkichlari majburiy (ko'rsatmali) hisoblanmaydi, balki kutilayotgan iqtisodiy kon'yunkturaga nisbatan iqtisodiy indikatorlar – axborot tarqatuvchilar sifatida ishtirok etadi».

Shunday qilib, indikativ rejalashtirishning muvofiqlashtiruvchi Funksiyasi asosiy Funksiya hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni

⁷ Ильина Р. Об индикативном (рекомендательном) планировании в капиталистических странах // Плановое хозяйство. 1990г. № 11. – 108 с.

⁸ Калмыков Ю. Регулирование экономики (опыт Франции) // Плановое хозяйство. 1990 г. №9. - 102 с.

axborot bilan ta'minlash, u yoki bu shaklda reja topshiriqlarini bajarishga yo'naltirish va rag'batlantirish markazlashgan-ko'rsatmali tizimda ham mavjud. Aynan davlat institutlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning teng huquqli o'zaro harakati indikativ rejalashtirishni amalga oshiradi. Rejani bajarishning majburiy emasligi hal qiluvchi rolni o'ynamaydi, eng asosiysi –korxonalar va ular birlashmalarining, shuningdek boshqa mustaqil subyektlarning, shu jumladan mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlarining rejalashtirish jarayoniga bevosita jalb etilganligi. Indikativ rejalashtirish bir vaqtning o'zida iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish instituti sifatiida ham, uni o'zini o'zi tartibga solish instituti sifatiida ham ishtirok etadi.

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirgan holda indikativ rejalashtirishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (indikatorlari) tizimini ishlab chiqishga asoslangan va uning umummilliy ustuvor yo'nalishlarini aniqlashni, maqsadni belgilashni, prognozlashtirish, byudjetlash, dasturlash, kontraktastiya hamda makr, mezo va mikrodarajada qarorlarni kelishishning boshqa tartibotlarini, rejani amalga oshirishda ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashning boshqa chora-tadbirlarini o'z ichiga oluvchi iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solishni uning bozor va nobozor yo'li bilan o'zini o'zi tartibga solishini uyg'unlashtiruvchi iqtisodiyotni boshqarish davlat va nodavlat subyektlarining manfaatlari va faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida ta'riflash mumkin (iqtisodiyotni boshqarishning nodavlat subyektlari deganda mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlari, korporastiyalar, moliya-sanoat guruhlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruv organlari, bozor ishtirokchilarining o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlari va hokazolar tushuniladi).

"Indikativ" atamasi amalda iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning bevosita emas, balki bilvosita usullarini anglatgan holda "direktiv" (ko'rsatmali) tushunchasining antonimi hisoblanadi. Indikatorlar majmuini qo'llash – bu qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhitni bilvosita shakllantirish usulidir.

Indikativ rejalashtirish sharoitida reja hujjatlari faqatgina umuman iqtisodiyot rivojini prognozlashtirishning umumiy doiralarini o'zida mujassamlashtiradi, shuningdek davlat xarajatlari va investistiyalar, davlat korxonalarining joriy xarajatlari to'g'risidagi qarorlarni qayd etadi. Bu erda rejaning bevosita vazifasi xususiy sektor xo'jalik yurituvchi subyektlarining qarorlarini bevosita belgilab bermaydigan davlat resurslaridan foydalanishni muvofiqlashtirishdan iborat bo'ladi. Biroq

makroparametrlar (shu jumladan iqtisodiy o'sishning prognoz ko'rsatkichlari) hamda davlat organlari va davlat korxonalari faoliyatining asosiy parametrlari xususiy tadbirkorlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy muhitni shakllantirishga ko'maklashishga qaratilgan. Bu shuni anglatadiki, indikativ rejalashtirish asosan talab orqali, uning rag'batlantiruvchi (yoki cheklovchi) xususiyati orqali xususiy sektorga ta'sir ko'rsatadi va faqat g'oyat bilvosita tarzda – davlat korxonalari orqali – “taklif bosimi”ning tartibga soluvchi roli namoyon bo'ladi.

Indikativ rejalashtirishning mohiyatini aniqlashda eng muhimi, u bir tomondan, raqobatlashuvchi firmalar tomonidan ishlab chiqiladigan mikrorejalarni (dasturlarni) «sintez qilish» faoliyatini o'z ichiga olishi shart. Ikkinchidan, u umummilliy rejaga mos keluvchi moliya-kredit siyosatini ishlab chiqish muammolarini qamrab ololmaydi. Uchinchidan, indikativ rejalashtirish xalq xo'jaligini rivojlantirish maqsadlarining ularga erishish vositalari bilan optimal tarzda bog'lanishini ta'minlashga qaratilgan. To'rtinchidan, rejalashtirish jarayonining o'zi ko'p sonli ko'p darajali iterastion kelishuvlarni va reja ko'rsatkichlarining muvazanatlashganligini tekshirishni nazarda tutadi.

Metodologik vositalarni o'rganish indikativ rejalashtirishning urushdan keyingi yillarda sinab ko'rilgan model vositalari va tartibot algoritmlarini qo'llash amaliyotini umumlashtiruvchi G'arbning qator yirik ilmiy ishlariga tayanishi mumkin. Ular jumlasiga uch xildagi modellar kiradi: a) bir necha o'nlab tarmoqlar nuqtai nazaridan (moddiy-ashyoviy va pul jihatlarini ajratgan holda) o'rta muddatli rejalashtirish va istiqbolni belgilashning makromodellari; b) tarmoqlararo balanslar va milliy hisobvaraqlar tizimidan foydalanish asosida olingan ularning modifikastiyalari; v) asosan optimal tarzda dasturlash modellari toifasiga kiruvchi iqtisodiy o'sishning bir darajali bo'linuvchi dinamik modellar.

Shunday qilib, indikativ rejalashtirish jarayonlarni uyg'unlashtirish (muvofiqlashtirish): a) davlat tomonidan ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan prognozlar, byudjet rejalari va makrodasturlarda namoyon etilgan mikrorejalashtirish; b) mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining prognozlari, byudjet rejalari va dasturlarida mujassamlangan hududiy rejalashtirish; v) korxonalar rejalari amalga oshiriladigan mikrorejalashtirish; g) mezorejalashtirish, ya'ni birinchi galda «megakorporastiyalar» - tarmoqlararo, mintaqalararo va xalqaro moliya-sanoat guruhlaridan kelib chiquvchi tarmoqlar, kichik tarmoqlar, hududiy-ishlab chiqarish majmualari sanoat uzellarini rejalashtirish.

Indikativ rejalashtirish – ham xo'jalik yurituvchi subyektlarning

davlat-huquqiy munosabatlari sohasiga, ham fuqarolik-huquqiy munosabatlar sohasiga taalluqli bo'lgan institutdir. U maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinib, davlat hokimiyati organlari unga nisbatan alohida tashkiliy va muvofiqlashtirish Funksiyalarini bajarsada, umuman olganda indikativ rejalashtirish nafaqat bozor xo'jaligini davlat yo'li bilan tartibga solish institutini, balki iqtisodiy o'zini o'zi tartibga solish institutini o'zida namoyon etadi. Bu erda korxonalarning roli rejaga taalluqli axborotdan foydalanish va davlat tomonidan belgilangan me'yorlarni bajarishdan iborat bo'lmaydi, xo'jalik yurituvchi subyektlar indikativ reja maqsadlarining mazmuniga va ularga erishish usullarining xususiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Indikativ rejaning makroko'rsatkichlari faqatgina bu ular manfaatlariga mos kelganligi tufayli rejani amalga oshirishda ishtirok etuvchi "ijrochilar"ga taqsimlanmaydi. Ushbu holatda indikativ rejalashtirishning markazlashgan-ko'rsatmali rejalashtirishdan farqi namoyon bo'ladi. Agar markazlashgan-ko'rsatmali rejalashtirishda bozor yordamchi rolni o'ynab, narxlar esa asosan reja-hisob Funksiyasini bajargan bo'lsa, indikativ rejalashtirish bozor iqtisodiyoti rivojlanishining bo'lajak traektoriyasini olidindan payqashga qaratilgan.

Xulosalar

1. Indikativ rejalashtirish fani - kelajakni aniq asoslash imkonini beruvchi reja va prognoz hisob-kitoblari tamoyillari, usullari, ularning bosqichma-bosqichligini, iqtisodiy oldindan ko'ra bilish indikatorlarini tanlashni belgilab beruvchi yagona metodologiyaga amal qiladi.

2. Ilmiy oldindan ko'ra bilish – bu tabiat, jamiyat va tafakkur qonunlarini bilishga asoslangan haqiqatni oldindan aks ettirishdir.

3. Prognoz, ya'ni hodisa rivojining istiqbollarini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot oldindan ko'ra bilishning bir shakli hisoblanadi.

4. Reja – bu oldinga qo'yilgan maqsadga erishish chora-tadbirlari to'g'risida qaror.

5. Dastur – bu hodisa rivojining maqsadli yo'nalishlari va ularga erishishning rejalashtirilayotgan yo'llari tizimi.

6. Indikativ rejalashtirishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (indikatorlari) tizimini ishlab chiqishga asoslangan va uning umummilliy ustuvor yo'nalishlarini aniqlashni, maqsadni belgilashni, prognozlashtirish, byudjetlash, dasturlash, kontraktastiya hamda makro-, mezo- va mikro darajada qarorlarni kelishishning boshqa tartibotlarini, rejani amalga oshirishda ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi

subyektlarni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashning boshqa chora-tadbirlarini o'z ichiga oluvchi iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solishni uning bozor va nobozor yo'li bilan o'zini o'zi tartibga solishini uyg'unlashtiruvchi iqtisodiyotni boshqarish davlat va nodavlat subyektlarining manfaatlari va faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida ta'riflash mumkin.

Tayanch tushunchalar

Indikativ rejalashtirish, prognozlashtirish, iqtisodiy tahlil, ilmiy oldindan ko'ra bilish, reja, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, strategik qaror, markazlashgan-rejali tizim, kon'yunktura prognozi, resurslar, fors-major holat, iqtisodiyotni tartibga solish institutlari, nazariy-metodologik, direktiv, indikatorlar, milliy iqtisodiy reja, davlat boshqaruvi organlari, jamoaviy manfaatlar, ierarxik tizim, makroparametrlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Ilmiy iqtisodiy oldindan ko'ra bilish va uning tarkibi qanday?
2. Prognoz, reja va dasturning mohiyati va maqsadi qanday?
3. Prognoz, reja va dasturning o'zaro bog'liqligi nimada?
4. Davlat iqtisodiyotni qanday choralar orqali tartibga soladi?
5. Iqtisodiyotni tartibga solishda indikativ rejalashtirishning ahamiyatini qanday tushunasiz?
6. Indikativ rejalashtirishning mohiyati va maqsadi nimada?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konstepsiyasi. Xalq so'zi. 13.11.2010, №220(5135).
3. Basovskiy L.E. Prognozirovanie i planirovanie v usloviyax rinka. Uch.posob. M.: 2006.-260 s.
4. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Zohidov G'.E. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash.-T.: TDIU,2010.- 216b.
5. Kadirov A.M. Metodologicheskie podxodi k analizu strategii sostialno-ekonomicheskogo razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (3 str).

6. Chepel S.V. Alternativnie ssenarii i strategii dolgosrochnogo razvitiya natsionalnoy ekonomiki. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana.-T.: IPMI,2010 (17 str).

7. Xodiev B.Yu va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

2-bob.

JAHON IQTISODIYOTIDA INDIKATIV REJALSHTIRISHNING EVOLYUTSION RIVOJLANISHI VA TARTIBGA SOLINISHI HAMDA ULARNING HOZIRGI HOLATI

2.1. Indikativ rejalashtirish shakllarining evolyusiyasi.

**2.2. Jahonda, shu jumladan O'zbekistonda
prognozlashtirish va rejalashtirishning holati.**

**2.3. O'zbekiston Respublikasida indikativ rejalashtirish
konsepsiyasi.**

2.1. Indikativ rejalashtirish shakllarining evolyustiyasi

Zamonaviy prognozlar va rejalar o'tmishdagilaridan birinchi galda asoslash metodologiyasi bilan farq qiladi. Prognozlar va rejalarini asoslash darajasining oshishi kelajak timisolini ishlab chiqishga nisbatan to'plangan va bashariyat tomonidan foydalaniladigan ilmiy yondashuv tajribasidan dalolat beradi. Tajribani ijodiy o'zlashtirish esa – faoliyatning istalgan sohasida muvaffaqiyat garovidir. Agarda muayyan iqtisodiyotni oladigan bo'lsak, u holda ushbu sohada prognozlashtirish va rejalashtirish natijalari iqtisodiy munosabatlar qonunlari va tendensiyalarini to'g'ri tushunishga, muayyan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati sharoitlarini yaxshi bilish va hisobga olishga bog'liq.

O'tgan asrlardayoq bashariyat tomonidan jamiyatning kelajagi haqida muayyan tasavvurlar shakllantirilgan edi. Hozirgi nuqtai nazardan ushbu qarashlar sodda (qaloq) hisoblanadi, biroq kuchli falsafiy jihat ularning bugungi kunda ham dolzarbligini oshiradi. Bunday qarashlar jumlasiga Lao-Iiza, Konfustiy, Platon nazariyalarini kiritish mumkin. O'rta asrlarda klajak haqidagi tasavvurlarda ijtimoiy-texnik xomhayollar (utopiyalar)ning kuchli ta'siri (R.Bekon, Spinoza va b.) sezildi. Olamning umumiy tarqqiyoti va oldindan aytib berilajakligini e'tirof etishda regress konsepsiyasi va stikllar nazariyasi keng tarqaldi. Taraqqiyot inson ongi takomillashuvi va tashqi omillar ta'sirining natijasi sifatida tushunildi. Olamni soddalashtirilgan tarzda tushunish, ya'ni *pozitivizm* avj oldi, unda fanning oldindan aytib berish Funksiyasi tahlil va tashxisdan kelib chiqdigan mantiqiy xulosa sifatida amalga oshirildi.

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muayyan darajasiga

erishilishi munosabati bilan utopizm va pozitivizm evolyustiyasidagi burilish yuz berdi. G'arbiy Evropada bu XIX asrning o'rtalarida, Rossiyada XIX asrning 80-yillarida, Xitoy, Hindiston va Osiyoning boshqa mamlakatlarida yanada kechroq sodir bo'ldi.

Hamma vaqt jamiyat rivojini prognozlashtirish bilan bir qatorda xo'jalik hayoti ham prognoz qilingan. Har qanday tarixiy davrda xo'jalik yuritish obyektining egasi o'z qarorlarining ehtimoliy oqibatlarini ko'rib chiqishi lozim edi. Masalan, hosil qanday bo'ladi, uni qanday narxda sotish va olingan daromaddan qanday foydalanish mumkin.

Albatta, davlat boshliqlari ham o'zining iqtisodiy tasavvurlariga va ularga erishish vositalariga ega edi. Ko'zlangan hukumdorlik qarorlariga erishi vositalari jumlasiga jazolar, soliqlar va sovg'alarni kiritish mumkin. Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan jazolovchi choralardan bilvosita choralarni qo'llashga o'tish ko'zga tashlandi. Oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishishning iqtisodiy vositalarini shular jumlasiga kiritish mumkin. Turli mamlakatlar boshliqlarining o'z fuqarolarining daromadlariga "ta'sir ko'rsatishi"ning turli choralarini, savdogarlar huquqlarining tartibga solinishini (ma'lum turdagi tovarlarni mamlakatga olib kelish va undan olib chiqish uchun ruxsat), birjalar va banklarni tashkil etish va ularning ishlashini nazarda tutuvchi farmonlari bizga yaxshi ma'lum. Lekin XX asrning boshidan boshlab iqtisodiy prognozlashtirish va rejalashtirish imkoniyatlariga nisbatan qiziqish uyg'ondi. Agar ilgari iqtisodiyot va madaniyatni oldindan aytib ko'rib bo'lmaydi degan fikr ustunlik qilgan bo'lsa, XX asrning boshiga kelib insonlar iqtisodiyotda ilmiy oldindan ko'ra olish birinchi galda davlatning jamiyatga ta'sir etishi uchun, shuningdek firmaning ishlarini boshqarish uchun ham keng imkoniyatlarni yaratishini tushuna boshlashdi. Mamlakatimizda sodir bo'lgan voqealar iqtisodiy fikrga katta turtki berdi. Ushbu bosqichni batafsil ko'rib chiqamiz.

O'z rivojlanishi jarayonida urushdan keyingi davrda indikativ rejalashtirish aralash iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solishning turli bosqichlariga mos keluvchi turli shakllar orqali o'tdi. YaIMdagi davlat xarajatlarining oshishiga qarab byudjetning iqtisodiy o'sish sur'atlariga va ulushiga ta'sirining kuchayishi bilan bog'liq kon'yunktura shakli indikativ rejalashtirishning tarixan birinchi shakli bo'ldi. Iqtisodiyotlarni tarkibiy qayta qurish va ularning jadal rivojlanishi sharoitida byudjetlarni soliq tushumlarini baholashning asosida yotuvchi xalq xo'jaligini prognozlashtirish ko'rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish zarurati paydo bo'ldi. Bu hol o'rta va uzoq muddatli prognozlarning ishlab

chiqilishiga olib keldi, masalan, Yaponiyada «Milliy daromadni ikki marta oshirishning o'n yillik rejasi» (1961–1970), Kanadada «Iqtisodiy o'sish yo'llarini tanlash» (1976–1985), AQShda Mehnat vazirligining 1986–1995 yillarga mo'ljallangan prognozi shular jumlasidandir. Prognoz faoliyatining takomillashuvi va murakkablashuviga qarab u byudjetlashdan ham uslubiy, ham tashkiliy jihatdan ajrala boshladi: agar dastlabki bosqichda milliy iqtisodiy rejalar (prognozlar) moliya vazirliklarida tuzilgan bo'lsa, 60-yillarning boshidan boshlab maxsus reja organlari (Fransiyada rejalashtirish bo'yicha Bosh komissariat, Kanadada Iqtisodiy kengash, Yaponiyada Iqtisodiy maslahat kengashi, Niderlandiyada Markaziy reja byurosi va h.k.) tuzildi. EIda rejalashtirish tezda milliy darajadan yuqoriga chiqdi, Ittifoq organlari mintaqa xo'jaligini rivojlantirishning qisqa va o'rta muddatli dasturlarini tayyorlay boshlashdi va ular asosida milliy iqtisodiyotlar uchun tavsiyalar tayyorlandi. 1962 yilda «1960–1970 yillarga mo'ljallangan Elni iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari» paydo bo'ldi, so'ngra 1971–1975 va 1976–1980 yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli iqtisodiy siyosat dasturlari ishlab chiqildi.

Selektiv tarkibiy siyosat doirasida soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashning boshqa choratadbirlaridan foydalangan holda xususiy korxonalar va hududiy hokimiyatlarning indikativ rejalarini bajarishga kirishish mos ravishda indikativ rejalashtirishning tarkibiy shaklini yuzaga keltirdi. Undan foydalanishda Yaponiya katta muvaffaqiyatlarga erishdi; mamlakat hududini yalpi rivojlantirishning dastlabki rejasi (1960–1970 yillarga mo'ljallangan) 1962 yilda paydo bo'ldi. Unda va 1969 yilda qabul qilingan ikkinchi rejada (1969–1985 yillarga mo'ljallangan) asosiy sanoat markazlaridan uzoqda joylashgan hududlarda “o'sish polyuslari”ni barpo etish konsepsiyasiga asos solindi. Uchinchi rejaning asosida “integrastiyalashgan” joylashtirish konsepsiyasi yotadi, 1987 yilda esa «Xalqaro uyg'unlikka erishish maqsadida Yaponiya iqtisodiyotining tarkibini isloh qilish dasturi» yoki «Maekava ma'ruzasi» tasdiqlandi⁹. Shunday qilib, aniq maqsadga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, shu jumladan ishlab chiqarishni hududiy faollashtirish chorak asr mobaynida davlat iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi bo'lib qoldi. 80-yillar boshida yuz bergan moliya tizimini erkinlashtirishdan keyin ham Yaponiya faol va uzoq muddatli tarkibiy siyosatni amalga oshirishdan voz kechmadi. Yaponiya Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1987 yil 30 iyunda

⁹ Соколова И. О взаимодействии федеральной и местной властей в региональных экономических программах //США: экономика, политика, идеология. 1994 г. № 1. – 83 с.

tasdiqlangan va joriy asrning oxirigacha bo'lgan davrga mo'ljallangan «Milliy rivojlanishning to'rtinchi rejasi»da ham avvalgi uchta rejadagi kabi hayotning barcha sohalarida mamlakatni rivojlantirishning asosiy maqsadlari ifodalandi. Ushbu maqsadlar ichida eng asosiysi “Davlat hududini rejali rivojlantirishning mavjud muammolari va uning xavfsizligini ta'minlash zaruratidan kelib chiqib uning o'ziga xos imkoniyatlaridan foydalanishning ko'p qirraligiga erishish, shuningdek mamlakatning asosiy hududlarida aholi, iqtisodiyot va davlatning ma'muriy Funksiyalarining haddan tashqari jamlanishiga barham berish yo'li bilan alohida hududlar o'rtasidagi aloqalarni va xalqaro miqyosda hamfikrlilikni chuqurlashtirish yo'lida uning hududini rivojlantirishning multipolyarligiga erishish”dan¹⁰ iborat. Indikativ rejalashtirishning tarkibiy shakliga nisbatan huddi shunda evolyustiya Franstiyada yaqqol ko'zga tashlandi: mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, 70-yillarning boshidan boshlab «indikativ reja jamiyat farovonligini yaratuvchi davlatning rejasi hamda davlat siyosatiga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning tarmoq va mintaqaviy kichik tizimlari daromadlari va xarajatlarining harakatlarini muvofiqlashtirish usuli sifatida ko'rib chiqila boshladi. Boshqa so'z bilan aytganda rejaning majburiy va prognoz jihatlari aniq bo'lingan»¹¹.

Aralash iqtisodiyotning rivojlanishi va bozorlarning globallashuviga qarab indikativ rejalashtirish o'zining strategik shakliga ega bo'ladi. Franstiyada strategik rejalashtirish g'oyasi birinchi marta o'ninchi indikativ rejada o'z aksini topdi (1989–1992): har biri turli xildagi moliyaviy preferenstiyalar bilan ta'minlangan maqsadli davlat dasturi maqomiga ega bo'lgan rivojlanishning oltita asosiy yo'nalishi belgilandi (milliy valyutani mustahkamlash va bandlikni ta'minlash, ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, aholini ijtimoiy himoyalash, hududni obodonlashtirish, davlat xizmatlarini yangilash). Strategik rejalashtirish Funksiyasi Amerika hokimiyat organlari tomonidan ham shunga o'xshash tarzda talqin etiladi: «muvaffaqiyatli raqobatga erishish, har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, to'liq ishonchga va shtat va mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy ko'magiga asoslangan iqtisodiy siyosatning samaradorligiga maksimal tarzda ko'maklashish uchun yangi qarorlarni qidirib topish»¹².

So'nggi yillarda yuz bergan moliyaviy larzalar shuni ko'rsatdiki,

¹⁰ Соколова И. О взаимодействии федеральной и местной властей в региональных экономических программах //США: экономика, политика, идеология. 1994 г. № 1. – 83 с.

¹¹ Евграшин А. Из практики французского индикативного планирования // Российский экономический журнал. 1998 г. №2. – 84, 85 с.

¹² Соколова И. О взаимодействии федеральной и местной властей в региональных экономических программах //США: экономика, политика, идеология. 1994 г. № 1. – 83 с.

bozorlarning baynalminallashuviga qarab bozor mexanizmlari rolining kuchayishi kredit-moliya tizimi inqirozga yuz tutishining xavfini keskin oshiradi. Bugungi kunda, shu tariqa, nafaqat milliy darajada, balki xalqaro darajada ham xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish zarurati kuchaymoqda. Evropa uning iqtisodiyotini yagona valyuta tizimiga moslashtirishdan manfaatdordir, Yaponiya esa surunkali tarkibiy tanglikni boshdan kechirmoqda. Shu munosabat bilan ayrim g'arb olimlari kapitalistik mamlakatlar iqtisodiyotlarini erkinlashtirish davridan so'ng rejalashtirishning roli kuchayishini bashorat qilishmoqda¹³.

Shu nuqtai nazarda O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning "Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, **"Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzhang"** degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik. Eng muhimi, parokandalik va boshboshdoqlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'tish davrida aynan davlat **bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab oldik**" deb ta'kidlashi ushbu yo'nalishdagi ishlarga muhim zamin bo'ladi.¹⁴

Indikativ rejalashtirishning bir shakldan boshqasiga o'tishi uning etuklik darajasi oshishini, barcha tegishli tartibga solish institutlari o'zaro harakatini yo'lga qo'yish choralari nazarda tutadi. Kapitalistik mamlakatlarda indikativ rejalashtirish shakllarining evolyustiyasi («kon'yunktura» – «tarkibiy» – «strategik») o'n yilni egalladi. O'zbekistonda hozircha gap faqat kon'yunktura shaklining unsurlari haqida borishi mumkin, bu davlatning so'nggi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining umumiy liberal yo'naltirilganligiga mos keladi.

Shunisi diqqatga sazavorki, «indikativ rejalashtirish» atamasidan prognozlashtirish, byudjetlash, dasturlash va kontraktastiya (shartnoma asosida davlat xaridlari)ni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida foydalanilmaydi. Davlat yo'li bilan tartibga solishning ushbu vositalari, indikativ rejalashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lsada, alohida olib qaralganda ham, o'z yig'indisi bo'yicha ham unga o'xshamaydi. Ular indikativ rejalashtirish tizimidan tashqarida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin, biroq ularni amalga oshiruvchi tartibotlar indikativ rejani ishlab chiqish va amalga oshirishda ancha samaralidir.

¹³ Сенчагов В. О японском опыте управления (размышления после командировки) //Вопросы экономики. 1990 г. № 5. – 142 с.

¹⁴ Каримов И.А. "Жаҳон молиявий – иқтисодий инқрози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари" Ўзбекистон. 2009, 7-бет.

Shunday qilib, indikativ rejalashtirishni «legallashtirish» va uning tarkibiy shaklining qaror topish evolyustiyasi respublikamizda xo'jalik mexanizmini rivojlantirishning eng zarur yo'nalishlari hisoblanadi. Iqtisodiy muammolar hal etilib, O'zbekiston iqtisodiyotini texnologik va institustional modernizastiyalash nihoyasiga etgach indikativ rejalashtirishning yanada erkin (strategik) shakliga o'tish zarur.

Rossiyada Sovet davlatining dastlabki yillaridan boshlab mamlakat miqyosida rejalashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi organ – Butunittifoq Xalq Xo'jaligi Kengashi (VSNX) uzoq istiqbolga mo'ljallangan GOELRO rejasi iqtisodiyotni qayta tashkil etish va rivojlantirishning jahonda dastlabki ilmiy istiqbolli yalpi reja bo'ldi.

1921 yilda yangi iqtisodiy siyosat (nep)ga o'tish bilan sobiq ittifoqda Davlat reja qo'mitasi va joylarda tashkil etilgan reja organlari narx-navo siyosati, soliqlarni yuritish, kreditlar va moddiy rag'batlar yordamida ishlab chiqarish va pul muomalasiga faol ta'sir ko'rsata boshlashdi. Bu davlatning markazlashtirilgan rejalashtirish imkoniyati bozor iqtisodiyoti unsurlari bilan uyg'unlashgan qisqa davr edi. Lekin asta-sekin mamlakatda, kutilganidek, markazning rejalashtirishdagi roli kuchaydi. Yillar bo'yicha bo'lingan besh yillik rejalarni tasdiqlash amaliyoti mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Rejalashtirish dastlab kollektivlashtirish, so'ngra sanoatlashtirish vazifalarini hal etishga yo'naltirildi, lekin umumiy maqsad xalq xo'jaligini rekonstruktsiya qilish va insonlar turmushini qayta qurishdan iborat edi.

Ulug' Vatan urushidan keyin sobiq ittifoqda rejalashtirishning xususiyati tubdan o'zgardi: mamlakatning harbiy salohiyatini mustahkamlash manfaatlari yo'lida xalq xo'jaligi ulushlarini tez va sezilarli darajada o'zgartirish uchun zarur bo'lgan qat'iy tendensiyalar kuchaydi. Reja tizimi orqali davlat, birinchi galdagi vazifa – harbiy qudratni mustahkamlash vazifasini hal etgan holda, resurslar cheklangan sharoitda qisqa muddatlarda aholini oziq-ovqat minimumi bilan ta'minlashni tashkil etishga erishdi.

Urushdan keyingi yillarda rejalashtirishda, xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish vazifalari dastlabki o'ringa surilgan bo'lsada, fan-texnika taraqqiyoti masalalariga e'tibor kuchaytirildi.

Rejalashtirishdagi yangi bosqich mamlakatda faoliyatning asosiy parametrlari bo'yicha buyruqbozlik boshqaruv saqlanib qolgan holda joylarda tashabbus va mustaqillikning rolini oshirishga e'tibor qaratilgan 60-yillarning o'rtalaridan boshlandi. Bunday o'zgarishga obyektiv holatlar sabab bo'ldi: jamiyatda erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat darajasi

mamlakatni, shu jumladan iqtisodiyot sohasida demokratlashtirishni talab qildi. Joylarda tashabbusni kengaytirish va reja ko'rsatkichlarining rag'batlantiruvchi rolini oshirishdan bir maqsad ko'zlandi – turli mintaqalarda ishlovchi turli tarmoqlar korxonalari faoliyati sharoitining o'ziga xos xususiyatlarini to'liqroq hisobga olish. Biroq rejalashtirishning yangi tartibida hamon markazning etakchilik roli saqlanib qoldi.

Mamlakat xalq xo'jaligini rejalashtirishdagi murakkab davr jamiyat rivojlanishining ob'ktiv qonunlari boshqarishning davlat mexanizmiga, shu jumladan markazlashgan tarzda rejalashtirishga zid bo'lib qolgan 70-yillarning oxiridan 80-yillarning o'rtasigacha kuzatildi. Jamiyatning ilg'or qismi davlat hokimiyatini tubdan o'zgartirish zarurligini anglab etdi.

Sobiq ittifoqda davlat tomonidan rejalashtirish ko'proq prognozashtirishga tayandi. Masalan, tabiiy resurslar, fan-texnika taraqqiyoti, demografik va ijtimoiy siljishlar prognozlari asosida ishchi kuchini to'ldirish, aholining turmush tarzi, ishlab chiqarish fondlari, iqtisodiy o'sish sur'atlari, tarmoqlararo alohalarda tarkibiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish kuchlarni joylashtirishning iqtisodiy prognozlari tuzildi. Korxona darajisida prognozashtirish asosan genetik xususiyatga ega edi. Rivojlanish tendensiyalarini yaxshilash, masalan, yangi texnika va texnologiyalarni qo'lashni *jadallashtirish* yuzasidan istaklar ko'rinishida prognozashtirishning me'yoriy usulidan foyddalanildi. Umuman olganda iqtisodiy prognozashtirishning sho'rolar amaliyoti uchun «tonnel dunyoqarash» xos bo'lib, unda hisob-kitoblarda iqtisodiy munosabatlarning haqiqiy qonuniyatlari hisobga olinmadi, talab va taklifning o'zgarishlari haqidagi ma'lumotlar noma'lum edi, narxlar qat'iy belgilangan edi, prognozlar parametrlari esa alohida korxona ishining samaradorligini aks ettirmadi.

Sostialistik lager tarkibiga kiruvchi turli mamlakatlar rejalarini muvofiqlashtirish masalalari, shuningdek milliy iqtisodiyotlarni integrastiyalash, ularning hamkorligi va o'zaro yordam ko'rsatishini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish bilan shug'ullauvchi yagona organ – Iqtisodiy O'zaro yordam Kengashi (SEV)ning tashkil etilishi prognozashtirish va rejalashtirish amaliyotidagi muhim voqea bo'ldi.

Sobiq ittifoq xalq xo'jaligini rejalashtirishning boy tajribasini umumlashtirgan holda, nafaqat uning yaqqol ustunlik tomonlarini, balki davlat miqyosidagi rejali xo'jalik kamchiliklarini ham ta'kidlash lozim.

Rejali xo'jalikning *ustunlik tomonlari* quyidagilardan iborat edi:

- rejalarda jamiyatni rivojlantirish ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarining

o'zaro bog'liqligi;

- kuchlarni faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini bajarishga jamlash;
- muammoni hal etishga nisbatan yalpi yondashuv;
- uzluksiz istiqboliy va joriy rejalashtirish imkoniyatlarining hisobga

olinishi;

- tarmoq va hududiy yondashuvlarning uyg'ulashuvi;
- mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni muvazanatlashtirishga urinish.

Mamlakatning rejali tizimi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan xatolarning oldini olish umidida tashkil etildi. Amalda shunday bo'lib chiqdiki, rejali tizimda muvazanatlashuvga erishishga intilishda xatolarning soni nafaqat kamaymaydi, balki ular yanada tez-tez uchraydigan va yanada jiddiy xatolarga aylanadi.

Markazlashgan tarzda rejalashtirishning *kamchiliklari* jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tovar-pul munosabatlari rivojlanishi tabiiy qonunlari va tendensiyalarining etarlicha hisobga olinmasligi;

• “har qanday yo'l bilan reja” tamoyili bo'yicha faoliyat maqsadi rejaning iqtisodiy munosabatlar ustidan o'ziga xos fetishi sifatida reja rolining ortishi;

- turli mintaqalar korxonalari to'liq faoliyat yuritishi uchun maydonning mavjud emasligi va yuzaga kelgan rejalashtirish tizimining beso'naqayligi;

• zahiralar, tashabbus, mikrodarajaning xilma-xilligini hisobga olmaydigan rejalashtirishning metodologik jihatdan zaifligi;

- kuchlarning boshqaruvchi partiya tomonidan tanlangan maqsadlar foydasiga olib qo'yilishi;

• hayotning boshqaruvchi partiya tomonidan istiqbolsiz deb e'tirof etilgan alohida tomonlari, masalan, kibernetika, genetikaning unutilishi;

- reja ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, aniqlashtirish va ularning barqarorligini qo'llab-quvvatlash uchun kuchlar, vaqt va mablag'larning ko'p sarflanishi.

Biroq sobiq ittifoqning davlat tomonidan rejalashtirish tajribasi markazlashgan tarzda rejalashtirishning istiqbolsizligini isbotlab berdi, u jamiyat rivojiga to'sqinlik qilgan holda, davlatning ishlab chiqarish omillaridan foydalanish borsaida cheksiz taqsimlovchi huquqqa ega bo'lishiga, qat'iy markazlashuvga, investistiyalar, ishlab chiqarish va iste'mol, ish haqining belgilanishi va narxlarning qotirilishi ustidan nazorat qilinishiga, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun rejalarning

ortiqcha tabaqalashtirilishiga, tasdiqlangan ko'rsatmalarga muvofiq o'zining iqtisodiy manfaatlariga zid ravishda harakat qilishga majbur bo'lgan korxonalar mustaqilligining cheklanishiga, iqtisodiyotning ko'plab sohalari, shu jumladan tashqi savdoning monopollashuviga olib keldi. Shu tariqa yagona davlat rejasining ustunliklarini pirovardida uning kamchiliklari bosib ketdi. Iqtisodiyotning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va markazlashgan tarzda rejalashtirish bir-biriga o'xshash bo'lib qoldi.

Lekin, sobiq ittifoqda davlat yo'li bilan markazlashgan tarzda rejalashtirishning salbiy baholanishiga qaramay uning ustunlik tomonlari jahonning boshqa mamlakatlari tomonidan e'tirof etildi. Xorijiy mamlakatlarning ayrim iqtisodchilari hamon bunday rejalashtirishning ustunlik tomonlari va to'liq foydalanilmagan imkoniyatlari haqida o'z fikrini bildirishda davom etmoqda. Bunday nuqtai nazar tarafdorlari shundan kelib chiqishadiki, murakkab industrial stivilizastiya markazning aralashuvisiz hal etilmaydigan muammolarni keltirib chiqaradi. Ularning hisoblashlaricha, agar markazlashgan muvofiqlashtiruvchi organ mavjud bo'lmasa, u holda jamiyat hayoti tartibsiz ko'rinish olishi mumkin. Shuning uchun turli mamlakatlar markazlashgan tarzda rejalashtirish imkoniyatlariga yana takror qaytishi ehtimoldan holi emas, lekin buyruqbozlik davlat tomonidan rejalashtirish shakllari, albatta, rivojlanishning yangi omillari bilan belgilangan holda boshqacha bo'ladi.

Sobiq ittifoqda prognozlashtirish korxona darajasiga nisbatan ko'proq davlat darajasida rivojlandi. Prognozlar turli ITI bo'limlarida, laboratoriyalarda va OO'Yu kafedralarida ishlab chiqildi. Prognoz ishlanmalarining boshqaruv muammolari yuzasidan tahliliy tadqiqotlar bilan xufyona organik bog'liqligini ta'kidlash mumkin. Prognozlar faoliyatning turli sohalarini: gidrometeorologiya, geologiya, tibbiyot, ekologiyani qamrab oldi, kosmosni o'zlashtirish sohasida ilmiy-texnikaviy prognozlar, sostiologik, demografik, iqtisodiy, arxitektura va shahar qurilishi, ichki va tashqi siyosiy, harbiy prognozlar ishlab chiqildi. Ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy prognozlar rivojlanishning istiqboliy rejalari va dasturlarini ishlab chiqish amaliyotida, xalq xo'jaligini boshqarish organlarining ishida qo'llanildi.

Barcha prognozlar ichida 15 yillik davrga mo'ljallangan prognozlarning ulushi katta bo'ldi. Prognozlashtirishning ekstrapolyastiya, ekspert yo'li bilan baholash kabi usullari va "maqsadlar daraxtlari" usullaridan keng foydalanildi.

Yuqoridagi fikrlar negizida prognozlashtirish va rejalashtirish amaliyotining qator kamchiliklarini ko'rsatish mumkin:

- prognozashtirish nazariyasi va amaliyoti masalalarining etarlicha ishlab chiqilmaganligi;
- prognozashtirishni rivojlantirish, shu jumladan axborot almashish va kadrlar tayyorlash yuzasidan amalga oshiriladigan sa'y-harakatlarning etarlicha muvofiqlashtirilmaganligi;
- prognozlar ijrochilarining prognozashtirishning ko'plab usullari haqida to'liq bilimga ega emasliklari;
- prognozlarni ishlab chiqish uchun axborot bazasining torligi, ko'plab ma'lumotlarning sir tutilishi;
- prognozlarning ayrim turlarini bajarish uchun katta xarajatlar qilinishi;
- prognozlarni ishlab chiqish maqsadlarining aniq ifodalanmasligi, ko'pincha prognoz va reja ko'rsatkichlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikning mavjud emasligi;
- retrospektiv va prognoz axborotidan foydalanishda istiqbollarning o'zgarib turishi;
- prognozlarni bajarish uslubiylari va tartibotlarining etarlicha ishlab chiqilmaganligi.

Shunday qilib, iqtisodiy o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish evolyustiyasi iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarga anglab etish uchun muammolar, yutuqlar va kamchiliklardan tarkib topgan boy materialni taqdim etadi.

2.2. Jahonda, shu jumladan O'zbekistonda prognozashtirish va rejalashtirishning holati

Hozirgi vaqtda, birinchidan, korxona darajasida prognozashtirish va ko'rsatkichli rejalashtirishni qo'llash mumkinligi va zarurligi hamda, ikkinchidan *davlat darajasida* prognozashtirish, indikativ rejalashtirish va dasturlashni qo'llash mumkinligi haqidagi nuqtai nazar keng e'tirof etilmoqdi.

Iqtisodiyotda prognozashtirish va rejalashtirish g'oyasi umuman olganda oqilona hisoblanadi. Lekin tajriba shuni ko'rsatdiki, ko'rsatkichli rejalashtirish faqat firma darajasida amalga oshirilishi kerak. Bu firma ichki rejasining ayrim o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq, ya'ni u:

- 1) muvaffaqiyatga erishish uchun to'liq javobgar hisoblangan xususiy mulkdorning topshirig'i sifatida tuziladi;
- 2) qonun bilan kafolatlangan bitimlar bo'yicha sheriklarni tanlash va ular bilan sotuvlar narxini kelishish erkinligi sharoitida amalga oshiriladi;

3) doimiy xaridorlar talabi orqali tekshirilib turiladi;

4) masala bo'yicha mavjud barcha ijtimoiy-iqtisodiy axborot qaror qabul qiluvchi va ularning oqilonaligi uchun to'liq javob beruvchi shaxs tomonidan to'planishi va anglab etilishi mumkin bo'lgan hollarda ishlab chiqiladi.

Biroq ushbu xususiyatlar mamlakat miqyosida deyarli namoyon bo'lmaydi. Davlat yo'li bilan markazlashgan tarzda rejalashtirish faqat harbiy holat yoki bozor qonunlari, xususan raqobatning ta'siri normal amal qilmagan boshqa alohida davrda foydali bo'ladi. Iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishning ikkita usuli mavjud: majburlash bilan bog'liq markazlashgan tarzda rahbarlik qilish va shaxslarning ixtiyoriy hamkorligi. Bozor iqtisodiyotiga ikkinchi uchun xosdir.

Prognozda va rejada eng asosiysi – bu ularda obyektiv hayotni, shu jumladan uning turli holatlarini aks ettirishning aniqligi. Biroq iqtisodiy muhit hamma vaqt ko'plab turli o'zaro ta'sir etuvchi va bir birini istisno etuvchi omillar ta'siriga duchor bo'ladi va barcha ushbu sa'y-harakatlar xo'jalik yuritish obyektni ishning o'zgarib turuvchi sharoitlariga uzluksiz ravishda moslashtirishga yo'naltirilishi lozim. Lekin, agar prognoz uchun bu, uning ehtimoliy xususiyatga egaligi tufayli, qo'rqinchli bo'lmasa, reja uchun esa bu barbod bo'lishni anglatadi.

Prognozlar va rejalar voqealardan ilgarilab tuziladi, lekin ularning asosiligi ushbu voqealarga mos kelish darajasiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotida voqealarning prognoz qilinish darajasi ushbu holat stoxastik xususiyatga ega bo'lganligi bois, past. Shuning uchun eski axborotni hisobga olgan holda tuzilgan prognozlar va rejalar real hayotda o'zgarishlar yuz berganida, aniqliklar kiritilishi kerak.

Davlat darajasida ishlab chiqilgan ko'rsatkichli reja bilan qanday holat yuz beradi? Davlat tomonidan rejalashtirish sharoitida albatta markazning ko'rsatmasi paydo bo'ladi. Nuqtai nazarlarning xilma-xilligi o'z o'rnini birxillikka bo'shatib beradi. Lekin jamiyatda birxillik – bu bo'lajak inqiroz garovi, iqtisodiy rejalarining birxilligi esa raqobatning nihoyasini anglatadi. Davlat yo'li bilan markazlashgan tarzda rejalashtirish yo'liga g'ov bo'luvchi ikkita katta muammo mavjud: birinchisi – birxillik, ikkinchisi esa – raqobat.

Har qanday tizim, shu jumladan iqtisodiy tizim faqat xilma-xillik sharoitida barqaror bo'ladi. Bugungi kunda ularni tushunmaslik yoki kelajakni bilmaslik tufayli insonlarga tasodifiy, xato va hatto zararli tuyulayotgan holat keyinchalik g'oyat istiqbolli va ilg'or bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun jamiyatga xilma-xillik zarur. Lekin davlatning

markazlashgan rejasi buni ta'minlay olmaydi. Mashhur iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotining laureati Fridrix fon Xayekning ta'kidlashicha, rejalashtirish uchun rejalashtiruvchi organ xalqqa puxta ishlab chiqilgan, ilgari mavjud bo'lmagan ahloq qadriyatlari kodeksini taqdim etishi lozim.

Boshqacha aytganda, davlat rejasining maqsadlari umumbashariy ahloq tushunchalariga zid bo'lgan vazifalarga erishishiga ham yo'naltirilishi mumkin. Ushbu vazifalar, albatta, umumiy foyda haqidagi to'g'ri shiorlar bilan ifodalanadi, lekin amalda ular faqat insonlarning kichik guruhi vakillari uchun asosiy ne'matlarga erishishni nazarda tutadi. Zarur natijaga tezroq erishish istagi bilan izohlanuvchi markazlashgan tarzda rejalashtirishga intilish o'zining ortiqcha vazifalarini tezroq hal qilishni istovchi insonlarni shakllantiradi. Ularni qanday qilib oqilona hal etish mumkin? Albatta, insonlarning alohida guruhi nuqtai nazaridan kamroq ahamiyatga ega bo'lgan boshqa vazifalarni hal etish uchun mablag'larni kamaytirish hisobidan. U holda kosmosni o'zlashtirish "er" manfaatlarini cheklash hisobidan yuz berishi, harbiy vazifalar – fuqarolik vazifalari hisobidan, qishloq xo'jaligi vazifalari – sanoat vazifalari hisobidan, kichik biznes vazifalari - o'rta va yirik biznes vazifalari hisobidan hal etilishi lozim. Bu taqqoslash, albatta, mubolag'a, lekin u aslida to'g'ri: ayrim vazifalarni faqat sa'y-harakatlarni birlashtirish hisobidan oqilona hal etish mumkin, bu resurslarning etishmasligi tufayli boshqa sohalar rivojining cheklanishiga olib keladi. Bunday yondashuv o'z o'zidan ijtimoiy hayot qonunlarini cheklangan tarzda tushunishdan dalolat beradi.

Bozor sharoitida davlat tomonidan rejalashtirishning yana bir muammosi – bu bozor o'zgarishlarining harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan raqobatning mavjudligi. Davlatning markazlashgan rejasida o'zaro raqobatchi hisoblangan turli firmalar manfaatlarini hisobga olish mumkinmi? Albatta, raqobatchi firmalarning maqsadlari bir biriga zid va bozorni raqobatdan mahrum etib ham bo'lmaydi, chunki raqobat tovarlar muvazanati narxini shakllantirgan holda, bozor muhitining dinamikligini belgilab beradi va bozor jarayonlariga turg'unlikni kasb etadi.

Indikativ (tavsiya beruvchi) reja yoki ehtimoliy xususiyatga ega bo'lgan prognoz alohida shaxslar harakatlariga qaraganda ko'proq hayotdagi holatlarga bog'liq. Shuning uchun indikativ rejalashtirish imkoniyatidan firma darajasida ham, davlat darajasida ham foydalaniladi.

Mamlakat miqyosida indikativ reja prognoz rolining ortishi iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, markazning muvofiqlashtiruvchi

harakatlari zarur bo'lgan iqtisodiyot ko'lamlarining obyektiv ehtiyojlari bilan belgilanadi. Jahonda erishilgan fan-texnika taraqqiyotining darajasi korxonalar, tarmoqlar va mamlakatlar iqtisodiy choralarining yuqori darajada muvofiqlashtirilishini talab qiladi. Raqobat sharoitida sarmoyani jamlashning kuchayishi bu bilan vaqt, maqsadlar va resurslar bo'yicha bog'langan qo'shma harakatlarni asoslashning yanada sifatli usullarini qo'llash uchun shart-sharoitlar yaratgan holda texnologik yangiliklarning ommaviy tarzda joriy etilishini rag'batlantiradi. Davlatning indikativ rejasi va prognozi ko'rsatmali rejadan farqli o'laroq bozorning harakatlantiruvchi kuchlari – harakatlar erkinligi, mulk va raqobatga ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun ular iqtisodiy hayotning dinamikligiga erishish vositasi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shuning uchun mana bir necha o'nlab yillar mobaynida davlat darajasida indikativ rejalashtirish aksariyat mamlakatlar tomonidan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda prognozashtirish ikki xil shaklda bo'ladi: *markazlashgan* (Kanada, Shveytariya va b.) va *markazlashmagan* (AQSh, Germaniya va b.)

Qator mamlakatlarda prognozlarni ishlab chiqishga xos bo'lgan umumiy belgilarni ko'rib chiqamiz. AQShda prezident apparatida statistikasiy bo'lim mavjud bo'lib, u davlat boshlig'i uchun prognoz ma'lumotlarini tayyorlaydi. Amerika kongressida fan-texnika taraqqiyoti oqibatlarini baholash Byurosi faoliyat yuritadi. Bu erda maslahat-axborot xizmatlari ko'rsatuvchi muassasa, prognozlarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan ko'plab muassasalar (bo'limlar) tashkil etilgan. Ularni tashkil etish 60-yillarda avjiga chiqdi. Biroq keyinchalik ushbu muassasalarning yuztasiga yaqini o'z faoliyatini saqlab qoldi. Mamlakatda hukumat muassasalari yoki xususiy korporastiyalar uchun prognozlarga sharnoma buyurtmalari amaliyoti ustunlik qiladi. Bundan tashqari, ayrim shtatlarda 70-yillardan boshlab shtatlarni rivojlantirishning uzoq muddatli yig'ma prognozlarini ishlab chiqish uchun maxsus komissiyalar va markazlar tashkil etilgan. Prognoz axboroti bilan almashish "Kelajak olami" xilidagi turli ilmiy jamiyatlar orqali amalga oshiriladi. Prognozashtirish nazariyasi va amaliyoti masalalari bo'yicha qator jurnallar chop etiladi. AQShda 60-yillarda qator manfaatdor vazirliklarning birgalikdagi rejali harakatlarini nazarda tutuvchi RDB (rejalashtirish – dasturlash – byudjetlash) tizimidan foydalanishga urinib ko'rildi. Keyinchalik hukumat bir necha marta rejalashtirish imkoniyatlariga murojaat etdi. Biroq mamlakatning antististiklik tartibga solishdagi muvaffaqiyatsizligi rejaga qarshi kayfiyatning o'sishiga olib

keldi. Shuning uchun AQShda davlat yo'li bilan tartibga solishning zamonaviy nazariyasi oldida quyidagi muhim masalalarni hal etish zarurati turibdi:

- amaldorlar apparatining byurokrtiyasi, korrupstiyasi va mikrodarajada qarorlar deformastiyasining oldini olgan holda davlatning iqtisodiyotga o'z vaqtida va samarali ta'sirini qanday qilib ta'minlash mumkin;

- volyuntarizm, byudjet-soliq bosimi va davlat qarzining ortib ketishiga yo'l qo'ymagan holda raqobat erkinligi, tashabbus va tadbirkorlik, mehnat qilish, investistiyalar va innovastiyalarga qiziqtirishni qanday qilib ta'minlash mumkin.

Buyuk Britaniyada iqtisodiy prognozlashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi universitetlar qoshida bir necha ilmiy va prognoz markazlari tashkil etilgan.

Germaniyada prognoz markazlari ichida o'z ahamiyati bo'yicha Jahon iqtisodiyoti instituti hamda kasaba uyushmalari birlashmalarining Iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar instituti ajralib turadi. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi axborot almashuviga katta e'tibor qaratiladi.

Hozirgi vaqtda jahonda jamiyat hayotining turli sohalarida, shu jumladan iqtisodiyotda prognozlashtirishni amalga oshiruvchi qudratli xalqaro tashkilotlar tashkil etilgan. "Futuribl" xalqaro uyushmasi, Kelajakni tadqiq etish qo'mitasi, Rim klubi va boshqalar katta nufuzga ega.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kon'yunktura prognozlari alohida o'rin tutib, ularda: 1) alohida tovar bozorida, 2) iqtisodiyotning muayyan sektorida, 3) jahon bozoridagi iqtisodiy vaziyat baholanadi. Prognozlarda nafaqat rivojlanishning obyektiv yuzaga keladigan tendenstiyalari, balki bozorni davlat yo'li bilan tartibga solishning ehtimoliy oqibatlari ko'rib chiqiladi.

Jahon xo'jalik yuritish tizimi hozirgi vaqtda nafaqat prognozlashtirish, balki rejalashtirish imkoniyatlaridan ham faol tarzda foydalanmoqda. Rejalarni ishlab chiqishda quyidagi usullar qo'llaniladi: a) makrorejalashtirish; b) mezorejalashtirish, ya'ni tarmoqlar, kichik tarmoqlar, hududiy-ishlab chiqarish majmualari, "metakorporastiyalar"dan hosil bo'luvchi sanoat uzellari, ular jumlasiga tarmoqlararo, mintaqalararo va xalqaro moliya-sanoat guruhlar kiradi; v) hududiy rejalashtirish, ya'ni mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining prognozlari, byudjet rejalari va dasturlari; g) firma darajasida mikrorejalashtirish. Jahonning qator mamlakatlarida bir necha o'nlab yillardan buyon samarali

foydalanilayotgan indikativ rejalashtirish tajribasi alohida e'tiborga loyiq.

Chet el amaliyotida rejalashtirishning sho'rolar tajribasidan keng foydalaniladi. Lekin, yuqorida ta'kidlanganidek, davlatlarning hozirgi rejalari ko'rsatmali xususiyatga ega emas. Rejalashtirishga nisbatan munosabat ko'p jihatdan shu bilan bog'liqki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda (masalan, AQShda 30-yillardagi "Buyuk qatag'ondan" keyin) takomillashuv va bozor mexanizmlarining o'zini o'zi tartibga solishiga ishonch yo'qoldi. Mutaxassislar ichida bozor iqtisodiy muvazanatga erishishni qiyinlashtiruvchi barham etilmaydigan nuqsonlarga ega degan fikr ustunlik qila boshladi. Ularning hisoblashlaricha, aynan davlatning bozorni tartibga soluvchi institutlarni ma'lum takomillashtirish yo'li bilan aralashuvi vaziyatni o'nglashi mumkin. Davlatning iqtisodiyotga bunday aralashuvini insonlar tomonidan biologik qonunlardan foydalanilishi bilan taqqoslash mumkin: biologiyada selektsiya tirik mavjudodlar evolyustiyasi jarayonini ko'p marta jadallashtirish imkonini beradi. Iqtisodiyotda ham: institutlarni tashkil etish va davlatning tegishli siyosati mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlariga erishish vaqtini qisqartirishi mumkin. Shuning uchun hozirgi vaqtda ko'plab davlatlar prognozlashtirish, byudjetlash, dasturlash va kontraktatsiya (shartnoma asosida davlat xaridlari)dan faol tarzda foydalanmoqda.

Davlat va firmaning prognoz va reja ishining yo'nalishlari vaziyatni rivojlantirish va barqarorlashtirish vazifalari bilan belgilanadi. Shuning uchun tadbirkorlik tuzilmalari bilan davlat hokimiyati o'rtasida manfaatlarni yaqinlashtirish usullarini topish va indikativ rejalashtirishga xos bo'lgan shartnoma munosabatlarining imkoniyatlaridan foydalanishga o'tish kuzatilmoqda. Bir tomondan, tijorat munosabatlari firmaga rejalashtirishdan faoliyatning samarali yo'llarini tanlash va asoslash bo'yicha boshqaruv Funktsiyasi sifatida foydalanishni belgilab beradi, ikkinchi tomondan esa, istalgan firma rahbariyati bozor muhitida o'zining barqaror mavqeiga ega bo'lish uchun butun jamiyatning xo'jalik munosabatlari rejalarida o'z ishtirokining maqsadga muvofiqligini tushunadi. O'z navbatida ko'plab mamlakatlar hukumatlari o'z davlat buyurtmalarini bajarish, davlat dasturlarida aks etgan va mamlakat indikativ rejasiga kiritilgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziflarni hal etishga eng ishonchli tadbirkorlik tuzilmalarini faol jalb qilishmoqda. Prognozlashtirish va rejalashtirishning zamonaviy amaliyoti rivojlangan matematik-statistik vositalarga tayanadi va yuzlab modellarga hamda turli hisob-kitoblar usullariga ega. Optimal dasturlash va operastiyalarni tadqiq

etish usullari keng qo'llanilmoqda.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari doirasida rejalashtirish nazariyasi va amaliyoti o'zining dastlabki bosqichlarida turibdi. O'tmishda orttirilgan tajribani yangi iqtisodiy sharoitda qo'llashning iloji bo'lmay qoldi. Bozor vazifalarini hal etishda uni yangilash uchun vaqt talab etiladi. Agar rejalashtirish tamoyillari tubdan o'zgarsa, uslubiy salohiyat kamroq o'zgaradi. Bir tomondan, bozor muvazanatiga erishish, ikkinchi tomondan, xo'jalik ichida rejalashtirish qator umumiy belgilar mavjud. Harakatlarni optimallashtirish algoritmlarining xususiyatlari bozor iqtisodiyotining ko'plab institustional xususiyatlariga qat'iy nazariy ma'no berish va ularni matematik ifodalash imkonini beradi. Shuning uchun bozor sho'ro rejalashtirish metodologiyasining ishlanmalaridan ijodiy va o'rinli foydalanishni talab etishi mumkin. Ilgari sobiq ittifoqda ishlab chiqilgan, axborot yig'ish va unga ishlov berishning davlat tizimini hisobga olgan holda EHMdan foydalanish asosida tuzilgan iqtisodiyotning optimal tarzda faoliyat ko'rsatishi tizimi (IOFKT), mutaxassislar fikriga ko'ra, unga tegishlicha ishlov berilgach, yangi iqtisodiy tizimda ham samarali bo'lishi mumkin. IOFKT asosini narxlar va iqtisodiy me'yorlar yordamida makro va mikrodarajalarda rejalarini kelishish tartibotlari tashkil etadi.

Shunday qilib, iqtisodiy oldindan ko'ra bilishning jahon amaliyoti o'zining haqiqiy ustunliklarini aniqlaguncha uning imkoniyatlarining tan olinmasligidan tortib to ma'muriy-buyruqbozlik rejimida rejaning fetishigacha bo'lgan uzoq evolyustiya yo'lini bosib o'tdi. Insonlarga rejalashtirishning jamiyat iqtisodiy hodisalarga ta'sir etishining keng imkoniyatlari oydinlashdi. Sobiq ittifoqning ushbu sohadagi tajribasi davlat tomonidan rejalashtirishning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam berdi. Hozirgi vaqtda ko'plab mamlakatlar hukumatlari o'z vazifalarini hal etish uchun dasturlash va indikativ rejalashtirishdan faol tarzda foydalanishmoqda. Jahonning sanoati rivojlangan mamlakatlari rejalashtirish va prognozlardan foydalanish orqali butun jamiyatni rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun bozor jarayonlariga ta'sir ko'rsatishga urinishadi. Firma darajasida reja ko'rsatkichlari mulkdor yoki rahbar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bu erda biznes-rejalashtirish usuli faol qo'llaniladi. Ayniqsa, yirik firmalarda strategik rejalashtirishning barqaror amaliyoti yaxshi natija bermoqda. Ushbu jahon tendensiyalari sobiq sho'rolar tuzumi mamlakatlari iqtisodiyotida ham amal qila boshladi.

Tegishli adabiy manbalar tahlili indikativ rejalashtirish evolyustiyasining mohiyati va shakllari, uning davlat yo'li bilan tartibga

solish va aralash iqtisodiyotning bozor usuli bilan o'zini o'zi tartibga solishi o'zaro nisbati yuzasidan boshlang'ich fikrlarni shakllantirishga yordam berdi.

2.3. O'zbekiston Respublikasida indikativ rejalashtirish konsepsiyasi

O'zbekiston iqtisodiy mustaqillikka erishgach mamlakatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat yo'li bilan tartibga solish zarurati muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni birtaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida ta'kidlaganidek, "O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizastiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo, "shok terapiyasi" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik."¹⁵.

Shu jumladan O'zbekiston hukumati shunga mos ravishda iqtisodiyotni markazlashgan tarzda boshqarish hamda an'anaviy rejalashtirish tartibotlaridan voz kechdi.

Hozirgi vaqda indikativ rejalashtirish konsepsiyasini amalga oshirish uchun O'zbekistonda "Davlat tomonidan prognoz qilish va O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Unda reja ishining maqsad va vazifalari, ijro etuvchi hokimiyat tomonidan ishlab chiqiladigan tizim, ushbu tizimga kiruvchi tarkibiy unsurlarning umumiy tavsifi nazarda tutilishi erak. Qonun mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalarni amalga oshirish, ya'ni milliy iqtisodiyot rivojining global muammolari bo'yicha strategik qarorlarni chuqur va har tomonlama asoslash; istiqboliy rivojlanishning muhim vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejali jamlash; dasturni amalga oshirish ishlarining butun stikli vazifalarini muvofiqlashtirish va ularning hal etilishini ta'minlash; oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etishda xo'jalik

¹⁵ Каримов И.А. "Жаҳон молиявий – иқтисодий инқрози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари" Ўзбекистон. 2009 й, 7-бет.

yurituvchi subyektlar, respublika mintaqalari va markaziy hokimiyat organlarining faoliyatini uyg'unlashtirish.

Indikativ rejalashtirish tizimi – hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga mos keluvchi iqtisodiyot holatini va rivojlanishini tavsiflovchi indikatorlarni (ko'rsatkichlarni) shakllantirish hamda ushbu indikatorlarga erishish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat yo'li bilan tartibga solish choralarini belgilash hisoblanadi.

Haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy holatni baholashdan tashqari, indikatorlar quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim:

- iqtisodiyotning samarali rivojlanishi va aholining ijtimoiy farovonligi darajasini belgilash;
- ijro etuvchi hokimiyat organlarining harakatlarini rejalashtirish;
- rejalashtirilgan natijalarga erishish ustidan nazorat qilish;
- tartibga soluvchi ta'sir etish choralarini ko'rish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining samaradorligini baholash.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solishning turli darajalariga muvofiq indikatorlarning quyidagi tizimi belgilanishi mumkin:

1. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi (1-daraja – «Respublika»). U umumlashtirilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va respublika ko'rsatkichlarning cheklangan doirasi (yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiyotda ko'zda tutilayotgan tarkibiy siljishlar, iqtisodiyot real sektori tarmoqlarining rivojlanishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar va ijtimoiy ko'rsatkichlar) bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

2. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi (2-daraja – «Tarmoq»). Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi tarmoqlar, tarmoqlararo majmualar, shuningdek respublika aholisiga xizmatlar ko'rsatish sohasi rivojlanishining muhim yo'nalishlarini aks ettiradi.

3. Respublika tumanlari va shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi respublika mahalliy tuzilmalari hududlari iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining rivojlanishini tavsiflaydi (3-daraja – «Hudud»). U hudud tumanlari (shaharlari), aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar o'z ichiga oladi.

4. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi

indikatorlari tizimi (4-daraja – «Xo'jalik yurituvchi subyekt»). Mazkur tizim iqtisodiyot real sektorining nodavlat va davlat korxonalari hamda ijtimoiy soha tarmoqlari byudjet tashkilotlari (muassasalari)ning rivojlanish indikatorlarini o'z ichiga oladi.

Indikatorlar tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak. Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solishning ushbu darajasi uchun indikatorlarning yagonaligi va majburiyligi. Ikkinchidan, indikatorlar yiriklashish va maydalashish qobiliyatiga ega bo'lishi, qiyoslanadigan bo'lishi lozim. Indikatorlar aniq o'lchovga ega bo'lishi, ya'ni aniq va o'lchanadigan bo'lishi kerak. Umuman olganda indikatorlar tizimi ijtimoiy-iqtisodiy soha faoliyatining barcha jihatlarini yalpi tavsiflanishini ta'minlashi zarur. Shuningdek, indikatorlar tizimi ixcham, moslashuvchan, boshqaruvning har bir darajasida sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarni aks ettirishga qodir bo'lishi lozim.

Indikatorlar manzilli bo'lishi hamda vazirliklar va idoralar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining Funksional faoliyati bilan bog'liq bo'lishi kerak. Indikatorlar ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini, xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy o'sishni ta'minlashga va respublika aholisining turmush darajasini oshirishga yo'naltirishi lozim. Boshqaruvning har bir darajasi uchun indikatorlar soni cheklangan bo'lishi kerak.

Indikativ rejalashtirishni joriy etishdan maqsad davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini va xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish va respublika aholisining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarining uyg'unligini ta'minlashdan iborat.

Indikatorlarni shakllantirish vaqtga ko'ra bog'langan jarayon. Ushbu holatda boshqaruv obyektining holatini tavsiflovchi yagona indikatorga erishish maqsadi qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida indikativ rejalashtirish tizimining joriy etilishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi lozim.

1-bosqich - «Tayyorgarlik». U indikativ rejalashtirish tizimini joriy etishga doir normativ-huquqiy bazani shakllantirish, uslubiy tavsiyalarni va respublika, tarmoqlar, tumanlar, shaharlar hududlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari tizimini ishlab chiqish, indikatorlar chegara qiymatlariga erishish monitoringini yuritishni tashkil etish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

2-bosqich - «Indikativ rejalashtirish tizimi». 2-bosqich tadbirlari rejalashtirishning asosiy unsurlarini ishlab chiqishga qaratilgan, bular: prognozashtirish jarayonini takomillashtirish, byudjet va investitsiya jarayonlarini, davlat buyurtmalarini boshqarish, tarmoqlar, hududlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning respublika dasturlari va indikativ rejalarini shakllantirish.

3-bosqich - «Indikativ boshqarish tizimi». Indikativ boshqarish tizimining to'liq stiklini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimini shakllantirish natijasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlarining ro'yxati va chegara qiymatlari aniqlanishi kerak. Iqtisodiy o'sish konsepsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari ro'yxatini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Indikatorlar ro'yxati respublika Hukumati tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq har yili qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

O'zbekiston uchun optimal hisoblangan indikativ rejalashtirish tizimini asoslash uchun uslubiy asoslarni indikativ rejalashtirish tizimining asosiy unsurlarini ko'rib chiqish lozim.

Xulosalar

1. Bir qator etakchi rivojlangan mamlakatlarda (shu jumladan Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiyada) urushdan keyingi davrda yaxshi rivojlangan indikativ rejalashtirish bozor iqtisodiyotini davlat yo'li bilan tartibga solishning muhim vositalaridan biri sifatida o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatdi.

2. Iqtisodiy oldindan ko'ra bilishning jahon amaliyoti o'zining haqiqiy ustunliklarini aniqlaguncha uning imkoniyatlarining tan olinmasligidan tortib to ma'muriy-buyruqbozlik rejimida rejaning fetishigacha bo'lgan uzoq evolyustiya yo'lini bosib o'tdi.

3. Hozirgi kunda O'zbekistonda bozor islohotlari tegishli tajriba va uni aks ettiruvchi ushbu sohadagi uslubiy asoslarni o'rganish faollashmoqda. Indikativ rejalashtirish konsepsiyasini amalga oshirish uchun O'zbekiston "Davlat tomonidan prognoz qilish va O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

Tayanch tushunchalar

Ko'rsatmali-markazlashgan tarzda boshqarish, boshqarishning soliq yuki, davlat xaridlari, xufyona iqtisodiyot, bozor stixiyasi, industrial

rivojlangan korporativ-kapitalistik iqtisodiyot, mexanizmlar, bozor iqtisodiyotini davlat yo'li bilan tartibga solishning iqtisodiy munosabatlari, iqtisodiy prognozlar, pozitivizm, YaIM, o'rta va uzoq muddatli prognozlar, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, o'rta muddatli iqtisodiy siyosat dasturlari, integrastiyalashgan, Maekava ma'ruzasi, multipolyarligi, strategik rejalashtirish, bandlikni ta'minlash, kredit-moliya tizimi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Iqtisodiyotda indikativ rejalashtirishdan foydalanishning qulayligi va kamchiligidan sabablari nimada?
2. Indikativ rejalashtirish nazariyasi qaysi davrlarda, qanday sabablar ta'sirida shakllandi?
3. Davlat tomonidan markazlashgan tarzda rejalashtirishning ijobiy va salbiy tomonlarini tushuntiring.
4. Etakchi rivojlangan davlatlarda prognozlashtirishning qanday shakllari mavjud?
5. O'zbekistonda prognozlashtirish va rejalashtirishning holati qanday?
6. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida indikativ rejalashtirishning tashkiliy-huquqiy va uni joriy etishning holati qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonuni. 1993 yil 2 sentyabr, 915-XII-son.
4. Jumaev N.X., O.Q. Abduraxmonov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademnashr, 2010.—160b.
5. Knish M.I., Perekatov B.A., Tyutikov Yu.P. Strategicheskoe planirovanie investitsionnoy deyatel'nosti: Ucheb. posobie. – SPB.: Izd. dom "Bizness – Pressa", 1998. – 315s.
6. Xlinov V. Obshegosudarstvennoe planirovanie rinochnoy ekonomiki // Ekonomist. 1994 g. №4. -90 s.
7. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh, 2007 y, 2008 y "O'zbekiston", - Toshkent.; 2008, 2009.

3-bob.

BOZOR XO'JALIGIDA REJALASHTIRISH METODOLOGIYASI VA ULARNI TASHKIL ETISH

3.1. Indikativ rejalashtirish metodologiyasining tizimi.

3.2. Bozor sharoitida muvozanatlashgan rejalashtirishning zaruriyati.

3.3. Dasturiy-maqсадli rejalashtirish.

3.1. Indikativ rejalashtirish metodologiyasining tizimi

Indikativ rejalashtirish metodikasi indikativ rejalashtirish metodologiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Indikativ rejalashtirish metodikasi – bu barcha darajadagi prognozlar, dasturlar, rejalar va reja ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish tizimining vaqt chegaralarini ishlab chiqish, asoslash va tahlil qilish usullarining yig'indisi. Indikativ rejalashtirish usuli deganda uning yordamida rejalashtirishning qandaydir muammosi hal etilib, prognozlar, dasturlar va reja ko'rsatkichlarining son qiymatlari hisoblab chiqiladigan muayyan usul, texnik yondashuv tushuniladi.

Indikativ rejalashtirish muammolarining tarkibida farqlar mavjudligi tufayli prognozlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqishning bir necha usullaridan foydalaniladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: ekspert (baholash) yoki evristik usullar; ijtimoiy-iqtisodiy tahlil usullari; to'g'ridan-to'g'ri muhandislik-iqtisodiy hisob-kitoblar usullari; balans usuli; iqtisodiy-matematik usullar va modellar; tizimli tahlil va sintez usullari.

Ekspert (baholash) yoki evristik usullar. Mazkur usullar bilvosita va to'liqsiz axborotdan, ekspert-mutaxassislar tajribasidan, ichki hissiyotdan foydalanishga asoslangan. Quyidagilar ulardan foydalanishning muayyan shakllari hisoblanadi:

a) ommaviy baholash – aholi alohida guruhlarining sostiologik tadqiqotlar jarayonida rejalashtirishning qandaydir muammosining mohiyati yuzasidan fikrlarini aniqlash;

b) ekspertlarning muntazam ishlashini (qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining ekspert komissiyalari, institutlarning Ilmiy kengashlari va h.k.) tashkil etish.

Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil usullari. Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil ijtimoiy-iqtisodiy haqiqatni har tomonlama o'rganishni, ijtimoiy munosabatlar va ishlab chiqarishni rivojlantirishning ilg'or tendensiyalarini va ularni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida hodisalarning ichki aloqalari va bog'liqligini bilishni o'zida namoyon etadi.

Tahlil chog'ida taqqoslash, strategik rejalashtirish, guruhlash, yirik obyektlarining ishlarini tanlab o'rganish, balans ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish, indekslarni hisoblab chiqish, regressiya va korrelyatsiya koeffitsientlarini hisob-kitob qilish kabi usullardan foydalaniladi.

To'g'ridan-to'g'ri muhandislik-iqtisodiy hisob-kitoblar usullari bozor ehtiyojlari uchun mahsulotning muayyan turini ishlab chiqarishni, shuningdek uni ishlab chiqarish imkoniyatlarini batafsil asoslashdan iborat. Sanoat korxonalarida bunday hisob-kitoblar ishlab chiqarish quvvatlari, xomshyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, mehnat resurslari (xodimlar)dan foydalanishni yaxshilash; mahsulot tannarxini pasaytirish va hokazolarni qamrab oladi.

Muhandislik-iqtisodiy hisob-kitoblar ichida ishlab chiqarish, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini, qimmatli qog'ozlar, foydalaniladigan kredit resurslarining daromadlilikini hisoblab chiqish alohida o'rin tutadi.

Balans usuli. Balans usuli deganda o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning bog'lanishini va muvofiqlashtirilishini ta'minlash uchun foydalaniladigan usullar yig'indisi tushuniladi. Ushbu usullarning maqsadi – ko'rsatkichlar o'rtasida muvazanatga erishishdan iborat.

Balans usuli milliy iqtisodiyotning rivojini tahlil va prognoz qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Uning yordamida mamlakatda moddiy va moliyaviy oqimlar harakatining yo'nalishlarini aniqlash, iqtisodiyotda moddiy-ashyoviy va qiymat ulushini belgilash, ijtimoiy ehtiyojlar, bozorning moddiy ne'matlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishning moddiy asosini yaratish uchun ishlab chiqarish turli omillarining zarur o'sishini hisoblab chiqish mumkin.

Iqtisodiy-matematik usullar va modellar. Iqtisodiy-matematik usullar ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni, iqtisodiyotning muvozanatini tahlil qilish, iqtisodiy o'sishni prognoz qilishning o'ziga xos usullarini namoyon etadi. Quyidagilar muhim iqtisodiy-matematik modellar hisoblanadi: milliy hisoblar tizimi, balans jadvali, mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni taqsimlashning tarmoqlararo balansi, moliyaviy resurslar va xarajatlar balansi, tarmoq modellari va h.k.

Chiziqli va chiziqsiz matematik dasturlash usullaridan ham keng foydalaniladi. Chiziqli dasturlash yordamida ishlab chiqarishni rejalashtirish vazifalari muvaffaqiyatli hal etiladi: belgilangan mehnat va moddiy resurslar bilan mahsulot ishlab chiqarishning optimal dasturini tuzish, uskunalarni optimal darajada ish bilan ta'minlash.

Iqtisodiyotdagi bog'liqlarning aksariyat ko'pchiligi chiziqsiz xususiyatga ega. Shuning uchun dasturlashning chiziqsiz (parametrik), dinamik, stoxastik kabi boshqa turlari ham foydalanish mumkin.

Tizimli tahlil va sintez usuli. Strategik rejalashtirish usuli sifatida tahlil va sintezning o'ziga xosligi iqtisodiy tizimlar va ularda kechayotgan jarayonlarni ularning tarkibiy qismlariga ajratishdan iborat bo'lib, shu asosda istiqboldagi rivojlanishning muhim muammolari aniqlanadi.

Turli darajalardagi ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish bilan bog'liq yalpi muammolar istiqbolli yalpi tahlil orqali hal etiladi. Yalpi tahlil istiqboldagi rivojlanish oldida turgan muammolarni sintez qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Tahlil va sintez yagona metodologik yaxlitlikni o'zida namoyon etadi. Tizimli tahlil va sintez indikativ rejalashtirishning balans va ijtimoiy-iqtisodiy tahlil kabi barcha muammolarini hal etishda qo'llanilishi mumkin.

Rejalashtirish mantig'i indikativ rejalashtirish metodologiyasining asosini tashkil qiladi. Strategik rejalashtirish mantig'i – bu strategik rejalashtirish muammolarini hal etish bilan bog'liq tartibotlarning tartibga keltirilgan izchilligi, asoslanganligi.

Indikativ rejalashtirish mantig'ining mazmunini quyidagi tarkibiy unsurlar ochib beradi:

1. Rejalashtirish subyektining maqsadini yoki maqsadlar tizimini aniqlash va shakllantirish.

2. Jamiyatning rejalashtirilayotgan davrdagi ehtiyojlarining hajmi va tarkibini aniqlash.

3. Rejalashtirilayotgan davr boshida mavjud bo'lgan va rejalashtirilayotgan davrda yangidan barpo etilgan resurslar hajmi va tarkibini aniqlash..

4. Ehtiyojlarni saflash va prognozlar, dasturlar va rejalar shaklidagi boshqaruv qarorlarini tayyorlash asosida vaqtinchalik ziddiyatlar, ular o'rtasidagi nomuvofiqliklarga barham berish yo'li bilan turli darajalardagi ijtimoiy-iqtisodiy kichik tizimlar ehtiyojlari va resurslarini muvofiqlashtirish, hamda muvazanashtirish.

Mantiqning birinchi unsuri rejalashtirish subyektlarining dasturlari va rejalarini tuzish jarayonida amalga oshiriladi.

Rejalashtirish mantig'ining ikkinchi unsuri (strategik rejalashtirish obyektining boshlang'ich darajasini tahlil qilish) xo'jalik yurituvchi subyektlar resurs salohiyatining holati va rejadan avvalgi davrda takror ishlab chiqarish omillarining ta'siri bilan tavsiflanadi. Mantiqning ushbu unsuri iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va sur'atlarini rivojlangan mamlakatlarning ushbu ko'rsatkichlari bilan solishtirilgan holda baholash uchun mintaqalararo va davlatlararo ulushlarni, tarmoqlararo va tarmoq ichidagi o'zgarishlarni kompleks tarzda o'rganishni o'z ichiga oladi.

Jamiyatning ehtiyojlari – bu murakkab, dinamik tizim bo'lib, u quyidagi kichik tizimlardan tarkib topgan: a) moddiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyoj; b) nomoddiy ehtiyojlar.

Jamiyat mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun iqtisodiyot real sektori tarmoqlarining ehtiyojlari uning ehtiyojlarining zarur unsuri hisoblanadi (uning tarkibiga moddiy-ashyoviy shaklda ne'matlar ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi).

Joriy ishlab chiqarish ehtiyojlari “Resurslar va foydalanish” balansi asosida aniqlanadi. Ushbu balans ichki bozorda mahsulotdan foydalanishning to'liq hajmini aniqlash imkonini beradi. U mahsulotning muhim turlari va yoqilg'i resurslari zahirada natural ifodada tuziladi.

Ichki bozorda foydalaniladigan moddiy va yoqilg'i resurslarining umumiy hajmini hisoblab chiqish jarayonida (mahsulotning har bir turi bo'yicha) quyidagi formula qo'llaniladi:

$$V^r = P + I + Z_1 - E - Z_2, \text{ yoki } V^r = R - E - Z_2, \quad (2.1)$$

bu erda:

V^r – natural ifodada ichki bozorda foydalaniladigan resurslarning to'liq hajmi;

P – mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

I – mahsulotni import qilish;

Z_1 – yil boshidagi zahiralar;

E – mahsulotni eksport qilish;

Z_2 – yil yakunidagi zahiralar;

R – mahsulot resurslarining umumiy hajmi.

Jamg'arish, zahiralarini va sug'urta fondlarini oshirish uchun ishlab chiqarish vositalari va iste'mol predmetlariga bo'lgan ehtiyojlar kapital qurilishning ehtimoliy hajmini hisoblab chiqish, moddiy resurslarning joriy va sug'urta fondlarini oshirish, ilgari foydalanilgan moddiy zahiralar qoplash asosida hisoblab chiqiladi.

Istiqbolga mo'ljallangan hisob-kitoblar uchun ixtiyoridagi real pul mablag'lari, jamg'armaning ehtimoliy dinamikasi, tirikchilik minimumi, iste'mol me'yorlari, talab qayishqoqligi koeffitsientlarini hisoblab chiqish, oziq-ovqat resurslari balanslarining ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Ehtiyojlarni qondirish jamiyatda, xo'jalik yurituvchi subyektlarda tegishli resurslarning mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Ular hajmini hisoblab chiqish strategik rejalashtirish mantig'i to'rtinchi unsurining mazmunini hosil qiladi.

Rejalashtirilayotgan davrda jamiyat, uning alohida kichik tizimlari va tarkibiy unsurlari ixtiyorida bo'lishi mumkin bo'lgan resurslar ikkita guruhdan tarkib topgan: a) naqd resurslar; b) reja davrida barpo etiladigan resurslar.

Rejalashtirish mantig'ining beshinchi unsuri – resurslar va ehtiyojlarni muvofiqlashtirish, ularni o'zaro optimal muvofiqlikka keltirish.

3.2.Bozor sharoitida muvozanatlashgan rejalashtirishning zaruriyati

Rejalashtirish – davlat, boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mamlakat, mintaqalar, tarmoqlar, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyati.

So'nggi o'ttiz yildan ortiq yil mobaynida iqtisodchilar reja va bozorni uyg'unlashtirish muammosi borasida baxs-munozaralar olib borishdi. Bozor munosabatlari haqiqatga aylangach, reja va bozor – bu bir-biriga qarama-qarishi emas, balki iqtisodiy tizimning bir-birini to'ldiruvchi unsurlari ekanligi tushunib etildi. Muvazanatlashgan umumdavlat rejalarisiz pul-kredit, soliq, bojxona siyosati asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish o'zini oqlamaydi.

Davlat tomonidan rejalashtirilishi lozim bo'lgan obyektlar doirasi ancha keng. Birinchi galda – bu ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibi. Bozorning mavjud bo'lishi ulushlar va tarkibiy siljishlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin va davlat ulushlarning qanday yuzaga kelishiga befarq emas. Ijtimoiy sohada esa, eng asosiysi – iqtisodiyotning kelgusidgi rivoji aholining turli ijtimoiy guruhlari turmushiga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan ko'ra bilish, ushbu ta'sirning salbiy tomonlarini aniqlash va muhtojlarni himoyalash choralarini ko'rishdan iborat.

Jahonda rejalashtirishga bo'lgan qiziqish va e'tibor 1930-yillarga kelib kuchaydi. Bunda jahon iqtisodiy inqirozi va sobiq ittifoqda rejalashtirish tajribasining ta'siri katta bo'ldi. Makrodarajadagi dastlabki rejalar moliya-byudjet va pul-kredit sohasini qamrab oldi. Ular moliya vazirliklari tomonidan ishlab chiqiladigan milliy byudjetlarda o'z ifodasini topdi.

Belgilangan tartibga muvofiq davlat prognozlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari demografik, ilmiy-texnikaviy, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, shuningdek tarmoq, mintaqaviy va faoliyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa sohalarini aks ettiradi.

Ijtimoiy rivojlanishning tebranuvchanlik nazariyasiga muvofiq jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy holatidagi o'zgarishlar ko'p jihatdan tabiiy rivojlanishga bog'liq bo'lib, tabiiy jarayonda yuz beradi. Lekin jamiyat ijtimoiy jarayonlarni uyg'unlashtirishga, taraqqiyotning moddiy va ma'naviy yo'qotishlarini kamaytirishga qodir, bu uzoq muddatli rejalashtirishda nazarda tutiladi.

Rejalashtirish direktiv, indikativ, shartnomaviy va tadbirkorlikni rejalashtirish kabi turlarga bo'linadi.

Direktiv rejalashtirish manzilli topshiriqlarni belgilash va ularni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni reja ijrochilari o'rtasida taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Asosiy ishlab chiqarish vositalariga nisbatan davlat mulkchiligi monopoliyasi sharoitida rejalashtirish jamiyat hayot faoliyatining barcha tomonlarini qamrab oladi. Byudjetdan moliyalash, kapital qo'yilmalar me'yorlari, moddiy-texnika resurslari fondlari, davlat buyurtmalari direktiv rejalashtirishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Direktiv reja ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda uning ijrochilari asosiy rolni o'ynamaydi. Rejaning asosiy ijodkorlari reja ko'rsatkichlari bajarilishining moddiy-texnika ta'minoti yuzasidan majburiyatlarni o'z zimmasiga olishadi. Ushbu holat direktiv rejalashtirishdagi eng zaif nuqta hisoblanadi, ko'pincha rejalar uchun zarur resurslar ajratilmaydi.

Mulkchilik shakllarining xilma-xilligi sharoitida direktiv rejalashtirish unsurlari davlat sektori va byudjetdan moliyalash doirasida davlat ehtiyojlari uchun mahsulot etkazib berish; iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirish; davlat byudjetidan moliyalash uchun qabul qilingan davlat dasturlari; davlat byudjeti kabi reja hujjatlarida saqlanib qoladi.

Direktiv rejalashtirishdan uning boshqa shakllariga o'tish, birinchi galda, rejalar ishlab chiquvchilari va ijrochilari o'rtasidagi manfaatlar ziddiyatiga barham berilishini nazarda tutadi. Rejalar topshiriqlar ko'rinishida etkazilmaydi va o'z ijrochilari tomonidan ishlab chiqiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan davlat va nodavlat sektorlarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ongli ravishda boshqarish usuli sifatida indikativ rejalashtirish rivojlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari sifatida iqtisodiyotning dinamikasi, tarkibi va samaradorligini; moliya-kredit siyosatining holatini; tovarlar va qimmatli qog'ozlar bozori, valyuta bozorining holatini; narxlar harakatini; aholining bandligi va turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liq va muvazanatlashgan tizimi davlatning ta'siri choralari bilan to'ldiriladi, shu jumladan byudjet mablag'lari, amortizatsiya me'yorlari, kredit uchun foiz, soliqlar, bojxona bojlari, listenziyalar va kvotalar, davlat buyurtmalari va boshqalardan foydalaniladi.

Indikativ rejalashtirish bozor iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatishiga ta'sir etishning asosiy usuli hisoblanadi. U faqat bozor usullari bilan amalga oshirishning iloji bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan ko'plab masalalarning hal etilishini ta'minlashga qaratilgan. Bu davlat boshqaruv organlari tizimi barcha bo'g'inlarining ham o'zaro, ham mintaqaviy organlar bilan o'zaro hamkorligi shaklidir.

Indikativ rejalashtirish bozorning mustaqil subyektlarini davlat bilan mutanosib asoslarda rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb qilish usuli hisoblanadi. U tovar ishlab chiqaruvchilar, xaridorlar va umuman bozorga ta'sir etishning iqtisodiy vositalaridan foydalanishga asoslanib, davlat va xususiy sarmoya manfaatlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Indikativ reja ikkita asosga tayanadi. Bir tomondan, u dasturlar yoki alohida ko'rsatkichlarni ishlab chiqish uchun yo'naltiruvchi axborot hisoblanadi. Bu borada u tavsiyaviy xususiyatga ega: ko'rsatkichlar strategiya yoki iqtisodiy harakat to'g'risida qarorlar qabul qilishda indikatorlar sifatida foydalaniladi. Indikativ reja qamrab olgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun uning ko'rsatkichlari majburiy hisoblanadi, chunki ularni bajarmaslik rejada qo'yilgan vazifalarning bajarilmasligiga olib keladi.

Indikativ rejalar ustuvor yo'nalishlarga asoslanadi, ularning ayrimlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosati bilan belgilansa

(energetika, aviastiya, kosmik texnika), boshqalari rejalashtirish jarayonida aniqlanadi. Asoslangan ustuvor yo'nalishlar zahirida tegishli rag'batlantirish mexanizmlari ishlab chiqiladi; milliy ahamiyatga ega bo'lgan yirik loyihalar bo'yicha o'rta muddatli dasturlar doirasida davlat va xususiy sektorning birgalikdagi sa'y-harakatlari evaziga investitsiya kelishuvlari tuziladi.

Indikativ rejalashtirishda korxonalar muvofiqlashtiruvchi organga (bu ijro etuvchi hokimiyat organi bo'lishi mumkin) o'zining mahsulotni sotish (etkazib berish) to'g'risidagi takliflarini yuboradi. Agar ular qabul qilinsa, bu ikkala tomon uchun ham tegishli majburiyatlarni yuklaydi: a) muvofiqlashtiruvchi organ hajmlarni amalga oshirish va rag'batlantirish tizimiga kiritadi; b) korxona olingan majburiyatni bajarishga majbur bo'ladi. Shunga o'xshash tartib direktiv rejalashtirishda ham yuqoridan va quyidan belgilangan rejalarni uyg'unlashtirish shaklida amal qildi, farq faqat shundaki, endi reja korxonaga majburiy tartibda etkazilmaydi, balki u tomonidan ixtiyoriy ravishda qabul qilinadi.

Shartnomaviy rejalashtirish korxonalar, birlashmalar, banklar, hokimiyat va boshqaruv organlari o'rtasida ixtiyoriy va o'zaro foydali asosda quriladigan tijorat munosabatlarini tartibga soladi. Shartnomaviy munosabatlar barqaror ishlab chiqarish-iqtisodiy aloqalarni, o'zaro majburiyatlarni, ularni bajarish shartlarini shakllantiradi va bozor sharoitida rejaviylikni qo'llab-quvvatlashning kafolatlovchi xo'jalik mexanizmini yaratadi.

Shartnomaviy rejalar etkazib berish to'g'risidagi kelishuvlar, shartnomalar, ishtirok etish tizimi ko'rinishida va boshqa shakllarda amalga oshiriladi. Tegishli iqtisodiy va huquqiy asoslar: qonunchilik me'yorlari, mustaqil sud tizimi va boshqalar shartnomaviy rejalashtirishni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Ma'danli xomashyoni qidirish, razvedka qilish, qazib chiqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlash, uni tashish, ishlov berish, saqlash sotish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar mahsulotni bo'lish to'g'risidagi kelishuvlar bilan tartibga solinadi.

Investitsiya kelishuvlari ma'danli xomashyo ishlab chiqarish tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilish maqsadida tuziladi. Iqtisodiyot vazirligi hamda qo'shma korxonaning ustav fondiga zarur ulush kiritgan va to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalarni amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar investitsiya kelishuvining tomonlari hisoblanadi. Iqtisodiyot vazirligi xorijiy sarmoyaorga investitsiya kelishuvini amalga oshirish uchun ko'maklashadi.

Korxonalar, firmalar, ishlab chiqarish-xo'jalik va moliya faoliyati barcha subyektlarining samarali rivojlanish yo'llarini asoslashga va tanlashga yo'naltirilgan Funksiyasi tadbirkorlikni rejalashtirish hisoblanadi. Uning asosini firmaning turli muddatlarga mo'ljallangan tezkor, joriy va strategik vazifalarni hal etishga qaratilgan ichki rejalari tashkil qiladi.

Rejalashtirish mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning mazmunini aks ettiruvchi tegishli ko'rsatkichlarni ishlab chiqishdan iborat. Reja ko'rsatkichlari tasdiqlanadigan va hisob-kitob; miqdoriy va sifat; absolyut va nisbiy; natural va qiymat kabi turlarga bo'linadi. Ko'rsatkichlarning katta qismi hisob-kitob ko'rsatkichlaridir. Tasdiqlanadigan ko'rsatkichlar normativlar (fondlarni tashkil etish, to'lovlar, pul mablag'lari), me'yorlar (resurslarni iste'mol qilishning ruxsat etilgan yuqori hajmi va b.) va byudjetdan moliyalash hajmlari ko'rinishida ishtirok etadi.

Qiymat ko'rsatkichlari ijtimoiy ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, ulushi va tarkibini, yalpi ichki mahsulotni, milliy daromadni, tarmoqlar bo'yicha mahsulot hajmini, investitsiyalarni, chakana tovar aylanishini, foyda, eksport, import va boshqalarni tavsiflaydi.

Resurslardan foydalanish samaradorligi mehnat unumdorligi, fondning qatarilishi, material sig'imi, ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirish, daromadlilik, tannarx, rentabellikning nisbiy ko'rsatkichlari yordamida rejalashtiriladi.

Korxonalarda rejalarda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar ishlab chiqiladi:

- tovar mahsulotining o'sish sur'atlari;
- natural ifodadagi mahsulotning asosiy turlarini, shu jumladan yangi texnika mahsulotlari va eksport uchun mahsulot;
- mahsulotni sotish hajmi;
- yangi texnikani ishlab chiqish, o'zlashtirish va joriy etish bo'yicha fan-texnika dasturlarining asosiy vazifalari;
- ishlab chiqarishning umumiy hajmida oliy sifatli mahsulotning salmog'i;
- mehnat unumdorligi;
- 1 so'mlik mahsulot uchun xarajatlar;
- foyda;
- asosiy fondlarni ishga tushirish.

3.3. Dasturiy-maqсадli rejalashtirish

Maqsadli dasturlar rejalashtirishning muhim unsuri hisoblanadi. Davlat darajasidagi yig'ma maqsadli dasturlar hal etish uchun milliy iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini qamrab olgan dasturlar sifatida ishlab chiqiladi. Dasturiy-maqsadli usul yirik muammolarning hal etilishini markazlashgan tarzda boshqarishning samarali vositasi bo'lishi mumkin. U maqsadlar, ustuvor yo'nalishlarni ajratishni, reja ko'rsatkichlarida ifodalanadigan maqsad vazifalarini shakllantirishni, resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashni, oldinga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Davlat dasturlari o'ta muhim davlat vazifalarining cheklangan doirasi bo'yicha prognozlardan kelib chiqib shakllanadi, ularni moliyalash esa davlat byudjetidan va byudjetdan tashqari fondlardan amalga oshirilishi kerak. Shartnomaga ko'ra ushbu dasturlarga korxonalarni, aholini, xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish mumkin. Dasturlarning moddiy-texnika ta'minoti davlat ehtiyojlari uchun davlat shartnoma tizimi orqali davlat buyurtmasi xili bo'yicha etkazib berishlar hisobidan amalga oshadi.

Loyihalashtirish. Loyihalashtirish – rejalashtirishning barcha tartibotlarining yakunlovchi bosqichi. Uning maqsadi barcha darajalar va vaqt gorizontlari indikativ rejalarining loyihalarini ishlab chiqishdan iborat.

Reja loyihasi boshqaruv butkul obyektining holatini ilmiy jihatdan oldindan ko'ra bilishdan iborat bo'lgan boshqaruv subyektlari strategiyasini amalga oshirish yuzasidan boshqaruv qarorining loyihasini o'zida namoyon etadi. Indikativ reja – bu uzoq muddatli istiqbolda boshqaruv butkul objekti (korxona, mintaqa, mamlakat)ning holatini ilmiy jihatdan oldindan ko'ra bilish. Oldindan ko'ra bilish quyidagilarga asoslangan:

- 1) iqtisodiyot obyektlarining rivojlanishini loyihalashtirish tizimi;
- 2) muddatlar, resurslar, ijrochilar bo'yicha kelishilgan tadbirlar tizimi (strategik reja loyihasining dasturiy qismi);
- 3) iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagi qoidaga amal qilinishi kerak: boshqariladigan tizimning darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, reja loyihalarida iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika, ekologik tashqi iqtisodiy rivojlanish prognozlari tizimi bo'lishi kerak.

Strategik rejalar boshqaruv subyektlarining siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi; ularni rivojlantirish maqsadlari va yo'nalishlarini ochib berishi; umuman jamiyatni va uning alohida kichik tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bosqichlarini belgilab berishi; jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining o'lchovi, mezon sifatida ishtirok etishi ushbu rejalarining muhim o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Loyihalashtirish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish uchun tegishli boshqaruv obyektlarini rivojlantirishning turli variantlari ishlab chiqilishi kerak: a) ushbu xo'jalik vaziyatida optimal hisoblangan indikativ reja loyihasini tanlash; b) bozor kon'yunkturasi sharoitlariga mos keluvchi indikativ reja loyihasini ishlab chiqish.

Iqtisodiyotning o'tish davri sharoitida rejalarining ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirilishi o'zgarishi kerak:

- rejalar ma'muriy bo'ysundirish qurolidan muvazanatlashgan rejalashtirish vositasiga aylanadi;
- rejalar loyihalashtirishning strategik xususiyati kuchayadi (makroiqtisodiy rejalashtirishda bozor xo'jaligi sharoitida asosiy e'tibor iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishga qaratiladi);
- strategik rejalar loyihalarining ilmiy jihatdan asoslanganlik darajasi ortadi.

Tayanch tushunchalar

Bozor xo'jaligida rejalashtirish metodologiyasi, fan usullari, ilmiy tafakkur tamoyillari, indukstiya, dedukstiya, tahlil, sintez, o'xshashlik, taqqoslash, eksperiment, dialektik mantiq qonunlaridan foydalanish, vaqt gorizontlari, tizimli yondashuv, direktiv rejalashtirish, shartnomaviy va tadbirkorlikni rejalashtirish, dasturiy-maqсадli rejalashtirish, loyihalashtirish, strategik rejalar, boshqaruv.

Xulosalar

1. Indikativ rejalashtirish metodologiyasi – bu amaliy faoliyatida iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beruvchi qonunlardan foydalanish imkoniyatini o'rganish, rejalashtirish muammolarini hal etish usullari va ularni amaliyotga tatbiq etish usullarini ishlab chiqish vositasidir.

2. Indikativ rejalashtirish metodikasi – bu barcha darajadagi prognozlar, dasturlar, rejalar va reja ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish tizimining vaqt chegaralarini ishlab chiqish, asoslash va tahlil qilish usullar yig'indisidan foydalaniladi.

3. . Indikativ rejalashtirishning metodologik tamoyillari – rivojlanish qonunlarining umumiy harakatini ifodalovchi hamda dasturlar, loyihalar

va rejalarning vazifalarini, yo'nalishlarini va bajarilish imkoniyatlarini belgilab beruvchi obyektiv kategoriyaga asoslanadi.

4. Indikativ rejalashtirish - bozor iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatishiga ta'sir etishning asosiy usuli hisoblanadi. U faqat bozor usullari bilan amalga oshirishning iloji bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan ko'plab masalalarning hal etilishini va to'g'ri qarorlar qabul qilinishini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Fanni o'rganishda qanday ilmiy tamoyillarga asoslanadi?
2. Indikativ rejalashtirish mazmuni qanday tarkibiy unsurlardan tashkil topgan?
3. Indikativ rejalashtirish qanday qonuniyatlarga asoslanadi?
4. Prognozlash va rejalashtirishning zaruriyati nimada?
5. Rejalashtirish qanday maqsadlarga yo'naltiriladi?
6. Dasturiy maqsadli rejalashtirish qanday muammolarni hal etadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet tizimi to'g'risidagi Qonuni.
3. Basovskiy L.E. Prognozirovaniye i planirovaniye v usloviyax rinka. Uch.posob. M.: 2006.-260 s.
4. Evgrashin A. Iz praktiki frantsuzskogo indikativnogo planirovaniya // Rossiyskiy ekonomicheskij jurnal. 1998 g. №2. – s. 84, 85.
5. Kadirov A.M. Metodologicheskie podxodi k analizu strategii sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (3 str).
6. Xakimov Razrabotka makroekonomicheskoy modeli Uzbekistana dlya analiza i prognoza ustoychivosti razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (8 str).
7. Xlinov V. Obshegosudarstvennoe planirovaniye rinochnoy ekonomiki // Ekonomist. 1994 g. №4. -90 s.
8. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh, 2007 y, 2008 y "O'zbekiston", - Toshkent.; 2008, 2009.

4-bob.

REJALASHTIRISH BOSHQARUV VOSITASI SIFATIDA

- 4.1. Rejalashtirish tushunchasi va uning maqsadlari.**
- 4.2. Rejalashtirishning asosiy vazifalari va bosqichlari.**
- 4.3. Korxonada rejalashtirishning tarkibiy qismlari.**
- 4.4. Qishloq xo'jaligini rejalashtirishda prognozlashning ahamiyati.**

4.1. Rejalashtirish tushunchasi va uning maqsadlari

Iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo'lgan jamiyatda rejalashtirish vositasi boshqaruv jarayonida muqarrar yordamchi hisoblanadi.

Ham davlat, ham xususiy tashkilotlar murakkab vaziyatda o'z maqsadlari va o'z faoliyatini rejalashtirishi lozim. Davlat ijtimoiy xavfsizlik, transport, mudofaa, xalqaro munosabatlar sohasidagi rejalashtirish, shuningdek umumiy davlat soliqlarini rejalashtirish bilan shug'ullanadi. Xususiy korxonalarda sotish, ishlab chiqarish, saqlash, ta'minot, investitsiyalar va xodimlar rejalashtiriladi. Va, nihoyat uy xo'jaligi darajasida rejalashtirish predmeti sifatida o'z daromadi, iste'mol, mablag'larni tejash, ta'lim, qarilikni ta'minlash, mol-mulk, uy qurish va sayohatni tanlash mumkin.

Rejalashtirish muddati, aniqligi, kiritiladigan tuzatishlar va muvofiqlashuv darajasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Quyidagi belgilar umumiy hisoblanadi:

- tartibga solingan jarayon,
- axborotga ishlov berish,
- loyihani ishlab chiqish,
- muayyan maqsadlarga erishishga yo'naltirilganlik,
- kelajakka nisbatan munosabat.

Rejalashtirishning oliy maqsadi korxonaning maqsadlariga erishishning amaliy vositasi bo'lish, ya'ni mablag'lar, muqobil variantlar, shuningdek maqsadlarga erishish imkoniyatlari va xatarlarini o'z vaqtida aniqlash va tegishli tadbirlarni tanlashdan iborat.

Ushbu asosiy maqsaddan rejalashtirishning qator alohida maqsadlari kelib chiqadi. Rejalashtirishning quyidagi maqsadlari ajratiladi:

- **maqsalarning yo'naltirilishi:** rejalashtirish yo'li bilan quyi tartib maqsadlari va shaxslar hamda bo'limlar harakatlari yuqori tartib maqsadlari bilan muvofiqlashtiriladi;

- **oldindan ogohlantirish:** rejalashtirish muammolarni loyihalashtirish yo'li bilan o'z vaqtida qaror yoki preventiv choralarni ko'rish imkonini beradi;

- **alohida rejalarni muvofiqlashtirish:** rejalashtirish yordamida alohida muammolar echimlari muvofiqlashtiriladi va bu bilan ularning bir biriga o'zlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi ta'sirining oldi olinadi;

- **qarorlarni qabul qilish uchun tayyorlash:** rejalashtirish jarayonida ilgari aniqlangan muammolar tahlil qilinadi va muammolarning hal etilishiga (maqsadlarga erishishga) olib keluvchi muqobil variantlar tadqiq etiladi. Shunday qilib, eng mos muqobil variant bo'yicha qaror tayyorlanadi. Keyingi barcha qarorlar uchun bir vaqtning o'zida qarorlarni qabul qilishning muayyan doiralari qayd etiladi;

- **nazorat qilishning asosiy usullarini aniqlash:** rejalashtirish yo'li bilan rejaning istalgan parametrlarini ham prognoz bilan, ham amalda erishilgan miqdorlar bilan taqqoslash va bir vaqtning o'zida keyingi rejalashtirish uchun zaminlarni kuzatish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, rejalashtirish samarali nazoratning asosiga aylanadi;

- **xodimlar uchun axborot:** rejalashtirish yordamida xodimlarni maqsadlar, muqobil variantlar, mablag'larning ishlatilishi, cheklovlar va muddatlar to'g'risida tegishlicha xabardor qilish mumkin;

- **xodimlarni qiziqtirish:** rejani ishlab chiqish, shuningdek reja vazifalarini kelishish jarayonida hamkorlik qilish xodimlarning rejani bajarish bo'yicha ishlarini rag'batlantirish, ya'ni ishlab chiqarish va shaxsiy maqsadlarga erishishni rag'batlantirish imkonini beradi.

Rejalashtirishning yuqoridagi maqsadlaridan qator alohida vazifalar kelib chiqadi. Rejalashtirgan shaxs maqsadlar haqida, ya'ni: umuman qaysi **maqsadlarni** ko'zlash lozim, yuqori darajadagi maqsadlar qaysi **kichik maqsadlardan** tarkib topgan, alohida kichik maqsadlar o'rtasida qanaqa aloqalar mavjud, qaysi alohida kichik maqsadlar alohida afzal ko'rilishi kerak, maqsadlar **qaysi davr uchun** tanlanadi, tanlangan maqsadlar bilan qaysi **imkoniyatlar va xatarlar** bog'liqligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Rejalashtirgan shaxs o'zi, odatda, ularga ta'sir ko'rsata olmaydigan **tashqi muhit parametrlarining qaysi ko'rsatkichlari** (tabiiy hodisalar, qonunlar, bozor sharoitlari) uning harakatiga ta'sir ko'rsatishi

mumkinligini bilishi kerak. Ushbu ta'sir shundan iboratki, atrof muhit ma'lumotlari rejalashtiruvchi shaxsning ehtimoliy harakatlari doirasini cheklaydi.

Rejalashtirgan shaxs cheklovlarni va o'z korxonasini o'zgartirish mumkin emasligini ko'rsatuvchi **barcha ichki ma'lumotlarni** (korxonaning joylashgan o'ri, xodimlar, texnika, mashinalar va mexanizmlar quvvatlari, bozorning chegaralari, sotish tizimi), rejalashtirilayotigan davrda nimaga o'zgarmas ma'lumot sifatida qarash lozimligini bilishi kerak. Ularning ta'siri ham ehtimoliy harakatlar doirasini cheklashdan iborat.

Rejalashtirgan shaxs reja davri mobaynida o'zi tomonidan o'zgartirilishi mumkin bo'lgan parametrlar haqida keng axborotga ega bo'lishi lozim. Ushbu o'zgaruvchanlar qaror qabul qilishda uning faol harakatlarining markaziy kattaliklari hisoblanadi, ularni u tegishli qarorlar qabul qilish uchun mustaqil muqobil variantlar sifatida tasavvur etishi mumkin.

Rejalashtirgan shaxs ayrim muqobil qaror **maqsadga erishish uchun qanchalik ta'sir etishi mumkinligi** haqida asosli axborotga ega bo'lishi kerak. Faqatgina muqobil variantlar oldinga qo'yilgan asosiy va ikkinchi darajali maqsadlarga, quyi va yuqori darajali yoki boshlang'ich, oraliq va yakuniy maqsadlarning amalga oshirilishiga ko'maklashishi oydinlashganda, qaysi muqobil variant yoki muqobil variantlar zanjiri tanlanishi kerakligi haqida xulosaga kelish mumkin.

Rejalashtirgan shaxs **qarorlarni qayta ko'rib chiqish imkoniyatlari** to'g'risidagi axborotga muhtoj. Rejalashtiruvchi o'zi qabul qilgan qaysi qarorlar keyingi davrlarda qanday hajmda qayta ko'rib chiqilishi, modifikastiyalanishi va ularga aniqliklar kiritilishi mumkinligini bilishi lozim. Uzoq istiqbol uchun qabul qilingan va reja davrida qayta ko'rib chiqilmaydigan qarorlar muvaffaqiyatga erishish uchun xatarlar bilan bog'liq.

Maqsadlar, tashqi muhit ma'lumotlari, korxonaning ahvoli to'g'risidagi ichki ma'lumotlar, rejalashtirilayotgan o'zgarishlar, muayyan muqobil variantlarning maqsadlarga erishishga ta'siri, shuningdek rejani ehtimoliy qayta ko'rib chiqishlarning har tomonlama va muntazam tahlil qilinishi pirovardida xato qarorlarni qabul qilish xatarini pasaytiruvchi va ko'zlangan maqsadlarga erishish imkoniyatini oshiruvchi rejalarini ishlab chiqishga ko'maklashishi zarur.

Agar **rejalashtirish jarayoni boshdan oxirigacha** ko'rib chiqilsa, unda alohida **davr (faza)**larni ajratish mumkin. Har bir davr alohida

vazifalarning qo'yilishi bilan tavsiflanadi va boshqa davrlar bilan bajarilishning izchilligi va axborot almashish bilan tizimli bog'langan. Alohida davrlar vazifalarining mazmunini alohida vazifalardan chiqarish mumkin. Ularni turli darajada detallashtirilgan holda aniqlash mumkin. Birinchi yondashuvda shuni aytish mumkinki, rejalashtirish va boshqarish jarayonlari **muammolarni shakllantirish, muammolarni hal etish, ijro, nazorat va qarorning bajarilishini ta'minlash** bosqichlarini qamrab oladi. Agar ushbu bosqichlarni tabaqalashtiradigan bo'lsak, unga quyidagilar kiradigan qismlarga ega bo'lamiz:

- maqsadlarni ishlab chiqish;
- muammolarni qo'yish;
- muqobil variantlarni topish;
- prognozashtirish;
- qarorlarni baholash va qabul qilish;
- ijro;
- reja ko'rsatkichlarini aniqlash;
- amaldagi ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish;
- amaldagi va reja ko'rsatkichlarini taqqoslash (rejaning faktdan farq qilishini aniqlash);
- farqlarni tahlil qilish, tuzatishlar kiritish choralarini ko'rish.

Maqsadlarni ishlab chiqish, muammolarni qo'yish, muqobil variantlarni topish, prognozashtirish, qarorlarni baholash va qabul qilish bosqichlari rejalashtirish jarayoniga kiradi. Reja topshirig'i tanlanganidan keyin amalga oshiriladigan tadbirlar, ya'ni ijro, reja ko'rsatkichlarini aniqlash, amaldagi ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish, amaldagi va reja ko'rsatkichlarini taqqoslash, farqlarni tahlil qilish, tuzatishlar kiritish choralarini ko'rish "ijroni boshqarish" yoki "tor ma'nodagi boshqaruv" nomi bilan umumlashtirilgan. Ijroni boshqarish, shu tariqa, rejalashtirish va yakuniy nazorat, umumiy nazorat o'rtasidagi ijroni, shuningdek qarorning ijrosini ta'minlashni qamrab oladi. Nazorat, shu tariqa, ijroni boshqarish davrlaridan birini hosil qiladi.

Agar dastlabki davr boshida nafaqat ushbu davrning muqobil variantlari bo'yicha, balki qarorlar daraxti muqobil variantlarining butun zanjiri bo'yicha majburiy qaror qabul qilinsa, u holda gap qat'iy rejalashtirish haqida boradi.

Agar korxonani umumiy rejalashtirish kelgusi rivojlanish haqidagi to'liq axborot mavjud bo'lgan holatda amalga oshirilsa, bunday yondashuv maqbul bo'ladi. Chunki axborot to'g'risidagi bunday taxmin haqiqatdan

juda yiroq bo'lganligi bois, amaliyotda qat'iy rejalashtirishning zaif nuqtasi mavjudligi, xususan, kutilayotgan vaziyatlar paydo bo'lmaganda barcha keyingi qarorlar qabul qilingan va boshqa mos qarorlarni qabul qilib bo'lmaydigan holat aniqlanadi. Alohida rejalar qat'iy rejalashtirishda optimallashtirish modellaridan birining yordamida yoki tajriba asosida aniqlanadi. Qat'iy rejalashtirishning ikkala holatida ham amalda rejalashtirilayotgan muammoning optimal tarzda hal etilishiga erishishni kutish amri mahol. Rejalashtirishning ushbu usuli predmetli muvofiqlashtirishni va alohida rejalar va butun tizimning amalga oshirilajakligini ta'minlaydi.

4.2. Rejalashtirishning asosiy vazifalari va bosqichlari

Rejalashtirish vazifalarini yoritishda rejalashtirishning qator usullariga to'xtalib o'tiladi. Mazkur usullari ro'yxati va ularning rejalashtirish bosqichlariga mos kelishi 1-jadvalda keltirilgan.

Rejalashtirish jarayonining birinchi bosqichi maqsadlarni shakllantirishdan iborat.

Maqsadlarni shakllantirish – bu keyingi harakatlar uchun aniq, tarkiblangan va amalga oshirish uchun yaroqli bo'lgan me'yorlar tizimini yaratish.

Rejalashtirishda, agar aniq ifodalangan maqsadlar tizimi mavjud bo'lmasa, ushbu bosqich alohida ahamiyatga ega. “Maqsadlarni shakllantirish” bosqichi vazifalarining hal etilishi keyingi harakatlar uchun me'yorlarni aniq belgilashga yordam beradi. Agar, aksincha, maqsadlar tizimi mavjud bo'lsa, u holda rejalashtirish jarayonining birinchi bosqichidan, odatda, voz kechish mumkin. Maqsadlarni shakllantirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: maqsadlarni topish, maqsadlarga aniqliklar kiritish, maqsadlarni tarkiblash, maqsadlarning amalga oshirish imkoniyatini tekshirish, maqsadlarni tanlash.

Ularda yuqori tartibdagi boshlang'ich maqsadlar belgilanadigan tadbirlarga maqsadlarni topish deyildi. Boshlang'ich maqsadlardan turli darajadagi quyi tartibning alohida maqsadlari ajratiladi. Quyi maqsadlar yuqori maqsadlarga bo'ysunadi. Ehtimoliy maqsadlar ularning boshlang'ich maqsadlarga mos kelishini o'lchash orali muntazam tekshirilib turiladi.

Maqsadlarga aniqliklar kiritish maqsadlar mazmuni, shakllari, atamalar, alohida maqsadlar cheklovlarini yanada aniq belgilashni anglatadi. Maqsadlarga aniqliklar kiritish va maqsadlarni topish o'zaro

uzviy bog'langan. Aniq ifodalanadigan maqsadlar ancha aniq rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi va bu bilan boshqaruvning barcha vositalarining ta'sirchanligini oshiradi.

Maqsadlarni tarkiblashda barcha topilgan maqsadlarni ko'p pog'onali tartibga keltirishga intilinadi. Bunda turli maqsadlar maqsadlar ierarxiyasi (maqsadlar tizimi) bo'lishi mumkin. Maqsadlarning «teleologik» ierarxiyasi yuqori va quyi tartib maqsadlarli “maqsad va vosita” munosabatida bo'lgan holatda yuzaga keladi. Maqsadlarning mantiqiy ierarxiyasi tushunchalarning muayyan tizimini qo'llashdan kelib chiqadi. Agar R davrining foydasi quyidagicha aniqlansa:

$$R = (\text{davr daromadi}) - (\text{davr xarajatlari}),$$

u holda davr foydasi daromad va xarajatlarga qaraganda yanada yuqori tartib maqsadi hisoblanadi. Ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ierarxiya maqsadlarning yana bir ierarxiyasi bo'lib, unda yuqori tartib maqsadlari sifatida ularni amalga oshirishda yuqori ustunlik beriladigan maqsadlar ko'rib chiqiladi. Qarorlar qabul qilishdagi maqsadlar nisbatiga ko'ra maqsadlar ierarxiyasi qarorlar qabul qilish modeli uchun maqsadlarning ahamiyatini hisobga olish asosida shakllanishi mumkin. Bunda asosiy maqsadlar ikkinchi darajali maqsadlardan farq qiladi. Va, nihoyat, korxonani boshqarish unsurlari bilan shakllanadigan va korxona maqsadlari, bo'linmalar maqsadlari, bo'limlar maqsadlari va lavozim maqsadlarining ajralishiga olib keluvchi maqsadlarning tashkiliy ierarxiyasi haqida ham to'xtalib o'tish lozim. Agar boshqaruv tizimi bilan maqsadlar tizimini o'zaro muvofiqlashtirish zarur bo'lsa, maqsadlarning ushbu ierarxiyasi dastlabki o'ringa chiqadi.

Maqsadlarni tanlash (maqsadlar bo'yicha qarorlar qabul qilish) deganda qarorning pochta orqali qabul qilinishiga olib keluvchi harakatlarni tushunish lozim. Agar maqsadlarning bir necha muqobil tizimlari ishlab chiqilgan bo'lsa, u holda yuqori tartib maqsadlariga erishishni yaxshiroq ta'minlaydigan maqsadlar tizimini tanlash zarur.

Maqsadlarning amalga oshirilish imkoniyatini tekshirish tamoyili alohida maqsadlar texnik-iqtisodiy shartlar, maqsadlar tizimining tarkibi, xodimlarning mavjudligi nuqtai nazaridan erishilajakligini, amalga oshirilajakligini aniqlashga yo'naltirilgan. Tarkibiy-maqsadli jihat maqsadlarning ularning birgalikda mavjud bo'la olishligi bo'yicha munosabatlarini qamrab oladi. Bunda maqsadlar birgalikda mavjud bo'la olishi ham, bo'la olmasligi ham mumkin. Birgalikda mavjud bo'la oladigan maqsadlar xolis (betaraf) va bir-birini to'ldiruvchi maqsadlar bo'lishi mumkin. Birgalikda mavjud bo'la olmaydigan maqsadlar haqida

1-jadval

Rejalashtirish usullarini uning bosqichlariga kiritish

Rejalashtirish bosqichlari Rejalashtirish usullari	Maqsadlarni shakllantirish	Muammolarni qo'yish	Muqobil variantlarni topish	Prognoz qilish	Baholash	Qarorlar ni qabul qilish
Baholash						
O'z xarajatlarini qoplash nuqtasini tahlil qilish					X	
Investitsiya hisob-kitoblari					X	X
Foydalilik nazariyasi usullari					X	
Xatarni tahlil qilish usuli					X	X
Foyda va xarajatlarni tahlil qilish					X	
Ta'sirchanlikni tahlil qilish		X	X	X	X	X
Qarorlar qabul qilish						
Optimallashtirish usullari			X		X	X
Evristik usullar			X		X	X
Imitatsiya		X	X	X	X	X
Qarorlar daraxti usullari			X		X	X
Quyidagi sharoitlarda qarorlar qabul qilish:						
aniqlik	X				X	X
ma'lum darajadagi xatar					X	X
noma'lum xatar					X	X

gap ketganda esa raqobatlashuvchi, ekstremal holatlarda – qarama-qarshi maqsadlar nazarda tutiladi. Texnik-iqtisodiy jihat bozorning ushbu sharoiti, quvvatlar, sarmoyani qo'llash va hokazolar uchun maqsad qanchalik real tanlanganligini ko'rsatishi lozim (uning amalga oshirilish darajasi, talablar darajasi). Kadrlar nuqtai nazaridan maqsadlarni tahlil qilish ishga jalb etilgan xodimlarning malakasi va bilimi, shuningdek ularning qiziqtirilishi belgilangan maqsadlarga erishish uchun qanchalik etarli ekanligini aniqlab berishi zarur.

Shu tariqa tanlangan maqsadlar tizimi rejalashtirishning keyingi bosqichlari bilan uyg'unlashganligi nuqtai nazaridan tahlil qilinishi kerak. Rejalashtirishning keyingi bosqichlari vazifalarini bajarish jarayonida belgilangan maqsadlarning o'zgarishi yoki mutlaqo yangi maqsadlarning shakllanishi ehtimoldan holi emas, shuning uchun tanlangan maqsadlar tizimi faqat boshlang'ich bo'lishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, maqsadlarni shakllantirish bosqichida alohida muqobil variantlarga, prognozlarga, shuningdek qabul qilingan qarorlarni baholashga mos keluvchi alohida vazifalar paydo bo'ladi. Maqsadlarni shakllantirish bosqichida maqsadlarni tahlil qilishning qator usullaridan foydalanish mumkin, xususan: maqsadlar daraxti, indeksli, matristali usullar.

Muammolarni tashxis qilish (diagnostika) rejalashtirish jarayonining ikkinchi bosqichi hisoblanadi.

Muammolarni tashxis qilish – bu maqsad bilan rejalashtirishning qandaydir davri uchun obyektning prognoz qilinayotgan holati haqidagi tasavvur o'rtasidagi farqlarni aniqlash.

Ushbu bosqich maqsadlarni shakllantirish bilan bog'liq, ya'ni oldindan belgilangan maqsadlarsiz bironta muammo shakllantirilishi mumkin emas. Faqat maqsad reja topshirig'i ko'rinishida ifodalangan va belgilanganidan keyingina bundan keyin maqsadga erishish ta'minlanishi uchun qanday tadbirlar amalga oshirilishi lozimligini belgilab olish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda hozirgi vaqtda hal etilmagan va shu tariqa fanni rivojlantirish uchun muhim turtki bo'ladigan ilmiy vazifa muammo hisoblanadi. Rejalashtirish munosabati bilan muammo amaldagi holat bilan kelgusida prognoz qilinayotgan holat yoki qidirilayotgan (maqsad bilan belgilangan) rejaviy holat o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi. Agar rejalashtirishning qandaydir davri uchun, masalan, ushbu davr uchun kutilayotgan vaziyatni prognoz qilish muki bo'lsa va u oldindan belgilangan maqsaddan farq qilsa, o'lchangan farq rejalashtirish chog'ida qo'yilgan muammoni o'zida mujassam etadi. Farqning kattaligini

“muammoli oraliq” sifatida belgilash mumkin. Agar ushbu oraliqni aniqlashtirishga eltuvchi qadamlar haqida to’xtaladigan bo’lsak, ular quyidagicha tarzda yoritilishi mumkin:

Dastlab mavjud vaziyat yoritiladi va tahlil qilinadi (vaziyatni tahlil qilish).

So’ngra esa istiqbol uchun, agar mazkur davrda istalgan vaziyatni shakllantirish yuzasidan qo’shimcha tadbirlar nazarda tutilmagan bo’lsa, rejalashtirishning ko’rib chiqilayotgan davrida vaziyatning qanday o’zgarishi yuz berishi mumkinligi aniqlanadi (vaziyatni prognoz qilish).

Yakuniy maqsad ushbu davrning prognoz qilinayotgan holati bilan taqqoslanadi (muammoli oraliqni aniqlash).

Prognoz qilinayotgan holatning belgilangan maqsaddan farq qilishi muammoli oraliq hisoblanadi va u rejani ishlab chiquvchi taklif etgan tadbirlar yordamida bartaraf etilishi lozim.

Bunda prognoz qilinayotgan vaziyat muammoni hal etish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirish uchun zamin sifatida tushunilishi kerak. Muammoli oraliqlar qanchalik aniq va erta aniqlansa, ularni hal etishning muqobil variantlarini topish ehtimoli shunchalik yuqori bo’ladi.

Yalpi muammolarning hal etilishi rejalashtirishning alohida holati hisoblanadi. Ular ko’pincha muammolarni qismlarga ajratish, ularning tarkibiy qismlarini aniqlash maqsadida alohida muammolarni tahlil qilish, shuningdek ayrim muammolar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni tahlil qilish uchun sabab bo’ladi. Alohida muammolarning o’zaro bo’ysunishi muammolarning ko’rgazmali ierarxiyasini barpo etishga olib keladi, bu umumiy yalpi muammoni maqsadli hal etish uchun boshlang’ich nuqtaga aylanadi.

Muammoli oraliq sabablarni tahlil qilish usuli bilan tadqiq etilishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi: tizimli tahlil, ABC-tahlil va b.

Uchinchi bosqich muqobil variantni qidirishdan iborat. Muqobil variant – bu belgilangan maqsadga erishishning boshqa ehtimoliy usullardan farq qiluvchi usuli. Odatda, muqobil variant echimni shakllantiruvchi muayyan o’zgaruvchanlar (tadbirlar) kombinastiyalaridan tarkib topadi. O’zgaruvchanlar o’zgarganda muayyan muqobil variantga erishiladi, bunda shuni nazarda tutish lozimki, turli darajadagi muvaffaqiyatli turli muqobil variantlar maqsadga erishishga, bu bilan esa muammoning hal etilishiga olib keladi.

Muammoning hal etilishi bir necha muqobil variantlarni nazarda tutsa, ularning har biri uchun muqobil reja tuzilishi mumkin. Agar muammoni tizimli va to’liq hal etish maqsad qilinsa, u holda hamma vaqt

qaysi muqobil variantlar iqtisodiy, texnik, ijtimoiy, huquqiy va ekologik sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkinligini bilish lozim. Amalga oshirilishi mumkin bo'lgan barcha muqobil variantlar yo'l qo'yiladigan qiymatlar sohasini tashkil etadi.

Yo'l qo'yiladigan qiymatlar sohasi – bu hozirgi vaqtda rejani tuzuvchining ixtiyorida mavjud bo'lgan amalga oshirish uchun yaroqli hisoblangan ko'plab muqobil variantlar. Ushbu muqobil variantlar bir birini inkor etadigan darajada shakllantirilishi kerak.

Yo'l qo'yiladigan soha muqobil variantlarning yakuni yoki cheksiz miqdorini o'zida mujassam etishi mumkin. Biroq rejalarni tuzuvchi o'ziga xos yo'l qo'yiladigan sohani cheklashidan avval, u muqobil variantlarni aniqlash, ularni shakllantirish va tahlil qilishdek murakkab vazifani hal etishiga to'g'ri keladi. Yo'l qo'yiladigan sohani bir necha muqobil variantlar yoki bitta muqobil variant bilan muddatidan oldin va shoshilinch cheklash og'ir oqibatlarni keltirib chiqaruvchi noto'g'ri qarorlarning qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Muqobil variantning kelgusidagi oqibatlar qanday, ya'ni uning yordamida maqsadga erishishning qanday darajasiga erishish mumkinligi oqibatlarni prognoz qilish yo'li bilan belgilanishi lozim. Reja ishlab chiquvchisining ijodi ijobiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi muqobil variantlarni shakllantirishdan iborat.

Tarkibiga ko'ra sodda va kombinastiyalangan (yalpi) muqobil variantlar mavjud. Sodda muqobil variantlar ierarxik va vaqtga ko'ra alohida muqobil variantlarga yoki tadbirlarga ajralmaydi, ular muqobil zanjir bo'g'inlari hisoblanamaydi, ular vaqtga ko'ra o'zgarishdan qoladi va keyingi muqobil variantlar bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emas. Yalpi muqobil variantlar esa ierarxi yuqori yoki quyi turuvchi, vaqtga ko'ra esa o'tgan va keyingi alohida muqobil variantlarga ajratilishi mumkin yoki muqobil zanjirda bo'g'inlar bo'lgani holda avvalgi va keyingi muqobil variantlarga bog'liq bo'ladi. Lekin ular – huddi sodda muqobil variantlar singari, – odatda noaniq voqealar yoki sharoitlarga bog'liq bo'ladi, demak, ushbu muqobil variantlar ham turli sharoitlarda har xil oqibatlarga ega bo'lishi mumkin. Qarorlarni qabul qilish daraxti vaqtga ko'ra bir-birining ketidan keluvchi alohida muqobil variantlar zanjirida umumiy muqobil variantlarni aniqlashning oddiy usuli hisoblanadi. Alohida muqobil variantlar bunda ehtimoliy voqealar bilan shartlanadi.

Muqobil variantlarni qidirish deganda maqsadlarga erishish usullarini muntazam aniqlash, shakllantirish va tahlil qilish tushuniladi.

Ushbu vazifani bajarish uchun quyidagi alohida vazifalardan tarkib topgan qidiruv jarayonini amalga oshirish zarur:

- alohida g'oyalar (muammolarni hal etish yuzasidan ko'rsatmalar, yondashuvlar)ni muntazam va ko'p tomonlama qidirish;
- alohida g'oyalarni mustaqil muqobil variantlarga aylantirish;
- topilgan muqobil variantlarni aniq ifodalash;
- muqobil variantlar tarkibini va alohida muqobil variantlarning o'zaro nisbatini tahlil qilish;
- yo'l qo'yiladigan sohada muqobil variantlarni cheklash (ikkinchi darajali sharoitlar mavjud bo'lganda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muqobil variantlarni chiqarib tashlash);
- yo'l qo'yiladigan sohaning to'liqligini tekshirish.

Yo'l qo'yiladigan sohaning aniqlanishi muqobil variantlarni qidirishni nihoyasiga etkazadi. Qidirish jarayonida erishilgan natija hududiy qaror sifatida rejalashtirish, prognozashtirish va qarorlar qabul qilishni baholashning keyingi bosqichi uchun asosni hosil qiladi. G'oyalarni qidirish usullari sifatida quyidagi usullar qo'llaniladi: miya hujumi usullari, morfologik va sinektik usullar.

Rejalashtirish jarayonining to'rtinchi bosqichi – prognozashtirish.

Rejalashtirish uchun kelgusidagi ishlarning ahvoli haqida tasavvur beruvchi axborot muhim ahamiyat kasb etadi; o'z mohiyatiga ko'ra bu prognoz axboroti. Prognoz axborotining o'z prognoz deb, unga erishish jarayoni esa prognozashtirish deb nomlanadi.

Prognozashtirish va rejalashtirish ularni muayyan izchillikda bajarish qarorlarning samaradorligini ta'minlash imkonini beruvchi uslubiy usullar tizimi hisoblanadi. Bu shu bilan bog'liqki, tizimli birlikka va bosqichlarning belgilangan izchilligi: «qidiruv prognozi – normativ prognoz – strategik rejalashtirish – biznesni rejalashtirish – istiqboliy rejalashtirish – joriy rejalashtirish – tezkor rejalashtirish»ga amal qilish tashkiliy-ishlab chiqarish tizimining tashqi bozor muhiti, tashkiliy-ishlab chiqarish tizimi va uning kichik tizimlari – alohida ishlab chiqarishlar, bo'linmalarning holati bilan bog'liq noaniqliqlarni izchil ochib berishga imkon yaratadi.

Muqobil variantlarni baholash va qarorlarni qabul qilish.

Maqsadlarni shakllantirish, muammolarni qo'yish, muqobil variantlarni qidirish va prognozashtirish bosqichining vazifalari bajarilgach reja tuzuvchisi yoki reja guruhi ular maqsadining samaradorligi tekshiriladigan rejalarning cheklangan sonini ishlab

chiqadi. Amalga oshirish uchun faqat bir reja taklif etilishi mumkinligi bois ishlab chiqilgan muqobil rejalar bo'yicha qaror qabul qilish lozim.

Qaror qabul qilish – bu ikkinchi darajali sharoitlarni hisobga olgan holda maqsad qo'yilganda optimal muqobil variantni tanlash.

Ishlab chiqilgan muqobil harakatlarning barcha ijobiy va salbiy oqibatlarini chamalab eng optimal muqobil rejani tanlash zarur.

Muqobil rejani qabul qilish to'g'risidagi qaror oqilona tanlov harakati hisoblanadi. Qarorlar qabul qilish mantig'i nuqtai nazaridan baholash – bu muqobil variantlar yordamida maqsadga erishish darajasini tavsiflovchi kattalik.

Baholash natijasida ko'rib chiqish uchun qabul qilingan barcha muqobil variantlar saflanadi, bu oqilona qaror qabul qilish imkonini beradi. Ayrim holatlarda, masalan, bir necha nazarda tutilayotgan maqsadlar ko'zlanganda muqobil variantlarni darajalar bo'yicha tasniflash zarur bo'lishi mumkin. Yakuniy tanlov qaysi muqobil variantga tushishi qaror qabul qilishning qabul qilinadigan qoidalariga bog'liq.

4.3. Korxonada rejalashtirishning tarkibiy qismlari

Rejaning tarkibiy qismlari:

- maqsadlar;
- prognozashtirilayotgan ma'lumotlar;
- muammoni qo'yish;
- tasarrufdagi mavjud mablag'lar (mol-mulk va b.);
- alohida tadbirlar va ularning kombinastiyalari, rejalashtirish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar;
- vaqtinchalik sharoitlar va muddatlar;
- prognozashtirilayotgan oqibatlar.

Xo'jalik amaliyotida yakuniy shaklda rejalarining katta qismi bu erda sanab o'tilgan tarkibiy qismlarning faqat ayrimlarini o'zida mujassam etgan. Biroq rejalashtirishning asosida yotuvchi alohida rejalarda, odatda, yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlarning ko'pchiligini uchratish mumkin.

Rejalashtirishning amaliy tizimi tarkibini ko'rib chiqamiz.

Rejalashtirish tizimi – bu rejalashtirish alohida qismlarining tartibga solingan tarkibiy tuzilishi.

«Folksvagen» AJ (VAG) zavodining rejalashtirish tizimi misolida rejalashtirishning tashkiliy chizmasini ko'rsatib o'tamiz. Zavodda rejalashtirish uchun barcha bo'limlar o'zlariga belgilangan

vazifalar doirasida javob beradi. Rejalashtirish tizimining tarkibiy tuzilishi ijro etishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda alohida rejalar umumiy rejalashtirish doirasida kontrolling bo'yicha mutaxassislar (nazoratchilar) tomonidan, rejalashtirish bo'yicha konferenstiyalarda va turli komissiyalar yoki qo'mitalar doirasida muvofiqlashtiriladi. Butun korxona uchun strategik, tezkor va moliyaviy rejalashtirish mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish va korxonaning boshqa kompaniyalarda va moliyaviy operastiyalarda ishtirok etishini rejalashtirish bilan kuzatiladi. 1-rasmdan bo'limlarning korxonada rejalashtirish masalalari va Funktsional bo'linmalar rejaları uchun javobgarligi haqida ham xulosaga kelish mumkin.


Muddatlariga ko'ra rejalashtirishning quyidagi bosqichlari ajratiladi:

- strategik doiraviy rejalashtirish;
- uzoq muddatli rejalashtirish;
- o'rta muddatli rejalashtirish, byudjetni rejalashtirish, o'zgarib turuvchi qisqa muddatli rejalashtirish.

Doiraviy rejalashtirish faqat 10 yildan 20 yilgacha mo'ljallangan global maqsadlar va strategiyalarni shakllantiradi. U xalq va jahon xo'jaligi, aholi, texnologiyalar va hokazolarning taxminiy prognoz tendensiyalari asosida uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini baholash uchun xizmat qiladi. Mazkur loyihada faqat mahsulotning ayrim guruhlari bo'yicha ishlab chiqarish dasturini kengaytirish ko'zda tutilishi mumkin.

Doiraviy reja markazlashgan reja ko'rinishida muntazam ravishda yoki obyekt rejasi ko'rinishida nomuntazam ravishda ishlab chiqiladi (markazlashgan yoki markazlashmagan).

Uzoq muddatli rejalashtirish investistiyalar va mahsulot ishlab chiqarish dasturlariga mahsulotning muayyan guruhiga xos bo'lgan reja gorizontigacha muayyanlashtiradi va odatda, 10 yilgacha bo'lgan muddatni qamrab oladi. Ko'rib chiqilayotgan davrda rejalashtirish gorizontiing o'ziga xosligi yangi xildagi avtomobilni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan davrning uzoqligiga bog'liq, bu davr, jahon tajribasi ko'rsatib turganidek, uch yildan besh yilgacha cho'ziladi (maqsadni shakllantirishdan seriyali ishlab chiqarishga tayyor bo'lguncha vaqt). Bunda investistiyalarni rejalashtirish rejalashtirishning quyidagi gorizontidan o'tib ketishi mumkin: uzoq muddatli rejalashtirishning o'ziga xos ahamiyati uning strategik xususiyatga egaligida. Uzoq muddatli reja bir yilda kamida bir marta tuziladi



1-rasm. «Folkswagen» AJda umumiy rejalashtirishni tashkil etish

O'rta muddatli rejalashtirish vazifalari uzoq muddatli rejalashtirish dasturlarini amalga oshirish uchun moliyaviy, iqtisodiy va texnik nuqtai nazardan zamin hozirlashdan iborat. Uning vaqt oralig'i – besh yilga yaqin bo'lib, u birinchi galda, ayniqsa, uskunalar va xonalarni tayyorlash, maxsus vositani ishlab chiqarish va hokazolarga kapital qo'yilmalar kiritish uchun zarur vaqtga bo'lgan ehtiyojlar bilan belgilanadi. Besh yillik muddat investistiyalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun ham, kuzatuv kengashi tomonidan nazoratning amalga oshirilishi

uchun ham etarli. O'rta muddatli rejalashtirish markazlashmagan rejalashtirish ko'rinishida bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

Byudjetni rejalashtirish yo'li bilan detallar bo'yicha aniq loyiha ishlab chiqiladi va unga uzoq va o'rta muddatli maqsadlarni bajarish rejasi sifatida qaraladi. Birinchi navbatda daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi muosabatlar yoki quvvatlarni ishga tushirishning yuqori darajasi yo'naltiruvchi maqsadlar bo'lib xizmat qiladi. Byudjetdan «Management by Exception» nuqtai nazaridan boshqaruv vositasi sifatida foydalaniladi, shuning uchun ushbu turdagi rejalashtirish muddati bir oydan bir chorakkachani tashkil qiladi. Paydo bo'lgan farqlarni aniqlash va tahlil qilish «Controller-check-lists» usuli bo'yicha "reja xarajatlarini qayishqoq hisoblab chiqish" yordamida amalga oshiriladi.

O'zgarib turuvchi qisqa muddatli rejalashtirish oylik va choraklik rejalariga bo'lingan 21 oylik vaqt oralig'ini qamrab oladi. Rejalarni ishlab chiqish nazoratchilar tomonidan oylik yoki choraklik uchun amalga oshiriladi. "Qisqa muddatli rejalashtirish maqsadi – bir oy mobaynida biznesning rivojlanishini nazarda tutish, ishlar natijalari rejalaridan chetga chiqishining butun reja gorizontini rejalashtirishga ta'sirini hisoblab chiqish va ushbu rivojlanishni ixcham boshqarishdan iborat. Joriy operastiyalarni texnik va iqtisodiy moslashtirish, shu tariqa, ushbu rejalashtirishning markazida turadi. Bir vaqtning o'zida u byudjet, o'rta va uzoq muddatli rejalashtirishni o'zgartirish kiritishning doimiy vositasiga aylanadi.

Rejalashtirish jarayonining amalda bajarilishi, biroq, ayrim masalalarga aniqliklar kiritilishini talab qiladi: rejalashtirishning alohida bosqichlarida usullar, modellar va texnik usullarni tanlash; rejalashtirish vositalarini tanlash; rejalashtirish jarayonida yuridik normalarni hisobga olish; reja hujjatlarini ishlab chiqish va b. Amalda, rejalashtirishning istalgan davrida ta'sir etish kattaliklari, rejalashtirish shakllarining belgilari va uning oqibatlari o'rtasida aloqalarning kompleks tarzda shakllanishi ishtirok etadi.

Rejalashtirish tizimlarining xususiyatlari. Kompleks tarzda rejalashtirish tizimining barpo etilishi va qo'llanilishi munosabati bilan paydo bo'ladigan korxona iqtisodiyotining markazi masalasi – bu rejalashtirish tizimining ustunliklari to'g'risidagi masala. Boshqacha aytganda, rejalashtirish tizimi korxona maqsadiga erishishga qanday ulush qo'shini aniqlash muhim ahamiyat kazb etadi. Ushbu masalani maqsadga erishish ko'rsakichlari, ya'ni natijalar boshqaruvning alohida unsurlari bo'yicha faqat kardinal shkala bo'yicha o'lchanishi va ushbu

unsurlar bilan shartli ravishda muvofiqlashtirilishi mumkinligiga qaramasdan qo'yish lozim. Biroq rejalashtirish tizimi va alohida reja ular bo'yicha baholanadigan belgilar rejalashtirishning qaysi tizimi muayyan sharoit uchun mos kelishi haqida mulohaza yuritish uchun zarur. Rejalashtirish tizimlarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini aytish mumkin:

Hujjat bilan ta'minlash darajasi. Reja hisob-kitoblari va rejalarni nazorat qilishni muvofiqlashtirish uchun ularning muhim tarkibiy qismlari yozma shaklda bajarilishi katta ahamiyatga ega. yaxshi reja hujjatlari yuqorida ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishini osonlashtiradi va maqsadlarga erishishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hujjatlarning yaxshi tizimi qimmat turishi mumkinligiga, lekin ushbu xarajatni amalga oshirishga to'g'ri kelishiga e'tiborni qaratamiz.

Uyushganlik darajasi. Uyushganlik darajasi deganda rejalashtirish tizimida o'rnatilgan tashkiliy rejimning qat'iyligini tushunish lozim. uyushmaganlik va improvizastiyalash qobiliyatining mavjud emasligi, albatta, rejalashtirish tizimining moslashuvchanligini pasaytiradi. Uyushganlikning oqilona darjasiga ega bo'lgan rejalashtirish tizimi tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga optimal tarzda moslashadi.

Standartlashtirish darajasi. Rejalashtirishga nisbatan standartlashtirish rejalari, jarayonlar va rejalashtirish texnikasi, rejalashtirishdagi yordamchi vositalar va hokazolarning bixilllashtirilishini anglatadi. Bixilllashtirish unda turli shu'ba korxonalarida va bir korxonaning o'zida rejalashtirishning turli davrlarida yoki turli bo'linmalarda bir xil muammolar bir konsepsiyadan kelib chiqib hal etiladigan tartibni ta'minlaydi.

To'liqlik darajasi. Kompleks muammolarni shakllantirish alohida muammolarga bo'linadi va ular o'rtasidagi munosabatlar muammolar ierarxiasini aniqlash uchun tahlil qilinishi kerak. Ushbu holatda rejalashtirish bilan, bir tomondan, faqat mazkur ierarxiyadagi eng ahamiyatli muammolarni aniqlash maqsadida, shug'ullanish mumkin, bunda qolgan muammoli sohalar ularga moslashtiriladi. Ikkinchi tomondan, rejalashtirish FunkSIONAL sohalar o'rtasidagi intensiv uchastkalarga yoki surunkali «tor joylarga» nisbatan qo'llanilishi mumkin. Rejalashtirishning hozirgacha muhokama etilayotgan ushbu turlari to'liqsiz hisoblanadi va «asosiy holatlarni rejalashtirish» sifatida belgilanadi. Va, aksincha, to'liq rejalashtiriladigan barcha muammolarni qamrab oluvchi rejalashtirish munosabati bilan «to'liq ko'lamli rejalashtirish» haqida gap ketadi.

Aniqlik darajasi. Rejalashtirishning aniqligi rejalashtirish obyektlari, rejaning tarkibiy qismlari xususiyatlarini o'lchashning va bu bilan reja mazmunining aniqlik darajasini anglatadi. Aniqlik darajasi tizimning alohida rejalari uchun bir xil bo'lishi shart emas. Aniqlik darajasiga nisbatan qo'yiladigan talablar shu bilan belgilanadiki, bir alohida reja taxminiy reja ko'rinishida, boshqasi esa batafsil ishlab chiqilgan reja sifatida tuziladi.

Rejalarning muvofiqlik darajasi. Rejalashtirish tizimining barcha alohida rejalari muvofiqlashtirilgan va integrastiyalangan bo'lishi kerak. Rejalarning muvofiqligi, birinchi galda, rejaning tarkibiy qismlariga va alohida rejalar o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq. Rejalarning mazmuni nuqtai nazaridan maqsadlar, prognozlar, tadbirlar, mablag'lar, reja uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning harakatlari, muddatlarni muvofiqlashtirish mumkin. Bundan tashqari, alohida rejalarni zarurat, muddatlilik, ierarxiya, izchillik, shartlanganlik va moslashuvchanlik darajasi bo'yicha muvofiqlashtirish zarur. Bir darajadagi rejalarining muvofiqlashuvini ta'minlashni rejalarini muvofiqlashtirish deb, turli darajadagi rejalarining muvofiqlashuvini esa rejalarini integrastiyalash deb nomlaymiz.

4.4. Qishloq xo'jaligini rejalashtirishda prognozlashning ahamiyati

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish bozor iqtisodiyoti munosabatlariga mos holda, ya'ni bozorga va iste'molchiga qaratilgan holda tashkil etish lozim. Iqtisodiyotning agrar sektorini rivojlantirish muammolarini hal etish O'zbekistonning bozorga o'tishdagi butun strategiyasini hal qiluvchi bo'g'indir. Bu qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi roolidan kelib chiqadi. Aholining 60 % qishloq joylarda yashaydi. Milliy daromadning 32 foizidan ko'prog'i bugungi kunda qishloq xo'jaligidan olinadi. Qishloq xo'jaligi respublika hayotini ta'minlashning asosi, sanoatning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish uchun shuningdek, eksport resurslari va valyuta tushumlarining eng muhim manbalaridandir.

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini rejalashtirishning muhimligi ham shundaki, xo'jaliklarda ishlab chiqarishni rejalashtirishning eng muhim tomonlarini izlab topishdan iboratdir.

Xalq xo'jaligini rivojlantirish rejalarini tuzish va ishlab chiqarishni yanada yuksaltirish asosida tashkil etish rejalashtirish deb ataladi. Iqtisodiy reja tuzganda, ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlarini nazarda tutadi,

ya'ni ishlab chiqarishni taqsimot va ayriboshlashni butun jamiyat miqyosida rejali ravishda tashkil etadi.

Xo'jaliklarda rejalar aniq va ilmiy jihatdan asoslangan bo'ladi. Chunki, har bir xo'jalik rejani tuzishda rejalashtiruvchi bo'limlar iqtisodiy shart-sharoit va imkoniyatlarga, ishlab chiqarish ilg'orlarining tajribasidan keng foydalangan holda ishlab chiqaruvchi kuchlarni, fan va texnikani rivojlantirishda erishilgan darajaga asoslanadi. Rejalarning aniqligi xo'jalikda tashkilotchilik ishi va mehnatkashlarning ijodiy tashabbusi bilan ta'minlanadi.

Rejalashtirish bevosita xo'jaliklarning o'zida amalga oshirilishi hamda asosiy e'tibor xujalikni intensiv rivojlantirish yo'li bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini har tomonlama ko'paytirib borishga qaratilishi kerak.

Xo'jaliklarda ishlab chiqarish rejasini tuzganlarida rejalashtirilayotgan tadbirlarning iqtisodiy jihatdan qanchalik ahamiyatli ekanligiga alohida e'tibor berish kerak. Masalan: ekin maydonining strukturasini belgilash bilan birga ekiladigan har bir gektar ekinning ahamiyati, qimmati va hosildorligini puxta tahlil qilish, uning xo'jalikka iqtisodiy jihatdan qanday foyda keltirishini aniqlash zarur.

Xo'jaliklarda quyidagi turdagi rejalar tuziladi:

Perspektiv reja. Bu rejaga xo'jalikni rivojlantirishning bir necha yillarga mo'ljallanib tuzilgan rejaları kiradi. Unda tegishli yillarda bajarilishi ko'zda tutiladi. Bu reja qishloq xo'jalik mahsulotlarini harid qilish va tashkiliy-xo'jalik rejaları loyihalari asosida tuziladi.

Yillik ishlab chiqarish - moliya rejasi hamda ichki bug'inlar va yordamchi korxonalarga beriladigan yillik ishlab chiqarish topshiriqlari. Bu rejaga xo'jalikning bir yilgi ishlab chiqarish - moliya rejasi hamda erdamchi korxona, ichki bo'g'inlarning yillik ishlab chiqarish topshiriqlari kiradi.

Operativ reja. Bu rejaga qishloq xo'jalik ishlarining turli davrlariga qarab tuziladigan ish rejaları - ya'ni kvartallar, oylarda qilinadigan ishlar rejasi hamda plan-naryadlar kiradi. Bu rejada jamoaning bir yil davomida qilinadigan ishlari belgilanadi. Ishlab chiqarish - moliya rejaları asosida xo'jalikning ayrim tarmoqlariga yillik ishlab chiqarish topshiriklari beriladi.

Xo'jalik istiqbol va joriy rejalarida xo'jalikning rivojlanish ehtiyojlari va aniq sharoitga qarab, xo'jalikning har bir sohasida ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari aniqlanadi va xo'jalikning har bir tarmog'iga tegishli topshiriqlar belgilanadi.

Istiqbol rejada xo'jalikni bir necha yil mobaynida rivojlantirish ko'lamini va sur'ati oldindan belgilab beriladi.

Bu reja odatda, mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirish istiqbol rejasida ko'zda tutilgan muddatga mo'ljallab tuziladi. U bir necha yilga, jumladan 5, 10 va undan ko'prok yilga mo'ljallab tuzilishi mumkin. Istiqbol rejalar tufayli rejalashtirishning uzluksizligi ta'minlanadi. Shuning uchun ham istiqbol reja xo'jalikni rivojlantirishning ko'p yilga mo'ljallab tuzilgan dasturidir. Istiqbol rejaning eng muhim topshiriqlari yillar bo'yicha taqsimlanadi.

Qishloq xo'jaligida istiqbol rejalarini tuzishda xalq xo'jaligini yanada rivojlantirish istiqbolli rejalariga hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va Vazirlar Mahkamasining qishloq xo'jaligini yanada yuksaltirish haqidagi qarorlariga amal qilinadi.

Istiqbol rejalarini tuzish, bu erdan maksimal darajada foydalanish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'plab etishtirish va mahsulotlarni ko'paytirish evaziga korxona ishchilarining moddiy manfaatdorligini yanada yaxshilash uchun imkoniyatlar ochib beradi. Umuman xo'jaliklarning besh yilga mo'ljallangan istiqbol rejalarida juda muhim tashkiliy-xo'jalik masalalari hal qilinishini ko'rsatiladi.

Istiqbol rejada ekin maydonlarining strukturasi, xo'jalik tarmoqlarining yo'nalishi, yangi erlarni sug'orish, yaylovlarga suv chiqarish, ekin maydonlarini kengaytirish, chorvachilik mahsuldorligini oshirish, mollar tuyogini ko'paytirish, ularning ozuqa bazasini mustahkamlash kabi tadbirlar ko'rsatiladi.

Istiqbol rejada ishlab chiqarish, madaniy-maishiy binolar, yo'llar qurish, texnika sotib olish, elektrlashtirish, melioratsiya inshootlarini yaxshilash, xo'jalikning ishchi kuchlaridan foydalanish, mahsulot tannarxini arzonlashtirish va korxonaning rentabelligini oshirishga ham e'tibor beriladi.

Xo'jaliklarning istiqbol rejalarini xo'jaliklarning tabiiy va iqtisodiy sharoitiga qarab tuziladi. Xo'jalik asosiy tarmog'ining hajmi uning ishlab chiqarish yo'nalishiga qarab belgilanadi.

Qo'shimcha er va erdamchi tarmoqlarning hajmi esa asosiy tarmoqlarning rivojlanishini to'la ta'minlashni ko'zda tutib belgilanadi. Xo'jaliklarning ekin maydonlari miqdorini, chorva mollarining sonini va ularning mahsuldorligini belgilashda davlatga mahsulotlar sotish yuzasidan berilgan topshiriqlarni to'liq bajarish hamda xo'jalikning ichki ehtiyojlarini qondirish hisobga olinishi lozim.

Istiqbolda dehqonchilik sohasini rejalashtirishda asosiy vazifalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Xo'jalikning ixtisoslashuvi va erdan foydalanishning kadastr bahosini aniq belgilab olish;

- Xo'jalikning suv resurslari, asosiy fondlari va mehnat resurslaridan foydalanish darajasini to'g'ri rejalashtirish;

- Xo'jalik erlarining ekinlar bo'yicha taqsimlanishida muammolarni hisobga olib borish;

- Xo'jalikda chorva mollarining bosh soni, ularning turlari, mahsuldorligi va xo'jalik balansini hisobga to'g'ri va aniq olib borish;

- Xo'jalikning jami etishtiriladigan mahsulotlarini sotish, qayta ishlash va ichki taqsimlashni to'g'ri rejalashtirish;

- Dehqonchilik tarmogini rivojlantirishdagi joriy va kelgusi davr xarajatlarini hisobga olib borish.

- Xo'jalikda istiqbol rejalar ikki xil ko'rinishda tuzilishi mumkin:

- Tashkiliy xo'jalik tuzilmaviy rejalar;

- Iqtisodiy sostial rivojlanish rejasi.

Tashkiliy xo'jalik rejasi qishloq xo'jalik korxonalarini rastional tashkil qilishga doir hamma muhim ko'rsatkichlarni, jumladan, maydonlarni belgilash, tarmoqlarni ixtisoslashtirish va ularni bir-biriga to'g'ri bog'lab borish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizastiyalash hamda intensivlik darajasini yildan-yilga oshirib borish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy xo'jalik rejasida loyixa qismi va loyihadagi tadbirlarni amalga oshirish kalendar qismi bo'ladi. Loyiha qismida xo'jaliklarni ixtisoslashtirish, tarmoqlar tuzilishi va ularni bir-biriga bog'lab borish usullari, er maydonlarining tuzilishi, holati va ulardan foydalanish imkoniyatiga qarab dehqonchilik va chorvachilikning asosiy sistemalari, kapital jamg'armalar miqdori, xo'jalik tarmoqlarining iqtisodiy tomondan samaradorligi va shu kabilar ko'rsatiladi.

Xo'jalikda istiqbol rejalarini tuzishda har bir tarmoqning ham istiqbol rejasi alohida tuzilishi kerak.

Dehqonchilikni tashkil etish buyicha:

- irrigastiya-meliorastiya qurilishlari;

- er fondidan uni yarakli va yaroqsizga bo'lib to'liq foydalanish;

- qishloq xo'jalik ekinlari, ko'p yillik daraxtlar va yaylovlarning hosildorligini oshirish;

- almashlab ekish sxemalari soni, o'lchami va qaysi ekinlar bilan almashlab ekilishini rejalashtirish;

- ekin maydonlarining strukturasini to'g'ri belgilash;
- agromeliorativ ishlarni yaxshilash va eroziyaga qarshi kurash choralarini o'z vaqtida olib borish.

Chorvachilikni tashkil etish buyicha:

- chorva mollari, parrandalarning bosh sonini va mahsuldorligini oshirib, ularning zotini yaxshilash;
- fermalar hajmi va ularni joylashtirish;
- chorva mollarini turlariga qarab boqish va asrashni yaxshilash.

Moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash va undan foydalanish bo'yicha:

- xo'jalikni mashinalash, texnika va asbob-uskunalar bilan ta'minlab borish;
- remont bazalarini tashkil etishni rejalashtirish;
- qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish va yigishtirish texnologiyasini aniqlash va amalga oshirish.

Mexnat unumdorligi va ishchi kuchlaridan foydalanish bo'yicha:

- aholining o'sishi va ishchi kuchlaridan foydalanish;
- aholi yashaydigan punktlar va ularni joylashtirish.

Qurilish va kapital jamg'armalar bo'yicha:

- kommunal turar-joy, madaniy-maishiy va ishlab chiqarish binolarining hajmi, qurilib foydalanishga topshirish muddatlarini rejalashtirish.

Rejalashtirish ishi faqat reja tuzish bilan chegaralanmasdan, balki reja ko'rsatkichlarining to'la bajarilishini ta'minlashdan ham iboratdir.

Xo'jaliklarda ishlab chiqarish rejalarining aniq bajarilishi ustidan nazorat qilishni yaxshi yo'lga qo'ymay turib, uning bajarilishini amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning eng yaxshi tuzilgan reja ham vaqti-vaqti bilan tekshirib turilmasa yoki bajarishga safarbar qilinmasa, kog'ozda qolib ketishi mumkin.

Rejani nazorat qilishda ma'lumotlar oddiygina solishtirilib qolinmasdan, balki iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha bajarilishini ham nazorat qilinishi lozim. Shundagina xo'jalikning barcha ishlab chiqarish topshiriklariga to'g'ri baho berish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda operativ va joriy rejalar qatorida istiqbol rejalarini tuzish ham mumkindir. Hozirgi bozor iqtisodietida qishloq xo'jaligida istiqbolni belgilab beruvchi ko'rsatkichlar erdamida milliy va amaliy asoslangan rejalar tuzish va ularni ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llashni

rejalashtirish, xo'jaliklarning kelajakda rivojlanishda ko'plab imkoniyatlarni vujudga keltirib beradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini rejalashtirish va ishlab chiqarishda istiqbol rejalarni tuzishni rejalashtirish va uning mohiyati shundaki, bu rejalar ishlab chiqarishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanishga imkon beradi.

Xulosalar

1. Ilmiy tadqiqotlarda hozirgi vaqtda hal etilmagan va shu tariqa fanni rivojlantirish uchun muhim turtki bo'ladigan ilmiy vazifa muammo hisoblanadi. Rejalashtirish munosabati bilan muammo amaldagi holat bilan kelgusida prognoz qilinayotgan holat yoki qidirilayotgan (maqsad bilan belgilangan) rejaviy holat o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi.

2. Indikativ rejalashtirish ko'pincha muammolarni qismlarga ajratish, ularning tarkibiy qismlarini aniqlash maqsadida alohida muammolarni tahlil qilish, shuningdek ayrim muammolar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish yalpi muammoni maqsadli hal etishga ko'maklashadi.

3. Muqobil variantning kelgusidagi oqibatlar qanday, ya'ni uning yordamida maqsadga erishishning qanday darajasiga erishish mumkinligi oqibatlarni prognoz qilish yo'li bilan belgilanishi lozim. Reja ishlab chiquvchisining ijodi ijobiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi muqobil variantlarni shakllantirishdan iborat.

4. Qarorlarni qabul qilish daraxti vaqtga ko'ra bir-birining ketidan keluvchi alohida muqobil variantlar zanjirida umumiy muqobil variantlarni aniqlashning oddiy usuli hisoblanadi. Muqobil rejani qabul qilish to'g'risidagi qaror oqilona tanlov harakati hisoblanadi. Qarorlar qabul qilish mantig'i nuqtai nazaridan baholash – bu muqobil variantlar yordamida maqsadga erishish darajasini tavsiflovchi kattalik.

Tayanch tushunchalar

Ijtimoiy xavfsizlik maqsalarning yo'naltirilishi oldindan ogohlantirish, rejalarni muvofiqlashtirish, muqobil variantlarni optimallashtirish modellari, maqsadlarni shakllantirish, tarkibiy-maqsadli jihat, texnik-iqtisodiy jihat, muammolarni tashxis qilish, prognoz axboroti, direktiv iqtisodiyot, tashkiliy-ishlab chiqarish tizimi, determinastiyalangan chiziqli mezonlar, ekspertli prognozashtirish, Funktsional-mantiqiy prognozashtirish, tarkibiy prognozashtirish, matematik prognozashtirish, analogiya bo'yicha prognozashtirish,

kompleks prognozlashtirish, muammolar ierarxiyasi, muddatli rejalashtiri, korrekstiyalash.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Davlat tomonidan markazlashgan rejalashtirishning bozor iqtisodiyotidagi rejalashtirishdan farqi nimada?.
2. Rejalashtirishning qanday maqsadlari mavjud ?
3. Rejalashtirishning qanday asosiy vazifalari va bosqichlarini bilasiz?
4. Rejalashtirish jarayonida prognozlashtirish qanday ahamiyatga ega?
5. Korxonada rejalashtirishning qanday tarkibiy qisimlari mavjud?
6. Muddatlarga ko'ra rejalashtirishning qanday turlarini bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonuni. 1993 yil 2 sentyabr, 915-XII-son.
4. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Zohidov G'.E. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash.-T.: TDIU,2010.- 216b.
5. Ilina R. Ob indikativnom (rekomendatelnom) planirovanii v kapitalisticheskix stranax // Planovoe xozyaystvo. 1990g.№ 11. – 108 s.
6. Szinven Li. Rol gosudarstvennogo regulirovaniya v ekonomike Kitaya // Voprosi ekonomiki. 1997 g. №7. - 156 s.
7. O'zbekiston iqtisodiyoti: erishilgan yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy – amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami. – T.: TDIU, 2008. –369b.

5-bob.

INDIKATIV REJALASHTIRISHNING TASHKILIY ASOSLARI

5.1. Indikativ rejalashtirishni tashkil etish.

5.2. Indikativ rejalashtirishda iqtisodchilarning funksiyalari va majburiyatlari .

5.3. Iqtisodiyot ko'rsatkichlarini indikativ rejalashtirishda axborot texnologiyalarining ustunliklari.

5.1. Indikativ rejalashtirishni tashkil etish

Indikativ rejalashtirishni tashkil etishda uning tarkibiy unsurlari sifatida quyidagilar ishtirok etadi:

- rejani ishlab chiqish tartibi va izchilligi;
- axborot tizimi;
- ijrochilar.

Rejalashtirishni a) davlat (mamlakat, mintaq, tarmoq) darajasida; 6) firma miqyosida tashkil etish turlari mavjud.

O'zbekiston rejalashtirish davlat tizimining vujudga kelishi va rivojlanishi ko'p jihatdan rejalashtirishni korxonalar darajasida tashkil etish amaliyoti bilan belgilanadi.

Korxona miqyosida rejalashtirish xo'jalik yuritish obyektni boshqarish tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Korxona iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini sifatida o'z rejalarni ishlab chiqishda to'liq mustaqildir. Biz yuqorida aytib o'tgan rejalashtirishni tashkil etish unsuri – rejani ishlab chiqish tartibi va izchilligi – bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1) faoliyat maqsadini asoslash;
- 2) axborotni yig'ish;
- 3) iqtisodiy tahlilni o'tkazish;
- 4) prognozlarni tuzish;
- 5) rejalarni tuzish;
- 6) rejalarni tasdiqlash va ijrochilarga etkazish;
- 7) ijrochilar tomonidan rejaning bajarilishi;
- 8) reja monitoringi.

Rejani ishlab chiqishning yuqorida keltirilgan izchilligi taxminiy

hisoblanadi. Rejalashtirish rivojlanishdagi ustuvor yo'nalishlarni tanlashdan boshlanadi. Tanlov to'lig'icha kelajak uchun faoliyatning asosiy maqsadlarini belgilab beruvchi yuqori rahbariyatning qaroriga bog'liq.

Rejalashtirishda *axborot yig'ish ishlari* ko'p jihatdan prognozlashtirishni tashkil etishdagi huddi shunday bosqichga o'xshab ketadi. Bunda uning farqi ko'proq xo'jalik yuritish ichki muhitining axborotidan foydalanishdan iborat.

Iqtisodiy tahlil o'tmish va hozirgi davr to'g'risidagi axborotni baholash sifatida iqtisodiy ishning mustaqil unsuri sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu jarayon iqtisodiy shaxs faoliyatining bo'lajak shart-sharoitlari va natijalarini baholash maqsadida o'tmishdagi va hozirdagi iqtisodiy, tijorat, kadrlar sohasidagi va boshqa holatlar haqidagi ma'lumotlarni o'rganishga asoslangan. Tahlil rejalashtirishning majburiy boshlang'ich bosqichi hisoblanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: iqtisodiy hisob-kitoblar; faoliyatdagi ijobiy jihatlarni aniqlash; faoliyatdagi salbiy jihatlarni aniqlash, shu jumladan uning paydo bo'lishi sabablarini o'rganish; faoliyatni baholash; faoliyatni yaxshilashga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Rejalashtirishni tashkil etishning navbatdagi bosqichi – *rejalarni tuzish*. U ko'p sonli hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi.

Reja ko'rsatkichlarini tasdiqlash jarayoni reja loyihasining dastavval manfaatdor tuzilmaviy bo'g'inlar tomonidan, so'ngra esa yuqori rahbariyat tomonidan muhokama etilishini nazarda tutadi. Rasmiy rejalarining tasdiqlanishi bayonnoma, buyruq yoki farmoyish bilan qayd etiladi. Tasdiqlanganidan keyin rejalar *ijrochilarga, ya'ni*: tarkibiy bo'linmalar, bo'limlar, xizmatlar va alohida xodimlarga *etkaziladi*. *Rejalarni bajarish* ishlari boshlanadi va bunda menejerlar katta rol o'ynaydi. *Rejalarni bajarish jarayoni*, birinchidan, mablag'larning sarflanshiga qarab, ikkinchidan, bajarish vaqtiga qarab, uchinchidan, iqtisodiy samara nuqtai nazaridan nazorat qilinadi.

Rasmiy rejalaridan tashqari ko'proq boshqaruv qarorlarini eslatuvchi ko'plab rejalar qo'llaniladi. Ko'pincha ular taktik xususiyatga ega bo'ladi. Tadbirkorlar, menejerlar va boshqa mutaxassislar har kuni belgilangan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan ko'plab muayyan qarorlarni qabul qilishadi. Kundalik harakatlarni rejalashtirish ham rejalashtirishning umumiy metodologiyasiga asoslanadi. Qaror qabul qilish jarayoni cheklangan imkoniyatlar va belgilangan maqsadlarni hisobga olgan holda barcha mavjud muqobil variantlar ichidan birini tanlash zarurligiga

asoslanadi.

Rejaning mosligi va barqarorligi talablarini qarama-qarshi qo'yish rejalashtirish nazariyasidagi murakkab dilemma hisoblanadi. Bir tomondan, rejani ishlab chiqish uni firma faoliyatining o'zgaruvchan sharoitlarga uzluksiz moslashtirib turishga yo'naltirilishi lozim, lekin, ikkinchi tomondan, reja haqiqatdan ham ishdagi mo'ljal sifatida xizmat qilish uchun hech bo'lmaganda ma'lum muddatga barqaror bo'lishi kerak. Bunday holatni real joriy etish quyidagi yo'llar bilan murosa yo'lini topishdan iborat:

1) Rejaga tuzatishlar kiritish (unga kiritiladigan tezkor o'zgartirishlarning to'planishiga qarab doimiy ravishda yoki vaqti-vaqti bilan). Lekin dastlabki reja ham, tuzatishlar kiritilgan reja ham faoliyatning yakuniy maqsadlariga erishish darajasini baholash imkonini beruvchi o'zgarmas parametrlarga, mezonlarga ega bo'lishi kerak;

2) Faoliyatning yakuniy maqsadlariga yoki oraliq natijalarga erishganlik uchun xodimlar mehnatini rag'batlantirish tizimini yaratish.

Shu munosabat bilan sobiq ittifoq davridagi ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotida qo'llanilgan reja ko'rsatkichlarini o'zgartirish amaliyotini ta'kidlash mumkin. Xodimlar rejalarni bajarish yuzasidan o'z vazifalarini anglab etishi va zarur harakatlarni amalga oshirishni o'ylab ko'rishi uchun rejalarni ijrochilar hukmiga reja davri boshlangunga qadar kamida 10 kun oldin havola etish zarur deb hisoblanardi. Rejaga o'zgartirishlarni reja davri tugashiga kamida 20 kun qolganida va bunga etarlicha asoslar mavjud bo'lan taqdirda kiritish mumkin edi. Rejalarning tez-tez o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmas edi, chunki bu xodimlarni o'z ishinig haqiqiy vazifalarini bajarishdan chalg'itishi mumkin edi. Rejalashtirishning hozirgi amaliyoti ham rejalarni ijrochilarga etkazish va ularga o'zgartirishlar kiritishning o'z qoidalarini ishlab chiqishi kerak.

5.2. Indikativ rejalashtirishda iqtisodchilarning Funksiyalari va majburiyatlari

Indikativ rejalashtirish sifati ko'p jihatdan mutaxassislarining tayyorgarlik darajasiga bog'liq, bu quyidagilar bilan belgilanadi:

nazariy tayyorgarlik;

ularning intellektual rivojlanganligi;

tajriba va malaka;

reja – bu tegishli harakatlarni talab qiluvchi ongli ravishda qabul qilinadigan qarorlar tizimi ekanligini tushunish;

qo'llaniladigan tadbirlarning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish;
asosiysini ko'ra olish qobiliyati;
biznes sharoitida tashqi va ichki omillarning maqbul nisbatini topa olish.

Ilgari rejalashtirishda asosiy rol deyarli iqtisodchilarga, ya'ni reja-iqtisodiyot bo'limlari (xizmatlari, boshqarmalari)ning xodimlariga tegishli edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu holat tubdan o'zgardi. Rejalashtirishda ayniqsa kundalik rejalarning amalga oshirilishiga bevosita rahbarlik qiluvchi mutaxassislar, ya'ni o'rta va quyi bo'g'in rahbarlari, menejerlarning roli ortadi. Lekin hozirgi vaqtda ham iqtisodchilarning roli beqiyos. Bugungi kunda kichik korxonada rejalashtirish ishini iqtisodchi, moliyachi yoki buxgalter amalga oshirishi mumkin. Katta korxonalarda esa reja ko'rsatkichlarini iqtisodiy jihatdan asoslash bilan odatda iqtisodiy xizmatning 2-3 nafar xodimi shug'ullanadi. Yirikroq firmada, odatda, 4 yoki undan ortiq xodimdan iborat iqtisodiy bo'lim faoliyat ko'rsatishi mumkin. Yanada yirik firmada xodimlarining umumiy soni kamida 12 nafardan iborat bo'lgan bir necha bo'limlar yoki xizmatlarni o'z tarkibiga olgan iqtisodiy boshqarma tashkil etilishi mumkin.

Asosiy rejaviy asoslashlarni huddi ilgaridagi kabi iqtisodchilar bajarishadi. Lekin reja xo'jalik yuritishning barcha vazifalari va muammolari majmuini aks ettirishi uchun uni ishlab chiqishga o'z vakolati masalalariga muvofiq ravishda boshqa xizmatlar va bo'limlarning xodimlari ham jalb etiladi. Ya'ni reja hisob-kitoblarini amalga oshirishda iqtisodiy bo'lim xodimlari quyidagilar bilan o'zaro hakorlik qiladi:

rahbariyat bilan – rivojlanish strategiyasining umumiy maqsadlari va tashkiliy masalalar yuzasidan;

marketing va sotish bo'limlari bilan – sotish masalalari yuzasidan;

buxgalteriya bilan – hisob yuritish va hisobotlar masalalari yuzasidan;

moliyaviy bo'lim bilan – moliyalash masalalari yuzasidan;

ta'minot va transport bo'limlari bilan – ta'minot va xomashyoni etkazib berish masalalari yuzasidan;

bosh muhandis bo'limi, texnologik va ishlab chiqarish bo'limlari bilan – ishlab chiqarish xususidagi masalalar yuzasidan;

kadrlar, mehnat va ish haqi bo'limi bilan – xodimlar va boshqa masalalar yuzasidan.

Shubhasiz, bozor munosabatlari sharoitida rejalashtirish bo'yicha

asosiy mas'uliyat iqtisodchi-menejerlar zimmasiga yuklatiladi. Agar iqtisodchilarning vazifasi reja ko'rsatkichlarini iqtisodiy jihatdan asoslashdan iborat bo'sa, menejerlar vazifasi qatoriga ushbu ko'rsatkichlarni muayyan tijorat, texnologik, kadrlar va boshqa xususdagi harakatlar bilan talqin etish kiradi. Lekin biri ikkinchisi bilan uzviy bog'langan. Iqtisodiy bo'lim xodimlari va firma menejerlari o'z mohiyatiga ko'ra bir xil vazifani, ammo turli vositalar yordamida bajarishadi. Menejer boshqaruv sohasida, shu jumladan insonlarni boshqarishda alohida tarzda o'quv va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ular tomonidan bajariladigan harakatlar tizimi oldinga qo'yilgan xo'jalik yuritish maqsadlariga erishish uchun mavjud resurslarni optimallashtirishga qaratilgan. Menejerlar firma faoliyatining rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol ishtirok etadilar. Firmaning yuqori rahbariyati menejerlar bilan birga faoliyat maqsadlarini tanlashadi va tegishli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishadi. Tanlangan maqsadlarga iqtisodiy ishlov berish iqtisodchilar tomonidan amalga oshiriladi, ya'ni ular maqsadni iqtisodiy kategoriyalar bilan asoslaydi. Biroq rejadagi maqsadlarga erishish bo'yicha asosiy harakatlarni tanlash menejerlar Funksiyasiga kiradi. Ular har kuni rejalashtirish masalalari bilan shug'ullanib, firmaning turli xildagi rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etishadi, shuningdek uning strategiyasini, faoliyat sohasi siyosatini, biznes-rejalarni va hokazolarni belgilab beradi. Prognozlashtirish, dasturlash, taqvimiy rejalashtirish – bularning barchasi menejerlar tomonidan o'z ishida foydalaniladigan vositalardir. Shuning uchun hozirgi vaqtda iqtisodchi menejer kasbining ahamiyati va unga nisbatan talab ortib bormoqda.

Iqtisodiy bo'lim xodimlari *quyidagi asosiy Funksiyalarni* bajarishadi:

- statistika hisobotlarini tuzish;
- xo'jalik yuritish tashqi muhitining holatini o'rganish;
- firmaning faoliyati iqtisodiy tahlil qilish;
- prognozlar va rejalarini tuzish, ularni ijrochilar hukmiga havola etish;
- alohida boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samarasini aniqlash;
- firma xodimlarining iqtisodiy ta'lim olishida ishtirok etish;
- firma rahbariyatiga iqtisodiy masalalar yuzasidan maslahat berish;
- iqtisodiy masalalar bo'yicha ma'lumotlar va sharhlar tayyorlash;
- tegishli shikoyatlar va takliflarni ko'rib chiqish va b.
- firmalarda iqtisodchilar ishida tegishli echimini talab etuvchi qator

muammolarni (yoki kamchiliklarni) uchratish mumkin:

-ishlarni ahvolini batafsil tahliliy sharhlash o'rniga iqtisodiy hayot faktlarini oddiy izohlash;

-olingan natijalarni oddiy tarzda qayd etish;

-bozor nazariyasini etarlicha bilmaslik;

-o'z tovari bozorining kon'yunkturasini yaxshi bilmaslik;

-rejalarni tuzuvchilari va taqsimlovchilarining kamtarona tutgan o'zni;

-iqtisodiy hisob-kitoblarda eskirib qolgan va samarasiz yondashuvlardan foydalanish;

-notanqidiy tafakkur etish;

-kasblararo o'zaro hamkorlikning zaifligi;

boshqaruv qarorlarining iqtisodiy jihatdan asoslanmasligi;

-mamlakatdagi inflyatsiya va yuqori stoxastik bozor hodisalari tufayli prognozlashtirish va rejalashtirish amaliyotidan voz kechish.

Rejalashtirish ishida bo'ysunish ham, o'zaro munosabatlarning demokratiyaga asoslanishi ham zarur. Bo'ysunish boshqaruv ierarxiyasi tarafdorligini anglatadi. Demokratizm esa "Rahbar-bo'ysunuvchi" o'zaro aloqalarda eskilik qoldiqlariga barham berishni anglatadi. Iqtisodiy ish oqilona tashkil etilgan taqdirda har bir xodimda o'z faoliyat uchastkasi va o'zining lavozim majburiyatlari bo'lishi kerak, ya'ni u o'z lavozimi doirasida mas'ul bo'lishi lozim. Rejalashtirishda tashabbus, yangiliklar kiritish, ijod zarur. Buyruqbozlik uslubi bo'ysunuvchilarda o'z kuchiga ishonmaslik va rahbariyatga tobelik hissini shakllantiradi. Xodim muayyan majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak. Uning o'zi o'z qarorining mohiyatini baholaydi va u uchun javobgar bo'ladi. Ishdagi shaxsiy va jamoaviy manfaatlarni uyg'unlashtirishga nisbatan zamonaviy yondashuv ana shunda o'z ifodasini topadi;

Mehnat jamoasida reja hisob-kitoblarini asoslashda ijod qilish, yangilikni qidirib topish, ishlarning ahvolini takomillashtirish choralari qo'llash uchun barcha sharoitlar yaratilishi kerak. Ushbu maqsadlarda muayyan muammolarni hal etishga nisbatan yondashuvlarni tadqiq etish uchun turli xizmatlar xodimlaridan tarkib topgan vaqtinchalik qidiruv guruhlarini tashkil etish mumkin.

Iqtisod xodimining yangi roli ko'p jihatdan uning menejer, referent va firma rahbariyati uchun faoliyatning turli iqtisodiy masalalari bo'yicha maslahatchi sifatidagi harakatiga bog'liq. Firma nazoratchisining roli iqtisodiy hayotda ham namoyon bo'la boshlaydi. Shu munosabat bilan iqtisod xodimi egalik qilishi lozim bo'lgan *zarur xislatlarni* ta'kidlash o'rinli:

bozor iqtisodiyotining nazariy asoslarini yaxshi bilish;
zamonaviy xorijiy iqtisodiy tafakkurni va mashhur xorijiy firmalarning ilg'or tajribasini bilish;
tahlil qilish, prognozlashtirish va rejalashtirishning zamonaviy uslublarini bilish;
ish va tafakkurning novatorlik uslubi;
ko'plab "mumkin"dan "kerak"ni tanlay bilish;
biznes yo'lida tashabbus ko'rsatish, firma uchun foydali bo'lgan yangi g'oyalarni qidirib topish;
harakatlarning tanlangan variantini ishlab chiqish va iqtisodiy asoslash sohasida omilkorlik.

Budan tashqari, iqtisod xodimining asosiy xususiyati – xabarlar oqimidan muayyan tendensiyalar va qonuniyatlarni ko'ra bilish, murakkab tanglik vaziyatidan chiqib ketishning to'g'ri yo'lini asoslay olishdan iborat.

Shunday qilib, rejani ishlab chiqish tartibi va izchilligi, axborot tizimi va ijrochilar rejalashtirishni tashkil etishning muhim unsurlari hisoblanadi. Rejalashtirish sifati ko'p jihatdan firma xodimlarining tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Rejalashtirishda rejani amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi xodimlarning roli ortib boradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisod xodimiga nisbatan axborot oqimidan muayyan tendensiyalar va qonuniyatlarni ko'rish, murakkab vaziyatdan chiqib ketishning to'g'ri yo'lini asoslash zarurati bilan bog'liq yangi talablar qo'yiladi.

5.3. Iqtisodiyot ko'rsatkichlarini indikativ rejalashtirishda axborot texnologiyalarining ustunliklari

Hozirgi zamonda kompyuter ko'plab kasblar xodimlari mehnat vositalarining ajralmas qismiga aylandi. U prognozlashtirish va rejalashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi iqtisod xodimlari tomonidan ham faol qo'llaniladi. Informatikaning axborotni olish va qayta ishlash usullari va vositalari bo'yicha amaliy darajasini aks ettiruvchi, bilimlarning muayyan sohalarida nazariyani amaliyotda qo'llash sohasini qamrab oluvchi axborot texnologiyalari iqtisodiy oldindan ko'ra bilishning ko'plab masalalarini oqilona hal etish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari – bu boshqaruv obyektining optimal bozor parametrlariga erishish uchun boshlang'ich ma'lumotlarni apparat va dasturiy vositalar yordamida qaror qabul qilish mexanizmining

ishonchli va tezkor axborotiga aylantirish usullari majmuidir. Ular kompyuterlar, lokal va global tarmoqlar, multimediya texnologiyalari va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy hisob-kitoblarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari nimalardan iborat? Axborot texnologiyalari jahon evolyustiyasining o'ziga xos katalizatori sifatida ishtirok etadi. Fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish va uning natijalaridan xo'jalik amaliyotida foydalanish jarayonini aks ettirgan holda axborot texnologiyalari jamiyatda iqtisodiy o'sishning muhim vositasiga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalarini iqtisodiy asoslashlarda qo'llash hisob-kitoblarni tezlashtirish va ularning aniqligini oshirishning garovi bo'lmoqda.

Davlat, mintaqa yoki firma darajasini prognozlashtirish va rejalashtirish masalalari ko'plab o'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq omillarni aks ettiruvchi murakkab jarayonni o'zida namoyon etadi. Axborot texnologiyalari bilimlarning sifat jihatdan yangi darajasini aks ettirib, buxgalteriya ma'lumotlari hisobini yuritishning zamonaviy vositalarini, ularni qayta ishlash va tahlil qilish usullarini namoyon etgan holda samarali boshqaruv imkoniyati yanada kengaytiradi, ya'ni ular tadbirkorlikning muayyan sharoitida harakatlarning maqsadga muvofiqligi va asosiligi to'g'risida qaror qabul qilishga yordam beradi.

O'z faoliyatining kelgusi natijalarini rejalashtirish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorning barcha qarorlari xo'jalik yuritishning samaradorligiga erishishga intilish bilan shartlangan. Ushbu samaradorlik, odatda, daromadlar va xarajatlar nisbatida o'z ifodasini topadi, bunda daromadlar xarajatlardan ustunlik qiladi. Daromadlar va xarajatlarning ijobiy saldosi firmaning har bir bitimida (operastiyada) tegishli mezonning ishtirok etishini belgilab beradi. Har bir operastiyadan (yoki ularning aksariyatidan) foyda olish butun tashkilot xo'jalik yuritishi samaradorligining asosini yaratadi. Mamlakatdagi ko'plab firmalar ishlashining samaradorligi esa yakuniy iste'molchining manfaatlarini hisobga olgan holda davlatning butun iqtisodiyoti samradorligi uchun zamin yaratadi. Lekin, butun ushbu zanjirning asosida iqtisodiy shaxs xo'jalik yuritishining samaradorligi yotadi. Firmadagi har bir operastiya (bitim) va ularning butun yig'indisi o'zining umumiy samaradorligining bir qismi ko'rinishida axborot texnologiyalarini qo'llash samaradorligini o'z ichiga oladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning muayyan samaradorligi ularni qo'llashdan olinadigan umumiy daromadlarni kompyuter

tizimlarini xarid qilish, o'rnatish va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli uzoq muddatli investitsiyalar bilan taqqoslash orqali belgilanishi mumkin. Axborot texnologiyalarini qo'llashning yillik samaradorligini ham aniqlash mumkin. Buning uchun kompyuter tizimining amalda yuzaga kelgan iqtisodiy samaradorligini 0,32 ga teng bo'lgan normativ koeffitsient bilan taqqoslash tavsiya etiladi. To'g'ri foydalanilganda axborot texnologiyalarini qo'llash odatda sarmoyaning yuqori rentabelligiga olib keladi (ba'zan 81%ga etadi). Axborot texnologiyalaridan foydalanish odatda xodimlar sonini kamaytiradi, mehnatga haq to'lash xarajatlari va tegishli vaqt birligiga tushum hajmining oshishiga ko'maklashgan holda barcha xarajatlarning tejallishiga olib keladi.

Kompyuter tizimining samaradorligini baholash bir necha tarkibiy qismlarga, xususan markaziy protsessorga bog'liq. Uning samaradorligiga tezkor xotira hajmi, jihozni modernizatsiyalashni hisobga olgan holda mulk qiymati, dasturiy ta'minotni tarqatishning avtomatlashtirilganligi va boshqalar ta'sir ko'rsatadi.

Axborot tizimiga nisbatan qo'yiladigan umumiy talablar investitsiyalarning barqarorligi va ishonchliligini, himoyalanganligi va saqlanishini o'z ichiga oladi.

Kompyuter tizimlarini xarid qilish, o'rnatish va ulardan foydalanish xarajatlari quyidagilar qiymati bilan aniqlanadi:

1. Apparat-dasturiy vositalar (uzoq muddatli investitsiyalar, yangi tizimlarni listenziyalash, modernizatsiyalash va navbatdagi yangilashlar);
2. Ma'muriylashtirish (tarmoq va tizimni ma'muriylashtirish, jamg'aruvchilar ma'muriylashtirish, mehnat, subpudrat haqi);
3. Qo'llab-quvvatlash (texnik qo'llab-quvvatlash, o'qitish, moddiy-texnika ta'minoti xizmatlari, xizmat safari xarajatlari, xizmat ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash shartnomasi, qo'shimcha xarajatlar);
4. Ishlanmalar (ilovalarni yaratish, testlash va hujjatlarni tayyorlash);
5. Kommunikatsiya vositalari (liniyani ajratish va serverlardan foydalanish).

Egalik qilish umumiy qiymatini pasaytirish boshqaruvning turli vazifalari, shu jumladan prognozlashtirish va rejalashtirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot tizimini tanlashga bog'liq. Biroq ushbu vazifalar, odatda, buxgalteriya hisobi dasturlari mavjud bo'lgan taqdirda hal etiladi.

Shunday qilib, iqtisodiy hisob-kitoblarda axborot texnologiyalarini qo'llash oqilona yondashuv chog'ida firmaga jalb etiladigan axborot

oqimlari maydonini keraytirish, axborot oqimlarini tezlashtirish, zararlarni kamaytirish va o'z faoliyatini xavfsizlantirish imkonini beradi.

Xulosalar

Firma miqyosida rejalashtirish xo'jalik yuritish obyektini boshqarish tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Rejalashtirishni tashkil etish unsuri – rejani ishlab chiqish tartibi va izchilligi – bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi, faoliyat maqsadini asoslash, axborotni yig'ish, iqtisodiy tahlilni o'tkazish, prognozlarni tuzish, rejalarni tuzish, rejalarni tasdiqlash va ijrochilarga etkazish, ijrochilar tomonidan rejaning bajarilishi, reja monitoringlardan tashkil topgan.

Qaror qabul qilish jarayoni cheklangan imkoniyatlar va belgilangan maqsadlarni hisobga olgan holda barcha mavjud muqobil variantlar ichidan birini tanlash zarurligiga asoslanadi. Prognozashtirish, dasturlash, taqvimiy rejalashtirish – bularning barchasi menejerlar tomonidan o'z ishida foydalaniladigan vositalardir. Rejani ishlab chiqish tartibi va izchilligi, axborot tizimi va ijrochilar rejalashtirishni tashkil etishning muhim unsurlari hisoblanadi. Mamlakatdagi ko'plab firmalar ishlashining samaradorligi esa iqtisodiy hisob-kitoblarda axborot texnologiyalarini qo'llash oqilona yondashuv chog'ida firmaga jalb etiladigan axborot oqimlari maydonini keraytirish, axborot oqimlarini tezlashtirish, zararlarni kamaytirish va o'z faoliyatini xavfsizlantirish imkonini beradi.

Tayanch tushunchalar

Rejalashtirishni davlat (mamlakat, mintaq, tarmoq) darajasida va firma miqyosida tashkil etish turlari mavjud, reja monitoringi, tuzilmaviy bo'g'inlar, rejalarni bajarish jarayoni, parametrlarga, mezonlarga, rivojlanish strategiyasi, iqtisodchi-menejerlar, axborot texnologiyalari, kommunikatsiya vositalari.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Indikativ rejalashtirishni tashkil etishning tarkibiy unsurlari qanday ?
2. Indikativ rejalashtirishda iqtisodchilarning vazifalari va funksiyalari nimalardan iborat ?
3. Reja ko'rsatkichlarini tasdiqlash jarayoni qanday ?
4. Iqtisodiyot ko'rsatkichlarini indikativ rejalashtirishda axborot texnologiyalarining ustunliklari nimada ?

5.Rejalashtirishda yakuniy iste'molchining manfaatlari qanday hisobga olinadi ?

6.Indikativ rejalashtirishda qo'llaniladigan axborot texnologiyalarining dasturiy vositalarining ahamiyatini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.

2. Basovskiy L.E. Prognozirovaniye i planirovaniye v usloviyax rinka. Uch.posob. M.: 2006.-260 s.

3. Bezrukov V. Organizatsiya gosudarstvennogo planirovaniya i regulirovaniya ekonomiki // Planovoe xozyaystve. 1990 g. № 3. – 69 s.

4. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Zohidov G'.E. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash.-T.: TDIU,2010.- 216b.

5. Jumaev X.N., Otaniyazov B., Yugay L.P., Jalilov A. Matematik programmashtirish: darslik. – T.:”Adabiyot jamg'armasi” nashriyoti, 2005. – 230b.

6. Knish M.I., Perekatov B.A., Tyutikov Yu.P. Strategicheskoe planirovaniye investitsionnoy deyatelnosti: Ucheb. posobie. – SPB.: Izd. dom “Bizness – Pressa”, 1998. – 315s.

7. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh, 2007 y, 2008 y “O'zbekiston”, - Toshkent.; 2008, 2009.

6-bob.

INDIKATIV REJALASHTIRISH VA IQTISODIY HODISALARNING TAMOIYILLARI

6.1. Indikativ rejalashtirish funksiyalari.

6.2. Indikativ rejalashtirish metodologiyasining asosiy qoidalari.

6.3. Iqtisodiy inqirozlar va rejalashtirish tajribalari.

6.4. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot konsepsiyalari.

6.1. Indikativ rejalashtirish Funksiyalari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan davlat va nodavlat sektorlarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ongli ravishda boshqarish usuli sifatida indikativ rejalashtirish rivojlanadi.

Indikativ rejalashtirish bozorning mustaqil subyektlarini davlat bilan mutanosib asoslarda rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb qilish usuli hisoblanadi. U tovar ishlab chiqaruvchilar, xaridorlar va umuman bozorga ta'sir etishning iqtisodiy vositalaridan foydalanishga asoslanib, davlat va xususiy sarmoya manfaatlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Indikativ reja ikkita asosga tayanadi. Bir tomondan, u dasturlar yoki alohida ko'rsatkichlarni ishlab chiqish uchun yo'naltiruvchi axborot hisoblanadi. Bu borada u tavsiyaviy xususiyatga ega: ko'rsatkichlar strategiya yoki iqtisodiy harakat to'g'risida qarorlar qabul qilishda indikatorlar sifatida foydalaniladi. Indikativ reja qamrab olgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun uning ko'rsatkichlari majburiy hisoblanadi, chunki ularni bajarmaslik rejada qo'yilgan vazifalarning bajarilmasligiga olib keladi.

Indikativ rejalar ustuvor yo'nalishlarga asoslanadi, ularning ayrimlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosati bilan belgilansa, boshqalari rejalashtirish jarayonida aniqlanadi. Asoslangan ustuvor yo'nalishlar zahirida tegishli rag'batlantirish mexanizmlari ishlab chiqiladi; milliy ahamiyatga ega bo'lgan yirik loyihalar bo'yicha o'rta muddatli dasturlar doirasida davlat va xususiy sektorning birgalikdagi sa'y-harakatlari evaziga investitsiya kelishuvlari tuziladi.

Indikativ rejalashtirishda korxonalar muvofiqlashtiruvchi organga (bu ijro etuvchi hokimiyat organi bo'lishi mumkin) o'zining mahsulotni sotish (etkazib berish) to'g'risidagi takliflarini yuboradi. Agar ular qabul qilinsa, bu ikkala tomon uchun ham tegishli majburiyatlarni yuklaydi: a) muvofiqlashtiruvchi organ hajmlarni amalga oshirish va rag'batlantirish tizimiga kiritadi; b) korxona olingan majburiyatni bajarishga majbur bo'ladi. Shunga o'xshash tartib direktiv rejalashtirishda ham yuqoridan va quyidan belgilangan rejalarni uyg'unlashtirish shaklida amal qilgan, farq faqat shundaki, endi reja korxonaga majburiy tartibda etkazilmaydi, balki u tomonidan ixtiyoriy ravishda qabul qilinadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari sifatida iqtisodiyotning dinamikasi, tarkibi va samaradorligini; moliya-kredit siyosatining holatini; tovarlar va qimmatli qog'ozlar bozori, valyuta bozorining holatini; narxlar harakatini; aholining bandligi va turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liq va muvazanatlashgan tizimi davlatning ta'siri choralari bilan to'ldiriladi, shu jumladan byudjet mablag'lari, amortizatsiya me'yorlari, kredit uchun foiz, soliqlar, bojxona bojlari, listenziyalar va kvotalar, davlat buyurtmalari va boshqalardan foydalaniladi.

Indikativ rejalashtirish bozor iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatishiga ta'sir etishning asosiy usuli hisoblanadi. U faqat bozor usullari bilan amalga oshirishning iloji bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan ko'plab masalalarning hal etilishini ta'minlashga qaratilgan. Bu davlat boshqaruv organlari tizimi barcha bo'g'inlarining ham o'zaro, ham mintaqaviy organlar bilan o'zaro hamkorligi shaklidir.

6.2. Indikativ rejalashtirish metodologiyasining asosiy qoidalari

Rejalashtirish mantig'i qator qonuniyatlarga (tamoyillarga) asoslanadi.

Rejalashtirish tamoyili – rivojlanish qonunlarining umumiy harakatini ifodalovchi hamda dasturlar, loyihalar va rejalarning vazifalarini, yo'nalishlarini va bajarilish imkoniyatlarini belgilab beruvchi obyektiv kategoriya.

Birinchi tamoyil – uzluksizlik – rejalarning izchilligida, ichki va tashqi sharoitlar o'zgarishi munosabati bilan rejalarga tuzatishlar kiritishda ifodalanadi.

Ikkinchi tamoyil – yagonalik – rejalashtirishning tizimli xususiyatini nazarda tutadi va muvofiqlashtirish (boshqaruvning bir darajasining Funktsional o'zaro hamkorligi) va integratsiya (rejalarni boshqaruv pog'onalari bo'yicha muvofiqlashtirish) orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi tamoyil – rejalashtirishning egiluvchanligi – ichki va tashqi sharoitlarga qarab rejalar yo'nalishini o'zgartirish.

To'rtinchi tamoyil – iqtisodiy siyosatning yagonaligi. Reja hujjatlari ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik va siyosiy qarorlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Beshinchi tamoyil – markazlashuv va hududiy manfaatlar yagonaligi – bunda davlat boshqaruvi organlari qarorlarining loyihalari qonunchilik doirasida xo'jalik faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishga qodir bo'lgan iqtisodiyot subyektlarining manfaatlarini hisobga oladi.

Oltinchi tamoyil – strategik dasturlar va rejalarning ilmiy asoslanganligi va samaradorligi quyidagilarni anglatadi:

- iqtisodiyotni, ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish, uning ijtimoiy yo'naltirilishini, mehnat samaradorligining yuqori darajasini ta'minlash maqsadida rejalashtirishda fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan amalda foydalanish;

- jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezda moslashish;
- strategik rejalarni tuzish va hisoblab chiqish uchun reja axborotining ishonchlilik darajasini oshirish;
- rejalarni ishlab chiqish texnologiyasini takomillashtirish.

Bundan tashqari, indikativ rejalashtirish quyidagi uchta o'ziga xos yoki lokal tamoyilga tayanadi:

- 1) etakchi bo'g'inlarni ajratish asosida optimal mutanosiblikni ta'minlash tamoyili;

- 2) prognozlar, dasturlar va rejalarning yagonaligi va majmuiyligi tamoyili;

- 3) dasturlar va rejalarni ishlab chiqish, ularning bajarilish imkoniyatini ta'minlash va bajarilishini tekshirish jarayonining yagonaligi tamoyili.

Strategik rejalashtirish tamoyillari ushbu guruhining tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Etakchi bo'g'inlarni ajratish asosida optimal mutanosiblikni ta'minlash tamoyilining mohiyati optimallik mezonlari: a) strategik rejalashtirish muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan vaqt; b) reja qarorlarini amalga oshirish uchun talab etiladigan kapital qo'yilmalar

hajmi, yoki moddiy resurslar hajmi; v) reja vazifasini hal etish uchun zarur bo'lgan xodimlar sonidan kelib chiqqan holda boshqaruvning tegishli subyektlari tomonidan boshqarilayotgan kichik tizimning tarkibiy unsurlari o'rtasida ulushlar va muvofiqliklarni shakllantirishdan iborat.

Etakchi bo'g'inlarni ajratish – strategik rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda va uning obyektlaridagi muvazanat uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish imkonini beruvchi muhim yo'nalishi. Etakchi bo'g'inlarni ajratishda shundan kelib chiqiladiki, jamiyatning ehtiyojlari hamma vaqt real ehtiyojlar va ideal ehtiyojlar majmuini o'z ichiga oladi. Ehtiyojlar o'z ahamiyatiga ko'ra indikativ rejalashtirish subyektlari va obyektlari uchun bir xil emas. Shuning uchun saflash asosida bir turdagi ehtiyojlarni boshqalaridan ko'ra afzal ko'rish zarurati tug'iladi.

2. Prognozlar, dasturlar va rejalarining yagonaligi va kompleksligi tamoyili. Firma, mintaqa, mamlakat doirasida takror ishlab chiqarish jarayonining yagonaligi, yagona iqtisodiy makon, tegshli infratuzilmaga ega bo'lgan yagona bozorning mavjud bo'lishi ushbu tamoyilning asosini tashkil qiladi.

Turli reja hujjatlarining yagonaligi rasmana bo'lishi va yagona shakllar, ko'rsatkichlar, jadvallar va ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish usullari bilan ta'minlanishi mumkin. U moddiy bo'lishi va topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan muayyan resurslarga tayanishi mumkin.

6.3. Iqtisodiy inqirozlar va rejalashtirish tajribalari

Hech bir davlat iqtisodiy tizimning beqarorligi bilan bog'liq xatarlardan himoyalangan. Biroq o'tish va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar bunday xatarlarga tez-tez duchor bo'ladi, chunki ularning bozorlari ochiq, lekin shu bilan birga moliyaviy beqarorlik paydo bo'lishi omillarining ta'sirini yumshatuvchi mexanizmlar shakllanmagan.

Iqtisodiy beqarorlikni mamlakat moliyaviy tizimidagi iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolar sifatida ta'riflash mumkin. Ko'p sonli tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tanglikdan oldin yuz beradigan moliyaviy beqarorlik davrlari umumiy asosiy unsurlarga ega bo'lishi mumkin. Moliyaviy inqirozlar natijasida iqtisodiyot ko'radigan katta miqdordagi xarajatlar tanglik oldidan yuz beradigan hodisalarning o'sishini bilish va iqtisodiy agentlarga ularga barham berish uchun vaqt berish imkonini beruvchi modellarni tuzishga undaydi. Shunday qilib,

tanglik avj olishining oldini olish uchun mamlakat iqtisodiyoti holatining monitoringini yuritish zarur.

Mamlakat iqtisodiyotidagi umumiy vaziyatni aks ettiruvchi asosiy makroiqtisodiy indikatorlar quyidagi tarzda guruhlanishi mumkin:

- Iqtisodiy o'sish sur'atlari:
 - YaIMning o'sish sur'atlari;
 - sanoat ishlab chiqarish dinamikasi.
- To'lov balansi:
 - joriy hisobvaraqa saldosi;
 - oltin-valyuta zahiralar;
 - tashqi qarz;
 - savdo shartlari (eksport narxlari);
 - import va eksport;
 - real samarali kurs;
 - sarmoyaning oqib chiqishi.
- Foiz stavkalari:
 - real foiz stavkasi;
 - ichki foiz stavkasi bilan LIBOR stavkasi o'rtasidagi farq;
 - kreditlar bo'yicha stavkalarining depozitlar bo'yicha stavkalarga nisbati.
- Pul indikatorlari:
 - IPII;
 - real ifodadagi ichki kredit dinamikasi;
 - pul multiplikatori;
 - real ifodadagi depozitlarning o'sish sur'atlari;
 - pul massasining oltin-valyuta zahiralariga nisbati;
 - real ifodadagi pullarning «ortiqcha» taklif etilishi.
- Valyuta bozoridagi bosim indeksi.

Iqtisodiy barqarorlik monitoringini yuritish uchun iqtisodiyot holati haqida oldindan xabar beruvchi indikatorlarni miqdoriy tahlil qilish metodologiyasi qo'llanilib, uning doirasida indikatorlarning chegara ko'rsatkichlari tuziladi, shuningdek keyingi davrda moliyaviy beqarorlikning baydo bo'lish ehtimolini baholash imkonini beruvchi moliyaviy barqarorlikning jamlama indeksi hisoblab chiqiladi.

6.4. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot konsepsiyalari

Belgilangan tartibga muvofiq davlat prognozlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanish prognozlari demografik, ilmiy-texnikaviy, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, shuningdek tarmoq, mintaqaviy va faoliyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa sohalarini aks ettiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy prognozlar makroiqtisodiy, tarmoq, idoraviy, hududiy xususiyatga ega bo'lib, ular umuman mamlakat bo'yicha, xalq xo'jaligi majmualari va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha, mintaqalar bo'yicha ishlab chiqiladi. Iqtisodiyot davlat sektorining rivojlanishini prognoz qilish alohida ajratiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari uzoq muddatli, o'rta muddatli va qisqa muddatli istiqbollar uchun bir necha variantlarda ishlab chiqiladi.

Uzoq muddatli istiqbol uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi 5-10 va undan ortiq yillar uchun ishlab chiqiladi. U birinchi navbatda qurilish ko'lamlaridagi, muddatlardagi, xarajatlarni qoplashdagi xatolar jamiyat uchun qimmatga tushadigan holatlarda yirik qimmatbaho loyihalarni amalga oshirishda zarur. Uzoq muddatli prognozning asosida fan, texnikaning rivojlanish tendensiyalari, fan-texnika taraqqiyotida kutilayotgan yuksalishlar yotadi.

Uzoq muddatli istiqbol uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlarining ma'lumotlaridan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini, o'rta muddatli istiqbol uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari va dasturlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

O'rta muddatli istiqbol uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan davrga ishlab chiqiladi va unga har yili tuzatishlar kiritiladi. O'rta muddatli istiqbol uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi ushbu prognozni ishlab chiqish uchun boshlang'ich asos bo'ladi. O'rta muddatli istiqbol uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi e'lon qilinishi lozim.

Qisqa muddatli istiqbol uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi har yili ishlab chiqiladi. Qisqa muddatli istiqbol uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasi va viloyatlar ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari;
- Ijtimoiy rivojlanish;
- Fanning rivoji;
- Byudjetdan tashqari va maqsadli byudjet fondlarining mablag'larini shakllantirish va sarflash;
- Xususiylashtirish;
- To'lov balansi;

- Fond bozorining rivojlanishi;
- Birlashtirilgan byudjet;
- Ishlab chiqarish va iste'mol dinamikasi.

Shuningdek, yilning choragi uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari ham ishlab chiqiladi.

Davlat prognozlaridan O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyat organlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat sohasida muayyan tadbirlar qo'llanilishida foydalaniladi. Prognoz mavjud bo'lgan taqdirda qarorlar nafaqat joriy voqealar uchun munosabat bildirish sifatida, balki uning oqibatlari to'g'risida aniq tasavvurni hisobga olgan holda qabul qilinadi. Har qanday qaror uning muhmligi va prognozlarning aniqligiga qarab qabul qilinadi.

Prognozlar xulosalari belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarda rivojlanishning obyektiv tarzda mumkin bo'lgan variantlari sifatida dasturlar, konsepsiyalar va rejalarni ishlab chiqishda tavsiya sifatida ham zarur. Prognoz korxonalarga noxush natijalarni, masalan, bankrotlikni oldini olish choralarini oldindan ko'ra olish imkonini beradi.

Xulosalar

Bozor mexanizmlari bilan samarali boshqariladigan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish; hatto davlatning aralashuvi zarur bo'lgan holatlarda ham faqat bozor mexanizmlariga tayanish zarur. Prognozashtirish va rejalashtirish rivojlanishning strategik yo'naltirilishini, tarkibiy qayta qurishlarning maqsadli xususiyatini, takror ishlab chiqarishning mutanosibligini, aholiga iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarni belgilab beradi.

Rejalashtirish – davlat, boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mamlakat, mintaqalar, tarmoqlar, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Tayanch tushunchalar

Ishlab chiqarishning ijtimoiy xususiyati, bozor mexanizmlari, aholiga iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlar, rivojlanishning strategik yo'naltirish, tarkibiy qayta qurishlar, prognoz vazifasi, demografik prognozlar, ijtimoiy prognozlar, ilmiy-texnikaviy prognozlar, tashqi iqtisodiy prognozlar, ekologik prognozlar, davlat sektori fondning qaytarilishi, material sig'imi, tovar mahsulotining o'sish sur'atlari, rejalashtirish tamoyili, iqtisodiy tangliklar.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning zaruriyati nimada?
2. Indikativ rejalashtirishning Funksiyalari qanday ?
3. Indikativ rejalashtirish qanday tamoyillarga asoslanadi ?
4. Iqtisodiy tangliklar oldini olishda rejalashtirishning ahamiyatini tushuntiring.
5. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqarishning zaruriyati nimada ?
6. Mamlakatda iqtisodiyot faoliyatini prognozlari va davlat dasturlarini ishlab chiqarishdan maqsad nimada ?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi Qonun.
3. Vaxabov A.V. Aktualnie problemi aktivizastii investistionnoy deyatelnosti kommercheskix bankov. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (4str).
4. Jumaev N.X., O.Q. Abduraxmonov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademnashr, 2010.—160b.
5. Chepel S.V. Alternativnie ssenarii i strategii dolgosrochnogo razvitiya nastionalnoy ekonomiki. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana.-T.: IPMI,2010 (17 str).
6. Davlat byudjetining g'azna ijrosi. Normativ huquqiy hujjatlar to'plami. -T.: O'zR Moliya vazirligi, 2010.-271 b.
7. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh, 2007 y, 2008 y "O'zbekiston", - Toshkent.; 2008, 2009.

7-bob.

INDIKATIV REJALASHTIRISH USULLARI

7.1. Indikativ rejalashtirishda umumiy yondashuvlar.

7.2. Indikativ rejalashtirishda tizimli yondashuv.

7.1. Indikativ rejalashtirishda umumiy yondashuvlar

Har qanday fan metodologiyasi umumiy dunyoqarash, umumiy metodologik tamoyillar, bilishning umumiy ilmiy usullari va o'ziga xos, xususiy metodologiya birligini o'zida namoyon etadi. Metodologiya – bu haqiqatni bilish va o'zgartirish maqsadida tadqiqot o'tkazish usullarining yig'indisidir. Rejalashtirish metodologiyasi indikativ rejalashtirishning ilmiy asosi hisoblanadi. Rejalashtirish metodologiyasi – bu amaliy faoliyatda iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beruvchi qonunlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish vositasidir; rejalashtirish muammolarini hal etish usullari va ularni amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish.

Metodologik yondashuv – bu barja darajadagi prognozlar, dasturlar, rejalar va vaqt gorizontlarini ishlab chiqishda strategik rejalashtirish mantig'i, tamoyillari va usullaridan foydalanishning yaxlit yo'nalishi.

Indikativ rejalashtirish rejalashtirishga nisbatan umumiy metodologik yondashuvlardan foydalanishni inkor etmaydi, lekin bunda ularga rejalashtirishning o'ziga xos Funksiyalari bilan shartlangan tuzatishlarni kiritadi (tizimli yondashuv, rejalashtirishning o'zini o'zi rivojlantiruvchi interaktiv sxemasi, o'zi o'qib, o'rganuvchi konsepsiya va rejalashtirishning moslashuvchan tizimi).

Avvalgi tajribani hisobga olish va reja qarorlarining izchilligi reaktiv yondashuvning afzalligi hisoblanadi. Reaktiv rejalashtirishning kamchiliklari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- rejalashtirish tizimlarining tarkibiy unsurlari o'rtasida o'zaro hamkorlikning mavjud emasligi;
- tashkilotlar xo'jalik faoliyati umumiy samaradorligining pasayishi;
- boshqaruvning byurokratik tizimi.

Innovastiyalarning mavjud emasligi, muhit o'zgarishiga moslashishga qodir emaslik, xodimlar mustaqilligi va ijodiy

salohiyatining cheklanganligi rejalashtirishga nisbatan inaktiv yondashuvning asosiy kamchiligi hisoblanadi.

Rejalashtirish tashqi muhit va rejalashtirish subyektlari ichki faoliyatining kelgusi o'zgarishlarini prognoz qilishdan iborat. Bunda rejalashtirish tadbirlari "yuqoridan quyiga" qarab amalga oshiriladi. Rejalashtirishga nisbatan preaktiv yondashuvning kamchiligi – to'plangan tajribadan to'liq foydalanmaslik, kelajakni tadqiq etish usullaridan foydalanishga haddan ziyod kirishib ketish.

Rejalashtirish metodologiyasi ko'ngildagi kelajakni "loyihalashtirishga" va uni tuzish yo'llarini o'zgartirishga asoslangan. Shu munosabat bilan rejalashtirishga nisbatan "moslashtiruvchi" yoki "vaziyatli" yondashuv keng tarqaldi. Ushbu metodologik yondashuv ichki va tashqi sharoitlarning o'zgarishini hisobga oluvchi va erishilgan samaradorlik darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaydigan barqaror qarorlarni qabul qilish imkonini beradi.

Atrof muhitdagi barcha o'zgarishlarni hisobga oluvchi va ulardan foydalanuvchi rivojlanishning optimal rejasini tuzish uchun "optimallashtiruvchi yondashuv" qo'llaniladi. Rejalashtirishga nisbatan say-harakatlarni kamaytirishga emas, balki optimal qarorlarni qidirib topishga yo'naltirilgan optimallashtiruvchi yondashuv metodologiyasi preaktiv yondashuvga mos keluvchi yo'nalishlarga ega.

Metodologik yondashuvlardan foydalanish indikativ rejalashtirishni rejalashtirish xillarining umumiy qiyosiy sxemasiga va rejalashtirish tizimlarining tasnifiy (klassifikatsion) tuzilishiga kiritish imkonini beradi.

Maqsadlar – indikativ rejalashtirishda ideal holat yoki rejalashtirish obyektining ma'lum vaqt oralig'ida faoliyat ko'rsatish natijalari sifatida tushunladi.

Vazifa – bu rejalashtirish davri doirasida ma'lum vaqt oralig'ida erishilishi ko'zda tutilgan maqsadlar. Vazifalar rejalashtirilayotgan davr mobaynida amalga oshirilishi lozim.

Ideal – bu erishilib bo'lmaydigan, lekin unga cheksiz ravishda yaqinlashish mumkin bo'lgan maqsad.

Konsepsiya – bu global maqsadlar va reja davrida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda o'z ifodasini topuvchi prognozlar, dasturlar loyihalari va rejalarning umumiy maqsadi hamda unga erishish yo'llari, shakllari va usullarini aniqlash.

Taktik rejalashtirish – taktik vazifalarni tanlashni va ma'lum strategiya va ideal doirasida ularga erishish vositalarini tanlashni nazarda tutadi.

Tezkor rejalashtirish ko'zlangan maqsadlarga erishish vositalarini tanlashni nazarda tutadi.

Normativ rejalashtirish faoliyatni rejalashtirishda katta erkinlik bilan tavsiflanadi.

7.2. Indikativ rejalashtirishda tizimli yondashuv

Tizimli yondashuv mohiyati tizimlar umumiy nazariyasi talablarini amalga oshirishdan iborat bo'lib, unga ko'ra har bir obyekt uni tadqiq etish jarayonida katta va murakkab tizim sifatida va bir vaqtning o'zida, umumiy tizim unsuri sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

1. Tizimli-majmuaviy yondashuv – turli ijtimoiy tizimlar (majmualar) – korxonalar, mintaqalar va jamiyatga nisbatan tizimli yondashuvni aniqlashtirish. Har bir majmua murakkab dinamik tizim sifatida va darajasi bo'yicha yanada yuqori tizimning unsuri sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda unsuriy, tarkibiy, FunkSIONal, maqsad, resurs, kommunikativ va tarixiy jihatlardan foydalaniladi.

2. Tizimli-dasturiy (dasturiy-maqsadli) yondashuv strategik rejalashtirish obyektlarining yirik lokal ilmiy, texnik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarini hal etishga nisbatan tizimli yondashuvni aniqlashtirish. Tizimli-dasturiy yondashuvga xos belgilar: aniq maqsadga yo'naltirilganlik, tadbirlarning kompleksligi, amalga oshirish muddatlarining aniqligi va resurslar manbalarining ko'rsatilishi. Tizimli-dasturiy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish jarayonida quyidagilarni ta'minlash zarur: 1) rejalashtirilayotgan tizimni rivojlantirish maqsadini yoki uning uchun maqsadlar tizimini ilmiy jihatdan ta'riflash; 2) maqsadlarga erishishning muqobil variantlarini ishlab chiqish; 3) resurslar hajmi va tarkibini aniqlash; 4) rejalashtirilayotgan tizimning faoliyat ko'rsatish modelini ishlab chiqish; 5) muqobil varintlardan biznes-qarorlarni tanlash uchun mezonni qidirib topish.

3. Tizimli-multiplikation yondashuv (multiplikatsiya – ko'paytirish) – samalari paydo bo'lishi bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etishga nisbatan tizimli yondashuvni aniqlashtirish.

4. Tizimli-me'yoriy yondashuv – rejalashtirish subyektlarining talablarini indikativ rejalashtirishga, uning obyektlariga nisbatan (mehnat, moddiy va h.k.) resurslardan optimal tarzda foydalanish bo'yicha tizimli yondashuvni aniqlashtirish. Odatda u quyidagi uchta muhim yo'nalishda amalga oshiriladi: a) ijtimoiy yo'nalishlarni belgilash (dasturlar va rejalarda ijtimoiy tizim holatining muayyan darajasiga erishish uchun

maqsadlarni shakllantirish, masalan, ishsizlik darajasini mamlakat iqtisodiy faol aholisining 5 foizigacha kamaytirish); b) ishlab chiqarishni boshqarishda va boshqa sohalarida me'yorlar tizimidan foydalanish. Me'yor – joriy va rejalashtirilayotgan davr sharoitida belgilangan sifatdagi mahsulot birligini tayyorlash (ishlarni bajarish) uchun resursning ijtimoiy zarur sarflarining ilmiy asoslangan o'lchovi; v) normativlar tizimini ishlab chiqish va foydalanish. Normativ – me'yorning resursdan foydalanish darajasini yoki o'lchov birligi uchun uning solishtirma sarfini tavsiflovchi tarkibiy qismi, masalan, amortizastiya ajratmalari, soliq stavkalari, boshqaruv normativlari.

5. Tizimli – tejash rejimi yondashuvi – faoliyatning barcha sohalarida tejash qonuni talablarining amalga oshirilishini ta'minlovchi tadbirlarni tadqiq etish, ishlab chiqish va asoslashga nisbatan tizimli yondashuvni aniqlashtirish. Indikativ rejalashtirish amaliyotida ushbu metodologik yondashuv tejash, tadbirlarini ishlab chiqish va bir resurslarni boshqasi bilan, eskirgan texnologiyalarni ilg'or texnologiyalar bilan samarali almashtirish bo'yicha topshiriqlarni belgilash. Xarajatlarning unda ular foydali samara birligiga kamayadigan tarzda qisqarishi (solishtirma xarajatlar) tejash rejimiga mos keladi. Mazkur yondashuvning asosiy yo'nalishlari – asosiy va aylanma xarajatlarni kamaytirish, jonli mehnatni, tabiiy resurslarni tejash, tovarlar va noishlab chiqarish fondlarining muomalasi va iste'mol qilinishi jarayonida tejash.

6. Tizimli-dinamik yondashuv – indikativ rejalashtirish obyektlarini rivojlantirish, sifat xususiyatlarini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni tadqiq etish, ishlab chiqish va asoslashga nisbatan tizimli yondashuvni aniqlashtirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari sifatida iqtisodiyotning dinamikasi, tarkibi va samaradorligini; moliya-kredit siyosatining holatini; tovarlar va qimmatli qog'ozlar bozori, valyuta bozorining holatini; narxlar harakatini; aholining bandligi va turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liq va muvazanatlashgan tizimi davlatning ta'siri choralari bilan to'ldiriladi, shu jumladan byudjet mablag'lari, amortizastiya me'yorlari, kredit uchun foiz, soliqlar, bojxona bojlari, listenziyalar va kvotalar, davlat buyurtmalari va boshqalardan foydalaniladi.

Xulosalar

Innovastiyalarning mavjud emasligi, muhit o'zgarishiga moslashishga qodir emaslik, xodimlar mustaqilligi va ijodiy

salohiyatining cheklanganligi rejalashtirishga nisbatan inaktiv yondashuvning asosiy kamchiligi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan rejalashtirishga nisbatan “moslashtiruvchi” yoki “vaziyatli” yondashuv keng tarqaldi. Ushbu metodologik yondashuv ichki va tashqi sharoitlarning o'zgarishini hisobga oluvchi va erishilgan samaradorlik darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaydigan barqaror qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Rejalashtirishga nisbatan say-harakatlarni kamaytirishga emas, balki optimal qarorlarni qidirib topishga yo'naltirilgan optimallashtiruvchi yondashuv metodologiyasi preaktiv yondashuvga mos keluvchi yo'nalishlarga ega.

Tizimli yondashuv mohiyati tizimlar umumiy nazariyasi talablarini amalga oshirishdan iborat bo'lib, unga ko'ra har bir obyekt uni tadqiq etish jarayonida katta va murakkab tizim sifatida va bir vaqtning o'zida, umumiy tizim unsuri sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Mazkur yondashuvning asosiy yo'nalishlari – asosiy va aylanma xarajatlarni kamaytirish, jonli mehnatni, tabiiy resurslarni tejash, tovarlar va noishlab chiqarish fondlarining muomalasi va iste'mol qilinishi jarayonida tejash. Ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liq va muvazanatlashgan tizimi davlatning ta'siri choralari bilan to'ldiriladi, shu jumladan byudjet mablag'lari, amortizatsiya me'yorlari, kredit uchun foiz, soliqlar, bojxona bojlari, listenziyalar va kvotalar, davlat buyurtmalari va boshqalardan foydalaniladi.

Tayanch tushunchalar

Metodologiya, metodologik yondashuv, rejalashtirish metodologiyasi, iqtisodiyotning rivojlanish, innovatsiyalar salohiyatini optimallashtirish, ideal, konsepsiya, normativ rejalashtirish, tizimli-dasturiy, strategik rejalashtirish tadbirlarning kompleksligi, tizimli-multiplikatsion yondashuv, aylanma xarajatlarni tizimli yondashuvi, to'lov balansi, depozitlar, ekspert balans ko'rsatkichlari, sintez predmetlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Indikativ rejalashtirish fani metodologik tamoyillari qanday.
2. Indikativ rejalashtirishda iqtisodiyotni rivojlanish qonunlaridan qanday foydalaniladi.
3. Indikativ rejalashtirishda qanday yondashuvlar mavjud.
4. Indikativ rejalashtirishda tizimli yondashuv xususiyatlari nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Zohidov G'.E. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash.-T.: TDIU,2010.- 216b.
2. Basovskiy L.E. Prognozirovanie i planirovanie v usloviyax rinka. Uch.posob. M.: 2006.-260 s.
3. Xakimov Razrabotka makroekonomicheskoy modeli Uzbekistana dlya analiza i prognoza ustoychivosti razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (8 str).
4. Ekonometrika: Uchebnik. Podred. Eliseevoy I.I. – 2-e izd. –M.: Finansi i statistika, 2007. –576s.
5. O'zbekiston iqtisodiyoti: erishilgan yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy – amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami. – T.: TDIU, 2008. –369b.
6. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh, 2007 y, 2008 y “O'zbekiston”, - Toshkent.; 2008, 2009.

8-bob.

INDIKATIV REJALASHTIRISHDA IJTIMOIIY – IQTISODIY RIVOJLANISHNING SSENARIY SHARTLARINI ANIQLASH

8.1. Siyosiy qarorlar variantlarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar rivojlanishiga ta'siri.

8.2. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini tarkibi.

8.1. Siyosiy qarorlar variantlarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar rivojlanishiga ta'siri

Ssenariy shartlarini ishlab chiqish, odatda, ikkita variantda amalga oshiriladi:

1-variant – bazoviy – prognoz qilinayotgan davrda iqtisodiyotni rivojlantirish tendensiyalari hamda tashqi va ichki shartlarini saqlab qolgan holda inertsion rivojlanish varianti.

2-variant – asosiy – prognoz qilinayotgan davrda mintaqaviy darajada boshqaruvchi ta'sirlar tizimini qo'llash varianti.

Ssenariylarning ushbu variantlari bo'yicha prognoz qilinayotgan davr uchun hisob-kitoblarni taqqoslash amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan davlat hokimiyati organlari siyosatining samaradorligini ko'rsatadi.

Ssenariy shartlarini ishlab chiqishda quyidagi vazifalarni hal etishga e'tiborni qaratish zarur:

- aholining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan davlat ta'siri chora-tadbirlarining majmuini ishlab chiqish va asoslash;
- davlat byudjeti va mintaqaviy byudjetlarning barqaror to'ldirilishini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- ishlab chiqarish va infratuzilmani yangilash maqsadida investitsiya faoliyatini rag'batlantirish;
- kichik tadbirkorlikni rivojlantirish;
- korxonalarning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish, kreditorlik qarzlarning miqdorini pasaytirish, korxonalarning asosiy va aylanma sarmoyasini moliyalashga jalb etiladigan kredit resurslarining hajmini oshirish chora-tadbirlari majmuini amalga oshirish;

- real byudjetlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat mablag'larini tejagan holda soliq va soliqdan tashqari to'lovlarni to'liq safarbar etish, byudjet taqchilligini qisqartirish;

- aholining kam ta'minlangan qismiga yordam ko'rsatishni takomillashtirgan holda uy-joy kommunal xo'jaligini moliyalash tizimini va uni boshqarish tuzilmasini isloh qilish;

- ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish;

- mahsulot sotish jahon va milliy bozorlarining ahvolini va rivojlanish istiqbollari baholash.

Investistiyalarni shakllantirishning barcha manbalarini: korxonalar mablag'lari; ko'chmas mulk muomalasi; aholi jamg'armalari; xorijiy investistiyalar; davlat va mintaqaviy byudjetlar mablag'lari va boshqa manbalarini safarbar etish muhim vazifa hisoblanadi.

8.2. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini tarkibi

Iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish vazifasi va uning asosida yotuvchi iqtisodiy siyosat konsepsiyasi – bu mavjud tuzum doirasida eng yuqori farovonlikka erishish maqsadida ko'p sonli va turli manfaatlar o'rtasida kelishiladigan murosa.

Davlat iqtisodiy siyosatining tizimli tarzda amalga oshirilishi mamlakatda ayni damda mavjud bo'lgan real imkoniyatlar va maqsadlarga mos keluvchi iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishni talab qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishda mamlakat aholisining farovonligini oshirish, hayot kechirish va mehnat faoliyatini yuritish uchun qulay muhitni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu aholi turmush darajasi va farovonligi ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi.

Shuningdek, umumiy iqtisodiy muvazanat tamoyillariga amal qilgan holda yanada iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim maqsadlaridan yana biri hisoblanadi.

Bir tomondan, gap tovarlar va xizmatlarning umumiy talabi va umumiy taklifi, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish omillari (cheklangan ishlab chiqarish resurslari)ni takror ishlab chiqarishda bozor tamoyillariga amal qilinishi haqida borayapti, bunga mahsulotni yakuniy foydalanish yo'nalishlari (ishlab chiqarish omillari) bo'yicha taqsimlash ushbu

omilning ishlab chiqarilgan mahsulotning o'sishiga qo'shgan hissasiga muvofiq amalga oshirilgan taqdirda erishiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish bosqichlari. Davlat iqtisodiy siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish quyidagi unsurlarga asoslanadi:

1. Iqtisodiyotda ishlarning ahvolini tahlil qilish. Davlatning oqilona iqtisodiy siyosati shundan boshlanadi. Tahlil muayyan xo'jalik darajasida amalga oshiriladi, mamlakat, tarmoq, mintaqa, soha iqtisodiyotidagi «og'riqli nuqtalar» ajratiladi, muammolarni hal etishning muddatliliigi, salbiy holatlarga barham berish yoki bermaslikning muqobil oqibatlarini baholanadi.

2. Maqsadlarni ishlab chiqish va asoslash. U umuman barcha mumkin bo'lgan maqsadlarni aniqlashdan boshlanadi. So'ngra har bir maqsadning xususiyati aniqlanadi; u dastlabki, oraliq yoki yakuniy, miqdoriy yoki sifat, qisqa muddatli yoki o'rta muddatli maqsadlarga taalluqli. Ayrim maqsadlar bir vaqtning o'zida turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, ushbu holatda ular ichidan hozirgi vaziyat nuqtai nazaridan eng asosiylarini ajratish lozim.

Maqsadlar ularni bajarishning xalq xo'jaligiga ta'siri ko'lamlari va xarajatlarning miqdoriy parametrlari, institustional, moliyaviy va kadrlar bilan ta'minlash imkoniyatlari bo'yicha ham farq qiladi. So'ngra maqsadlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aniqlanadi: ular uyg'unlashgan, betaraf yoki nizoli bo'lishi mumkin.

3. Maqsadlarni tartibga keltirish, maqsadlar daraxtini shakllantirish – bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining dinamik tizimini shakllantirish, ularni vaqt oraliqlari bo'yicha taqsimlash vazifasidir.

Maqsadlar daraxti - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining tizimlashtirilgan to'plami.

Iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solishning asosiy maqsadi **mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni mustahkamlash va takomillashtirishdan iborat.**

Quyidagilar birinchi darajali maqsadlar sifatida ishtirok etadi:

- a. Mamlakat aholisining turmush darajasini oshirish.
- b. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlab turish.
- v. Kelgusida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlash.
- g. Mamlakatning ekologik xavfsizligi.

Iqtisodiy stiklni tenglashtirish shartlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish ikkinchi darajadagi maqsadlar hisoblanadi.

Bacha ushbu maqsadlar bosh maqsad bilan birgalikda maqsadlar daraxtini hosil qiladi.

Davlat yo'li bilan tartibga solish maqsadlarini ishlab chiqish tamoyillari:

- ***Mavjud tizimga moslik.*** Davlat faoliyatining asosiy maqsadi – mavjud tuzumni saqlash, mustahkamlash va takomillashtirish, xalqning turmush darajasini oshirish vazifalarini hal etish maqsadlariga mos kelish.

- ***Ilmiy jihatdan asoslanganlik.*** Umuman iqtisodiyotda, uning alohida sektorida yoki xo'jalik obyektidagi holatni yaxshilovchi har qanday maqsadni belgilash va amalga oshirish oqlangan. Agar ushbu maqsadga erishish boshqa obyektlarga zarar etishiga olib kelsa, u holda mazkur zarar to'liq qoplanishi lozim.

- ***Maqsadlar to'plamining o'zaro bog'liqligi.*** Davlat yo'li bilan tartibga solishning har qanday maqsadi faqat barcha qolgan maqsadlar bilan o'zaro bog'liqlikda, uning maqsadlarning ustuvor yo'nalishlari tizimidagi o'rniga muvofiq belgilanishi va amalga oshirilishi mumkin.

- ***Maqsadlarning realligi.*** Oldinga qo'yilgan maqsadlar nafaqat mavjud huquqiy normalar doirasida, balki real chegaralar doirasida bo'lishi kerak.

- ***Maqsadlarning hamjamiyat a'zolari uchun qulayligi.*** Oldinga qo'yilgan maqsadlar saylovchilarning keng ommasi, iqtisodiy manfaatlar bo'yicha uyushmalar uchun aniq, tushunarli va ko'ngilli bo'lishi zarur.

Davlat yo'li bilan tartibga solish vositalarining qo'llanilish darajasini tahlil qilish.

Bunga alohida tartibga soluvchi vositalarni qo'llash shartlarini, ularning maqsadlarga mos kelishini, alohida vositalarning birgalikda mavjud bo'lishi darajasini, ularni qo'llashning qo'shimcha ta'sirlarini, tartibga solish vositalarining samaradorligini va ularni qo'llash zaruratini asoslashning etarliligini aniqlash kiradi.

Iqtisodiyotni davlat orqali dasturlash, xususiy mulkni milliylashtirish, davlat sektorining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash kabi ma'muriy usullar va davlat yo'li bilan tartibga solish vositalarini qo'llash imkoniyatlari va chegaralari to'g'risidagi masala muhimligicha qolmoqda.

Tayanch tushunchalar

Inerston rivojlanish, infratuzilma, konsepsiya, takror ishlab chiqarish, bozor tamoyillari, parametrlar, institustional, ekologik xavfsizlik, stikl, maqsadlarni ustuvor tartibga soluvchi vositalar, davlat sektori, milliylashtirish.

Xulosalar

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishda mamlakat aholisining farovonligini oshirish, hayot kechirish va mehnat faoliyatini yuritish uchun qulay muhitni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Ayrim maqsadlar bir vaqtning o'zida turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, ushbu holatda ular ichidan hozirgi vaziyat nuqtai nazaridan eng asosiylarini ajratish lozim.

Maqsadlar ularni bajarishning xalq xo'jaligiga ta'siri ko'lamlari va xarajatlarning miqdoriy parametrlari, institustional, moliyaviy va kadrlar bilan ta'minlash imkoniyatlari bo'yicha ham farq qiladi. Iqtisodiy stiklni tenglashtirish shartlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish ikkinchi darajali maqsadlar hisoblanadi.

Davlat yo'li bilan tartibga solish tartibga soluvchi vositalarni qo'llash shartlarini, ularning maqsadlarga mos kelishini, alohida vositalarning birgalikda mavjud bo'lishi darajasini, ularni qo'llashning qo'shimcha ta'sirlarini, tartibga solish vositalarining samaradorligini va ularni qo'llash zaruratini asoslashning etarliligini aniqlash kiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari tavsiflovchi ko'rsatkichlarni bilasiz?
2. Davlatning siyosiy qarashlari ijtimoiy-iqtisodiy tizimning rivojlanishiga qanday ta'sir etadi?
3. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivoj konsepsiyasi qaysi maqsadda ishlab chiqariladi.
4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi nimada?
5. Davlatning iqtisodiy konsepsiyasini ishlab chiqish qanday unsurlarga asoslanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Xalq so'zi. 13.11.2010, №220(5135).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi

Qonun.

3. O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonuni. 1993 yil 2 sentyabr, 915-XII-son.

4. Kadirov A.M. Metodologicheskie podxodi k analizu strategii sostialno-ekonomicheskogo razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (3 str).

5. Chepel S.V. Alternativnie ssenarii i strategii dolgosrochnogo razvitiya nastionalnoy ekonomiki. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana.-T.: IPMI,2010 (17 str).

9-bob.
MINTAQALARNING IJTIMOIIY – IQTISODIY
RIVOJLANISHIDA INDIKATIV REJALASHTIRISHNING
MAQSADI VA VAZIFALARI

- 9.1. Mintaqaviy indikativ rejalashtirish – mintaqa boshqaruv tizimining asosiy unsuri.**
- 9.2. Mintaqaviy rejalarni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari.**
- 9.3. Mintaqani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi.**
- 9.4. Mintaqaviy rejalashtirish amaliyotidagi asosiy muammolar. O'zbekistonda mintaqaviy rejalashtirish amaliyoti.**

9.1. Mintaqaviy indikativ rejalashtirish – mintaqa boshqaruv tizimining asosiy unsuri

Makroiqtisodiy muvazanat va barqarorlashuvni ta'minlash uchun davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uni amalga oshirish zarurati shu bilan bog'liqki, har qanday mamlakat ko'plab ko'rsatkichlar bo'yicha farq qiluvchi hududlar yig'indisini o'zida namoyon etadi. Quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

- tabiiy resurslar (xomashyo bazasi va foydali qazilmalar)ning mavjudligi;
- aholi zichligi, mehnat resurslarining mavjudligi va sifati;
- ishlab chiqarish tarkibi;
- ijtimoiy sohaning holati;
- yuqori darajada rivojlangan sanoat va madaniy markazlargacha bo'lgan masofa.

Ushbu farqlar ham obyektiv, ham subyektiv xususiyatga ega. Obyektiv xususiyatlar jumlasiga tabiiy resurslar, inson uchun hayotiy qulayliklarning hududiy notengligini kiritish mumkin. Tarixan har bir mamlakat millat tomonidan belgilangan hayotiy kenglikning o'zlashtirilishi yo'li bilan shakllangan. Aholining hudud bo'ylab taqsimlanishi ko'p jihatdan tabiiy ne'matlar (foydali qazilmalar zahirolari, unumdor erlar, suv arteriyalari)ning har xil tarzda joylashuvi bilan shartlangan. Bunda subyektiv omil ham muhim rol o'ynaydi – insonning

sho'rlangan hududlarni o'zlashtirish faoliyati, davlatning e'tibori va ularga yordam ko'rsatishi.

Vaqt o'tishi bilan ayrim noishlab chiqarish omillarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli o'zgarishi munosabati bilan hududlar rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar doimiy bo'lib qolmaydi. Shunday qilib, hududiy notenglik mamlakat iqtisodiyotining rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. U, bir tomondan, ishlab chiqarish resurslarining mamlakat hududi bo'ylab joylashuvdagi notenglik bilan, ikkinchi tomondan, alohida omillarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolining dinamikasi bilan bog'liq. Shuning uchun har bir mamlakatda tabiiy resurslarga boy, lekin aholisi kam; ularning ikkalasi bilan ham etarli darajada ta'minlangan; allaqachon va yaqinda o'zlashtirilgan yoki o'zlashtirilayotgan; aholisining soni qaerdadir oshib, qaerdadir kamayib borayotgan; qaerdadir katta yoshdagi aholi guruhi ustunlik qiladigan, qaerdadir ularning ulushi kamayib borayotgan mintaqalar mavjud bo'lishi mumkin.

Alohida mintaqalarning notengligini kamaytirish uchun davlat iqtisodiy tartibga solishning alohida yo'nalishi hisoblangan mintaqaviy siyosatni qo'llaydi. Davlatning mintaqaviy siyosati milliy xo'jalikning muayyan hududiy-ishlab chiqarish muvazanatiga erishish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisini o'zida namoyon etadi.

Mintaqaviy siyosatni ishlab chiqishda bir qator konseptual holatlarni nazarda tutish zarur. Ishlab chiqarish sektorining o'sishini rag'batlantirish yo'li bilan hududlarni qo'llab-quvvatlash lozim; ushbu sektor eng ko'p sonli yangi ish o'rinlarini yaratadi. Davlat o'z navbatida ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va kengaytirishga, zarur holatlarda – ularni qayta yo'naltirish va takomillashtirishga yordam beradi.

Mintaqaviy siyosat qonunchilik-huquqiy negizlarga asoslanishi va jamiyatning ijtimoiy talablariga, shuningdek iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlik talablariga javob berishi lozim. Mintaqalar muayyan iqtisodiy yaxlitlikka ega bo'lishi va ma'lum darajada o'zini o'zi ta'minlashi zarur.

Evropada integratsiya jarayonlarining rivojlanishi natijasida Evropa iqtisodiy hamjamiyati doirasida so'nggi yillarda mintaqaviy siyosatning roli og'ishmay oshib bormoqda. Bundan o'n yil ilgari u EI faoliyatining faqat strategik muhim sohalarda taraqqiyotga erishish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha yo'nalishi hisoblanardi. 80-yillarning oxiriga kelib u jiddiy mustaqil ahamiyat kasb etdi. Endi Evropa ittifoqini tuzish to'g'risidagi Maastrixt shartnomasining kuchga kirishi munosabati bilan nafaqat EI mintaqaviy siyosatini amalga oshirish imkoniyati sezilarli

darajada kengaydi, balki integratsiya jarayoni doirasida ittifoq a'zosi hisoblangan mamlakatlar alohida mintaqalarining roli ortdi. EI doirasida mintaqaviy siyosat quyidagi tamoyillardan kelib chiqib amalga oshiriladi:

- mablag'lar sochilishiga yo'l qo'yilmasligi ustidan qat'iy nazorat o'rnatgan holda tarkibiy fond resurslarini EIning eng kam rivojlangan hududlarida jamlash. Ushbu fondan amalga oshiriladigan moliyaviy to'lovlarning 80% iqtisodiy rivojlanishda yaqqol ortda qolayotgan mintaqalarga berilishi kerak;

- tarkibiy xususiyatga ega bo'lgan subsidiyalar o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega, ya'ni EI institutlari faqat milliy dasturlarni amalga oshirish chog'ida resurslarni qo'shimcha manba sifatida berishlari mumkin va o'z tashabbusiga ko'ra o'z aralashuvi obyektlarini belgilashga haqli emaslar;

- EI mintaqaviy siyosatini guruhga a'zo bo'lgan har bir mamlakatning makroiqtisodiy va ijtimoiy siyosatini uyg'unlashtirish. Mintaqaviy rivojlanish milliy dasturlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlagan holda EI organlari integratsion yo'nalishlar ushbu mamlakat iqtisodiy siyosatining vazifalariga zid kelmasligini, EI byudjetidan ajratiladigan mablag'lar esa milliy va mahalliy hokimiyat organlarining bahamjihat harakatlari tufayli ko'kka sovurilmasligini nazorat qilishlari lozim;

- EI davlatlari tomonidan milliy mintaqaviy dasturlarning amalga oshirishi chog'ida ular o'rtasidagi bevosita o'zaro hamkorlik. Gap, xususan, milliy dasturlarni amalga oshirish maqsadlari va usullarining aniqligini ta'minlash maqsadida tegishli hukumatlar o'rtasida axborot almashuvi haqida borayapti.

Mintaqaviy dasturlashtirish tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida yig'ma dasturlarni ishlab chiqish va baholash metodikasi indikativ rejalashtirish vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Bugungi kunga kelib mintaqaviy dasturlashtirish jahon amaliyotida nazariy tadqiqotlar borasida katta tajriba to'plangan.

Muammoning hududni rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga egaligi, dasturiy tadbirlarning amalga oshirilishi zahirida maqsadni belgilash va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning samarali tizimi mintaqaviy kompleks dasturlarning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi muhim omillar hisoblanadi.


9.2. Mintaqaviy rejalarni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari

Maqsadli kompleks dasturni ishlab chiqish asnosida mintaqani

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash jarayonining o'ta muhimligini ta'kidlash zarur. Dasturda belgilanadigan ustuvor yo'nalishlarning to'g'ri tanlanishi barcha sa'y-harakatlar va resurslarni iqtisodiy rivojlanish salohiyatini amalga oshirishga qaratish va bu bilan dasturiy tadbirlarning samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Biroq amaliyotda dasturiy ishlab chiqish uchun muammolarni tanlash mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida "kasal" uchastkalar ro'yxati bilan cheklanadi, holbuki, ilmiy asoslangan yondashuvni qo'llagan holda barcha muammolar ichidan ularning hal etilishi mintaq uchun sifat jihatdan yangi istiqbollarni ochib beruvchi muammolarni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, aksariyat holatlarda maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda maqsadlar, ustuvor yo'alishlar, indikatorlar va mintaqaviy rivojlanishning tartibga soluvchilari o'rtasida o'zaro bog'liqlik ta'minlaymaydi.

Mintaqaviy rejalashtirishning «maqsadlar daraxti» uchta darajadan tarkib topgan (2-rasm).



2-rasm. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish «maqsadlar daraxti»

1-daraja. Hudud jadal o'sish salohiyatiga ega bo'ladigan rivojlanish variantini shakllantirish.

2-daraja.

2.1. Tabiiy-resurs majmuini saqlab qolish va rivojlantirish.

2.2. ASM va sanoatni takomillashtirish.

2.3. Sayyohlik-rekreastion majmuani istiqbolli rivojlantirish.

2.4. Mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish.

2.5. Mintaqa aholisining turmush darajasini oshirish.

3-daraja.

3.1. Geologiya-razvedka ishlarining sifatii va ma'danli xomashyo bazasini yaxshilash.

3.2. Atrof muhitni muhofaza qilish.

3.3. Mintaqaning o'rmon xo'jaligini rivojlantirish.

3.4. Qishloq xo'jaligi mahsuloti, xomashyo va oziq-ovqat

mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

3.5. Mintaqa ASMda agrar islohotlarni amalga oshirish.

3.6. Sanoat korxonalarida innovastion va investistiya jarayonlarini jadallashtirish.

3.7. Sayyohlikning turli xillarini yanada rivojlantirish.

3.8. Tarmoqqa malakali ishchi kuchini jalb qilish.

3.9. Investistiyalarni jalb qilish mexanizmlarini shakllantirish.

3.10. Mintaqaga investistiyalarni jalb qilish.

3.11. Tashqi sarmoyadorlar sarmoyasini mintaqaga jalb etish maqsadida ular bilan tizimli ishlash.

3.12. Kichik biznes va xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

3.13. Mintaqa aholisining turmush darajasini oshirish.

3.14. Mintaqa aholisining turmush sifatini yaxshilash.

Dasturning tarkibiy tuzilishi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi lozim:

1. Dastur pasporti.

2. Asosiy mazmuni.

2.1. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati va uni rivojlantirish strategiyasi.

2.2. Mintaqani rivojlantirish muammolarini hal etishning ustuvor yo'nalishlarini asoslash.

2.2.1. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish «maqsadlar daraxti».

2.2.2. Mintaqani rivojlantirish muammolarini hal etishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash.

2.2.3. Dasturning ustuvor maqsadlari va yo'nalishlarini belgilash.

2.3. Dasturni amalga oshirish maqsadlari, vazifalari, muddatlari va bosqichlari.

2.4. Dasturiy tadbirlar tizimi.

2.5. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturiy indikativlash.

2.6. Dasturni boshqarishni tashkil etish.

2.7. Dasturni resurslar bilan ta'minlash.

2.8. Dasturni amalga oshirish natijalarining samaradorligini baholash.

2.8.1. Har maqsad va vazifa bo'yicha dasturiy tadbirlar bajarilishining sifat va miqdoriy natijalari.

2.8.2. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini joriy dasturiy-

indikastion baholash.

2.8.3. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yakuniy dasturiy-indikastion baholash.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darjasini baholash jarayonida integral indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Indikatorlarni hisoblab chiqishda taqqoslash bazasi sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin: tahlil qilinadigan har bir davr uchun mintaqaviy o'rtacha va maksimal ko'rsatkichlar; mintaqaning ma'muriy birliklari bo'yicha o'rtacha va maksimal ko'rsatkichlar (**2-jadval**).

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatish belgisi bo'yicha indikatorlarni ikkita guruhga bo'lish mumkin:

- ijobiy jarayonlarni yorituvchi indikatorlar.
- salbiy jarayonlarni yorituvchi indikatorlar.

2-jadval

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlarining uch darajali pog'onasi

Birinchi daraja indikatorlari	Ikkinchi daraja indikatorlari	Uchinchi daraja indikatorlari
1	2	3
Ijtimoiy blok		
1.Salomatlik	1.1. Sog'liqni saqlash	1.1.1. 1000 kishiga vrachlar soni 1.1.2. 1000 kishiga kasallar koykalarining soni 1.1.3. 1000 kishiga aholining kasallanishi darajasi 1.1.4. 1000 kishiga vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasalarining quvvati
2.Farovonlik	2.1. Daromadlar	2.1.1. Aholining oylik pul daromadlari, aholi jon boshiga hisoblanganda 2.1.2. Bir aholining o'rtacha oylik ish haqi.
	2.2. Bandlik	2.2.1. Bandlik darajasi, %
	2.3. Ijtimoiy himoyalanganlik	2.3.1. Bir aholiga ijtimoiy to'lovlarning o'rtacha miqdori, so'm.
	2.4. Tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish	2.4.1. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish hajmi, bir aholiga so'm hisobida 2.4.2. Aholiga maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi, bir aholiga so'm hisobida
3.Xavfsizlik	3.1. Xavfsizlik	3.1.1. 100 ming kishiga jinoyatchilik koeffitsienti (ro'yxatga olingan jinoyatlar soni)
4. Ta'lim	4.1. Ta'lim	4.1.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarini qamrab

		olish, % 4.1.2. Umumta'lim maktablarida o'qitishni qamrab olish, % 4.1.3. OO'Yuda o'qitishni qamrab olish, %
5. Uy-joy	5.1. Aholining uy-joy bilan ta'minlanganligi	5.1.1. 1000 kishiga turarjoylarni foydalanishga topshirish, m² 5.1.2. 1 kishiga hisoblanganda uy-joy bilan ta'minlanganlik, m² 5.1.3. Nurab qolgan uy-joyning ulushi, %
6. Kommuni-kastiyalar	6.1. Aholining axborot bilan ta'minlanganligi	6.1.1. 100 ta oilaga hisoblanganda aholining umumiy foydalanish tarmog'ining uy telefon apparatlari bilan ta'minlanganligi, dona
7. Madaniyat	7.1. Madaniy muloqot	7.1.1. Kutubxonalarga tashriflar soni, ming kishi 7.1.2. Kinoteatrlarga tashriflar soni, ming kishi
8. Demogra-fiya	8.1. Demografiya	8.1.1. Tug'ilish, ming kishi 8.1.2. O'lish, ming kishi 8.1.3. Migratsiya saldosi, ming kishi
Iqtisodiy blok		
9. Iqtisodiyot	9.1. Ishlab chiqarishning institutsional tarkibi	9.1.1. Yagona davlat reestridagi tashkilotlar soni 9.1.2. Mulkchilik shakllari doirasida korxonalar demografiyasining tavsifi, 1000 ta tashkilot uchun %da
	9.2. Sanoat	9.2.1. Sanoat tarmoqlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9.2.2. Tarmoqlar bo'yicha mahsulotning asosiy turlarini ishlab chiqarish
	9.3. Qurilish	9.3.1. Asosiy sarmoyaga investitsiyalar dinamikasi, o'tgan yilga nisbatan %da
		9.3.2. Qurilish ishlari hajmining dinamikasi, o'tgan yilga nisbatan %da
		9.3.3. Ijtimoiy soha obyektlarini foydalanishga topshirish, dona
		9.3.4. Turarjoylarni foydalanishga topshirish, dona
	9.4. Transport	9.4.1. Transport tashkilotlarining yuk tashuvlari hajmi va yuk aylanmasi, o'tgan yilga nisbatan %da 9.4.2. Transport tashkilotlarining yo'lovchi tashuvlari hajmi va yo'lovchi aylanmasi, o'tgan yilga nisbatan %da 9.4.3. Aholining engil avtomobillar bilan ta'minlanganligi, dona.
	9.5. Qishloq xo'jaligi	9.5.1. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi ekinlarining asosiy turlarini etishtirish,


		tonna 9.5.2. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar va parrandalar soni, ming bosh 9.5.3. Barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha chorvachilik mahsulotlarining asosiy turlarini etishtirish
	9.6. Savdo	9.6.1. Ulgurji savdo aylanmasining dinamikasi, % 9.6.2. Ulgurji va chakana savdo tashkilotlari tomonidan mahsulot va tovarlar muhim turlarining sotilishi, mln. so'm 9.6.3. Chakana savdo aylanmasining dinamikasi, %
	9.7. Umumiy ovqatlanish	9.7.1. Umumiy ovqatlanish aylanmasining dinamikasi, %
	9.8. Aholiga xizmat ko'rsatish	9.8.1. Aholiga puli xizmatlar ko'rsatish tarkibi, % 9.8.2. Aholiga puli xizmatlar ko'rsatish hajmining dinamikasi, o'tgan yilga nisbatan %da
	9.9. Narxlar	9.9.1. Iste'mol sektorida narxlar dinamikasi, % 9.9.2. Iste'mol tovarlarining alohida guruhlar uchun narxlar dinamikasi, % 9.9.3. Bozorda avtomobil yoqilg'isi narxlarining o'zgarishi, % 9.9.4. Uy-joy kommunal xizmatlari tariflarining o'zgarishi, % 9.9.5. Tarmoqlar bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqaruvchilari narxlarining o'zgarishi, % 9.9.6. Qishloq xo'jaligi mahsuloti narxlarining o'zgarishi, %
	9.10. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	9.10.1. YaIM ishlab chiqarish, % 9.10.2. Asosiy sarmoyaga investitsiyalar hajmi 9.10.3. Aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasining hajmi 9.10.4. Iqtisodiy faol aholining umumiy sonida ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi, % 9.10.5. Pul daromadlari hayot kechirish uchun eng kam darajadan past bo'lgan aholining ulushi, %

9.3. Mintaqani kompleks tarzda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini shakllantirish algoritmini quyidagicha tarzda namoyan etish mumkin (**3-rasm**).


Chet el amaliyotida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini shakllantirishga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib,

ular asosida indikatorlarning uch darajali pog'onasini shakllantirish mumkin.



3-rasm. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari

Mintaqaviy kompleks dasturlarni ishlab chiqish va baholash maqsadida kombinastiyalangan yondashuvdan foydalanish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Mintaqaviy kompleks dasturlarni ishlab chiqish va baholashga nisbatan kombinastiyalangan yondashuv

9.4. Mintaqaviy rejalashtirish amaliyotidagi asosiy muammolar. O'zbekistonda mintaqaviy rejalashtirish amaliyoti

Mintaqaviy siyosat ko'plab murakkabliklarga ega bo'lib, ular ham iqtisodiy, ham siyosiy omillar bilan belgilangan. Mintaqalar katta huquqlar va harakatlar erkinligiga ega bo'lishi bilan davlat va mintaqalar o'rtasida ham, hududlar manfaatlari o'rtasida ham ziddiyatlar kelib chiqishi muqarrar. Shuning uchun oqilona davlat siyosati zarur.

Hukumatning mintaqaviy rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi tadbirlari asosiy qismi umumiy makroiqtisodiy, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy siyosat, institustional o'zgarishlar doirasida amalga oshiriladi. Ularni ishlab chiqish va amalga oshirishda integrastiya samarasi va hududlarni yalpi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlariga mos kelishi hisobga olinadi. Davlatning ulushli ishtirokidagi investisiya loyihalarining tanlovini o'tkazishda ularning muayyan mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta'sirini hisobga olish zarur.

Davlatning mintaqaviy iqtisodiy siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy normalar tizimini barpo etish, mintaqaviy rivojlanishni davlat yo'li bilan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda barcha mamlakatlar o'ziga xos muammolarga duch kelishadi. Birinchidan, mintaqaviy imkoniyatlarni tenglashtirish siyosati hech qachon iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarning to'liq mos kelishiga olib kelmaydi. Davlat mutlaq emas, balki nisbiy tenglikni ta'minlashga urinadi. Ikkinchidan, mintaqaviy siyosat tarkibiy siyosat bilan murakkab o'zaro bog'liqlikka ega. Ular bir-birini to'ldirishi ham, bir-biriga zid bo'lishi ham mumkin. Agar ko'p tarmoqli ishlab chiqarishga ega bo'lgan har tomonlama rivojlangan mintaqalarni oladigan bo'lsak, iqtisodiyot tarkibini yaxshilash uning rivojlanishiga yordam beradi. Lekin ayrim hududlar tarixan yuzaga kelgan kam ishlab chiqarish sohasiga ega. Fan-texnika taraqqiyoti va sanoatning ikkita shartli guruhga (ilg'or va qaloq tarmoqlarga) ajralishi sharoitida hukumatning ilg'or tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari shunga olib keladiki, ko'plab yangi tarmoqlarga ega bo'lgan mintaqalarda rivojlanish uchun umumiy turtki kuchayadi. Asosan qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan eski tarmoqlarga ega bo'lgan mintaqalarda esa umumiy pasayish, bandlikning qisqarishi, ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi kuzatiladi.

Shuning uchun mintaqaviy siyosat oqilona va ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak.

Tayanch tushunchalar

Mehnat resurslari, hududiy notenglik, noishlab chiqarish omillari, mintaqalarning notengligi, mintaqaviy siyosat, integrastiya, subsidiyalar, dasturlashtirish, strategik ahamiyat, kompleks dasturni salohiyati, dastur pasporti, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari, integrastiya, institustional o'zgarishlar.

Xulosalar

Yillar o'tishi bilan ayrim noishlab chiqarish omillarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli o'zgarishi munosabati bilan hududlar rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar doimiy bo'lib qolmaydi. Hududiy notenglik mamlakat iqtisodiyotining rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. U, bir tomondan, ishlab chiqarish resurslarining mamlakat hududi bo'ylab joylashuvdagi notenglik bilan, ikkinchi tomondan, alohida omillarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolining dinamikasi bilan bog'liq. Shuning uchun davlatning mintaqaviy siyosati milliy xo'jalikning muayyan hududiy-ishlab chiqarish muvazanatiga erishish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisini o'zida namoyon etadi. Davlat o'z navbatida ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va kengaytirishga, zarur holatlarda – ularni qayta yo'naltirish va takomillashtirishga yordam beradi. Mintaqalar muayyan iqtisodiy yaxlitlikka ega bo'lishi va ma'lum darajada o'zini o'zi ta'minlashi zarur. Hozirgi vaqtga kelib mintaqaviy dasturlashtirish jahon amaliyotida nazariy tadqiqotlar borasida katta tajriba to'plangan bo'lib uni milliy iqtisodiyotda joriy etishning ayni vaqti.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Davlatning mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan maqsad nima?
2. Mintaqaviy siyosatga doir qanday xorijiy tajribalar e'tiborga loyiq.
3. Mintaqaviy rejalashtirishni ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishlari qanday.
4. Mintaqaviy rivojlanish muammolarini qanday yo'l bilan hal etish mumkin.
5. O'zbekistonda mintaqaviy rejalashtirish amaliyoti qanday tashkil etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.
2. O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonuni. 1993 yil 2 sentyabr, 915-XII-son.
3. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Zohidov G'.E. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash.-T.:

TDIU,2010.- 216b.

4. Kadirov A.M. Metodologicheskie podxodi k analizu strategii sostialno-ekonomicheskogo razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (3 str).

5. Muhitdinov X.S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishni modellashtirish.-T.: Fan, 2009.-237b.

6. Nurimbetov R.I. Mintaqa iqtisodiyotini boshqarish mexanizmi va uning samaradorligi.- T.: Fan, 2008.-221b.

7. Sadikov A.M. Osnova Regionalnogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika.—T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005.-280b.

10-bob.

MOLIYAVIY OQIMLAR INDIKATIV REJALSHTIRISH VA TARTIBGA SOLISHNING OBYEKTI SIFATIDA

10.1. Budjetlashtirish va budjetning asosiy tushunchalari.

10.2 Davlatning makroiqtisodiy siyosati va ularni boshqarishda budjet resurslarining ahamiyati.

10.3 Davlat budjeti rejasi va budjetni rejalashtirish shakllari.

10.1. Byudjetlashtirish va byudjetning asosiy tushunchalari

Davlat tomonidan o'z zimmasiga yuklatilgan Funksiyalarning bajarilishi unda zarur moliyaviy resurslarning mavjudligi bilan bog'liq, bu birinchi navbatda davlatda hosil bo'ladigan pul mablag'lari bir qismining byudjetda jamlanishini talab qiladi. Ushbu mablag'larning byudjetga yo'naltirilishi va ulardan foydalanish jarayonida davlat, soliq to'lovchilar va byudjetdan mablag' oluvchilar o'rtasida moliyaviy munosabatlar yuzaga keladi. Ushbu munosabatlar hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan moliya-byudjet siyosatiga muvofiq quriladi. Moliya-byudjet siyosati davlat va hududiy hokimiyat organlarining soliq, pul-kredit, narx-navo va moliyaning boshqa sohalaridagi harakatlarini o'z ichiga oladi.

Moliya-byudjet siyosati (byudjetlar) – bu hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan o'z Funksiyalarini bajarish uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanish va byudjet tizimini boshqarish bo'yicha harakatlar va tadbirlar yig'indisidir.

Moliya-byudjet siyosati moliya sohasidagi maqsadlar va vazifalarni belgilashni, pul mablag'larini byudjetga safarbar etish mexanizmini ishlab chiqishni, byudjet mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini belgilashni, moliya va byudjet tizimini boshqarishni, moliya-byudjet vositalari yordamida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Ijroiya va vakillik hokimiyati organlarining byudjetni ishlab chiqish va byudjetlashni amalga oshirish va byudjet tizimini boshqarish bo'yicha harakatlarining yig'indisi byudjet jarayoni hisoblanadi.

Davlatning moliya-byudjet siyosati moliya va soliq organlari, pul-kreditni tartibga solish organi (Markaziy bank), nazorat-hisoblash

organlari (nazorat-hisoblash, ijroiya hokimiyatining boshqa organlari) faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Odatda *byudjet davri*, ya'ni byudjetni ijro etish jarayonini amalga oshirish vaqti 1 yanvardan 31 dekabrgacha qilib belgilangan bo'lib, u taqvim yiliga mos keladi. Byudjet jarayonining davom etishi byudjet davriga qaraganda ancha uzoq, chunki byudjet jarayoniga byudjetni rejalashtirish, keyingi byudjet nazorati va boshqa harakatlar ham kiradi.

Qonun hujjatlariga muvofiq byudjet vakolatlariga, ya'ni byudjet jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan organlar byudjet jarayonini amalga oshiradi. Quyidagilar ana shunday vakolatlarga egadirlar:

- ijroiya va vakillik hokimiyati organlari;
- moliya va soliq organlari;
- pul-kreditni tartibga solish organlari va davlat moliya nazorati organlari;
- byudjet mablag'larining bosh taqsimlovchilari va byudjet mablag'larining taqsimlovchilari;
- davlat byudjetdan tashqari maqsadli fondlari.

Vakillik hokimiyati organlari byudjetlar loyihalarini va ularning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Ijroiya hokimiyati organlari yig'ma moliyaviy rejalashtirishni amalga oshiradi, byudjetlar loyihalarini tuzadi, byudjetlar loyihalarini vakillik hokimiyati organlariga ko'rib chiqish uchun kiritadi, byudjetlarni ijro etadi, byudjet ijrosi tahlil va nazorat qiladi.

Markaziy bank hokimiyat bilan birgalikda davlatning pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va qonun chiqaruvchi organlarga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi va G'aznachilik pul hisobvaraqlariga, davlat byudjetdan tashqari maqsadli fondlari hisobvaraqlariga, hududiy byudjetlar hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatadi.

Byudjet mablag'larining bosh taqsimlovchisi – bu byudjet mablag'larining birinchi bevosita oluvchisi hisoblanib, mablag'larni byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va oluvchilar o'rtasida taqsimlash huquqiga ega bo'lgan ijroiya hokimiyati organi. U byudjet mablag'lari taqsimlovchilari va byudjetdan mablag' oluvchilar bo'yicha byudjet xarajatlari ro'yxatini tayyorlaydi, ularga byudjet yo'nalishlari haqidagi xabarnomani etkazadi, ular uchun daromadlar va xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi, zarur hollarda mablag'larning ular uchun tasdiqlangan moddalar o'rtasida taqsimlanishini o'zgartiradi, byudjetdan mablag'

oluvchi tomonidan byudjet mablag'laridan oqilona, maqsadli foydalanilishini nazorat qiladi.

Byudjetdan mablag' oluvchi (byudjet muassasi) – bu ijroiya hokimiyati organi tomonidan notijorat xususiyatiga ega bo'lgan Funksiyalar (boshqaruv, mudofaa, ijtimoiy-madaniy tadbirlar va b.)ni amalga oshirish uchun tashkil etilgan va smeta tartibida moliyalanuvchi tashkilot.

Nazorat-hisoblash organlari tegishli byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarning ijrosi haqidagi hisobotlar tashqi auditini o'tkazadi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha hokimiyat organlari va muassasalar byudjet jarayonining ishtirokchilari hisoblanishadi. Byudjet jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yig'ma moliyaviy rejalashtirish va prognoz qilish;
- byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- byudjet yili mobaynida byudjetni ijro etish;
- byudjet ijrosini tahlil va nazorat qilish.

10.2. Davlatning makroiqtisodiy siyosati va ularni boshqarishda byudjet resurslarining ahamiyati

Hozirgi sharoitda davlat moliyasining ahamiyati g'oyat yuksak. Davlat moliyasi yordamida va uning hisobidan umumiy talab rag'batlantiriladi; tarkibiy va ilmiy-texnik siyosat amalga oshirilib, iqtisodiyot barqarorlashtiriladi. Davlat moliyasi vositasida turmushning ma'lum darajasiga erishishni ta'minlovchi ijtimoiy dasturlar va tadbirlar amalga oshiriladi. Moliyaviy siyosatning asosiy vazifasi umumiy talab bilan umumiy taklif o'rtasida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishdan iborat.

Byudjet quyidagi vazifalarni bajaradi:

- YalMni qayta taqsimlash;
- iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish va rag'batlantirish;
- byudjet sohasini moliyaviy ta'minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish;
- pul mablag'larining markazlashtirilgan fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishni nazorat qilish.

Byudjetning taqsimlash Funksiyasi davlat va hududiy hokimiyat va boshqaruv darajalari bo'yicha pul mablag'larining markazlashtirilgan

fondlarini shakllantirish orqali namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda turli darajadagi byudjetlar orqali YaIMning 50 foizigachasi qayta taqsimlanadi. Byudjet yordamida davlat byudjet mablag'larini tarmoqlar, mintaqalarni qo'llab-quvvatlash yoki rivojlantirishga yo'naltirgan holda mamlakatning xo'jalik faoliyatini, iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. Shu tariqa iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish orqali davlat ishlab chiqarish sur'atlarini oshirishga yoki pasaytirishga, sarmoyalar va xususiy jamg'armalar o'sishini jadallashtirishga yoki susaytirishga, talab va iste'mol tarkibini o'zgartirishni tartibga soladi.

YaIMni byudjet orqali qayta taqsimlash bir vaqtning o'zida va uzluksiz kechadigan ikkita o'zaro bog'liq bosqichga ega:

1) *byudjet daromadini shakllantirish;*

2) *byudjet mablag'laridan foydalanish (byudjet xarajatlari).*

Byudjet daromadlari - davlatning qonun hujjatlariga muvofiq davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ixtiyoriga beg'araz va qaytarishsiz tartibda kelib tushuvchi pul mablag'lari.

Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonida ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan YaIMning bir qismi davlat foydasiga majburan olib qo'yiladi. Shu asosda davlatning soliq to'lovchilar bilan moliyaviy munosabatlari paydo bo'ladi.

Byudjet daromadlari ularni to'lovchilar, soliq solish obyektlari, olib qo'yish usullari, to'lash muddatlari bo'yicha katta farq qiladi. Lekin shu bilan birga ular yagonaligi bilan farq qiladi, chunki turli darajadagi byudjetlarning daromad qismini shakllantirishdan iborat yagona maqsadni ko'zlaydi. Ularga pul shakli va naqsizlanish xos xususiyatdir.

Byudjet daromadlari soliq va soliqdan tashqari xususiyatga ega. Yangidan shakllantirilgan qiymat va uni dastlabki taqsimlash natijasida olingan daromadlar (foyda, ish haqi, qo'shilgan qiymat, ssuda foizi, renta, dividendlar va h.k.), shuningdek jamg'armalar *soliq daromadlarining* asosiy manbasi hisoblanadi.

Byudjetlarning soliqdan tashqari daromadlari davlatning iqtisodiy faoliyati yoki olingan daromadlarni byudjet tizimining darajalari bo'yicha qayta taqsimlash natijasida hosil bo'ladi.

Byudjet daromadlarining tarkibi harakatchan bo'lib, u ko'p jihatdan muayyan iqtisodiy sharoitlar bilan belgilanadi. Masalan, aholining turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlar, aholining turmush darajasi past bo'lgan

mamlakatlarda esa bilvosita soliqlar va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar asosiy soliq daromadlari hisoblanadi.

Byudjet xarajatlari – davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari vazifalari va Funksiyalarini moliyalashga yo'naltiriladigan pul mablag'lari.

Byudjet xarajatlari orqali *byudjetdan mablag' oluvchilar* – byudjet mablag'larining oluvchilari yoki taqsimlovchilari hisoblangan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasining tashkilotlari moliyalanadi. Shunday qilib, byudjet xarajatlari tranzit xususiyatga ega. Byudjetda faqat xarajatlar moddalari bo'yicha byudjet xarajatlari aniqlanadi, bevosita xarajatlarni esa byudjetdan mablag' oluvchilar amalga oshiradi. Bundan tashqari, byudjet xarajatlari hisobidan dotastiya, subvenstiya, subsidiya va byudjet ssudalari orqali byudjet tizimining darajalari bo'yicha byudjet mablag'lari qayta taqsimlanadi. Byudjet xarajatlari asosan beg'araz xususiyatga ega bo'ladi. Qaytarishli asosda byudjet kreditlari va byudjet ssudalari berilishi mumkin. Byudjet xarajatlarining tarkibi har yili bevosita byudjet rejasida belgilanadi va huddi byudjet daromadlari singari, iqtisodiy vaziyatga va ijtimoiy yo'nalishlarga bog'liq.

Byudjetning nazorat Funksiyasi taqsimlash Funksiyasi bilan bir vaqtning o'zida amal qiladi va byudjet mablag'larining kelib tushishi va ulardan foydalanish imkoniyatini va majburiyligini nazarda tutadi.

10.3. Davlat byudjeti rejas va byudjetni rejalashtirish shakllari

Yalpi ichki mahsulot aylanishi moddiy-ashyoviy va qiymat shaklida amalga oshadi. Yalpi mahsuloting qiymat shaklida aylanish jarayonida moliyaviy resurslarni hosil qilish, taqsimlash, qayta taqsimlash va iste'mol qilish yuzasidan moliyaviy munosabatlar yuzaga keladi. Moliyaviy resurslarni hosil qilish, taqsimlash, qayta taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini boshqarish *moliyaviy rejalashtirish* yordamiga amalga oshiriladi, pul mablag'lari esa uning obyekti hisoblanadi. Moliyaviy rejalashtirish orqali xalq xo'jaligining mutanosibligi, tarmoqlararo ulushlar ta'minlanib, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish yo'llari aniqlanadi.

Umumdavlat va hududiy darajalarda moliyaviy rejalashtirish qiymat ifodasidagi moddiy va mehnat muvazanati bilan bog'lanuvchi *moliyaviy rejalar tizimi* bilan ta'minlanadi. Har bir moliya yili boshqaruvning muayyan bo'g'inida moliyani tashkil qilish va boshqarish vazifalarini hal qiladi.

Moliyaviy rejalar tizimiga quyidagilar kiradi:

- istiqbolli moliyaviy rejalar;
- boshqaruvning umumdavlat va hududiy darajalarida tuziladigan yig'ma moliyaviy balanslar.

Istiqbolli moliyaviy rejalashtirish hokimiyatning barcha darajalarida quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish hamda moliyaviy siyosatni muvofiqlashtirishni ta'minlash;
- rejalashtirilayotgan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar hajmini prognoz qilish;
- islohotlar, dasturlarning moliyaviy natijalarini prognoz qilish;
- moliya sohasidagi turli tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Istiqbolli moliyaviy reja davlatning iqtisodiy va ijtimoiy prognozining ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqiladi. Unda byudjetning daromadlarni safarbar etish va xarajat moddalarini moliyalash imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar mavjud. Mazkur reja byudjetning yiriklashtirilgan ko'rsatkichlari bo'yicha 3-5 yilga mo'ljallab tuziladi. Rejaga har yili davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognozining ko'rsatkichlari bilan tuzatishlar kiritiladi.

Yig'ma moliyaviy balans – bu davlatda yoki muayyan hududda yaratilgan va foydalanilgan moliyaviy resurslar balansi. Yig'ma moliyaviy balans barcha byudjetlar, byudjetdan tashqari maqsadli fonlar va tegishli hududda joylashgan korxonalarni qamrab oladi.

Yig'ma moliyaviy balansni tuzish manzilli moliyaviy rejani, ya'ni byudjetni ishlab chiqishning tayyorlash bosqichi hisoblanadi. Davlatning yig'ma moliyaviy balansi xalq xo'jaligida moddiy va moliyaviy ulushlarni bog'lash, moliya-kredit tizimi barcha bo'g'inlarining ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirish; davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi prognozining muvazanatlashganligini tekshirish, ushbu prognoz bilan belgilangan tadbirlarni moliyalash manbalarini aniqlash; qo'shimcha moliyaviy resurslar zahiralarini aniqlash; prognoz moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish; moliyaviy siyosat yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Davlatning yig'ma moliyaviy balansi odatda Moliya vazirligi ishtirokida Iqtisodiyot vazirligida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqiladi. Umumdavlat darajasida tuziladigan yig'ma moliyaviy balans asosiy ko'rsatkichlarining sxemasi 3 - jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Yig'ma moliyaviy balans tarkibi (umumdavlat darajasida)

<i>Daromadlar</i>	<i>Xarajatlar</i>
1. Foyda 2. Qo'shilgan qiymat solig'i va akstizlar 3. Jismoniy shaxslardan daromad soliqlari 4. Mol-mulk solig'i 5. Ijtimoiy sug'urta fondi, Pensiya fondi, Bandlik fondini hosil qilish uchun mablag'lar 6. Boshqa byudjetdan tashqari maqsadli fonlar mablag'lari 7. Ma'danli-xomashyo bazasini takror ishlab chiqarish uchun ajratmalar 8. Amortizastiya ajratmalari 9. Davlat mulki yoki faoliyatidan keladigan daromadlar, shu jumladan davlat mulkini sotishdan olinadigan daromadlar 10. Tashqi savdo, tashqi iqtisodiy operastiyalar uchun soliqlar va tashqi iqtisodiy faoliyatdan olinadigan daromadlar 11. Boshqa daromadlar Jami daromadlar	1. Davlat investistiyalari uchun xarajatlar, shu jumladan kreditorlik qarzini qaytarish (harbiy qurilishdan tashqari) 2. Ma'danli-xomashyo bazasini takror ishlab chiqarish xarajatlari 3. Davlat dotastiyalari 4. Soliqlar to'langanidan keyin korxonalar ixtiyorida qoladigan foyda hisobidan, shuningdek amortizastiya hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar 5. Byudjet hisobidan, shuningdek byudjetdan tashqari maqsadli fondlar hisobidan moliyalanadigan ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari (kapital qo'yilmalarsiz) 6. Byudjet hisobidan amalga oshiriladigan fan uchun xarajatlar 7. Boshqa byudjet maqsadli fonlari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar 8. Mudofaa xarajatlari 9. Huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar va prokuraturani saqlab turish xarajatlari (kapital qo'yilmalarsiz) 10. Davlat hokimiyati orgalarini saqlab turish xarajatlari (kapital qo'yilmalarsiz) 11. Tashqi iqtisodiy faoliyat xarajatlari 12. Zahira fondlarini hosil qilish xarajatlari 13. Boshqa xarajatlar Jami xarajatlar

Yig'ma moliyaviy rejalashtirish bilan *byudjetni prognoz qilish* uzviy bog'langan.

Muvaffaqiyatli xo'jalik yuritishning muhim sharti – uni boshqarish usullarini doimiy ravishda takomillashtirishdan iborat. Boshqarish – demak, oldindan ko'ra bilish. Shu munosabat bilan istiqbolni rejalashtirish, ya'ni ilmiy prognoz qilishning roli ortadi. Natural ko'rsatkichlar parametrlarini prognoz qilish bilan bir vaqtning o'zida moliyaviy resurslar ham prognoz qilinishi kerak, chunki ushbu resurslar hajmini oshirish istiqbollari hisobga olmasdan turib xo'jalik rivojini sifatli prognoz qilib bo'lmaydi.

Odatda, ancha uzoq davr uchun amalga oshiriladigan yig'ma moliyaviy rejalashtirishdan farqli o'laroq byudjetni prognoz qilish manzilli hisoblanib, u byudjet davriga, ya'ni ko'pi bilan bir yilga mo'ljallangan. Lekin yig'ma moliyaviy balans ko'rsatkichlarining katta qismi qator byudjet ko'rsatkichlarini o'z ichiga olganligi bois, istiqbolga mo'ljallangan yig'ma moliyaviy balansni tuzishda asosiy byudjet ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirish lozim.

Byudjet rivojini prognoz qilish deganda uning daromad va xarajat qismlarini rivojlantirish yo'llarini ehtimoliy baholash majmui nazarda tutiladi.

Byudjetni prognoz qilish – bu yuzaga kelgan tendensiyalar, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va istiqbolni baholash asosida byudjetni rivojlantirishning optimal yo'llarini ishlab chiqish va asoslashdan va shu asosda uni mustahkamlash yuzasidan takliflar berish demakdir. Bunday prognoz qilish natijalarini o'z vaqtida hisobga olish davlat va mintaqaning moliyaviy siyosatida eng samarali choralarni qo'llashning muhim sharti hisoblanadi.

Prognoz qilinayotgan byudjet ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish yillik byudjet ko'rsatkichlarini hisoblab chiqishga qaraganda boshqacha metodologik yondashuvlarga asoslangan. Agar yillik va choraklik byudjetlar ko'rsatkichlari iqtisodiy va moliyaviy parametrlarni to'g'ridan-to'g'ri hisoblab chiqish asosida aniqlansa, u holda prognoz byudjet ko'rsatkichlarini aniqlashda, odatda, zarur statistika va hisobot ma'lumotlarining yo'qligi tufayli bunday imkoniyat mavjud emas.

Byudjet rivojining prognozini ishlab chiqishda turli usullardan foydalanish mumkin.

1) *Ekstrapolyastiya usuli*, ya'ni avvalgi davrlar amaliyotidan kelib chiqib istiqbollarni tuzish. Biroq ushbu usul faqat byudjet xarajatlari va

daromadlarining ozmi ko'pmi barqaror xususiyatga ega bo'lgan ayrim moddalarini prognoz qilish uchun yaroqli.

2) *Ekspert baholash usuli*, ya'ni fan va iqtisodiyotning alohida tarmoqlarida vakolatli mutaxassislar tomonidan berilgan va asoslangan baholar asosida qilingan prognoz ham kamchiliklardan holi emas, chunki u subyektiv yondashuv unsurlariga ega.

3) Ushbu ikkita usulni bir vaqtning o'zida qo'llash; bunda rivojlanishning obyektiv tendenstiyalaridan ham, ekspertlar fikrlaridan ham foydalaniladi.

Chiziqli regressiya liniyalari asosiy moliyaviy qonuniyatlar ekstrapolyastiyalash usullaridan biri bo'lib, prognoz qilinayotgan byudjet ko'rsatkichlarini bir necha o'zgaruvchan ko'rsatkichlarga tobe qiluvchi ko'p qadamli korrelyastion modellarni tuzishda ularning ishonchliligi ortadi. Shuning uchun byudjetni prognoz qilish ishini byudjetni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar (o'zgaruvchan kattaliklar)ni ajratish va o'rganib chiqishdan boshlash lozim. Bunday omillar jumlasiga mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishini va umumdavlat moliyaviy resurslarning mavjudligini, demografik o'zgarishlarni, xo'jalikning rivojini va hokazolarni kiritish lozim.

Istiqbolga mo'ljallangan davlat byudjetining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish uchun byudjet daromadlarining hajmi bilan ikkita o'zgaruvchan: ishlab chiqarilgan milliy daromad va yalpi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsuloti o'rtasidagi *korrelyastion aloqalardan*, shuningdek ushbu ko'rsatkichlar bilan foyda solig'i o'rtasidagi aloqadan foydalanish mumkin. Korrelyastiya koeffitsientlari o'rganib chiqilayotgan aloqalardagi jipslikni darajasini qo'rsatadi. Byudjet daromadlari birinchi galda milliy daromad hisobidan shakllanadi.

Istiqbolga mo'ljallangan byudjet resurslarining hajmini prognoz qilishda ko'plab omillar ta'sirini ma'lum darajadagi ehtimollik bilan o'rtacha barobarlashtirish, eng umumiy tendenstiyalarni aniqlash imkonini beruvchi chuqur *iqtisodiy va cmamucmuk tahlil* qilish lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan ikkita o'zgaruvchan kattalikka ega bo'lgan regressiya tenglamasi chiziqli ko'riniga ega:

$$u = a_0 + a_1 x$$

bu erda: u – davlat byudjet resurslarining hajmi;

x – 1) xalq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot,

2) ishlab chiqarilgan milliy daromad;

a_0, a_1 – boshlang'ich ma'lumotlar asosida chiziqli regressiyaning muayyan turini belgilab beruvchi koeffitsientlar.

Ushbu modellarni ishlab chiqishda prognoz qilinayotgan davrda mustaqil o'zgaruvchanlar (milliy daromad va ishlab chiqarilgan mahsulot) ko'rsatkichlarini topish alohida muammo tug'diradi. Ularni aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilgan umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblaridan foydalaniladi. Iqtisodiy tahlil tadqiq etilayotgan ko'rsatkichlarning rivojlanish sur'atlarini o'rganish, ularning o'zaro nisbati, tadqiq etilayotgan hodisalarning yillar bo'yicha o'rtacha yillik sur'atlarini hisoblab chiqish, ularning rivojlanishini boshqa iqtisodiy kattaliklar (ishlab chiqarilgan asosiy fondlar, aholi soni va b.) bilan taqqoslash yordamida to'ldiriladi. Bunday tahlil shuning uchun zarurki, byudjet real iqtisodiy vaziyatlar bilan bog'liq va shuning uchun xalq xo'jaligining istalgan tarmog'idagi o'zgarishlarga tezda moslashadi, shuningdek u aholini ijtimoiy himoyalash sohasidagi siyosat, davlatning asosiy xarajatlarini moliyalash tartibidagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

Byudjetni rejalashtirishning keyingi bosqichi – *byudjet loyihasini tuzish jarayoni*. Byudjet loyihasini ishlab chiqishning asosiy vazifasi davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan Funksiyalarni ta'minlash maqsadida byudjetda markazlashtiriladigan pul mablag'larining hajmini hamda davlat va hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozida ko'zda tutilgan tadbirlarni aniqlashdan iborat.

Byudjet loyihasini tuzish Hukumat va mahalliy hokimiyat ijroiya organlarining vakolatiga kiradi. Ularning topshirig'iga ko'ra byudjet loyihasi Moliya vazirligi va hududiy moliyaviy organlar tomonidan ishlab chiqiladi.

Byudjet loyihasini tuzish uchun Moliya vazirligi va hududiy moliyaviy organlar ularga tegishli hukumat, statistika, soliq organlari va boshqa muassasalardan kelib tushadigan zarur axborot bazasi bilan ta'minlanishi kerak. *Davlat va hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozi* byudjet loyihasini tuzish uchun asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi va u o'z navbatida hisobot davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ma'lumotlari, rejalashtirilayotgan yil uchun rivojlanish tendensiyalari va boshqa ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqiladi. Byudjet loyihasini ishlab chiqishda tegishli reja davri uchun qabul qilingan moliya-byudjet siyosatining asosiy holatlari ham hisobga olinadi.

1) Byudjet loyihasini shakllantirishning dastlabki bosqichida ijroiya hokimiyat organlari tomonidan rejalashtirilayotgan yil uchun *ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ssenariya sharoitlari* ishlab chiqilib, ularda

asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rta muddatli prognozining parametrlariga aniqliklar kiritish uchun materiallar aks ettiriladi.

Hukumat tomonidan ushbu ssenariya shartlari ma'qullangach, Moliya vazirligi rejalashtirilayotgan yil uchun *davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning asosiy xarakteristikalarini* ishlab chiqadi. Bundan tashqari, rejalashtirilayotgan yil va o'rta muddatli istiqbol uchun ish haqi, pensiyalarning eng kam miqdori, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi va pensiyalarni indeksastiyalash tirtibi haqidagi taklif ko'rib chiqiladi.

Barcha ushbu materiallar va hisob-kitoblar Hukumatga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. So'ngra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning asosiy xarakteristikalarini davlat ijroiya hokimiyati organlariga yuboradi.

2) Byudjetni ishlab chiqishning ikkinchi bosqichida davlat ijroiya hokimiyati organlari tomonidan byudjet mablag'larining hajmini byudjet tasnifi ko'rsatkichlari bo'yicha *taqsimlash*, shuningdek moliyaviy resurslarni byudjet mablag'larining bosh taqsimlovchilari o'rtasida taqsimlash amalga oshiriladi. Bunda Iqtisodiyot vazirligi moliyalanadigan davlat maqsadli dasturlarini aniqlaydi va rejalashtirilayotgan yil va o'rta muddatli istiqbol ularni moliyalash hajmini kelishadi.

Byudjet loyihasini tuzish ishlarini amalga oshirish uchun Moliya vazirligida mintaqalar, vazirliklar va idoralardan kelib tushuvchi materiallar, hisob-kitoblar va asoslashlardan foydalaniladi. Ushbu materiallar dastlab tegishli vazirliklar uchun biriktirilgan mutaxassislar tomonidan tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida vazirliklar moliyaviy rejalari, hududlar byudjetlari ko'rsatkichlarining hisob-kitoblariga aniqliklar kiritiladi, qo'shimcha daromadlar va xarajatlarni tejash imkoniyatlari aniqlanadi. So'ngra tuzatishlar kiritilgan hisob-kitoblar Moliya vazirligi bo'linmalarining rahbarlari tomonidan ko'rib chiqilib, byudjet boshqarmasiga yuboriladi. Byudjet boshqarmasi taqdim etilgan hisob-kitoblarni ko'rib chiqib, zarur hollarda ularga tuzatishlar kiritadi va Moliya vazirligi rahbariyatiga hal etish uchun yuboradi.

Tayanch tushunchalar

Funksiyalar, moliyaviy munosabatlar, moliya-byudjet siyosati, Davlatning moliya- byudjet davri, g'aznachilik, tijorat, notijorat, munistipal tuzilmalar, tashqi audit, ilmiy-texnik siyosat, soliq daromadlari, byudjetlarning soliqdan tashqari daromadlari, dotastiya,

subvenstiya, subsidiya va byudjet ssudalari, bevosita xarajatlar, byudjet xarajatlari, hududiy byudjet, yig'ma moliyaviy balans, Davlat dotastiyalari, pensiya fondi, tibbiy sug'urta fondi, bandlik fondi, amortizastiya ajratmalari. regressiya, korrelyastion aloqalar, korrelyastiya koeffistientlari.

Xulosalar

Moliya-byudjet siyosati moliya sohasidagi maqsadlar va vazifalarni belgilashni, pul mablag'larini byudjetga safarbar etish mexanizmini ishlab chiqishni, byudjet mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini belgilashni, moliya va byudjet tizimini boshqarishni, moliya-byudjet voitalari yordamida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Davlatning moliya-byudjet siyosati moliya va soliq organlari, pul-kreditni tartibga solish organi, nazorat-hisoblash organlari faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy siyosatning asosiy vazifasi umumiy talab bilan umumiy taklif o'rtasida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishdan iborat. Shu tariqa iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish orqali davlat ishlab chiqarish sur'atlarini oshirishga yoki pasaytirishga, sarmoyalar va xususiy jamg'armalar o'sishini jadallashtirishga yoki susaytirishga, talab va iste'mol tarkibini o'zgartirishni tartibga soladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Davlatning moliya-byudjet siyosati nimadan iborat?
2. O'zbekistonda byudjet resurslarini qanday boshqariladi?
3. Byudjetni indikativ rejalashtirishdan maqsad qanday?
4. O'zbekistonda davlat byudjetini ko'rib chiqish va tasdiqlash tirtibi qanday ?
5. Byudjet ko'rsatkichlari prognozini ishlab chiqish va uning loyihasini tayyorlash tartibi qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent. "O'zbekiston", 2009.
2. Jumaev N.X., O.Q. Abduraxmonov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademnashr, 2010.—160b.
3. Vaxabov A.V. Aktualnie problemi aktivizastii investistionnoy

deyatelnosti kommercheskix bankov. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (4str).

4. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.-T.: Iqtisod-moliya, 2008.-208b.

5. O'zbekiston iqtisodiyoti: erishilgan yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy – amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami. – T.: TDIU, 2008. –369b.

6. Davlat byudjetining g'azna ijrosi. Normativ huquqiy hujjatlar to'plami. -T.: O'zR Moliya vazirligi, 2010.-271 b.

7. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh, 2007 y, 2008 y “O'zbekiston”, - Toshkent.; 2008, 2009.

11 bob.

DEMOGRAFIK JARAYONLARNI PROGNOZ QILISH

11.1. Demografik prognoz qilishning mohiyati.

11.2. Demografik prognozlar tasnifi.

11.3. Aholi o'sishini prognoz qilish usullari.

11.4. Aholi turmush darajasi va bandligini indikativ rejalashtirish.

11.4.1. Rejalashtirishda insoniyat rivojlanishining indikatorlari.

11.4.2. Aholi bandligining indikatorlari.

11.1. Demografik prognoz qilishning mohiyati

Demografik prognoz qilish – bu aholi harakatining asosiy parametrlari va demografik vaziyat: aholi soni, yosh-jins va oilaviy tarkibi, tug'ilishi, o'limi, migrastiyasini ilmiy asoslangan oldindan ko'ra bilish demakdir. Demografik prognoz qilish zarurati umuman ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish va rejalashtirish vazifalari bilan bog'liq. Oldindan demografik prognoz qilmasdan turib tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish, uy-joy qurilishi, ijtimoiy infratuzilma, sog'liqni saqlash va ta'lim, pensiya tizimini rivojlantirish, geosiyosiy muammolarni hal etish va hokazolarning istiqbolini tasavvur qilib bo'lmaydi. Aynan shuning uchun aholi soni va tarkibi, oilalar soni va tarkibi, alohida demografik jarayonlar dinamikasini prognoz qilish faoliyati xalqaro, davlat va nohukumat tashkilotlari, muassasalari va ilmiy muassasalar umumiy faoliyatining muhim qismini tashkil qiladi.

Texnik nuqtai nazardan olib qaralganda, demografik prognoz qilish odatda aholini istiqbolli hisoblab chiqish, ya'ni o'tmishda demografik xususiyatlarning (aholi soni, demografik tuzilmalar, tug'ilish, o'lim) o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida, shuningdek ularning kelgusidagi dinamikasiga nisbatan qabul qilinadigan taxminlarni hisobga olgan holda aholi soni va yosh-jinsiy tarkibini hisoblab chiqish ko'rinishida ishtirok etadi. Bunday turdagi hisob-kitoblar odatda aholining eng ehtimoliy o'zgarishlari chegaralarini belgilagan holda bir necha variantlarda amalga oshiriladi.

Demografik prognoz qilishning ko'p variantlilik davr talabi hisoblanadi. Odatda prognoz uchta variantda amalga oshirilib, ularni <quyi>, <o'rta> va <yuqori> variantlar deb atash qabul qilingan, bunda

<o'rta> variant voqealarning eng ehtimoliy kechishiga mos keladi, <quyi> va <yuqori> variantlar esa demografik ko'rsatkichlar dinamikasining tashqi chegaralarini belgilaydi.

Aholining reproduktiv, o'zini asrash va migratsiya harakatlari o'zgarishining tendensiyalari haqida to'g'ri, ilmiy asoslangan taxminlar, prognoz aniqligining muhim sharti hisoblanadi, ular haqidagi ma'lumotlarni maxsus tashkil etilgan ijtimoiy-demografik tadqiqotlar yordamida olish mumkin. Ushbu tendensiyalar haqidagi farazlarni olg'a surish g'oyat qiziqarli ilmiy vazifaga aylanib bormoqda.

Demografik prognozlar istalgan ijtimoiy prognoz qilish va rejalashtirishning asosida yotadi. Aslida, biz kelajak uchun nimani rejalashtirmaylik, muayyan tovarlar yoki xizmatlar ishlab chiqarishni, jamiyatning ijtimoiy tarkibini, shu jumladan uning oilalar o'lchamlari va tarkibi bo'yicha tuzilishini rivojlantirishmi, har qanday ijtimoiy jarayonlar – barcha holatlarda, albatta, biz birinchi galda ushbu ijtimoiy jarayonlar bo'lajak ishtirokchilarining jinsi va yoshi bo'yicha soni va tarkibini bilishimiz zarur, chunki, insonlarning ushbu <parametrlari> ular faoliyatining xususiyati va intensivligiga va o'z navbatida, ijtimoiy jaryonlarning xususiyati va intensivligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Demografik prognoz qilish maqsadlari iqtisodiy rejalashtirish ehtiyojlari (mehnat resurslarining soni va tarkibi dinamikasini oldindan ko'ra bilish zarurati); tovarlar yoki xizmatlarning u yoki bu turlari uchun, shu jumladan marketing vazifalarini hal etish uchun iste'mol talabining bo'lajak dinamikasini baholash zarurati; uy-joy qurilishini rejalashtirish ehtiyojlari; ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, pensiya tizimi va b.)ni rejalashtirish ehtiyojlari; geosiyosiy vazifalar va ko'plab boshqa masalalar bilan bog'liq. Demografik prognoz qilish maqsadlari aholining prognozlarini tasniflash uchun muhim asoslardan biri hisoblanadi.

Demografik prognozlarning ishonchliligi, ya'ni aholining prognoz xususiyatlari va demografik prognozlarning haqiqatda qanday bo'lishiga mos kelishi ushbu prognozlarning muhim xususiyati hisoblanadi. Demografik prognozning ishonchliligi boshlang'ich demografik axborotning aniqligi, qabul qilinayotgan farazlarning asosliligi va prognoz davrining uzoqligi bilan belgilanadi.

11.2. Demografik prognozlar tasnifi

Prognoz gorizontining uzunligi va prognoz davrining uzoqligi demografik prognozlarni tasniflashning birinchi mezonini hisoblanadi.

Odatda qisqa muddatli (1-5 yil), o'rta muddatli (5-10 yil) va uzoq muddatli (25-30 yil) demografik prognozlar mavjud. Prognoz gorizonti qanchalik keng bo'lsa, prognozlar shunchalik aniq va ishonchli bo'ladi. Mamlakatimizda qisqa va o'rta muddatli demografik prognozlar muntazam ravishda ishlab chiqilib, sho'rolar davrida ular asosida besh yillik rejalar (qisqa muddatli prognozlar) va 15-20 yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari belgilanardi.

Ushbu prognozlar ko'p jihatdan kon'yunktura xususiyatiga ega edi va ko'pincha turli guruhlar manfaatlari o'rtasidagi o'ziga xos murosaning natijasi hisoblanardi. Masalan, sobiq Ittifoqning aksariyat respublikalari o'z aholisi prognoz sonining yuqori bo'lishidan manfaatdor edi, chunki ular markazdan oladigan ijtimoiy trnsfertlar hajmi ana shunga bog'liq edi. Bunda markaz demografik prognozlarni ishlab chiquvchi organ hisoblangan Davlat reja qo'mitasi timsolida ushbu sonni kamaytirishga intilardi, chunki aholining katta soni qator muhim makroiqtisodiy parametrlarning yomonlashuvini anglatardi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda demografik prognozlar O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi va ayrim ilmiy tashkilotlar tomonidan muntazam ravishda ishlab chiqiladi va e'lon qilinadi.

Demografik prognozlarning maqsadi ularni tasniflashning ikkinchi muhim mezonini hisoblanadi. Prognoz qilish maqsadlariga ko'ra barcha demografik prognozlar tahliliy prognozlar, ogohlantiruvchi prognozlar, normativ prognozlar va Funksional prognozlarga bo'linadi.

Tahliliy prognozlarning maqsadi aholining kelgusi soni va tarkibiga, shuningdek umuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ehtimoliy ta'sirini baholash yo'li bilan aholini ko'payishining zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etishdan iborat. Boshqacha aytganda, tahliliy prognoz shunchaki prognoz qilishni emas, balki saqlanib qolinishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa jarayonlarning bo'lajak dinamikasiga ta'sir ko'rsatishi, mavjud muammolar va muammoli vaziyatlarni keskinlashtirish yoki yangilarining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan real vaziyatdagi <og'riqli nuqtalar>, <muammoli vaziyatlar>ni aniqlash uchun uni o'rganishni amalga oshiradi.

Tahliliy prognoz odatda bo'lajak demografik vaziyat parametrlarini baholash ko'rinishida ifodalanadi, bu baholash aholi ko'payishi holatining o'zgarmasligi yoki uning qandaydir o'zgarishi haqidagi taxmin asosida amalga oshiriladi. Tahliliy prognoz, odatda, uzoq muddatli hisoblanadi. Bunda, uning o'zi haqiqatga kamroq yaqin va kam ehtimolli bo'lgani holda tahliliy prognoz aholi soni va tarkibidagi kelgusi o'zgarishlarni

go'yoki tasvirlaydi. Shu nuqtai nazardan tahliliy prognoz yuzaga kelishi ehtimolini aniqlash uchun demografik prognoz amalga oshiriladigan salbiy oqibatlar va muammoli vaziyatlar paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va xususan, demografik siyosat maqsadlarini belgilashga xizmat qiladi.

Prognoz qilish-ogohlantirish tahliliy prognozning bir turi hisoblanadi. Prognoz qilish-ogohlantirishning maqsadi yuzaga kelgan demografik vaziyatning noqulay yoki xavfli oqibatlarini ko'rsatib berishdan iborat. T.R.Maltusning ayanchli nufus qonuni eng mashhur demografik prognoz qilish-ogohlantirishlardan biri hisoblanadi. O'zining aholi geometrik progressiyada (ya'ni, eksponenstial), hayot kechirish vositalari esa arifmetik progressiyada (ya'ni, chiziqli) o'sishi to'g'risidagi g'oyasini olg'a surgan holda, Maltus, uning fikriga ko'ra, aholining tez sur'atlar bilan o'sishi va shu sababli hosil bo'ladigan aholining ortiqcha ko'payib ketishi keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ayanchli oqibatlar (qashshoqlik, epidemiya, tartibsizlik, urush va h.k.)ni tasvirladi. Maltusian an'analari ruhida ijro etilgan zamonaviy prognoz qilish-ogohlantirishlardan Rim kulubining prognozlari mashhur bo'lib, ular o'z mualliflarining fikriga ko'ra, aholi sonining o'sishi, shuningdek mineral va energetika resurslarini iste'mol qilish hajmining o'sishi tufayli kelib chiqadigan har xil fojialarga boydir.

Normativ prognozning asosiy maqsadi—demografik jarayonlarning ayrim ko'ngilli holatiga erishish uchun muayyan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Normativ prognoz qilishda demografik vaziyat va demografik jarayonlarning ko'ngilli holatlari to'g'risida qator fiklar bildiriladi: aholining istalgan soni, tug'ilish, o'limning maqbul darajasi va h.k. Shundan keyin ushbu ko'ngilli yoki normativ, maqsadli parametrlarga erishish uchun ko'rilishi lozim bo'lgan choralar belgilanadi.

Funksional prognoz qilish maqsadi aholi to'g'risida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va davlat hamda ijtimoiy boshqaruv faoliyatining boshqa sohalarida zarur bo'lgan prognoz axborotini olishdan iborat. Funksional prognoz qilish – bu u yoki bu tashkilotlar, firmalar, korporastiyalar, davlat organlari, o'quv muassasalarining muayyan amaliy maqsadlari va vazifalariga xizmat qiluvchi prognoz. U, ijtimoiy tilda aytganda, ijtimoiy institutlar, tashkilotlar va boshqa ijtimoiy tuzilmalarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi aholi guruhlari, oilalar va uy xo'jaliklarining bo'lajak soni va tarkibini o'zida namoyon etadi.

Funksional demografik prognoz qilish – bu ayrim o'ziga xos maqsadlar uchun bo'lajak talab va taklifni oldindan aytib beruvchi teglamalar shakliga keltirilgan aholi yosh-jins tarkibini prognoz qilish.

Funksional nuqtai nazardan, yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy tuzilmalar faoliyati bilan qandaydir bog'liq bo'lgan insonlarni tovarlar, xizmatlar, boyliklar ishlab chiqaruvchi, ular uchun mazkur ijtimoiy tuzilma mavjud bo'lgan va ushbu tovarlar, xizmatlar, boyliklarni iste'mol qiluvchi guruhlariga bo'lish mumkin. O'z navbatida, Funksional prognozlarning ikkita toifasi ajratiladi: <aholi taklifining prognozlari>, yoki <demografik taklif prognozlari>, va <aholiga bo'lgan talab prognozlari>.

Dastlabki holatda gap aholining soni va tarkibi hamda uning alohida yosh-jins guruhlarining prognozlari haqida borayapti va ular go'yoki demografik tizim faoliyat ko'rsatishining natijasi hisoblanadi: u <ishlab chiqaradi> va o'z <mahsulotini> <taklif qiladi>, shuningdek: bolalar, maktab yoshidagi bolalar, mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar, keksalar va qariyalar, oilalar va uy xo'jaliklari va h.k..

Ikkinchi holatda, - gap u yoki bu ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, korporastiyalar faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan aholi, ijtimoiy faoliyat subyektlari, ijtimoiy rollar ijrochilarining soni va tarkibi haqida borayapti. Aynan aholi Funksional guruhlar soni va tarkibining bo'lajak, prognoz dinamikasi sanab o'tilgan ijtimoiy tuzilmalar faoliyatining yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategiyasi va taktikasi haqida qaror qabul qiluvchi shaxslar bevosita manfaatlarining predmeti hisoblanadi.

Quyidagilar Funksional prognozlarga misollar bo'la oladi:

- tovarlar yoki xizmatlarning u yoki bu turlariga bo'lgan talabni prognoz qilish. Masalan, tug'ilishning prognoz tendenstiyalarini hisobga oluvchi bolalar tovarlariga bo'lgan iste'mol talabining bo'lajak dinamikasini baholash. Yoki aholining keksayishini hisobga oluvchi keksalar va qariyalar uchun kundalik ishlatiladigan tovarlarni prognoz qilish;

- elektoral prognoz. Kelajak uchun saylovchilar soni va tarkibini aniqlash, u yoki bu partiya saylovlarida g'olib chiqish istiqbollari baholash va h.k.;

- ta'lim tizimining turli bosqichlarida o'quvchilarning soni va tarkibini prognoz qilish. Shu asosda, o'qituvchilar talab etilayotgan soni va ta'lim jarayonining moddiy bazasi baholanadi. Aholining ta'lim darajasini prognoz qilish;

- bandlar sonini va tarkibini prognoz qilish. Ularning kasb-malaka va boshqa tarkibini baholash. Ne'matlar va xizmatlar ishlab chiqarishning ehtimoliy hajmini prognoz qilish;

- aholining soni va jins-yosh tarkibi, kasallanish dinamikasi asosida sog'liqni saqlash ehtiyojlarini prognoz qilish. Tibbiyot xodimlarining (mutaxassisliklar va malaka darajasi bo'yicha) talab etiladigan sonini, shuningdek sog'liqni saqlashning zarur moddiy bazasini aniqlash;

- pensionerlar va boshqa ijtimoiy xizmatlar mijozlari sonining dinamikasini prognoz qilish;

- qurolli kuchlar safiga jalb etilishi mumkin bo'lgan shaxslarning soni va tarkibini aniqlash.

11.3. Aholi o'sishini prognoz qilish usullari

Quyidagilar demografik prognoz qilishning asosiy usullari hisoblanadi: u yoki bu matematik Funksiyani qo'llashga asoslangan usullar (ekstrapolyastiya va tahliliy usullar), shuningdek komponent usuli.

Matematik Funksiyalarni qo'llashga asoslangan usullar. Ayniqsa ular uchun ishonchli demografik statistika mavjud bo'lmagan kichik hududlar (masalan, u yoki bu mamlakat mintaqalari) ushbu toifa usullarini qo'llash uchun asos hisoblanadi. Mamlakat darajasida aholini prognoz qilish uchun matematik usullar kamdan-kam hollarda qo'llaniladi, chunki ushbu usullarga xos bo'lgan aholi soni o'sishining tarkibiy qismlaridagi va yosh-jins tarkibidagi o'zgarishlarni hisobga olmaslik prognoz qilishda katta hatolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Mintaqa darajasida bunday xatolar ehtimoli quyidagi qo'shimcha shart yordamida kamaytirilishi mumkin: mintaqalar aholisining umumiy soni mamlakat uchun prognoz natijalaridan farq qilmasligi lozim. Shunday qilib, mamlakat uchun prognoz mintaq darajasida aholini prognoz qilish uchun nazorat parametri sifatida ishtirok etadi.

Matematik usullar ba'zan tarixiy dinamikani tahlil qilish va global darajada aholi sonini prognoz qilish uchun ham qo'llaniladi. Matematik usullar faqat aholining umumiy sonini prognoz qilish imkonini beradi. To'g'ri, erkaklar va ayollar sonini alohida tarzda prognoz qilish ham mumkin, lekin ular yig'indisi aholining umumiy sonidan farq qilishi ehtimoldan holi emas.

Ilgari aholi sonini prognoz qilishga nisbatan yondashuvlar o'z tabiatiga ko'ra yaqqol yoki yashrincha matematik usullarga asoslanar edi. Matematik usullarni qo'llash shuni nazarda tutadiki, aholi soni

to'g'risidagi mavjud empirik ma'lumotlar asosida uning bo'lajak parametrlarini oldindan aytib berish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan ayrim matematik ifodalar tanlab olinadi. Matematik usullardan foydalanish qator kamchiliklarga ega. Birinchidan, ular faqat aholining umumiy sonini prognoz qilish imkonini beradi, lekin uning tarkibining o'zgarishini oldindan ko'ra bilish imkonini bermaydi, masalan, yoshi, jinsi, irsi bo'yicha taqsimlash. Ikkinchidan, agar ko'p faktik ma'lumotlar mavjud bo'lsa, tanlab olingan matematik ifoda, odatda, ularning har biri orqali o'tmaydi. Bu prognoz ko'rsatkichlarini oldindan aytib berishning ishonchligini pasaytiradi. Uchinchidan, matematik yondashuv shuni nazarda tutadiki, ilgari aholi dinamikasini belgilab bergan ijtimoiy va iqtisodiy omillar kelajakda ham o'zgarishsiz ko'rinishda qoladi.

Prognoz qilish uchun turli matematik Funktsiyalarni qo'llash mumkin. Biroq, ko'pincha chiziqli, eksponensial va mantiqiy Funktsiyalardan foydalaniladi. Bunda chiziqli va eksponensial Funktsiyalarni qo'llashga asoslangan prognoz qilish ba'zan shartli ravishda ekstrapolyastion usul deb, mantiqiy va boshqa Funktsiyalarni qo'llashga asoslangan prognoz qilish esa tahliliy usul deb nomlanadi. Quyida ekstrapolyastion va tahliliy prognoz qilishning asosiy usullarini ko'rib chiqamiz.

Ekstrapolyastion usul. Ushbu usul chiziqli va eksponensial Funktsiyalardan, ya'ni davr mobaynida aholi sonining o'rtacha yillik absolyut o'zgarishlari to'g'risidagi yoki o'rtacha yillik o'sish sur'atlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan. Agar ushbu ko'rsatkichlar ma'lum bo'lsa, u holda aholi sonining butun prognoz davri mobaynida o'zgarmasligini taxmin qilgan holda uni istalgancha yillar oldinga hisoblab chiqish mumkin. Prognoz qilishning eng sodd usullaridan biri hisobot davri uchun hisoblab chiqilgan aholi sonining o'rtacha yillik absolyut o'sishlari kelgusida ham saqlanib qoladi degan taxminga asoslanadi.

Amalda aholini prognoz qilish uchun chiziqli Funktsiyadan deyarli foydalanilmaydi, chunki o'rtacha yillik absolyut o'sishlarning o'zgarmasligi to'g'risidagi taxmin faqat juda qisqa vaqt (ko'pi bilan 5 yil) uchun nisbatan to'g'ri bo'lishi mumkin.

Ayniqsa tug'ilish va o'lish darajalarining o'zgarmasligi va migratsiya mavjud emas deb faraz qilinganda aholi soni o'rtacha yillik o'sish sur'atlarining o'zgarmasligi to'g'risidagi taxmin haqiqatga ancha yaqin hisoblanadi. Mazkur holatda gap prognoz qilishda eksponensial Funktsiyadan foydalanish haqida borayapti.

Tahliliy usul shunga asoslanganki, ilgarigi demografik dinamikadan kelib chiqqan holda uni eng yaqin tasvirlovchi Funksiya tanlab olinadi. Bu har qanday Funksiya bo'lishi mumkin, biroq, har qanday holatda ushbu Funksiya empirik xususiyatga ega bo'lib, demografik dinamikaning hech qanday umumiy matematik qonuni mavjud emas.

Komponent usuli. Mazkur usul demografik prognoz ishlab chiquvchilari oldida keng imkoniyatlarni ochib beradi. Ekstrapolyastion va tahliliy usullardan farqli o'laroq, u nafaqat aholining umumiy sonini bilish, balki ularni jinsi va yoshiga qarab taqsimlash imkonini beradi.

Amaliyotda aholini prognoz qilish har bir jins uchun alohida yosh-jins ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Tug'ilish uning yosh koeffitsientlarida ifodalanadi. O'lish kuchi erkaklar va ayollar uchun alohida keyingi yoshgacha yashash yosh ehtimolida o'z ifodasini topadi. Migrastiyani jinsi va yoshiga qarab tasniflangan kutilayotgan har yillik netto-migrastiya atamalarida o'lchash qabul qilingan.

Hisob-kitoblar <prognoz qilish stikli> atamalarida amalga oshirilib, ularning har biri odatda 1 yoki 5 yilga teng. Ishni ro'yxatga olish yoki boshqa boshlang'ich ma'lumotlardan boshlab demograf prognoz qilishning bir stikli davomida tug'ilish, o'lim va migrastiya to'g'risidagi ma'lumotlarni izchil qo'llaydi. Stikl so'ngida ushbu operastiya yordamida hisoblab chiqilgan aholi, o'z navbatida keyingi stikl uchun boshlang'ich hisoblanadi. Kelgusida keyingi sanaga aholi o'sishini baholash uchun prognoz qilish stikli takrorlanadi. Ushbu tadbirning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, prognozchi har bir prognoz stikli uchun tug'ilish, o'lim va migrastiyaning turli miqdoridan foydalanishi mumkin. Yuqorida atilganlardan shu narsa kelib chiqadiki, prognozning asosiligi va foydaliligi boshlang'ich aholi sonini baholashning aniqliligiga va tug'ilish, o'lim va migrastiyaning kelgusi parametrlarini oldindan ko'ra bilishning aniqliligiga bog'liq.

Tug'ilish, o'lim va migrastiya prognozlarini ishlab chiqish komponent usulini qo'llashning muhim sharti hisoblanadi. Biroq, agar ushbu usulni qo'llash sof texnik vazifa hisoblansa, demografik jarayonlar dinamikasini prognoz qilish katta tahliliy ishni, tug'ilish, o'lim va migrastiyaning o'zgarish qonuniyatlarini, ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan aloqalarini bilishni talab qiladi. Hatto aytish mumkinki, bunday prognoz qilish nimasi bilandir san'atga o'xshab ketadi.

Hozirgi vaqtda komponent usulini qo'llashning sof hisoblash vazifalari to'lig'icha tegishli kompyuter paketlari bajaradi. Xususan, BMT tomonidan ishlab chiqilgan DemProj va Spectrum paketlarini

ko'rsatish mumkin bo'lib, ular aholi soni va tarkibini bir lahzada prognoz qilish imkonini beradi. AQSh stenzla byurosi komponent usulini amalga oshiruvchi RUP kompyuter dasturini ishlab chiqdi.

Biroq, yana bir bor shuni ta'kidlaymizki, sof hisoblash tartibotlari – bu demografik prognoz qilishning eng sodda va eng qiziqarsiz qismidir. Prognoz qilishning ma'nosi qandaydir hisob-kitoblar emas, balki tug'ilish, o'lim va migratsiya tendensiyalarini prognoz qilishdan iborat. Bunda bazaviy yil uchun aholi soni va tarkibi haqidagi ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligini baholash prognoz qilishdagi dastlabki qadam bo'lishi kerak, chunki, agar ushbu axborot noto'g'ri bo'lsa har qanday prognoz o'z ma'nosini yo'qotadi.

Agar aholi soni va tarkibi haqidagi ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi shubha uyg'otmasa, u holda prognoz qilishdagi keyingi qadam tug'ilish, o'lim va migratsiyaning kelgusi tendensiyalari to'g'risidagi gipotezalarni olg'a surishdan iborat bo'ladi. Bunda demografik fanning hozirgi holati tug'ilish, o'lim va migratsiya o'rtasidagi aloqalarni prognoz qilishda samarali qo'llash uchun zarur va etarli darajada aniq va ishonchli tarzda qayd etish imkonini bermasa-da, ushbu gipotezalarni o'zaro bog'lash zarur.

Alohida demografik jarayonlar parametrlari prognoz davrining har yili uchun emas, balki faqat uning ayrim nuqtalariga aniqlanishi ularni prognoz qilishning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, shundan so'ng olingan qiymatlar oraliq sanalarga interpolyatsiya qilinadi. Bunda ko'pincha interpolyatsiya tayanch nuqtalar o'rtasida demografik jarayonlar parametrlarining o'zgarmasligi to'g'risidagi taxminga olib keladi. Masalan BMTning 1998 yildagi prognozi Rossiya uchun shundan kelib chiqadiki, 1995-2000 yy. va 2025-2030 yy. besh yilliklar o'rtasidagi davrda o'rtacha variant bo'yicha tug'ilishning umumiy koeffitsienti reproduktiv yoshdagi bir ayol uchun 1,35 tadan 1,70 tagacha tug'ilishga ko'tariladi, so'ngra esa prognoz gorizont oxirigacha, ya'ni 2050 yilgacha shu darajada saqlanib qoladi. 2000 yildan 2025 yilgacha bo'lgan oraliq ko'rsatkichlar interpolyatsiya usuli bilan hisoblab chiqildi.

11.4. Aholi turmush darajasi va bandligini indikativ rejalashtirish

11.4.1. Rejalashtirishda insoniyat rivojlanishining indikatori

Ijtimoiy siyosatning samaradorligini aholining turmush darajasi ko'rsatkichi bilan baholash mumkin. Turmushning barcha tomonlari

dinamikasini nazorat qilish, uni o'tgan davrlar va boshqa mamlakatlar bilan, shuningdek, yuzaga kelgan oqilona ilmiy normalar bilan solishtirish imkonini beruvchi turmush darajasi indikatorlarining tizimi salomatlik ko'rsatkichlari va sog'liqni saqlash, bandlik, ovqatlanish, uy-joy sharoitlari ko'rsatkichlarini, ro'zg'or buyumlarining mavjudligini, madaniyat darajasi, pullik xizmatlar ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. "BMTni rivojlantirish dasturi" mutaxassislari uchta kattalikdan o'rtacha ko'rsatkich sifatida hisoblab chiqiladigan turmush darajasining umumlashtiruvchi indikatorini ishlab chiqdi: aholi jon boshiga hisoblanganda YaIM, hayot kechirish davomiyligi va aholining ma'lumot darajasi (25 yosh va undan kattalar). Bu indikator "Inson rivoji indikator" deb nomlangan.

Davlat darajasida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy hamkorlik instituti hal qiluvchi rol o'ynaydi. G'arbiy Evropa mamlakatlarida tadbirkorlar, kasaba uyushmalari va davlat vakillaridan iborat uch tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy kengashlarning shakllanishi ijtimoiy hamkorlikning rasmiy siyosatga aylanishi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Turli mamlakatlarda ular turlicha nomlanadi. Italiyada 1947 yilda Iqtisodiyot va mehnat milliy kengashi, Belgiyada 1948 yilda shunga o'xshash organ tashkil etildi, Fransiya qo'mita 1958 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Bunday kengashlar Gollandiya (1950 y.), Angliya (1962 y.), Irlandiya (1973 y.) va Lyuksemburgda (1966 y.) ham tashkil etilgan.

Evropa Ittifoqi doirasida iqtisodiy va ijtimoiy qo'mita faoliyat ko'rsatib, u boshqa Funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda milliy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirishga ham ko'maklashadi. Ijtimoiy hamkorlik siyosati milliy doiralardan chetga chiqib, muvofiqlashtirilgan xalqaro (mintaqaviy) siyosatga aylanib bormoqda.

Mamlakat ko'lamlarida konsensusni ta'minlash ijtimoiy hamkorlik mexanizmining Funksiyalaridan biri hisoblanadi. Mazkur Funksiyani bajarish uchun iqtisodiy va ijtimoiy kengashlar hukumat va parlamentga ijtimoiy muammolarga taalluqli qonun hamda qarorlar loyihalari bo'yicha muntazam maslahat berib turish barobarida, mehnat munosabatlari subyektlarining manfaatlarini himoyalash, ijtimoiy adolat o'rnatish yuzasidan uyg'unlashtirilgan siyosatni ishlab chiqadi.

Davlat darajasida ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish milliy daromadni qayta taqsimlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Yan Tinbergen qator mamlakatlar uchun milliy daromadni aholining ijtimoiy ehtiyojlari uchun qayta taqsimlash ulushiga baho berdi va uni shartli ravishda

ijtimoiylashtirish ko'rsatkichi deb atash mumkin. To'rtta mamlakat uchun ushbu ko'rsatkich quyidagi tarzda namoyon bo'ladi: Shvestiya - 0,299, Niderlandiya - 0,28, AQSh - 0,125, Yaponiya - 0,1. G'arbiy Evropaning boshqa mamlakatlar ko'rsatkichlari Shvestiya va Yaponiyaning ekstremal ko'rsatkichlari orasida turadi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmi bir necha yo'nalishlarni ko'zda tutadi. Bunga quyidagilar kiradi: ijtimoiy sug'urta; ish haqi sohasidagi siyosat; mehnat bozoridagi ijtimoiy chora-tadbirlar; uy-joy siyosati.

Ijtimoiy sug'urta – aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy unsuri hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta tizimining maqsadi kasal bo'lish holatida va qariyalik davrida, baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarish bo'yicha kasallanishlar, ishsizlik munosabati bilan insonning iqtisodiy himoyalanihini ta'minlashdan iborat. Davlat ijtimoiy sug'urta tizimi birinchi bo'lib Germaniyada XIX asr oxirida baxtsiz hodisalar va kasallik bo'yicha sug'urtalash to'g'risidagi (1883 - 1884 yy.), qariyalik va nogironlik bo'yicha pensiyalarning joriy etilishi to'g'risidagi (1889 y.), qonunlarning qabul qilinishi bilan tashkil etildi, so'ngra Avstriya, Daniya, Franstiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda ham ana shunday tizim yo'lga qo'yildi.

Sug'urtalashning ikkita xili mavjud – majburiy va ixtiyoriy. Ixtiyoriy sug'urta ham huddi majburiy sug'urta singari sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida amal qiladi, lekin ixtiyoriy xususiyatga ega va sug'urta shartnomasi bilan tartibga solinadi (sug'urta ta'minoti) va boshqa shartlar tomonlarning kelishuviga ko'ra belgilanadi. Daniyadan tashqari, Evropaning qolgan mamlakatlarida ishsizlik bo'yicha sug'urtalash majburiy xususiyatiga ega.

Hozirgi sharoitda rivojlangan mamlakatlarda o'z ko'lamlari va rivojlanish darajasiga ko'ra pensiya ta'minoti ijtimoiy sug'urtaning asosiy turi hisoblanadi. Davlat ijtimoiy fondlarni tashkil etish tartibini, pensiyalar belgilash shartlarini (yosh, sug'urta yoki mehnat staji, fuqarolikning davomiyligi), pensiyalar miqdorini aniqlash tamoyilini (qat'iy belgilangan, eng kam ish haqiga bog'liq) tartibga soladi. Ijtimoiy fondlar davlat dotastiyalari, ish beruvchilar uchun ijtimoiy soliqlar va sug'urtalanuvchilarning badallari hisobidan shakllanadi.

Ishsizlik bo'yicha davlat ijtimoiy sug'urtasi ijtimoiy himoyalashni ta'minlovchi ijtimoiy sug'urtaning yana bir turi hisoblanib, u bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda XX asrning 20-30-yillarida joriy etilgan. Ishsizlik bo'yicha nafaqaning tayinlanishi u to'lanadigan shaxslar

doirasini cheklovchi qator talablarning bajarilishi bilan bog'liq. Nafaqa so'rab murojaat etgan xodim muayyan stajga ega bo'lishi, muayyan muddat (yilning choragi, bir yil) mobaynida zarur eng kam ish haqini olishi kerak. Malaka stajining davomiyligi, shuningdek nafaqa to'lash muddati ham turli mamlakatlarda turlicha (Germaniyada 13 haftadan 52 haftagacha, AQShning aksariyat shtatlarida, Italiya va Yaponiyada o'rtacha 26 haftagacha). Ishsizlik bo'yicha nafaqalar to'lashning katta ulushi davlatning chekiga tushadi. Xususan, Shvestiyada ishsizlik bo'yicha nafaqaning faqat 15 foizi sug'urta badallari hisobidan, 85 foizi esa tadbirkorlarning majburiy badallari va soliqlardan yuzaga keladigan davlat mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Davlatning ish haqi sohasidagi tartibga soluvchi aralashuvi eng kam ish haqining qonun bilan belgilanishini nazarda tutadi. Bu asosan mehnat jarayonlarining malakasiz mehnatni talab qiladigan turlariga taalluqli. Qonunlar yordamida davlat ish haqini to'lash rejimini belgilaydi (masalan, ikki haftada yoki har oyda).

Ayrim holatlarda ish haqi siyosati uning eng yuqori darajasi joriy etilishini va muayyan muddat mobaynida ushbu darajaning saqlanib turilishini nazarda tutadi. Shuningdek, mehnatga haq tulashning o'sish sur'atlariga nisbatan ham cheklovlardan foydalaniladi. Ushbu tadbirlar inflyastiyaning oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ikkinchi tomondan, rivojlangan mamlakatlarda inflyastiyaning, birinchi galda narxlar o'sishining salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun ish haqini indeksastiyalash mexanizmi qo'llaniladi. Indeksastiyalash tartibi turlicha. U umummilliy xususiyatlarga ega bo'lishi, shuningdek tadbirkorlar, kasaba uyushmalari va davlat o'rtasida ijtimoiy hamkorlik doirasida tuziladigan kelishuvlarda qayd etilishi mumkin. Indeksastiya firmalar yoki alohida tarmoqlar darajasida amalga oshirilishi va tadbirkorlar bilan kasaba uyushmalarining jamoaviy shartnomalarida qayd etilishi mumkin.

Indeksastiya qilinadigan ish haqining miqdori turlicha. To'liq indeksastiya eng kam ish haqiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin, so'ngra indeksastiya qisman xususiyatga ega bo'la boshlaydi, bu hol inflyastiyaga to'sqinlik qilishga yordam beradi.

Bandlik muammosi eng keskin ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun mehnat bozoriga nisbatan ijtimoiy siyosat davlat yo'li bilan tartibga solishda alohida o'rin tutadi. Davlat yollash shartlarini va mehnat shartnomalarini tuzishning umumiy shartlarini qonun bilan belgilaydi. Davlat ta'lim, xodimlarni kasb-hunar va texnik tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini tashkil etishni o'z zimmasiga

oladi. Davlat subsidiyalari hisobidan xodimlarning omilkorligi, kichik biznesning rivojlanishi rag'batlantiriladi, yangi ish o'rinlari tashkil etuvchi tadbirkorlarga imtiyozlar ko'rsatiladi.

Tanglik davrlarida davlat jamoat ishlaridan foydalanadi. Ishsizlar uchun jamoat ishlari – 1929-1933 yillardagi Buyuk qatag'on yillarida yuzaga kelgan davlat bandlik siyosatining birinchi yo'nalishi. Mehnat bozorlarida davlatning ta'siri xorijiy ishchi kuchi oqimini tartibga soluvchi migrasiya siyosati bilan ham amalga oshiriladi.

Zarur uy-joy sharoitlarini ta'minlash siyosati G'arb mamlakatlarida tarkibiy siljishlarni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy siyosat vositasi sifatida ko'rib chiqiladi, chunki oson va tez hal etiladigan uy-joy muammolari ishchi kuchining harakatchanligini ta'minlashga ko'maklashadi.

Ijtimoiy siyosatning ushbu yo'nalishi uy-joyi ijaraga oluvchi xodimlarga yordam ko'rsatish maqsadida byudjetdan mablag'lar ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat ko'pincha mustaqil uy-joy qurilishini rag'batlantiradi. Bunda turli imkoniyatlardan foydalaniladi. Masalan, hududiy hokimiyat organlari nisbatan arzon uy-joy majmualarini barpo etib, ularni past daromadli oilalarga ijaraga beradi. Ushbu sohadagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yana bir yo'li xususiy qurilish kooperativlari tomonidan qurilgan uy-joydan foydalanishni nazarda tutadi. Bu erda davlatning roli qurilish tashkilotlariga erna bepul berilishi, ularni imtiyozli kreditlashning amalga oshirilishi yoki yumshoq soliq solinishida namoyon bo'ladi. Mazkur variant doirasida davlat odatda uy egalarining ijaraga beriladigan uy-joydan oladigan daromadining eng yuqori chegarasini belgilagan holda uy-joy uchun to'lovlar miqdorini nazorat qiladi.

11.4.2. Aholi bandligining indikatorlari

Bandlik turmush darajasi va sifatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar jumlasiga kiradi. Bandlik deganda katta yoshdagi (16 yoshdan katta) mehnatga layoqatli, ish bilan band bo'lgan aholining soni tushuniladi.

Aholi bandligi muammosi – bu insonlarni mehnat faoliyatiga jalb etish muammosi va ularning mehnatga bo'lgan ehtiyojlarini ish o'rinlari bilan qanoatlantirish darajasi. Lekin barcha mehnatga layoqatli aholi ham ish bilan ta'minlanmagan, ishsizlar ham mavjud. Aholi bandligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq o'zlariga bog'liq bo'lmagan

sabablarga ko'ra ish o'rni va ish haqi (mehnt daromadi) bilan ta'minlanmagan, davlat bandlik xizmatlarida ish qidiruvchi sifatida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga qodir va tayyor bo'lgan va ularga mazkur xizmat munosib ishni taklif qilmagan fuqarolar tan olinadi. Ya'ni pensiya yoshiga etmagan, o'zlariga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra ish haqidan mahrum bo'lgan va mehnatga layoqatli aholining faqat bandlik xizmati ularni ish bilan ta'minlamagan qismi ishsizlar hisoblanadi.

Ishsizlik ish bilan ta'minlanmagan va uni qidiruvchi katta yoshdagi mehnatga layoqatli aholining soni sifatida tavsiflanadi. Bandlar va ishsizlarning umumiy soni ishchi kuchini tashkil qiladi. Ishchi kuchi mehnat qilishga qodir bo'lgan va mehnat qilayotgan, uy xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil ishni malga oshiruvchi, ish qidiruvchi barchani o'z ichiga oladi. Bunga yoshi bo'yicha ishlab chiqarishga (yoki mehnat faoliyatiga) kirishmagan (bolalar) yoki yoshi bo'yicha undan chiqqan (pensionerlar) shaxslar, shuningdek ta'lim olayotgan yoshlar (o'quvchilar, talabalar), nogironlar va harbiy xizmatchilar, bir so'z bilan aytganda, ishlay olmaydigan va ishlashi shart bo'lmagan, shuningdek ish qidirmagan shaxslar kirmaydi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, barcha mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlashning iloji yo'q. Chunki ayrimlar ishchi kuchiga qo'shiladi, boshqalari undan chiqadi, uchinchilari esa ishdan bo'shatiladi yoki o'zlari bo'shaydi, to'rtinchilari ish qidirish jarayonida bo'ladi, ishchi kuchining normal harakatlanishi yuz berib, bunda ularning bir qismi qandaydir vaqtga ishsiz qoladi. Masalan, AQShda barcha ishchi kuchining 1/5 qismi har yili ishini almashtiradi.

Bandlik stiklli ishsizlik mavjud bo'lmagan taqdirda to'liq bo'lib qoladi: to'liq bandlikni ta'minlash uchun frikstion va tarkibiy ishsizlik hisobga olinmaydi.

Demak, to'liq bandlik ishsizlikning mavjud emasligini anglatmaydi. G'arb adabiyotida to'liq bandlik sharoitida ishsizlikning tabiiy darajasi frikstion va tarkibiy ishsizlik yig'indisiga teng deb qabul qilinishi bejizga emas.

Ishsizlikni hisoblab chiqish uchun turli ko'rsatkichlardan foydalaniladi, lekin ishsizlik me'yori umumiy qabul qilingan, shu jumladan Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilingan ko'rsatkich hisoblanadi. U ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga foiz hisobida ifodalangan nisbati sifatida belgilanadi. G'arb iqtisodchilari ishsizlikning 5-6 foiz chegarasidagi tabiiy darajasini normal va muqarrar holat deb

hisoblashadi. Agar ishchi kuchining bandligi 94—95 foizni tashkil qilsa, bu hol mehnatga layoqatli aholining to'liq bandligiga erishilganlikni anglatadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda bandlik muammosiga nisbatan qarashlar tubdan o'zgaradi. Insonning ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etish majburiyati bilan mustahkamlanadigan barcha mehnatga layoqatli aholining umumiy bandligi mafkurasi o'rniga bandlikning shakli va turini erkin tanlash konsepsiyasi keladi, ya'ni har bir inson ish o'rni va mehnat faoliyatining turini erkin tanlashga va unda ishtirok etish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining bandlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida shu narsa nazarda tutilganki, mamlakatning har bir fuqarosi ijtimoiy foydali faoliyatning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan istalgan turini ixtiyoriy ravishda tanlashga, ish o'rni va turini erkin tanlashga haqli, ya'ni mehnat qilishning ixtiyoriyligi demokratik tamoyili amal qilmoqda. Insonlarni mehnat qilishga ma'muriy majburlash taqiqlanadi. Hozirgi vaqtda kasanachilik, uy xo'jaligi, bolalarni tarbiyalash, qariyalar va nogironlarni parvarish qilish va hokazolar mehnat faoliyatining qonunan ijtimoiy tan olingan shakllari sifatida namoyon etilgan.

Teng foydalanish imkoniyati tamoyillari asosida o'rindoshlik bo'yicha ishlash, vaqtinchalik ish, bandlikning vaqtinchalik shakllari, o'zgaruvchan grafik bo'yicha ishlash o'rin tutishi kerak.

Mehnatni tashkil qilish turli shakllarining ahamiyati shundan iboratki, ularning erkinligi, moslashuvchanligi bozor iqtisodiyotining ruhi va tamoyillariga mos keladi.

Aholining bandligi to'g'risidagi qonun hujjatlari mehnat qilish huquqi kafolatlari majmuini va insonlarga, ularning kasbi, staji, yoshi va yashash joyini hisobga olgan holda, mos ishni taklif etish chora-tadbirlarini nazarda tutadi.

Bandlikni davlat yo'li bilan tartibga solish jahon tajribasiga to'xtalib o'tamiz. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishsizlarga ijtimoiy yordamning turli xillaridan, shuningdek turli xildagi subsidiyalardan keng foydalaniladi.

Bandlik sohasida indikativ rejalashtirish orqali davlat yo'li bilan tartibga solishning ta'siri quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilmoqda:

1) bandlikning o'sishini rag'batlantirish va davlat sektorida ish o'rinlari sonini oshirish dasturlari;

2) ishchi kuchini tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlari;

3) ishchi kuchini yollashga ko'maklashish dasturlari.

Davlat subsidiyalari bilan qisman bandlik yoki to'liqsiz ish haftasi bilan ishlash kabilar rag'batlantiriladi.

Ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida "muddatdan oldin" pensiyaga chiqish amaliyoti qo'llanilmoqda. Masalan, AQShda 1980-yillarda pensiya oldi yoshidagi shaxslarni 23 foizi uchun mehnat faolligi davri qisqartirildi. Angliyada muddatdan oldin pensiyaga chiqish hisobidan 750 ming ish o'rni barpo etildi. Ijtimoiy yordam haqida to'xtaladigan bo'lsak, u bir necha yo'llar bilan amalga oshiriladi: ishsizlik bo'yicha nafaqa, moddiy yordam.

Bandlikni ro'yxatga olish bir necha darajada amalga oshiriladi:

- umumdavlat darajasi, bunda jamiyatning dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari hal etilib, qabul qilinadigan qarorlarning aksariyati u yoki bu darajada bandlikda o'z aksini topadi;

- mahalliy hokimiyat vakolatlari va tegishli byudjetlar imkoniyatlari doirasida bo'lgan mintaqaviy daraja, unda mehnatni tartibga solish, shu jumladan, xodimlarning ommaviy bo'shatilishining oldini olish, ishsizlarga ijtimoiy yordam berish masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilinadi;

- mahalliy daraja, bunda mehnat bozori subyektlari, muayyan shaxsning ish beruvchi, Bandlik markazi, mahalliy ijroiya hokimiyat organlari bilan o'zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Barcha darajalarda tartibga solish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining umumiqtisodiy konsepsiyasi asosida amalga oshirilishi kerak.

Mehnat bozorida vaziyatning yomonlashuvi mahalliy qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlaridan, bandlik xizmatlaridan mehnat bozoridagi ekstremal sharoitda aholining bandiligini ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilishni talab qiladi.

Quyidagilar shular jumlasidandir:

- ijtimoiy keskinlikka barham berish yuzasidan shoshilinch qisqa mudatli tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish;

- xodimlarni ommaviy tarzda ishdan bo'shatayotgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini ekspertiza qilish;

- xodimlarni ommaviy tarzda ishdan bo'shatish jarayonini to'xtatish yoki uni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- ijtimoiy mehnatlar ko'lamini oshirish;

- qayta tashkil qilish va tugatish tadbirlari o'tkazilayotgan davrda korxona xodimlarini o'qitish va qayta tayyorlashni tashkil qilish.

Xulosalar

Demografik prognoz qilish zarurati umuman ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish va rejalashtirish vazifalari bilan bog'liq. Aynan shuning uchun aholi soni va tarkibi, oilalar soni va tarkibi, alohida demografik jarayonlar dinamikasini prognoz qilish faoliyati xalqaro, davlat va nohukumat tashkilotlari, muassasalari va ilmiy muassasalar umumiy faoliyatining muhim qismini tashkil qiladi.

Aholining reproduktiv, o'zini asrash va migratsiya harakatlari o'zgarishining tendensiyalari haqida to'g'ri, ilmiy asoslangan taxminlar, prognoz aniqligining muhim sharti hisoblanadi, ular haqidagi ma'lumotlarni maxsus tashkil etilgan ijtimoiy-demografik tadqiqotlar yordamida olish mumkin. Demografik prognozning ishonchliligi boshlang'ich demografik axborotning aniqligi, qabul qilinayotgan farazlarning asosliligi va prognoz davrining uzoqligi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda demografik prognozlar O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi va ayrim ilmiy tashkilotlar tomonidan muntazam ravishda ishlab chiqiladi va e'lon qilinadi.

Shu nuqtai nazardan tahliliy prognoz yuzaga kelishi ehtimolini aniqlash uchun demografik prognoz amalga oshiriladigan salbiy oqibatlar va muammoli vaziyatlar paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va xususan, demografik siyosat maqsadlarini belgilashga xizmat qiladi.

Davlat darajasida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy hamkorlik instituti hal qiluvchi rol o'ynaydi. Turmush darajasi indikatorlarining tizimi salomatlik ko'rsatkichlari va sog'liqni saqlash, bandlik, ovqatlanish, uy-joy sharoitlari ko'rsatkichlarini, ro'zg'or buyumlarining mavjudligini, madaniyat darajasi, puli xizmatlar ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining bandlik to'g'risidagi qonun hujjatlari shu narsa nazarda tutilganki, mamlakatning har bir fuqarosi ijtimoiy foydali faoliyatning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan istalgan turini ixtiyoriy ravishda tanlashga, ish o'rni va turini erkin tanlashga haqli, ya'ni mehnat qilishning ixtiyoriyligi demokratik tamoyili amal qilmoqda. Insonlarni mehnat qilishga ma'muriy majburlash taqiqlanadi. Hozirgi vaqtda kasanachilik, uy xo'jaligi, bolalarni tarbiyalash, qariyalar va nogironlarni parvarish qilish va hokazolar mehnat faoliyatining qonunan ijtimoiy tan olingan shakllari sifatida namoyon etilgan.

Tayanch tushunchalar

Demografik prognoz, tendenstiyalar, transfertlar, tahliliy prognozlar, ogohlantiruvchi prognozlar, normativ prognozlar va Funktsional prognozlar, Rim kulubi, demografik jarayonlar, ijtimoiy institutlar, elektoral prognoz, matematik Funktsiyalar, eksponensial, tahliliy usul, komponent usul, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy kengashlar, ijtimoiy qo'mita, konsensus, ijtimoiy sug'urta, iqtisodiy himoyalash, ijtimoiy fondlar, indeksastiya, Davlat subsidiyalari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, kompensastiya, uy xo'jaligi, bandlikning o'sishini rag'batlantirish, Davlat sektori, mahalliy daraja.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Demografik prognoz qilishning ahamiyati nimada ?
2. Demografik prognozlardan maqsad nima ?
3. Aholini istiqbolda o'zgarishini prognoz qilish usullariga qaysilar kiradi?
4. Aholi soni va tarkibi o'zgarishini qanday fan o'rganadi ?
5. Demografik jarayonlarni prognoz qilishdan maqsad nima?
6. Aholi bandligining indikatorlarini qanday tushunasiz ?
7. Rejalashtirishda inson rivojining indikatorlariga nimalar kiradi?
8. Aholi turmush darajasi indikatorlarini qanday tushunasiz ?
9. Davlat ijtimoiy jarayonlarni qanday tartibga solinadi ?
10. O'zbekitonda aholining bandligi davlat tomonidan qanday tartibga solinadi ?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: “O'zbekiston”, 2010. -80b.
3. Basovskiy L.E. Prognozirovanie i planirovanie v usloviyax rinka. Uch.posob. M.: 2006.-260 s.
4. Muhitdinov X.S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishni modellashtirish.-T.: Fan, 2009.-237b.
5. Sadikov A.M. Osnova Regionalnogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika.—T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005.-280b.
6. Chepel S.V. Alternativnie ssenarii i strategii dolgosrochnogo razvitiya nastionalnoy ekonomiki. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana.-T.: IPMI,2010 (17 str).
7. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh, 2007 y, 2008 y “O'zbekiston”, - Toshkent.; 2008, 2009.

12-bob.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOIIY – IQTISODIY RIVOJLANISHNI INDIKATIV REJALASHTIRISHNING HOLATI

- 12.1. Ishlab chiqarish va uning asosiy sohalarini indikativ rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi .**
- 12.2. Indikativ reja tuzishda iqtisodiy organlarning funksional hamkorligi.**
- 12.3. Rejalarni amalga oshirish mexanizmlari va vositalari.**

12.1. Ishlab chiqarish va uning asosiy sohalarini indikativ rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi

1 bosqich – Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rta muddatli istiqbolga O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning indikativ rejasini ishlab chiqish haqidagi qarorining qabul qilinadi. Hukumat qarori bilan vazirliklar va idoralardan ma'sul ijrochilarni belgilangan holda o'rta muddatli istiqbol uchun indikativ rejani ishlab chiqish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar ro'yxati va muddatlari o'rnatiladi.

Vazirlar Mahkamasi Iqtisodiyot vazirligi bilan hamkorlikda indikativ rejani ishlab chiqishning birinchi bosqichini amalga oshiradi. Hukumat bo'linmalari va Iqtisodiyot vazirligi aniq maqsadlar, asosiy vazifalarni va dasturlarni shakllantirish va asoslash yo'li bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining istiqbollarini ishlab chiqadi.

2 bosqich – Prognoz ishlarini tashkil etilishida o'zaro kelishuvni va ketma-ketlikni ta'minlash maqsadida Iqtisodiyot vazirligi boshqa vazirliklar, idoralar va korxonalar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va rivojlanishining ohirgi 3-5 yil makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini muammoli savollarni aniqlagan holda kompleks tahlilni amalga oshiradi.

Kompleks tahlil quyidagilarni ochib berishi zarur:

- tasdiqlangan dasturlarni amalga oshirish va yangilarini ishlab chiqish bo'yicha xukumat qarorlarining ijro etilishini;
- ishlab chiqarish quvvatini, iqtisodiyot rivojlanishining ichki va tashqi tendenstiyalarini, iqtisodiy siyosat va davlat me'yorlashtirish tizimlari natijaliligi holatini;

- ishlab chiqarish quvvatlarining tarkibi va dinamikasini, shuningdek shu jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarni hamda jahon iqtisodiyoti rivojlanishi bilan taqqoslanishi;

- mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha korxonalarning maqsadlari va imkoniyatlarini, ularni eksportga chiqarish, quvvatlarni texnik ta'minlashni.

3 bosqich – strategik maqsadlarni va ustuvorliklarni aniqlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish birinchi olti oylikda Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va boshqa iqtisodiy organlar, ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda o'rta muddatli istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari, ustuvorliklari va maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqadi.

4 bosqich –makroiqtisodiy prognozlarni, maqsadli yo'nalishlarni va rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish. Iqtisodiyot vazirligi makroiqtisodiy siyosatning muvofiqlashtirilishiga javobgar markaziy iqtisodiy organlari bilan hamkorlikda ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'rta muddatlarga ssenariyli makroiqtisodiy prognozlarni va iqtisodiy siyosatni aniqlashtirishga oid takliflarni ishlab chiqadilar.

Prognoz variantlarida:

- iqtisodiyot rivojlanishining maqsadlari va ustuvorliklari;
- tarkibiy va investition siyosatning yo'nalishlari;
- ilmiy texnik taraqqiyoti rivojlanishi;
- Respublkada iqtisodiyotning ijtimoiy chegarlari va boshqa tayanch savollari qayta ko'rib chiqiladi.

O'rta muddatli istiqbol uchun ssenarli makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishga asosiy talabalar bo'lib iqtisodiy organlar tomonidan makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlanishi hisoblanadi.

Mazkur bosqich vazifalarini amalga oshirish uchun markaziy iqtisodiy organlarning ilmiy ekspertlar, rahbar xodimlar hamda tajribali mutaxassisleri tarkibida tashkilotlararo ishchi guruh tashkil etiladi.

Tashkilotlararo ishchi guruh vazifalariga prognozning bir qancha ssenarli variantlarini ishlab chiqish va har xil maqsadli ustuvorliklarini hamda siyosat vositalari o'zgarishi negizida ularning muvozanatini ta'minlash kiradi.

Vazirlar Maxkamasida maqsadli yo'nalishlar, ustuvorliklar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalari, iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari hamda makroiqtisodiy prognoz variantlari ko'rib chiqilganidan keyin belgilangan tartibda asosiy yo'nalishlar sifatida

vazirliklarga, tashkilotlarga, mahalliy ma'muriyatlarga, korxonalarga etkaziladi.

5 bosqich – maqsadli va tarmoq ko'rsatkichlarini amalga oshirish shartlari va indikatorlarini hamda rivojlanish dasturlarini aniqlash Iqtisodiyot vazirligi va tarmoq vazirliklari, tashkilotlar va korxonalar iqtisodiy siyosatning ehtimolli yo'nalishlarini va hukumat yo'nalishlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda o'z rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlaydilar hamda bashorat qilinayotgan davr uchun o'z faoliyatlari haqida ularni umumlashtirish uchun hududiy va tarmoq organlariga taqdim qiladilar.

Boshqaruvning hududiy va tarmoq organlari korxonalar bajarmoqchi bo'lgan ishlarini umumlashtiradilar va keyinchalik Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadilar.

6 bosqich – makroiqtisodiy prognozlarni maqsadli va tarmoq ko'rsatkichlari hamda rivojlanish dasturlari bilan muvofiqlashtirish. Bu bosqichda Iqtisodiyot vazirligining makroiqtisodiy bashoratlarni real sektorning tarmoq tashkilotlari, hududiy organlar, vazirliklar va ijtimoiy soha tashkilotlari rivojlanish prognozlari bilan muvofiqlashtirish va integrastiyalashtirishga oid ishlari amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi hamkorlikda davlat ehtiyojlarini resurs ta'minotini tavsiflovchi iqtisodiy muvofiqlashtirgich va ko'rsatkichlar tizimini hisobga olgan holda, keyingi yilgi davlat byudjeti loyihasi va bashorat ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liqligini amalga oshiradilar.

7 bosqich – Vazirlar Mahkamasiga indikativ rejaning oxirgi variantini taqdim etish. Vazirlar Mahkamasiga indikativ rejaning oxirgi variantini taqdim etishi uni Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Birlashgan Hay'atda ko'rib chiqilganidan keyin Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlisga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning indikativ rejasini Davlat byudjeti bilan bir vaqtda kiritadi.

Oliy Majlisda o'rta muddatli indikativ reja ko'rib chiqilishidan keyin ommaviy axborot vositalarida chop etiladi.

12.2. Indikativ reja tuzishda iqtisodiy organlarning Funktsional hamkorligi

Zarur natijalarga erishishda o'rta muddatli indikativ rejani tayyorlashning to'g'ri tashkil etilishi zaruriy ahamiyatga ega va har xil

vazirlik hamda tashkilotlar tomonidan rejani ishlab chiqishda xarajatlar kamayishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Makroiqtisodiy prognozlarni tayyorlashda Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy Bank, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Davlat soliq va Davlat mulki qo'mitalari, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo va boshqa vazirlik hamda tashkilotlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimiyatlari, konsternlar, kompaniyalar, uyushmalar, hissadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar qatnashadilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning indikativ rejalarini ishlab chiqishga doir ishlarni umumiy muvofiqlashtirish, indikativ rejalarini ishlab chiqishda iqtisodiy organlarning ishlarini o'zaro hamkorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining indikativ rejasini ishlab chiqish jarayonida iqtisodiy organlarning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning indikativ rejalarini ishlab chiqishga doir hukumat qarorlari bajarilishini nazorat qilish va reja variantlarini tiklash;

Iqtisodiyot vazirligi – o'rta muddatli istiqbol uchun iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi tahlili va prognozi, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- iqtisodiyotning resurs va ishlab chiqarish salohiyatini baholash va rivojlanishi istiqbollari;
- jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi tendenstiyalar;
- iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlaridagi iqtisodiy o'sish va ichki talab rivojlanishini baholash;
- inflyatsiya darajasi va antiinflyatsiya siyosatining ko'rsatkichlari;
- tashqi talab rivojlanishini va tashqi iqtisodiy faoliyatni baholash.

Markaziy Bank – asosiy pul-kredit agregatlari va pul-kredit siyosatini asosiy yo'nalishlari bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini, bank tizimi aktiv va passiv balans ko'rsatkichlarini, monetarizatsiya darajasini tayyorlaydi.

Moliya vazirligi – Davlat byudjetining daromad va xarajatlari va byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari: byudjetning daromad va xarajat ko'rsatkichlari, davlatning tashqi qarzi, byudjet defitsiti va uni moliyalashtirish bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi – demografik rivojlanish, mehnat resurslari, bandlik, ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari va ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari: aholi soni va mehnat resurslari, bandlik darajasi, turmush darajasi bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlari Kengashi, Viloyatlar va Toshkent shahar xokimiyatlari – viloyatlar va Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, mahalliy byudjetning shakllanishi va byudjetdan moliyalashtirishga talabnomalar prognozini amalga oshiradilar.

Ijtimoiy soha vazirliklari hamda boshqa vazirlik va tashkilotlar – rivojlanishning mos yo'nalishlari bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Konsternlar, kompaniyalar, uyushmalar, xissadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar – rejalashtirayotgan davr uchun ishlab chiqarish-xo'jalik yuritish va korxonaning moliyaviy faoliyati rivojlanishiga oid tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Tashkilotlararo ishchi guruh – o'rta muddatli rejani ishlab chiqishda iqtisodiy organlar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi bo'g'in sifatida faoliyat yuritadi.

Iqtisodiy organlarning rahbarlari va mutaxassislaridan tashkil etilgan tashkilotlararo ishchi guruhning vazifalari birinchi navbatda quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak:

- makroiqtisodiy jarayonlarni tahlili va prognozida iqtisodiy organlar hamkorligini tashkil etish;

- aniq umumiy yo'nalishlarni va samarali siyosatni ishlab chiqish maqsadlarini aniqlash;

- prognozlar sifatida va balansini, quyilgan maqsadlarning mavjud moddiy-moliyaviy resurslar hajmiga mosligini ta'minlash;

- iqtisodiy o'sishga ichki va tashqi omillarning ta'sirini hamda makroiqtisodiy siyosat vositalari o'zgarishini hisobga olgan holda bashoratning bir necha variantlarini ishlab chiqish.

Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Birlashgan hayot – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning indikativ rejasi variantlarini muhokama qilish va mazkur masala yuzasidan xukumatga takliflar tayyorlash.

O'rta muddatli istiqbolga makroiqtisodiy prognozlarni tayyorlashga tashkiliy-uslubiy yondashuvlar.

1. Makro-prognozlarni tashkil etish.

Makroiqtisodiy prognozlarning tashkiliy bloklari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqishning tarkibiy qismi bo'lgan makroiqtisodiy prognoz iqtisodiy tuzilmalarni indikativ rejaning maqsadli vazifalarini bajarishga yo'naltirishni amalga oshiradi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini ishlab chiqishdagi asosiy talablar bo'lib qo'yilgan maqsadlarga erishishda iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlari rivojlanishiga yo'naltiruvchi makro ko'rsatkichlarning balanslashuvining yuqori darajasiga erishish hisoblanadi.

Makroiqtisodiy prognozlar to'rtta asosiy blok bo'yicha ishlab chiqiladi:

- real sektor bloki;
- to'lov balansi bloki;
- davlat byudjeti bloki;
- pul-kredit sektori bloki.

Real sektor bloki ko'rsatkichlari prognozi. Resurslar, mahsulotlar va xizmatlar bozorini kompleks tahlilini nazarda tutadi, Bular:

- demografik holat va mehnat resurslari tahlil va prognozi;
- iqtisodiyotning resurs va ishlab chiqarish salohiyatni, to'plangan milliy boylikni tahlili va prognozi;
- iqtisodiyotda ichki talab ko'rsatkichlari tahlili va prognozi;
- tabiiy resurslarning mavjud zaxiralari va ko'rsatilgan omillar o'zgarishini istiqbollari tahlili va prognozi;
- ijtimoiy rivojlanish darajasi tahlili va prognozi.

To'lov balansining prognozi quyidagi asosiy yo'nalishlarda tahliliy va prognoz ishlarini amalga oshirishni nazarda tutadi:

- mahsulot eksport va importi tahlili va prognozi;
- omilli va noomilli xizmatlar ko'rsatish tahlili va prognozi;
- kapital harakati tahlili va prognozi;
- to'lov balansi defisitini moliyalashtirish tahlili va prognozi;

Davlat byudjeti prognozi quyidagilarni nazarda tutadi:

- byudjetning soliq va nosoliq daromadlari tahlili va prognozi;
- byudjetning joriy va kapital xarajatlari tahlili va prognozi;
- davlatning ichki va tashqi qarzlariga xarajatlari tahlili va prognozi;
- byudjet defistiti va uni moliyalashtirish tahlili va prognozi;

Pul-kredit sohasi prognozi quyidagilarni nazarda tutadi:

- bank tizimini aktiv va passivlari balansi ko'rsatkichlari tahlili va prognozi;
- pul hajmi ko'rsatkichlari tahlili va prognozi;
- monetarizatsiya darajasi tahlili va prognozi;

Agar Iqtisodiyot vazirligi tomonidan dastur loyihalarini ishlab chiqishning umumiy mexanizmi va rivojlanishi yangicha bo'lmasa (ammo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qisqa muddatli prognozlarini ishlab chiqishda faol foydalaniladi), tashkilotlararo iqtisodiy Kengashning vakolati va faoliyati ancha aniq belgilangan bo'lishi shart. Tashkilotlararo iqtisodiy kengash xususiy biznes va tadbirkorlik tuzilmalarini jalb qilishni alohida e'tiborga olgan holda iqtisodiyotning barcha manfaatdor sektorlarini indikativ rijelashtirish jarayoniga jalb etish uchun tashkil etilishi kerak deb, qaraladi.

Bular Kengash tomonidan ikkita asosiy vazifalarni bajarish uchun muhim:

Birinchidan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgan "iqtisodiyot o'yinchilari", yoki ularning vakillarini fikrini hisobga olish keng jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqilgan indikativ reja, direktiv rejalarni tuzishning usuliga xos bo'lgan xatolardan holi bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, "iqtisodiyot o'yinchilari" hukumatning strategik rejalari va iqtisodiyot rivojlanishining (ilmiy texnik taraqqiyot, demografiya) prognozi haqida keng axborot berishi mumkin. Bu biznes va aholini hisobga olgan holda iqtisodiyotning barcha sektorlariga yangi sharoitlarga tezroq moslashishga va o'z faoliyatini optimallashtirishga olib keladi. Misol uchun, Yaponiyada rejalashtirish amaliyoti ko'p yapon kompaniyalari (asosan yirik) umumdavlat rejasini amalga oshirilishiga yordam ko'rsatdilar va o'z faoliyatini uning ko'rsatkichlari hamda yo'nalishlaridan kelib chiqib rejalashtirdilar.

Tashkilotlararo iqtisodiy Kengashning yuqorida keltirilgan ikkala vazifasi ham iqtisodiy nuqtai nazardan, ham mamlakatda fuqarolik jamiyat qurishda ahamiyatli.

O'zbekistonning murakkab hududiy-ma'muriy bo'linishini hisobga olgan holda umumdavlat indikativ rejalarini ishlab chiqish bilan bir vaqtda har bir hududning iqtisodiy rivojlanishining indikativ rejalarini ishlab borish juda ahamiyatli hisoblanadi (bunday tajriba Yaponiya, Malayziya, Rossiya va boshqa davlatlarda qo'llaniladi). Bu jarayonni institustional ravishda xokim huzuridagi iqtisodiy kengash, shuningdek Iqtisodiyot vazirligining hududiy organlari boshqa hududiy iqtisodiy organlari va tadbirkorlik sektori bilan hamkorlikda ta'minlashi mumkin.

12.3. Rejalarni amalga oshirish mexanizmlari va vositalari

Indikativ rejalashtirishning samaradorligi, uning iqtisodiyotga umumiy ijobiy ta'sir darajasi bilan aniqlanadi. Bunda indikativ rejaning maqsadlariga erishish mexanizmlari va vositalarini to'g'ri tanlash ahamiyatli rolni o'ynaydi. Jahon tajribasini o'rganish O'zbekistonda ham foydalanish mumkin bo'lgan indikativ rejalarni samarali amalga oshirish uchun davlat tomonidan foydalaniladigan quyidagini ahamiyatli mexanizm va vositalar sifatida ajratishga imkon beradi.:

1. Qatnashish. Indikativ rejalashtirish jarayoniga davlat tuzilmalari bilan bir qatorda xususiy biznes, jamoa tashkilotlari, aholi va hatto siyosiy partiyalar vakillarini jalb etish. Yuqorida ta'kidlanganidek, bunday yondashuv barcha "o'yin qatnashuvchilarining" qiziqishlari va holatini hisobga olishga imkon beradi.

Shuning bilan birga, juda ahamiyatli bo'lgan narsa, rejani, uning kuchli va zaif tomonlarini uzoq muhokama qilish mobaynida, bu jarayon qatnashchilari yangi sharoitlar doirasida ishlash shartlari belgilanadi. Shuning natijasida bu ularga yangi sharoitlarga tez moslashishga, shuningdek bashorat davrida davlatning yangi strategiyasini hisobga olib unga mos xo'jalik xarakati uchun zaruriy institutsional, moliyaviy va boshqa choralarni amalga oshirish imkonini beradi.

2. Habardor qilish. Axborot berilishi kutilayotgan strategiyalar, fiskal va pul-kredit siyosati haqida jamiyatning barcha qatlamlarini keng tarzda o'z vaqtida xabardor qilish, nafaqat indikativ rejalashtirish jarayoni ishtirokchilariga, balki ko'pchilik faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlariga va aholiga, majbur bo'lmagan xatolardan qochish, o'z biznes-strategiyasini oqilona yaratish, yangiliklardan yoki konyuktra o'zgarishidan keyingi bo'lishi mumkin bo'lgan noxush oqibatlarni oldini olish imkonini yaratadi.

3. Me'yorlashtirish. O'rta muddatli indikativ rejalar direktiv (to'g'ridan to'g'ri) topshiriqlar o'rniga, makroiqtisodiy siyosatning belgilangan sharoitlarini: aniqlovchi soliq yuklari, Markaziy Bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, banklarning majburiy zaxira me'yorlari, ayirboshlash kursi, bojxona to'lovlari, cheklovlar, byudjet tizimi darajalari bo'yicha daromadlarning taqsimlanish me'yorlari, byudjet tashkilotlarida ish haqi jamg'armasi limitlari, ijtimoiy me'yorlar aniqlovchi belgilangan me'yoriy hujjatlar tizimiga ega bo'lishi kerak. Me'yoriy hujjatlarni joriy qilish mumkin bo'lmagan hollarda, mos

ko'rsatkichlar (valyuta koridori, qayta moliyalashtirish foiz stavkasining tebranish koridori) tebranish uzunligini cheklash usuli qo'llaniladi.

4. Moliyalashtirish. Maqsadli dasturlarni davlat byudjeti, jalb qilinadigan kreditlar, shu jumladan, davlat kafolati orqali mablag'lar hisobidan moliyalashtirish indikativ rejalarni amalga oshirishning to'g'ridan-to'g'ri vositasi hisoblanadi. Odatda, bu vosita byudjet siyosati, davlat maqsadli dasturlari, investition dasturlar, shuningdek indikativ rejalar maqsadlariga erishish uchun ahamiyatli bo'lgan strategik sohalar va loyihalarga imtiyozlar va har xil subsidiyalar mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

5. Davlat maqsadli dasturlari. Indikativ rejalarning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qo'yilgan vazifalarni moliyaviy manbalar bilan bog'lovchi, muddatlar va ma'sul ijrochilarni aniqlovchi mukammal maqsadli dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu mexanizm indikativ moliyalashtirishdan foydalanuvchi barcha mamlakatlarda foydalaniladi.

6. Davlat xaridlari. Xaridlar ko'pincha maqsadli dasturlar doirasida amalga oshiriladi, ularni bajarish uchun davlat va xususiy korporaiyalar o'rtasida byurtmalarni joylashtiruvchi va ularning faoliyatini nazorat qiluvchi maxsus davlat kompaniyalari tashkil etiladi.

7. Davlat sektorini rejalashtirish. Bu mexanizm Franstiyada keng qo'llaniladi va to'liq davlat ixtiyoridagi korxonalarni boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Odatda bu – xususiy sektor korxonalaridan farq qiladigan, davlatning qat'iy nazorati ostida bo'lishi kerak bo'lgan tabiiy monopoliya tarmoqlaridagi katta korxonalar hisoblanadi.

8. Investition dastur. Bu mexanizm Yaponiyada shuningdek Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida nisbatan keng qo'llaniladi. Yaponiya tajribasi ko'rsatishicha 1953 yildan buyon davlat byudjetiga nisbatan investistiyalar va zayomlarning muvaqqat dasturi ishlab chiqiladi, mamlakatning "ikkinchi byudjeti" ishlab chiqarishga investistiya kiritishning va iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi hisoblanadi. Undan ajratiladigan kreditlarning real ahamiyati nafaqat ularning o'zlariga, balki ular xususiy korporastiyalar iqtisodiyotini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lishidadir.

9. Baho siyosati. Bozorlardan baho siyosati, inflyastiyaning ushlab turish maqsadidagi tabiiy monopoliya tariflarini qattiq tartibga solish, innovastion va texnologik rekonstrukstiya davrida mahalliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish. Ishlab chiqaruvchilar

tomonidan, bu misol uchun rejalashtirilayotgan davr uchun ishlab chiqariladigan mahsulotning narx o'zgarishi chegaralarini kafolatlashning iste'molchilari tomonidan – mazkur mahsulotni o'z vaqtida sotib olish majburiyatlarini kafolatlash.

10. Byudjet siyosati. Amalga oshirilayotgan byudjet siyosati indikativ rejalarda namoyon bo'lgan ustuvorliklar va yo'nalishlarga mos kelishi zarur. Davlat byujetini shakllantirish tamoyillari rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni tartibga solish tizimining ususiy mantig'iga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi zarur. Uni ishlab chiqish asosiga muayyan yo'nalishlar bo'yicha byudjet xarajatlari darajalarini aniqlashtiruvchi qonuniy belgilangan normativ hujjatlarini, shuningdek xarajatlarni rejalashtirish va amalga oshirish dasturli maqsadli tamoyillarini qo'yish kerak. Bunda asosiy ustuvorlik birinchi navbatda, fan va ITT rivojlantirish xarajatlariga, shuningdek, kelgusi rivojlanish mustaxkamligi asosini tashkil etadigan ta'lim va milliy xavfsizlikka berilishi zarur. Yuqori ustuvorlik, yana investistion dasturlarga berilishi lozim.

11. Pul kredit siyosati. Indikativ rejalarni samarali amalga oshirish ahamiyatli sharti bo'lib pul kredit organlari faoliyatining shaffofligi hisoblanadi. Xukumat pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlar haqida ommaviy habar berish ularning sabablarini tushuntirishlari lozim. Shaffoflik amalga oshirilayotgan siyosatning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Harakatlar shaffoflik kutish mexanizmlari orqali bozor ishtrokchilariga ta'sir ko'rsatadi hamda monetar vositalarni qo'llash vaqti va iqtisodiy agentlar javobi o'rtasidagi masofani qisqartiradi.

12. Tashqi savdo. Tashqi savdo siyosati tanlangan iqtisodiy strategiyani amalga oshirish uchun eksport va import qiluvchilar faoliyatini zaruriy tomonga yo'naltiruvchi bojxona to'lovlarini, notarial to'siqlarni, cheklov va listenziyalarni, eksport (import) qiluvchilarga ochiq va yashirin subsidiyalarni joriy qilish.

13. Ijtimoiy siyosat. Indikativ rejalarda nazarda tutilgan ijtimoiy siyosat. Maqsadli ijtimoiy dasturlar, ijtimoiy normativlar (eng kam ish haqi, nafaqa va x.k.), shuningdek ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga byudjet xarajatlari orqali amalga oshiriladi. Demak qat'iy aytadigan bo'lsak, davlat xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi tomonida indikativ rejalarni tushunish mexanizmini shunga mos ravishda ularni to'g'ridan-to'g'ri usullarini emas, balki kengaytirish-cheklash-yo'naltiruvchi mexanizmi orqali amalga oshirish shartlarini ishlab chiqadi.

Kengaytiruvchilar bo'lib indikativ rejalarni ishlab chiqishda keng ishtirok etish va ular haqida ma'lumot berish nazarda tutiladi. Cheklovchilar bo'lib, belgilanadigan normativlar va byudjet chegaralari hisoblanadi. Yo'naltiruvchilar bo'lib – makroiqtisodiy siyosatning prognozi va shakllanuvchi shartlari maqsadli va investitsion dasturlar hisoblanadi.

Xulosalar

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishda mamlakat aholisining farovonligini oshirish, hayot kechirish va mehnat faoliyatini yuritish uchun qulay muhitni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Ayrim maqsadlar bir vaqtning o'zida turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, ushbu holatda ular ichidan hozirgi vaziyat nuqtai nazaridan eng asosiylarini e'itbarga olish lozim. Rejalashtirishda iqtisodiyotga ta'siri ko'lamlari va xarajatlarning miqdoriy parametrlari, institustional, moliyaviy va kadrlar bilan ta'minlash imkoniyatlari bo'yicha ham farq qiladi.

Davlat yo'li bilan tartibga solish tartibga soluvchi vositalarni qo'llash shartlarini, ularning maqsadlarga mos kelishini, alohida vositalarning birgalikda mavjud bo'lishi darajasini, ularni qo'llashning qo'shimcha t'sirlarini, tartibga solish vositalarining samaradorligini va ularni qo'llash zaruratini asoslash zarur.

Tayanch tushunchalar

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, o'rta muddatli indekativ reja, prognoz, kompleks tahlil, iqtisodiy organlar, Funksional hamkorlik, makroiqtisodiy prognoz; qatnashish, xabar qilish, me'yorlashtirish, moliyalashtirish, davlat maqsadli dasturlari, investitsiya dasturi, baho siyosati, tashqi savdo.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini indikativ rejalashtirishning ahamiyatini tushuntiring?
2. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'rta muddatli indikativ rejasini ishlab chiqishning asosiy bosqichlarini bilasizmi?
3. Indikativ reja tuzishda iqtisodiy organlarning Funksional hamkorligi nimada?
4. Davlat darajasida ijtimoiy jarayonlar qanday tartibga solinadi?
5. Rejalarni amalga oshirish mexanizmlari va vositalari qaysilar?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konstepsiyasi. Xalq so'zi. 13.11.2010, №220(5135).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonuni. 1993 yil 2 sentyabr, 915-XII-son.
4. Basovskiy L.E. Prognozirovanie i planirovanie v usloviyax rinka. Uch.posob. M.: 2006.-260 s.
5. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Zohidov G'.E. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash.-T.: TDIU,2010.- 216b.
6. Kadirov A.M. Metodologicheskie podxodi k analizu strategii sostialno-ekonomicheskogo razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (3 str).
7. Sadikov A.M. Osnova Regionalnogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika.—T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005.-280b.
8. Xakimov Razrabotka makroekonomicheskoy modeli Uzbekistana dlya analiza i prognoza ustoychivosti razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (8 str).
9. Chepel S.V. Alternativnie ssenarii i strategii dolgosrochnogo razvitiya nastionalnoy ekonomiki. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana.-T.: IPMI,2010 (17 str).
10. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh, 2007 y, 2008 y “O'zbekiston”, - Toshkent.; 2008, 2009.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezidenti qarorlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi. – Toshkent, «O'zbekiston», 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. 1996 yil 29 avgust, 257-I son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi Qonun.
4. O'zbekiston Respublikasining Byudjet tizimi to'g'risidagi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonuni. 1993 yil 2 sentyabr, 915-XII-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent. “O'zbekiston”, 2009.
8. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish.-Toshkent. “O'zbekiston”, 2009.
9. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: “O'zbekiston”, 2010. 80b.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konstepsiyasi. Xalq so'zi. 13.11.2010, №220(5135).

III. Maxsus adabiyotlar

11. Basovskiy L.E. Prognozirovanie i planirovanie v usloviyax rinka. Uch.posob. M.: 2006.-260 s.
12. Bezrukov V. Organizatsiya gosudarstvennogo planirovaniya i regulirovaniya ekonomiki // Planovoe xozyaystve. 1990 g. № 3. – 69 s.
13. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Zohidov .E. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash.-T.: TDIU, 2010.- 216b.
14. Vaxabov A.V. Aktualnie problemi aktivizastii investistionnoy deyatelnosti kommercheskix bankov. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI, 2010 (4str).
15. Gelbreyt Dj.K. Ekonomicheskie teorii i steli obshestva. – M.: Progress, 1979 g. – 168 s.

16. Dallago B. Est li budushee u makroekonomicheskogo planirovaniya v Vostochnoy Evrope? // Rossiyskiy ekonomicheskij jurnal. 1992 g. № 3. - 105 s.
17. Evgrashin A. Iz praktiki frantsuzskogo indikativnogo planirovaniya // Rossiyskiy ekonomicheskij jurnal. 1998 g. №2. – s. 84,85.
18. Ilina R. Ob indikativnom (rekomendatelnom) planirovanii v kapitalisticheskix stranax // Planovoe xozyaystvo. 1990g. № 11. – 108 s.
19. Jumaev N.X., O.Q. Abduraxmonov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademnashr, 2010.—160b.
20. Jumaev X.N., Otaniyazov B., Yugay L.P., Jalilov A. Matematik programlashtirish: darslik. – T.:”Adabiyot jamarmasi” nashriyoti, 2005. – 230b.
21. Kadirov A.M. Metodologicheskie podxodi k analizu strategii sostialno-ekonomicheskogo razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (3 str).
22. Kalmikov Yu. Regulirovaniye ekonomiki (opit Frantsii) //Planovoe xozyaystvo. 1990 g. №9. - 102 s.
23. Knish M.I., Perekatov B.A., Tyutikov Yu.P. Strategicheskoe planirovaniye investitsionnoy deyatel'nosti: Ucheb. posobie. – SPB.: Izd. dom “Bizness – Pressa”, 1998. – 315s.
24. Kiseleva E.A. Makroekonomika.—M.: EKSMO, 2007.-352s.
25. Muhitdinov X.S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishni modellashtirish.-T.: Fan, 2009.-237b.
26. Nurimbetov R.I. Mintaqa iqtisodiyotini boshqarish mexanizmi va uning samaradorligi.- T.: Fan, 2008.-221b.
27. Sadikov A.M. Osnova Regionalnogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika.—T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005.-280b.
28. Senchagov V. O yaponskom opite upravleniya (razmishleniya posle komandirovki) //Voprosi ekonomiki. 1990 g. № 5. – 142 s.
29. Stepanov A.N. Informatika: Uchebnik dlya vuzov. 5-e izd. – SPB: Piter, 2007. – 765s.
30. Frank Xespeler. Ostenka transmassionnogo mexanizma v Uzbekistane s pomoshyu VESM. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010- 4 str.
31. Xakimov Razrabotka makroekonomicheskoy modeli Uzbekistana dlya analiza i prognoza ustoychivosti razvitiya. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana. -T.: IPMI,2010 (8 str).
32. Xodiev B.Yu va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.A. Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o’rganish bo’yicha O’quv-uslubiy majmua –Toshkent: Iqtisodiyot. 2010. -331 bet.

33. Xodiev B.Yu va boshqalar. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari» nomli asarini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

34. Xodiev B.Yu., Berkinov B.B., Kravchenko A.N. Biznes qiymatini baholash.-T.: Fan, 2006.-224b.

35. Xlinov V. Obshegosudarstvennoe planirovanie rinochnoy ekonomiki // Ekonomist. 1994 g. №4. -90 s.

36. Iqzinven Li. Rol gosudarstvennogo regulirovaniya v ekonomike Kitaya // Voprosi ekonomiki. 1997 g. №7. - 156 s.

37. Chepel S.V. Alternativnie ssenarii i strategii dolgosrochnogo razvitiya natsionalnoy ekonomiki. Doklad na Forume ekonomistov Uzbekistana.-T.: IPMI,2010 (17 str).

38. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.-T.: Iqtisod-moliya, 2008.-208b.

39. Ekonometrika: Uchebnik. Podred. Eliseevoy I.I. – 2-e izd. –M.: Finansi i statistika, 2007. –576s.

40. O’zbekiston iqtisodiyoti: erishilgan yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy – amaliy anjumani ma’ruzalar to’plami. – T.: TDIU, 2008. –369b.

41. Davlat byudjetining g’azna ijrosi. Normativ huquqiy hujjatlar to’plami. -T.: O’zR Moliya vazirligi, 2010.-271 b.

42. O’zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh, 2007 y, 2008 y “O’zbekiston”, - Toshkent.; 2008, 2009.

IV. Internet saytlari

43. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti: <http://www.mineconom.uz>.

44. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti: <http://cbu.st.uz>.

45. O’zbekiston banklari Assostiastiyasi rasmiy sayti: <http://uba.uz>.

46. TDIU rasmiy sayti: www.tsue.uz

47. Elektron pochta manzili: info@tsue.uz

48. Novosti Uzbekistana – www.uzreport.com

Glossariy

Aholining bandligi – ijtimoiy ishlab chiqarishni fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan aniqlangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

Aholi bandligi muammosi – bu insonlarni mehnat faoliyatiga jalb etish muammosi va ularning mehnatga bo'lgan ehtiyojlarini ish o'rinlari bilan qanoatlantirish darajasi.

Bandlik darajasi – bandlar umumiy sonini mehnatga layoqati yoshdagi aholi soniga nisbati.

Balans usuli – o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning bog'lanishini va muvofiqlashtirilishini ta'minlash uchun foydalaniladigan usullar yig'indisi tushuniladi.

Baho – tovar qiymatining pul orqali ifodalanishi.

Byudjet davri – byudjetni ijro etish jarayonini amalga oshirish vaqti.

Byudjet–soliq siyosati – byudjet siyosatida byudjet xarajatlari va daromadlarini shakllantirgan holda uch xil byudjet siyosati yuritiladi. Byudjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlarning sotilishidan va ma'lum qismi markaziy banki emissiyasi hisobiga. Shunga ko'ra davlat xarajatlari va daromadlarni boshqarish orqali byudjet siyosati yuritiladi.

Byudjetdan mablag' oluvchi (byudjet muasasasi) – bu ijroiya hokimiyati organi tomonidan notijorat xususiyatiga ega bo'lgan Funksiyalar (boshqaruv, mudofaa, ijtimoiy-madaniy tadbirlar va b.)ni amalga oshirish uchun tashkil etilgan va smeta tartibida moliyalanuvchi tashkilot.

Byudjet daromadlari – davlatning qonun hujjatlariga muvofiq davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ixtiyoriga beg'araz va qaytarishsiz tartibda kelib tushuvchi pul mablag'lari.

Byudjetlarning soliqdan tashqari daromadlari – davlatning iqtisodiy faoliyati yoki olingan daromadlarni byudjet tizimining darajalari bo'yicha qayta taqsimlash natijasida hosil bo'ladi.

Byudjet xarajatlari – davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari vazifalari va Funksiyalarini moliyalashga yo'naltiriladigan pul mablag'lari.

Byudjetni prognoz qilish – bu yuzaga kelgan tendenstiyalar, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va istiqbolni baholash asosida byudjetni rivojlantirishning optimal yo'llarini ishlab chiqish va asoslashdan va shu asosda uni mustahkamlash yuzasidan takliflar berish demakdir.

Byudjet taqchilligi – davlvt byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

Vazifa – bu rejalashtirish davri doirasida ma'lum vaqt oralig'ida erishilishi ko'zda tutilgan maqsadlar. Vazifalar rejalashtirilayotgan davr mobaynida amalga oshirilishi lozim.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Davlat byudjeti – asosan davlat (shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalar) ning ma'lum muddatdagi (yil, kvartal, oy) daromadlari va xarajatlarining pul hisobi.

Davlat va hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozi byudjet loyihasini tuzish uchun asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi va u o'z navbatida hisobot davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ma'lumotlari, rejalashtirilayotgan yil uchun rivojlanish tendenstiyalari va boshqa ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqiladi.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi – umumlashtirilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va respublika ko'rsatkichlarning cheklangan doirasi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Dastur – bu hodisa rivojining maqsadli yo'nalishlari va ularga erishishning rejalashtirilayotgan yo'llari tizimi.

Demografik prognoz qilish – bu aholi harakatining asosiy parametrlari va demografik vaziyat: aholi soni, yosh-jins va oilaviy tarkibi, tug'ilishi, o'limi, migrastiyasini ilmiy asoslangan oldindan ko'ra bilish demakdir.

Direktiv rejalashtirish – manzilli topshiriqlarni belgilash va ularni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni reja ijrochilari o'rtasida taqsimlash orqali amalga oshiriladi.

Doiraviy rejalashtirish – faqat 10 yildan 20 yilgacha mo'ljallangan global maqsadlar va strategiyalarni shakllantiradi. U xalq va jahon xo'jaligi, aholi, texnologiyalar va hokazolarning taxminiy prognoz tendenstiyalari asosida uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini baholash uchun xizmat qiladi.

Etakchi bo'g'inlarni ajratish – strategik rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda va uning obyektlaridagi muvazanat uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish imkonini beruvchi muhim yo'nalishi.

Foiz – daromad, o'z mulkining boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berish va shundan foyda olish.

Foiz stavkasi – kredit yoki qarz stavkasi kapitali evaziga to'lovni foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisini bir birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

Ideal – bu erishilib bo'lmaydigan, lekin unga cheksiz ravishda yaqinlashish mumkin bo'lgan maqsad.

Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil – ijtimoiy-iqtisodiy haqiqatni har tomonlama o'rganishni, ijtimoiy munosabatlar va ishlab chiqarishni rivojlantirishning ilg'or tendensiyalarini va ularni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida hodisalarning ichki aloqalari va bog'liqligini bilishni o'zida namoyon etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari demografik, ilmiy-texnikaviy, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, shuningdek tarmoq, mintaqaviy va faoliyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa sohalarini aks ettiradi.

Ijtimoiy soha vazirliklari hamda boshqa vazirlik va tashkilotlar – rivojlanishning mos yo'nalishlari bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Ijtimoiy sug'urta – aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy unsuri hisoblanib, uning maqsadi kasal bo'lish holatida va qariyalik davrida, baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarish bo'yicha kasallanishlar, ishsizlik munosabati bilan insonning iqtisodiy himoyalashini ta'minlashdan iborat.

Ilmiy oldindan ko'ra bilish – bu tabiat, jamiyat va tafakkur qonunlarini bilishga asoslangan haqiqatni oldindan aks ettirishdir.

Import – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. U xalq xo'jaligi, vaqtni tejash, xalq ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

Investitsiya – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Indekslar – YaIM deflyatorlari – YaIM ko'rsatkichlarini solishtirma narxlarda aks ettirish uchun ishlatiladigan indekslar guruhi, bularga narxlarni agregat indeksi, YaIM deflyatori narxlari indeksi, iste'molchi

narxlar indeksi, shuningdek maxsus tashkil qilingan indekslar kiradi.

Indikativ rejalashtirish – davlat boshqaruvining ongli faoliyati sifatida ta’riflanadigan makroiqtisodiy rejalashtirishning bir turi bo’lib, uning maqsadi ma’lum vaqt o’tishi bilan umuman milliy iqtisodiyotni istalgan holatga olib kelishdan iborat.

Indikativ rejalashtirish – ham xo’jalik yurituvchi subyektlarning davlat-huquqiy munosabatlari sohasiga, ham fuqarolik-huquqiy munosabatlar sohasiga taalluqli bo’lgan institutdir.

Indikativ rejalashtirish fani – kelajakni aniq asoslash imkonini beruvchi reja va prognoz hisob-kitoblari tamoyillari, usullari, ularning bosqichma-bosqichligini, iqtisodiy oldindan ko’ra bilish indikatorlarini tanlashni belgilab beruvchi yagona metodologiyaga amal qiladi.

Indikativ rejalashtirish tizimi – hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga mos keluvchi iqtisodiyot holatini va rivojlanishini tavsiflovchi indikatorlarni (ko’rsatkichlarni) shakllantirish hamda ushbu indikatorlarga erishish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat yo’li bilan tartibga solish choralarini belgilash hisoblanadi.

Indikativ rejalashtirish metodikasi – bu barcha darajadagi prognozlar, dasturlar, rejalar va reja ko’rsatkichlarini hisob-kitob qilish tizimining vaqt chegaralarini ishlab chiqish, asoslash va tahlil qilish usullarining yig’indisi.

Indikativ rejalashtirishning metodologik tamoyillari – rivojlanish qonunlarining umumiy harakatini ifodalovchi hamda dasturlar, loyihalar va rejalarining vazifalarini, yo’nalishlarini va bajarilish imkoniyatlarini belgilab beruvchi obyektiv kategoriyaga asoslanadi.

Indikatorlar majmuini qo’llash – bu qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhitni bilvosita shakllantirish usulidir.

Indikativ reja – bu uzoq muddatli istiqbolda boshqaruv butkul obyekti (korxona, mintaqa, mamlakat)ning holatini ilmiy jihatdan oldindan ko’ra bilish.

Indikativ rejalashtirish usuli – bozor iqtisodiyotiga o’tish bilan davlat va nodavlat sektorlarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ongli ravishda boshqarish usuli.

Inflyastiya – pulning qadrsizlanishi, muomaladagi pulning qadrsizlanishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta’minlanmagan pullarning paydo bo’lishi. Inflyastiya tovar bahosining ochiqchasiga va yashirin ravishda oshib ketishiga olib keladi.

Inflyastiya darajasi – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasi foiz o’zgarishi.

Iqtisodiy-matematik usullar ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni, iqtisodiyotning muvozanatini tahlil qilish, iqtisodiy o'sishni prognoz qilishning o'ziga xos usullarini namoyon etadi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi – tarmoqlar, tarmoqlararo majmualar, shuningdek respublika aholisiga xizmatlar ko'rsatish sohasi rivojlanishining muhim yo'nalishlarini aks ettiradi.

Iqtisodiy tahlil o'tmish va hozirgi davr to'g'risidagi axborotni baholash sifatida iqtisodiy ishning mustaqil unsuri sifatida ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy o'sish – real milliy daromadning yoki real milliy daromadni (mahsulotni) aholi jon boshiga o'sishi sifatida aniqlash mumkin.

Ishchi kuchi – odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida u ishga soladigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

Ish vaqti – ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining ishlagan vaqti hajmi.

Yig'ma moliyaviy balans – bu davlatda yoki muayyan hududda yaratilgan va foydalanilgan moliyaviy resurslar balansi.

Jamiyatning ehtiyojlari – bu murakkab, dinamik tizim bo'lib, u quyidagi kichik tizimlardan tarkib topgan: a) moddiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyoj; b) nomoddiy ehtiyojlar.

Konyunktura prognozi – bu shuni anglatadiki, reja ijrochilarining subyektiv harakatlari asosida ularning xo'jalik muhiti mavjud bo'lishining obyektiv qonuniyatlarini tushunishi va undan foydalanishi: bozor mexanizmini bilish va rejalashtirishning dastlabki qismi sifatida prognozni ishlab chiqish yotadi.

Konsepsiya – bu global maqsadlar va reja davrida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda o'z ifodasini topuvchi prognozlar, dasturlar loyihalari va rejalarning umumiy maqsadi hamda unga erishish yo'llari, shakllari va usullarini aniqlash.

Konsternlar, kompaniyalar, uyushmalar, xissadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar – rejalashtirayotgan davr uchun ishlab chiqarish-xo'jalik yuritish va korxonaning moliyaviy faoliyati rivojlanishiga oid tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Loyihalashtirish – rejalashtirishning barcha tartibotlarining yakunlovchi bosqichi. Uning maqsadi barcha darajalar va vaqt gorizontlari indikativ rejalarining loyihalarini ishlab chiqishdan iborat.

Markaziy Bank – indikativ rejalashtirishda pul-kredit agregatlari va pul-kredit siyosatini asosiy yo'nalishlari bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini, bank tizimi aktiv va passiv balans ko'rsatkichlarini, monetarizastiya darajasi bo'yicha axborot tayyorlaydi.

Maqsadlar – indikativ rejalashtirishda ideal holat yoki rejalashtirish obyektining ma'lum vaqt oralig'ida faoliyat ko'rsatish natijalari sifatida tushunladi.

Maqsadlarni shakllantirish – bu keyingi harakatlar uchun aniq, tarkiblangan va amalga oshirish uchun yaroqli bo'lgan me'yorlar tizimini yaratish.

Maqsadlarni tartibga keltirish, maqsadlar daraxtini shakllantirish – bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining dinamik tizimini shakllantirish, ularni vaqt oraliqlari bo'yicha taqsimlash vazifasidir.

Maqsadlar daraxti – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining tizimlashtirilgan to'plami.

Metodologik yondashuv – bu barcha darajadagi prognozlar, dasturlar, rejalar va vaqt gorizontlarini ishlab chiqishda strategik rejalashtirish mantig'i, tamoyillari va usullaridan foydalanishning yaxlit yo'nalishi.

Moliya vazirligi – indikativ rejalashtirishda davlat byudjetining daromad va xarajatlari va byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari: byudjetning daromad va xarajat ko'rsatkichlari, davlatning tashqi qarzi, byudjet defistiti va uni moliyalashtirish bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Moliya-byudjet siyosati (byudjetlar) – bu hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan o'z Funksiyalarini bajarish uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanish va byudjet tizimini boshqarish bo'yicha harakatlar va tadbirlar yig'indisidir.

Moliyaviy rejalashtirish – moliyaviy resurslarni hosil qilish, taqsimlash, qayta taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini boshqarish.

Moliyaviy rejalar tizimi – umumdavlat va hududiy darajalarda moliyaviy rejalashtirish qiymat ifodasidagi moddiy va mehnat muvazanatini ta'minlovchi tizim.

Muammolarni tashxis qilish – bu maqsad bilan rejalashtirishning qandaydir davri uchun obyektning prognoz qilinayotgan holati haqidagi tasavvur o'rtasidagi farqlarni aniqlash.

Muqobil variant – bu belgilangan maqsadga erishishning boshqa ehtimoliy usullardan farq qiluvchi usuli.

Narxlar indeksi – ikki har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanatini o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Narxlar korrektirovkasi – bozor vaziyati o'zgarishiga narxlarning moslashuv jarayoni.

Normativ prognozning asosiy maqsadi – demografik jarayonlarning ayrim ko'ngilli holatiga erishish uchun muayyan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Oldinga qo'yilgan mahsadlarga erishish – xo'jalik yuritish obyekti xodimlarining shaxsiy va jamoaviy manfaatlarining qoniqishini belgilab beradi.

Ommaviy baholash – aholining alohida guruhlarining sostiologik tadqiqotlar jarayonida rejalashtirishning qandaydir muammosining mohiyati yuzasidan fikrlarini aniqlash.

Prognoz – hodisa rivojining istiqbollari aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot oldindan ko'ra bilishning bir shakli hisoblanadi.

Reja – bu oldinga qo'yilgan maqsadga erishish chora-tadbirlari to'g'risida qaror.

Rejalashtirish – bu o'z maqsadlariga erishish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning oqilona xatti-harakatini iqtisodiy asoslash jarayonidir.

Rejalashtirish – davlat, boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mamlakat, mintaqalar, tarmoqlar, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyati.

Rejalashtirish tizimi – bu rejalashtirish alohida qismlarining tartibga solingan tarkibiy tuzilishi.

Reja ko'rsatkichlarini tasdiqlash jarayoni – reja loyihasining dastavval manfaatdor tuzilmaviy bo'g'inlar tomonidan, so'ngra esa yuqori rahbariyat tomonidan muhokama etilishini nazarda tutadi.

Rejalashtirish tamoyili – rivojlanish qonunlarining umumiy harakatini ifodalovchi hamda dasturlar, loyihalar va rejalarning vazifalarini, yo'nalishlarini va bajarilish imkoniyatlarini belgilab beruvchi obyektiv kategoriya.

Respublika tumanlari va shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishi indikatorlari tizimi – respublika mahalliy tuzilmalari hududlari iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining rivojlanishini tavsiflaydi.

Sarf-xarajatlar balansi – makroiqtisodiyotda YaIMni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlari va yaratilgan yalpi milliy mahsuloti oxirgi iste'mol maqsadida ishlatilishi orasidagi balans.

Soliqlar – milliy daromadni taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir. Soliq byudjet va byudjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Strategik rejalashtirish mantig'i – bu strategik rejalashtirish muammolarini hal etish bilan bog'liq tartibotlarning tartibga keltirilgan izchilligi, asoslanganligi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi – iqtisodiyot real sektorining nodavlat va davlat korxonalari hamda ijtimoiy soha tarmoqlari byudjet tashkilotlari (muassasalari)ning rivojlanish indikatorlarini o'z ichiga oladi.

Ekspert (baholash) yoki evristik usullar – bilvosita va to'liqsiz axborotdan, ekspert mutaxassislar tajribasidan, ichki hissiyotdan foydalanishga asoslangan.

Shartnomaviy rejalashtirish – korxonalar, birlashmalar, banklar, hokimiyat va boshqaruv organlari o'rtasida ixtiyoriy va o'zaro foydali asosda quriladigan tijorat munosabatlarini tartibga soladi.

Yo'l qo'yiladigan qiymatlar sohasi – bu hozirgi vaqtda rejani tuzuvchining ixtiyorida mavjud bo'lgan amalga oshirish uchun yaroqli hisoblangan ko'plab muqobil variantlar. Ushbu muqobil variantlar bir birini inkor etadigan darajada shakllantirilishi kerak.

Taktik rejalashtirish – taktik vazifalarni tanlashni va ma'lum strategiya va ideal doirasida ularga erishish vositalarini tanlashni nazarda tutadi.

Tashkilotlararo ishchi guruh – o'rta muddatli rejani ishlab chiqishda iqtisodiy organlar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi bo'g'in sifatida faoliyat yuritadi.

Tizimli-majmuaviy yondashuv – turli ijtimoiy tizimlar (majmualar) – korxonalar, mintaqalar va jamiyatga nisbatan tizimli yondashuvni aniqlashtirish.

Tizimli-dasturiy (dasturiy-maqсадli) yondashuv – strategik rejalashtirish obyektlarining yirik lokal ilmiy, texnik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarini hal etishga nisbatan tizimli yondashuvni aniqlashtirish.

Tizimli-multiplikastion yondashuv (multiplikastiya – ko'paytirish) – samaralari paydo bo'lishi bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etishga nisbatan tizimli yondashuvni aniqlashtirish.

Tizimli-me'yoriy yondashuv – rejalashtirish subyektlarining talablarini indikativ rejalashtirishga, uning obyektlariga nisbatan (mehnat, moddiy va h.k.) resurslardan optimal tarzda foydalanish bo'yicha tizimli yondashuvni aniqlashtirish.

Tizimli-dinamik yondashuv – indikativ rejalashtirish obyektlarini rivojlantirish, sifat xususiyatlarini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni tadqiq etish, ishlab chiqish va asoslashga nisbatan tizimli yondashuvni aniqlashtirish.

Uzoq muddatli rejalashtirish – investistiyalar va mahsulot ishlab chiqarish dasturlariga mahsulotning muayyan guruhiga xos bo'lgan reja gorizontigacha muayyanlashtiradi va odatda, 10 yilgacha bo'lgan muddatni qamrab oladi.

Funksional prognoz qilish – bu u yoki bu tashkilotlar, firmalar, korporastiyalar, davlat organlari, o'quv muassasalarining muayyan amaliy maqsadlari va vazifalariga xizmat qiluvchi prognoz.

Funksional demografik prognoz qilish – bu ayrim o'ziga xos maqsadlar uchun bo'lajak talab va taklifni oldindan aytib beruvchi teglamalar shakliga keltirilgan aholi yosh-jins tarkibini prognoz qilish.

O'rta muddatli rejalashtirish vazifalari – uzoq muddatli rejalashtirish dasturlarini amalga oshirish uchun moliyaviy, iqtisodiy va texnik nuqtai nazardan zamin hozirlashdan iborat.

Qaror qabul qilish – bu ikkinchi darajali sharoitlarni hisobga olgan holda maqsad qo'yilganda optimal muqobil variantni tanlash.

Qarorlar qabul qilish mantig'i nuqtai nazaridan baholash – bu muqobil variantlar yordamida maqsadga erishish darajasini tavsiflovchi kattalik.

Qadrsizlanish – milliy valyutaning narxi chet el valyutalarining bahosidan kamayishi.

Qisqa muddatli rejalashtirish maqsadi – bir oy mobaynida biznesning rivojlanishini nazarda tutish, ishlar natijalari rejalaridan chetga chiqishining butun reja gorizontini rejalashtirishga ta'sirini hisoblab chiqish va ushbu rivojlanishni ixcham boshqarishdan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlari Kengashi, Viloyatlar va Toshkent shahar xokimiyatlari – viloyatlar va Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, mahalliy byudjetning

shakllanishi va byudjetdan moliyalashtirishga talabnomalar prognozini amalga oshiradilar.

Ekstrapolyastiya usuli – avvalgi davrlar amaliyotidan kelib chiqib istiqbollarni tuzish.

Ekstrapolyastion usul – chiziqli va eksponenstial Funksiyalardan, ya'ni davr mobaynida aholi sonining o'rtacha yillik absolyut o'zgarishlari to'g'risidagi yoki o'rtacha yillik o'sish sur'atlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan usul.

Ekspert baholash usuli – fan va iqtisodiyotning alohida tarmoqlarida vakolatli mutaxassislar tomonidan berilgan va asoslangan baholar negizida qilingan prognoz.

Eksport – tashqi bozorda tovarlar, xizmatlar va kapitallarni realizastiya qilish maqsadida chetga chiqarish.

**Milliy iqtisodiyotni uzoq mudatli rivojlantirishning muqobil
ssenariylari va strategiyalari**

*I.f.d. Chepel S.V.
Proгнозlashtirish va makroiqtisodiy
tadqiqotlar instituti*

**Jahon iqtisodiyotining globallashtirish jarayonlari → jahonning
istalgan mamlakatining jahon narxlarining beqarorligi, kapital va
tovarlar oqimi, mehnat migratsiyasiga tobeligining kuchayishi**

Xulosa. Moslashuvchan iqtisodiy siyosatni, rivojlanishning
muayyan shartlari uchun eng ehtimol tutilgan oqibatlar bo'yicha oldindan
shakllantirilgan va hisoblab chiqilgan makroiqtisodiy tartibga solish
muqobil strategiyalarining biridan boshqasiga o'z vaqtida o'tgan holda
yuzaga keladigan ichki va tashqi chaqiriqlarga tezkor munosabat bildirish
qobiliyatini namoyish etuvchi mamlakatlar ustunlikka ega bo'ladi.

Ssenariyali yondashuvning maqsadi

1. Muayyan iqtisodiy muammolarni hal etishda iqtisodiy siyosatning
muqobil chora-tadbirlari oqibatlarini baholash (kam ta'minlanganlar
sonini cheklash, soliq siyosati parametrlari o'zgarishining oqibatlari,
tashqi saqdo rejimini erkinlashtirish va h.k.)
2. Kelgusida iqtisodiyotni rivojlantirishning doiraviy sharoitlarini
yaratish uchun

Ssenariylarni ishlab chiqishning dolzarbligi yana quyidagilar
bilan shartlangan:

- iqtisodiy rivojlanish maqsadlari va ularga erishish usullarining
xilma-xilligi;

- iqtisodiyotni faollashtirish manbalari va oldinga qo'yilgan
maqsadlarga erishish variantlaridagi muqobilliklar (ko'proq xorijiy
kreditlar yoki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar shaklidagi tashqi
mablag'lar yoki aholi, korxonalarining ichki mablag'lari, davlat
investitsiyalari);

- islohotlar sur'atlari va iqtisodiyotni to'g'ridan-to'g'ri davlat
tomonidan tartibga solish ko'lamlaridagi muqobil variantlar;

- davlat tomonidan tartibga solish va tarkibiy o'zgarishlarning
ustuvor yo'nalishlaridagi va iqtisodiy faoliyat alohida turlarining
yo'nalishlaridagi muqobil variantlar.

Iqtisodiy siyosat samaradorligining davlatning rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqligi (iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi - V.Polterovich, V.Popov, Acemoglu, Aghion, Zilibotti, va b. q., masalan, V.Polterovich. Strategii modernizastii, instituti i kaolistii.) //Voprosi ekonomiki. 2008. №4, V.Polterovich, V.Popov. Evolyutsionnaya teoriya ekonomicheskoy politiki//Ekonomicheskaya nauka sovremennoy Rossii. 2007. №3).

Faraziya: *amaliyotda keng foydalaniladigan iqtisodiy tartibga solishning standart chora-tadbirlari (tariflarni pasaytirish, valyuta zahiralarini jamg'arishdan bosh tortish, kapital oqimlarini erkinlashtirish, moliyaviy bozorlarni qayta tartibga solish, davlat nazoratini susaytirish va raqobatni rag'batlantirish) mamlakat tomonidan erishilgan iqtisodiy rivojlanish darajasiga yoki bosqichiga qarab turli natijalarni berishi mumkin.*

Makroiqtisodiy tartibga solishning bir strategiyasi iqtisodiy o'sishga ko'maklashishi yoki davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab unga to'sqinlik qilishi mumkin.

Tashqi savdoni erkinlashtirish: agar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining dastlabki darajasi AQSh darajasining taxminan 10 foizidan oshmasa, u holda tarif to'siqlarining o'sishi YaIMning uzoq mudatli o'sishi bilan ijobiy o'zaro bog'langan. Shu bilan birga, hatto rivojlanishning dastlabki darajasi past bo'lgan taqdirda ham tariflarning haddan ziyod katta darajasi (29 foizdan yuqori) iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qila boshlaydi. Agar rivojlanish darajasi 33-35 foizga etsa, u holda tariflarning istalgan ijobiy darajasi YaIMning o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ssenariyli sharoitlarni ishlab chiqish va makroiqtisodiy prognoz qilishga nisbatan uslubiy yondashuvlar

MUNDARIJA

Kirish

1. Prognoz qilish bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizastiya qilish sharoitida iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish vositasi sifatida

2. Iqtisodiy rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish metodikasi: xorijiy tajribani umumlashtirish

3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muqobil ssenariylarini shakllantirishga nisbatan uslubiy yondashuvlar va uning bosqichlari

3.1. Muqobil ssenariylarni ishlab chiqish bosqichlari

3.2. Muqobil ssenariylarni ishlab chiqishning yangi texnologiyasi doirasida iqtisodiy siyosat parametrlarining muvofiqlashganlik darajasini oshirish usullari

3.3. Axborot oqimlarini prognoz qilish va shakllantirish bosqichida institut loyihalari o'zaro hamkorligini tashkil etish tartibi

3.4. Prognoz hisob-kitoblarining realligini baholash va muqobil ssenariylarning istiqbolliligini tahlil qilish tamoyillari

3.5. Model vositalarini ishlab chiqish va variantli prognozlarni amalga oshirishning yagona axborot bazasi.

4. U yoki bu ssenariy oqibatlarini prognoz qilish uchun model vositalarini ishlab chiqish tamoyillari.

5. 2010-2012 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni iqtisodiy rivojlantirish modellarini shakllantirishda metodikani amalga oshirish misoli

Xulosa

1-ilova. Rivojlanishning muqobil strategiyalari sxemalari va qiyosiy tavsiflari

2-ilova. Rivojlanishning muqobil ssenariylarini shakllantirish usullari, modellari va tartibotlari

3-ilova. IMPI bo'linmalari uchun tarmoq va Funktsional modellar tarkibi

4-ilova. Ssenariy prognoz hisob-kitoblar yagona axborot bazasi indikatorlarining tarkibi

5-ilova. Mavjud model vositalarining ta'rifi

6-ilova. Ssenariy prognozlarning natijalari

Qisqa va uzoq muddatli istiqbol uchun rivojlanish ssenariylarining o'ziga xos xususiyatlari:

- Talab omillariga urg'u
- Inqirozga qarshi choralar va modernizastiya qilish tarmoq dasturlarini amalga oshirish samaradorligidagi muqobilliklarni hisobga olish
- Jahon inqirozining ikkinchi to'lqini muqobilliklari va xatarlarini hisobga olish

Qisqa va uzoq muddatli istiqbol uchun rivojlanish ssenariylarining asosiy omillari:

Bazaviy ssenariy (inerstion yoki konservativ):

- jahon iqtisodiyoti o'sishining beqarorligi;

- so'nggi yillarda yuzaga kelgan qator mutanosibliklarning saqlanib turishi (yoki hatto kuchayishi);
- modernizastiya qilish tarmoq dasturlarini amalga oshirish samaradorligining yuzaga kelgan darajasi saqlanib turishi;
- iqtisodiyotda, shu jumladan davlat samarali mulkdor hisoblanmaydigan sohalarda davlat ishtiroki yuqori darajasiining saqlanib turishi.

Faol ssenariy:

- inqirozga qarshi choralar samaradorligini oshirish;
- erkinlashtirish jarayonlarini jadallashtirish (davlat tomonidan ortiqcha tartibga solinishini qisqartirish);
- modernizastiya qilish tarmoq dasturlarini amalga oshirish samaradorligini oshirish;
- joriy iqtisodiy siyosat parametrlarining uyg'unlik darajasini hamda biznes, davlat va aholi manfaatlarining uyg'unligini oshirish.

Uzoq muddatli istiqbol uchun rivojlanish ssenariylarining o'ziga xos xususiyatlari:

- Taklif omillariga urg'u.
- Innovastiyalarga e'tibor qaratgan holda o'sishning yangi (noan'anaviy) omillarini chuqur ishlab chiqish.
- Rivojlanish va makrotartibga solish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridagi muqobilliklarni hisobga olish.
- Demografik, yoqilg'i-energetika, iqlim, tabiiy va ekologik cheklovlarni hisobga olish.


Uzoq muddatli istiqbol uchun rivojlanish ssenariylarining asosiy omillari:

1. Uzoq muddatli davrda iqtisodiyotni o'stirishning asosiy manbai – rivojlanishning innovastion omillarini va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni faollashtirish yo'li bilan foydalaniladigan resurslar samaradorligini oshirish. ◇ iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli innovastion strategiyasini tanlash muqobilsiz hisoblanadi.

2. Muqobil variantlar eng ehtimol tutilgan *tashqi sharoitlar va uzoq muddatli rivojlanish xatarlarini tahlil qilishda hamda o'sishning innovastion omillarini faollashtirish strategiyasi va mexanizmlarini shakllantirishda yuzaga keladi.*

3. Makroiqtisodiy samaradorlikka urg'u va uning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar.

O'sish resurslaridan foydalanish makroiqtisodiy samaradorligi asosiy indikatorlari dinamikasidagi tendenstiyalar v (2000 = 100%)




Birlamchi iqtisodiy tahlil natijasi: kapital samarasi investitsiya resurslari-ni taqsimlash tarkibida qazib chiqaruvchi tarmoqlar va transport ulushlari bilan teskari bog'liqlikka va to'g'ri-dan-to'g'ri – bank sektorining rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

Xulosalar:

- so'nggi o'n yil mobaynida eng barqaror ijobiy dinamikani ikkita indikator namoyish etdi – energiya samarasi (o'sish 1,5 marta) va mehnat unumdorligi (o'sish 1,45 marta);
- islohotlarga bo'lgan davrda material samarasi o'sishning zaif tendenstiyasini namoyish etdi;
- 2007 yilgacha barqaror o'sib kelgan kapital samarasi darajasi so'nggi uch yilda keskin qisqara boshladi.

4. Jahon tajribasi va mamlakatlararo statistikadan foydalanish zarurati.




Eslatma: O'zbekiston uchun etalon mamlakatlar – Koreya, Malayziya, Chili, Tayland, Xitoy, Vengriya va h.k.

5. Davlat institutlarining rivojlanish darajasini hisobga olish zarurati.


$$tfp = 1.47 * (-0.26 + 0,92*edu/4.2 + 0.02*(gn-5)*res_rd/882 + 0.28*fdi/4)$$

Institutlar bo'yicha: tadqiqotchilar va texniklar (R&Dda band bo'lganlar) sonining o'sishi avtomatik tarzda TFP o'sishiga olib kelishi shart emas. Bu faqat 5 ga teng (Vengriya, Chili, Malayziya, Sloveniya davlat institutlarining sifati) institutlar sifati indeksi aniqlangan chegara qiymatdan oshganda yuz berishi mumkin. bunda ushbu omilning umumiy samaradorlikka ta'siri davlat institutlari sifati indeksi amaldagi qiymatining chegara qiymatdan farq qilishning o'sishi bilan oshadi.

Uzoq muddatli rivojlanishdagi xavf – xatarlari va ularning kelib chiqishi



Uzoq muddatli istiqbolda resurslarni shakllantirish va taqsimlashning muqobil strategiyalari:



Uzoq muddatli davrga mo'ljallangan ssenariylarni yoritish

Bazaviy (inerstion) ssenariy (1-variant): butun prognoz qilinayotgan davr uchun makroiqtisodiy tartibga solishning yuzaga kelgan ustuvor yo'nalishlarini va iqtisodiyotning real sektorini modernizastiya qilishga e'tiborni saqlab qolish (asosan bazaviy va qazib chiqaruvchi tarmoqlar).

Faol ssenariy (2 va 3-variantlar) investistiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridagi o'zgarishlar, iqtisodiyotni boshqarishni, davlat institutlarini modernizastiya qilish jarayonlarini, moliyaviy tizimni erkinlashtirish sur'atlarini jadallashtirish va innovastion salohiyatni rivojlantirish xarajatlarini oshirish.

2-variant (faol ssenariy) 2015-2020 yillarda davlat institutlarini isloh qilishning yuzaga kelgan sur'atlarini saqlab qolgan holda, investistiya resurslarini taqsimlashdagi ustuvor yo'nalishlarni real sektordan R&Dni rivojlantirish sektoriga, sanoatning qazib chiqaruvchi tarmoqlaridan ishlov beruvchi tarmoqlariga ko'chirish zaruratidan kelib chiqadi.


3-variantda (faol ssenariy) e'tiborni real sektorni modernizastiya qilishdan davlat institutlarini modernizastiya qilishga (2013-2015 yillar), moliyaviy sektorga (2015-2020 yillar), **R&D** sektoriga (2015-2025 yillar), yakuniy bosqichda joriy (5-chi) va kelgusi (6-chi) texnologik ukld zamonaviy ishlab chiqarishlarini rivojlantirishga bosqichma-bosqich ko'chirishning moslashuvchan strategiyasini amalga oshirish imkoniyati nazarda tutiladi.

Xatarlar va prognoz variantlari iqtisodiyotni rivojlantirishning muqobil ssenariylarini kombinastiyalash sxemasi.

Izoh: **Sa** – rivojlanishni moliyalash manbalaridagi muqobil variantlar (yo asosan tashqi **Sa1**, yoki ko'proq ichki **Sa2**); **Pa** - investistiya resurslarini taqsimlashning ustuvor yo'nalishlaridagi muqobil variantlar (real sektor **Pa1**, monetar sektor **Pa2**, **R&D** sektori **Pa3**, davlat institutlari **Pa4**); **Ra** - jahon iqtisodiy inqirozlari takrorlanishining ortishi, noqulay iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning tugab qolishi bilan shartlangan uzoq muddatli rivojlanish xatarlari va chaqiriqlaridagi muqobil variantlar.

Asosiy omil – so'nggi 5-10 yil mobaynida yuzaga kelgan tendenstiyalarni saqlash:

Uzoq muddatli davrda TFP omillarini rivojlantirish ssenariylari – bazaviy ssenariy (1-variant):



Davlat institutlarining sifati – ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada chuqurlashuviga qarab past o'sish tendenstiyasi;

Tadqiqotchilar - byudjetdan moliyalash imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi (qoldiq tamoyili), bu butun prognoz qilinayotgan davr mobaynida ushbu indikatorning beqarorligini belgilab beradi;

Ta'lim – respublika uchun butun hisobot davrida xos bo'lgan YaIMning 6-6,5 foizi doirasida saqlanib turadi;

Patentlar - 20 dan 30 gacha (mln. nafar aholiga) oraliqda o'zgarib turadi, bu rivojlanish sektoriga davlat xarajatlarining yuzaga kelgan darajasi va xususiy biznesning innovatsiya faoliyatiga sust jalb etilganligi bilan shartlanadi;

PII – doimiy ravishda ortib boradi, chunki qazib chiqaruvchi sanoat o'zining foydaliligi va strategik ahamiyati tufayli xorijiy investorlarni jalb qilishda davom etadi.

Uzoq muddatli davrda TFP omillarini rivojlantirish ssenariylari – faol ssenariy (2-variant):

Asosiy omil - ustuvor yo'nalishlarni real sektordan R&Dni rivojlantirish sektoriga, sanoatning qazib chiqaruvchi sanoatdan ishlov beruvchi sanoatga ko'chirish (ikkinchi o'n yillikning o'rtasidan boshlab, 2015-2017 yillar):

Tadqiqotchilar, ta'lim va patentlar – tegishli vaqt oralig'ida etalon mamlakatlar statistikasi bo'yicha olingan yo'nalishlarga muvofiq tez o'sish.

PII - PII trendining ortib boruvchi xildan kamayuvchi xilga aylanishi, bu ishlov beruvchi sanoat sektorining kam jozibadorligi bilan shartlangan.

Davlat institutlarining sifati – 1-variant.

Uzoq muddatli davrda TFP omillarini rivojlantirish ssenariylari – faol ssenariy (3-variant):

Asosiy omil – innovastion o'sishga bosqichma-bosqich o'tish moslashuvchan strategiyasi, shu jumladan e'tiborni real sektorni modernizastiya qilishdan davlat institutlarini modernizastiya qilishga, moliyaviy sektorni rivojlantirishga, so'ngra **R&D** sektoriga qaratish:


Davlat institutlarining sifati – avvalgi ssenariylarga nisbatan eng yuqori va resurslar bir qismining real sektordan davlat institutlarini rivojlantirishga qayta taqsimlanishi natijasida barqaror o'sish,

PII – qulay investistiya iqlimi tufayli dinamikadagi yaxshilanishlar,


Patentlar, ta'lim, tadqiqotchilar - prognoz dinamikasining xususiti taxminan PIIdagi kabi.

Uzoq muddatli istiqbol uchun prognozlar natijalari


a. Cheklovlar




b. Omillar va tartibga soluvchilar




v. Samaradorlik





d. Talab etiladigan resurslar



Muqobil ssenariylar va variantlarning afzalliklari va kamchiliklari

Bazaviy (inerstion) ssenariy (1-variant):

quyidagi ko'rinishdagi ehtimoliy ijobiy samaralar

- mineral va uglevodorod resurslarining chiqish koeffitsienti, ularni qayta ishlash chuqurligining oshishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentining kengayishi, xo'jalik aylanmasiga yangi hududlarning jalb qilinishi;
- prognoz qilinayotgan davrning dastlabki 4-5 yili mobaynida YaIM o'sishining nisbatan yuqori sur'atlarini saqlab turish imkoniyati;

lekin

- bunday loyihalarning yuqori kapital sig'imi o'rta muddatli istiqbolda investisiya resurslaridan foydalanish
 - ◊samaradorligining sezilarli darajada pasayishiga
 - ◊ investisiya resurslariga bo'lgan ehtiyojlarning tezda o'sishiga
 - ◊YaIM tarkibida investisiyalar ulushining keskin oshishiga
 - ◊R&D sektoriga yo'naltiriladigan resurslarning cheklanishiga
 - ◊o'rta muddatli istiqbolda YaIM o'sish sur'atlarining butunlay to'xtab qolishiga olib keladi.

Faol ssenariy (2 va 3-varianti).

Bazaviy ssenariydan asosiy farq – omonatlar normasining past dinamikasida investisiya loyihalarining asta-sekin qayta ishlovchi sanoatga, davlat institutlari va bank sektorini rivojlantirishga, inson kapitaliga qayta yo'naltirilishi.

Muqobil variantlar - ushbu sektorlarni rivojlantirishning izchilligida:

- **YoKI** birinchi bosqichdagi mavjud resurslarni **R&D** sektorni rivojlantirishga yo'naltirish (**2-variant**),
- **YoKI** dastlab zamonaviy davlat institutlari, bank tizimini tashkil etishda taraqqiyotga erishish, faqat shundan so'ng (20-yildan keyin) sa'y-harakatlarni **R&D** sektorni rivojlantirishga qaratish (**3-variant**).

2-variant shartlarini amalga oshirishning eng ehtimol tutilgan oqibatlarini (faol ssenariy)

- Butun prognoz davri uchun iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini 4-6% darajasida ta'minlash imkoniyati;
- Energetika va suv resurslari bo'yicha qat'iy resurs cheklovlariga moslashish imkoniyati;

lekin

- Iqtisodiy rivojlanish dinamikasining beqarorligi;
- Davlat institutlarining etarlicha rivojlanmaganligi sharoitida **R&D** sektorini rivojlantirishga keng ko'lamli qo'yilmalar kutilgan natijalarni bermasligi ham mumkin (TFP dinamikasi);
- bunday o'sish O'zbekistonning yaqin kelajakda rivojlangan mamlakatlar safidan joy olish vazifasini hal etish imkonini bermaydi.

3-variant shartlarini amalga oshirishning eng ehtimol tutilgan oqibatlarini (faol ssenariy)

➤ makroiqtisodiy dinamika va resurslardan foydalanish samaradorligi barcha asosiy indikatorlarining barqaror o'sishi;

➤ ancha qulay investitsiya iqlimi, bu to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, u prognoz qilinayotgan davrning uchinchi besh yilligidan boshlab 2-variantdagiga qaraganda yuqori bo'ladi;

➤ innovatsion omillar va samaradorlik prognoz qilinayotgan davrning o'rtasidan boshlab o'sishning asosiy manbalariga aylanadi;

lekin

➤ ayniqsa prognoz qilinayotgan davrning resurslarning katta hajmlari davlat institutlari va bank sektorini rivojlantirishga, inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltiriladigan ikkinchi besh yilligidan boshlab ayrim davrlarda iqtisodiyotning o'sish sur'atlari qisqarishi mumkin (6%dan pastga),

➤ YaIM o'sishining (avvalgi variantga nisbatan) ancha yuqori sur'atlari suv va energetika resurslarining ham katta hajmda sarflanishini talab qiladi,

➤ ko'rib chiqilayotgan variant doirasida prognoz qilinayotgan davrning oxiriga kelib resurslar taqchilligi suv resurslari bo'yicha 20 foizga yaqinni va energetika resurslari bo'yicha 50 foizga yaqinni tashkil qilishi mumkin.

Uzoq muddatli rivojlanishning resurslar taqchilligiga barham berish (yumshatish) variantlarini izlash makroiqtisodiy prognozlarni detallashtirishni, iqtisodiyotning tarmoq tarkibida kutilayotgan siljishlarni, uni diversifikatsiya qilishni, metallurgiya, energetika, kimyo, qurilish materiallari sanoati, agrar ishlab chiqarish, transport, uy-joy kommunal xo'jaligi kabi tarmoqlarda ko'zda tutilayotgan texnologik o'zgarishlarni hisobga olishni talab qiladi. Makro iqtisodiy dinamikaning tegishli tarmoq va texnologik ishlanmalar bilan to'ldirilishi iqtisodiy o'sishning innovatsion omillariga e'tibor qaratgan holda milliy iqtisodiyotni uzoq muddatli rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning keyingi bosqichini tashkil qiladi.

**Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini
faollashtirish muammolari**

**O'zR BMA rektori
I.f.d., prof. A.V.Vohobov**

**Xitoy Xalq Respublikasi YaIM o'sishining o'rtacha yillik
sur'atlari va omillari, %**

	1980-1989 yy.	1990-1999 yy.	2000-2008 yy.	2009 y.
YaIM o'sish sur'ati	9,7	11,0	10,0	8,7
Kapital qo'yilmalar samarasi normasi	32,9	31,4	26,3	20,7
Kapital qo'yilmalar normasi	29,5	35,0	38,2	42,0
Aholi jon boshiga YaIM o'sish sur'ati	8,2	9,9	9,4	8,1

**Hindiston YaIM o'sishining o'rtacha yillik sur'atlari va omillari,
%**

	1980-1989 yy.	1990-1999 yy.	2000-2008 yy.	2009 y.
YaIM o'sish sur'ati	5,8	5,7	7,1	6,7
Kapital qo'yilmalar samarasi normasi	29,0	25,2	26,1	19,3
Kapital qo'yilmalar normasi	20,1	22,6	27,2	34,8
Aholi jon boshiga YaIM o'sish sur'ati	3,9	3,3	3,5	5,1

AQSh YaIM o'sishining o'rtacha yillik sur'atlari va omillari, %

	1990-1995 yy.	1996- 2000 yy.	2001- 2008 yy.	2009 y.
YaIM o'sish sur'ati	1,4	4,1	2,1	- 2,4
Kapital qo'yilmalar samarasi normasi	8,0	21,8	10,9	- 13,0
Kapital qo'yilmalar normasi	17,4	18,8	19,3	18,5
Aholi jon boshiga YaIM o'sish sur'ati	0,2	3,0	1,0	- 3,4


**Yaponiya YaIM o'sishining o'rtacha yillik sur'atlari va omillari,
%**

	1980- 1989 yy.	1990- 1999 yy.	2000- 2008 yy.	2009 y.
YaIM o'sish sur'ati	4,0	0,9	1,4	- 5,4
Kapital qo'yilmalar samarasi normasi	13,6	3,1	5,9	- 23,4
Kapital qo'yilmalar normasi	29,5	29,4	23,9	21,3
Aholi jon boshiga YaIM o'sish sur'ati	3,4	0,6	1,4	- 5,3

O'zbekistonda investistiyalar o'sishining o'rtacha yillik sur'atlari va normasi

	2000 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.
Investistiyalar o'sishining yillik sur'ati, %	101,0	107,0	109,1	122,9	128,3	124,8
Investistiyalar normasi, %	22,9	20,8	19,5	19,4	23,0	26,1
YaIM o'sishining kapital sig'imi	4,7	2,9	2,8	2,1	2,2	2,8

O'zbekistonda investistiyalarning o'sish yillik sur'atlari, %



O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, 2005-2009 yy. (%da).

Iqtisodiyot tarmoqlari	2000 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2009 y.da 2000 y.ga nisbatan o'zgarish, f.b.
Investitsiyalar-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	x
Shu jumladan							
Qurilish-montaj ishlari	61,0	48,7	49,6	56,8	45,4	52,4	- 8,6
Jihozlar, uskunalar va asbob-anjomlar xarajatlari	25,0	38,7	38,1	31,7	2,4⁴	37,0	12,0
Boshqa xarajatlar	14,0	12,6	12,3	11,5	12,2	10,6	- 3,4

O'zbekistonda moliyalash manbalari bo'yicha investitsiyalar tarkibi

	Yillar					2009 y.da 2005 y.ga nisbatan o'zgarish, f.b.
	2005	2006	2007	2008	2009	
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	x
Davlat byudjeti	12,2	10,4	9,0	9,0	8,1	- 4,1
Korxonaning o'z mablag'lari	46,0	48,4	47,6	44,1	36,3	- 9,7
Aholi mablag'lari	11,4	11,8	11,4	9,8	10,6	- 0,8
Xorijiy investitsiyalar	21,7	18,5	22,8	25,8	32,2	10,5
Banklar kreditlari	3,5	3,7	5,0	5,0	5,2	1,7
Boshqa qarz mablag'lari	0,3	0,4	-	-	-	- 0,3
Byudjetdan tashqari mablag'lar	4,8	6,8	6,1	6,3	7,6	2,8

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining tarkibi, (%da)

	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.
Kreditlar-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan:						
- qisqa muddatli kreditlar	18,2	18,8	22,4	22,3	21,8	21,6
- uzoq muddatli kreditlar	81,8	81,2	77,6	77,7	78,2	78,4

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit qo'yilmalarining darajasi va dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2009 y.da 2000 y.ga nisbatan
Kredit qo'yilmalari, mlrd. so'm	3138,3	3553,1	3876,0	4095,4	6374,4	8558,2	2,7 raza
YaIMga nisbatan kredit qo'yilmalarining ulushi, %	31,9	29,1	25,5	19,7	17,3	17,8	- 14,1

Investitsiya loyihalarini moliyalash samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish zarur

1. Tijorat banklarining korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari hajmini oshirish maqsadida bankning likvidli aktivi sifatida joriy likvidlilik koeffitsientini hisoblashda banklarning to'lov qobiliyatining yuqori reytinglariga ega bo'lgan korxonalar qimmatli qog'ozlariga qo'yilmalarini hisobga olish zarur.

2. Tijorat banklarining investitsiya jarayonlarida moliyaviy ishtirokini kuchaytirish maqsadida, birinchidan, qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarni imtiyozli kreditlash fondiga yo'naltirish sharti

bilan ularga solinadigan soliqni 50 foizga pasaytirish; ikkinchidan banklar qimmatli qog'ozlari portfelini diversifikatsiya qilish tamoyilining buzilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

3. Banklarning sundirish muddati 3 yildan yuqori bo'lgan subordinastiyalangan qarz majburiyatlarini chiqarish yo'li bilan ularning uzoq mujvatli resurs bazasini mustahkamlash. Sarmoyadorlarning subordinastiyalangan qarz majburiyatlaridan oladigan daromadlari soliq solishdan ozod qilinishi kerak, buning natijasida ushbu qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligi ortadi.

4. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kreditlovchi tijorat banklariga Respublika tiklanish va taraqqiyot fondning mablag'lari hisobidan subordinastiyalangan kreditlarni berish lozim.

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini tahlil qilishga nisbatan metodologik yondashuvlar

Qodirov A.

Mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi

– mintaqalarning o'z rivojlanishining real omillari va cheklovlari bilan belgilanadigan davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'rta muddatli va uzoq muddatli vazifalarini hal etishga qo'shgan hissaini hisobga olgan holda ushbu vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi;

– resurs imkoniyatlarini, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni va mintaqaga nisbatan tashqi sharoitlarni rivojlantirish ssenariylarini tahlil qilishdan kelib chiquvchi mintaqani rivojlantirishning umumiy maqsadlari, vazifalari, yo'nalishlarini, ularni amalga oshirish mexanizmlarini belgilab beruvchi hujjat;

– rivojlanishning muayyan bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga, markaz bilan mintaqaga o'rtasida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlarga, ya'ni yagona davlat doirasida jamiyatni rivojlantirish maqsadlariga ta'sir ko'rsatuvchi sharoitlar va omillar tizimiga qarab o'zgaruvchi hujjat;

– strategiya “to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi” hujjat bo'lmagani holda, faqat hujjatlarning butun tizimi: yalpi maqsadli dasturlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli va joriy prognozlari, alohida tarmoqlar, tumanlar, shaharlarni va turli darajadagi mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatini rivojlantirishning strategik dasturlar, qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.


Tahliliy ishlarning turlari:

Mintaqaviy strategiyani shakllantirish uchun axborot-tahliliy bazani tayyorlash maqsadida qator tahliliy ishlarni amalga oshirish zarur. Ushbu ishlarning quyidagi turlari ajratiladi :


- mintaqaviy statistika materiallarini «an'anaviy» tahlil qilish;
- mintaqaga rivojlanishining tarixiy jihatlarini tahlil qilish;
- mintaqada strategik rejalashtirish retrospektivasi;
- mintaqaga tashqi ekspertlar tomonidan berilgan baholarni tahlil qilish;
- mintaqaga iqtisodiyotining yuzaga kelgan tarkibini tahlil qilish va baholash;
- yalpi hududiy mahsulot tarkibini tahlil qilish;
- ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini, mintaqaga strategiyasini ishlab chiqish uchun dastlabki sharoitlarni rivojlantirish imkoniyatini SWOT-tahlil qilish;

- o'sishning asosiy nuqtalarini va klasterlarni shakllantirish mumkin bo'lgan markazlarni tahlil qilish;
- mintaqaning raqobatlashish salohiyatini baholash.


Mintaqaviy strategiyani shakllantirish mantig'i



Mintaqani strategik rivojlantirishning boshlang'ich sharoitlarini baholash



Mintaqani rivojlantirish strategik maqsadlarining ustuvorliklarini shakllantirish



Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning tarixiy jihatlar

- bozor islohotlari davrida mintaqada strategik rivojlanish tarixini tahlil qilishdan maqsad quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:
- asosan mintaqani tahlil qilish bilan bog'liq ko'plab texnik ishlar o'tmishdoshlar tomonidan qilingan edi. Ularning tajribasi ishlab chiquvchining resurslarini tejash imkonini beradi;
- ko'plab iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishning stiklliligi mavjud ishlanmalarni tahlil qilish natijasida tayyor echimlar va hozirgi bosqich vazifalarini hal etishga ko'maklashuvchi muayyan chora-tabirlar aniqlanishiga umid qilish imkonini beradi;
- rivojlanishning izchilligini ta'minlash zarur.

Ma'muriy tuman iqtisodiyotining raqobatbardoshligini baholash:

– tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, mahalliy hokimiyat organlarining asosiy vazifasi – aholi farovonligini oshirish, jahon darajasida va mamlakat ichida raqobatning qat'iylashuvi sharoitida mintaqaga investitsiyalarni jalb qilish vazifasini hal etish qobiliyatini;

– mintaqa darajasida raqobat jihatdan mavjud ustunliklarni rivojlantirish va yangi ustunliklarni yaratish uchun zarur omillar bilan ta'minlanganlik darajasi. Iqtisodiyotning ochiqqligini ta'minlovchi va tumanlarni xalqaro iqtisodiy aloqalarga jalb etishga ko'maklashuvchi sharoitlarning mavjudligini;

– tumanda yangi yuqori samarali raqobatbardosh tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni yaratish imkoniyatlarini aniqlashni nazarda tutadi.

Asosiy omillarni tahlil qilish

- demografik vaziyat va mehnat;
- mahalliy tabiiy resurslar va xomashyo;
- tashqi iqtisodiy faoliyat;
- innovastion-investistion faoliyat;
- infratuzilma ta'minoti;
- institustional o'zgarishlar (institutlar) va mahalliy byudjet.

Rivojlanishning barqarorligini tahlil va prognoz qilish uchun O'zbekiston makroiqtisodiy modelini ishlab chiqish

Xakimov O.

Taqdimot tarkibi:

1. Mavjud makroiqtisodiy modellar shahi.
2. O'zbekistonda ishlab chiqilgan makroiqtisodiy modellar sharhi.
3. Prognoz qilish jarayonining tarkibi.
4. Makroiqtisodiy modelning nazariy tarkibi.
5. Makroiqtisodiy indikatorlar dinamikasi va prognozi.
6. Omillarni qisqa muddatli va uzoq muddatli tahlil qilish.
7. Xulosalar va tavsiyalar.
8. Modelni takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish.


O'zbekistonda ishlab chiqilgan makroiqtisodiy modellar sharhi

Nomi	Iqtisodiy siyosat	Indikatorlar	Muvozanat shartlari
Umumiy muvozanat modeli (CGE)	Narx-navo, Tashqi iqtisodiy, Valyuta, Investistiya, Soliq, Byudjet Band bo'lganlar daromadlarini tartibga solish, Iste'molchilar uchun afzalliklarni shakllantirish	Tarmoq, eksport-import narxlari, tarif stavkalari. Ayirboshlash kursi. Yalpi investistiyalar. Soliq stavkalari. Davlat xarajatlari. Ish haqi. Iste'mol tarkibi	Tovar bozorlarida va ishlab chiqarish omillari bozorlarida talab va taklifning muvofiqligi To'lov balansining joriy hisobvarag'i Davlat byudjeti taqchilligi
Moliyaviy dasturlash (FP)	CGEdagi kabilar (optimizastiya parametrlaridan tavs HQari) va	O'shalar va qo'shimcha ravishda foiz stavkasi, pul massasi,	Investistiyalar va jamg'armalar, to'lov balansi va davlat byudjetining muvozanatlashganlik


	kredit-pul siyosati	pullarning aylanish tezligi va monetar siyosatning boshqa tartibga soluvchilari	darajasi, xususiylar sektorga kreditlar
Jahon banki modeli (RMSM)	Monetar, Valyuta Investistiya, Soliq Byudjet	Real sektorga kreditlar Ayirboshlash kursi Yalpi investistiyalar Soliq daromadlari, davlat xarajatlari	Iqtisodiyotning asosiy sektorlarida joriylar xarajatlar va daromadlarning muvofiqligi To'lov balansining joriylar hisobvarag'i Davlat byudjeti taqchilligi Investistiyalar va jamg'armalarning muvazanatlashganlik darajasi
Kichik o'lchamli ekonometrik model	Tashqi iqtisodiy Valyuta Investistiya Pul-kredit Soliq-byudjet Band bo'lganlar daromadlarini tartibga solish	EBRD narxni erkinlashtirish indeksi Import narxlar indeksi Ayirboshlash kursi Yalpi investistiyalar, yalpi omonatlar Pul massasi Davlat xarajatlari Ish haqi	Ichki va eksport narxi o'rtasidagi muvazanat, resurslar va iqtisodiyot ehtiyojlari o'rtasidagi farqlar Kurs farqi Investistiyalar va jamg'armalar muvazanati Davlat byudjeti taqchilligi
SAM	Tashqi iqtisodiy Monetar Valyuta Tarkibiy- investistiya	Xorijiy transfertlar, davlat kafolati ostida daromadlar va kapital Hukumatga	Tovar va moliya bozorlarida talab va taklifning muvofiqligi Pulga bo'lgan talab va taklifning muvofiqligi Investistiyalar va

	Soliq-budjet Band bo'lganlar daromadlarini tartibga solish	kreditlar Ayirboshlash kursi Davlat byudjetidan investistiyalar va iqtisodiyotdagi subsidiyalar Davlat xarajatlari Ish haqi uchun budjet xarajatlari	jamg'armalarning muvazanatlashganlik darajasi Davlat budjeti taqchilligi
I-O WTO modeli	Tashqi iqtisodiy	Tarif stavkalari	---
Mintaqaning soliq salohiyatini baholash	Ijtimoiy siyosat	O'rtacha ish haqi miqdori	----

Prognozashtirish jarayonining tarkibiy tuzilishi




Mavjud makroiqtisodiy modellar sharhi



Mavjud makroiqtisodiy modellar sharhi

	Nazariy asoslanganlik	
Yuqori (ayniqsa CGE uchun)	Ma'lum modellarni O'zbekiston uchun alohida xatti-harakat boshqaruvlar bilan uyg'unlashtirish	Empirik o'zaro aloqalarning nazariy o'zaro aloqalardan ustunligi
Modelning o'lchamliligi va axborot talablari		
Eng yuqori (ayniqsa CGE uchun)		
	Past	
		Cheklangan
Tadqiqotlarni o'tkazish vaqti bilan cheklangan	Iqtisodiyot vazirligining talablariga muvofiq va ishlab chiquvchilar tomonidan tashabbus tartibida ahyon-ahyonda foydalaniladi	Ahyon-ahyonda (masalan, o'tkazmalar bo'yicha) va har yili foydalaniladi

Aholi talabi nazariy modellarining sharhi



Makroiqtisodiy modelning nazariy tarkibi

Milliy daromad funksiyasi:

$$Y_t = C_t + I_t + G_t + X_t - M_t \quad (1)$$

Iste'mol funksiyasi:

$$C_t = DUR_t + NDUR_t + SER_t + OTHER_t \quad (2)$$

Investitsiya funksiyasi:

$$Inv_t = Pr_{iv}Inv_t + GovInv_t \quad (3)$$

Davlat xarajatlari funksiyasi:

$$GOVEXP_t = \gamma_0 - \gamma_1 TREND_t + \gamma_2 TREND_t^2 + \varepsilon_{3t} \quad (4)$$


Eksport funksiyasi:

$$X_t = \mu_0 + \mu_1 GDP_t^f + \mu_2 REER_t + \mu_3 P_t^x + \varepsilon_{4t} \quad (5)$$






Import funksiyasi:

$$M_t = \lambda_0 + \lambda_1 GDP_t^d + \lambda_2 P_t^d + \lambda_3 P_t^m + \varepsilon_{5t} \quad (6)$$


Makroiqtisodiy modelning chizma ko'rinishidagi tarkibiy tuzilishi




Uy xo'jaliklari iste'molining dinamikasi va prognozi





Investitsiyalar dinamikasi va prognozi








Davlat xarajatlari dinamikasi va prognozi




Eksport dinamikasi va prognozi







Real samarali ayirboshlash kursi




Import dinamikasi va prognozi



Import narxlar




Real samarali avirboshlash




Iste'mol bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli multiplikativ samaralar


Uy xo'jaliklarining xizmatlarini iste'mol qilishga nisbatan uy xo'jaliklari daromadlarining 1 f.b.ga o'zgarishi




Kundalik foyd.tovarlarni iste'mol qilishga nisbatan uy xo'jaliklari daromadlarining 1 f.b.ga o'zgarishi



Uzoq mud.foyd.tovarlarni iste'mol qilishga nisbatan yosh aholi ulushining 1 f.b.ga o'zgarishi




Oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilishga nisbatan uy xo'jaliklari daromadlarining 1 f.b.ga o'zgarishi




Investistiyalar bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli multiplikativ samaralar


Xususiy sektorga xususiy investistiyalar o'sish sur'atlariga nisbatan kreditlar ulushining 1 f.b.ga o'zgarishi




Xususiy investistiyalar o'sish sur'atiga nisbatan YaIM o'sish sur'atining 1 f.b.ga o'zgarishi



Markazlashgan investistiyalar o'sish sur'atiga nisbatan byudjet taqchilligining 1 f.b.ga o'zgarishi




Markazlashgan investistiyalar o'sish sur'atiga nisbatan O'rtacha chamalangan foiz stavkasining 1 f.b.ga o'zgarishi




Eksport va import bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli multiplikativ samaralar


**O'zbekiston eksportining o'zishiga
nisbatan xorijiy daromadlar
o'sishining 1 f.b.ga o'zgarishi**




**O'zbekiston eksportining o'zishiga
nisbatan eksport narxi o'sishining 1
f.b.ga o'zgarishi**








**Importga nisbatan daromadlar
o'sishining 1 f.b.ga o'zgarishi**



**Importga nisbatan import narxlarining
1 f.b.ga o'zgarishi**




YaIM dinamikasi va prognozi



Pul massasining taklifi

Динамика и прогноз коэффициента монетизации





Xulosalar va tavsiyalar

1. *Xususiy iste'molga* hisobot davrida tasarrufdagi daromadlardagi o'zgarishlar katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, qisqa muddat mobaynida foydalaniladigan tovarlar uchun daromadlarning 10 f.b.ga o'zgarishi (oshishi) talab o'sishi sur'atlarining qo'shimcha 5.5 f.b.ga oshishiga olib keldi (moslashuvchanlik koeffitsienti 0.55). Uzoq muddat mobaynida foydalaniladigan tovarlar dinamikasi ham yosh avlod ulushi asosida aniqlandi;
2. Qisqa muddatli istiqbolda daromadlar o'sishining ta'siri kam yoki qisqa davrda kam, biroq uzoq muddatli istiqbolda daromadlar o'sishi real sur'atining doimiy 1 foizga oshishi O'zbekistonning *markazlashmagan investitsiyalarini* taxminan 0,7 foizga oshiradi;
3. *Byudjet taqchiligi* va foiz stavkalari o'sishining bevosita ta'siri salbiy;
4. Prognoz qilinayotgan davrda eksport savdo sheriklarimiz daromadlarining darajasiga bog'liqligi ortadi (u mamlakat eksporti variatsiyasining 40 foizini izohlaydi);
5. O'zbekiston savdo sheriklari daromadlarining o'rtacha 1 foizga o'sishi, *boshqa teng sharoitlarda*, eksport o'sishining yillik sur'atlarini 1,33 foiz bandiga oshiradi;
6. Uzoq muddatli istiqbolda valyuta kursining mustahkamlanishi importning o'sishini oshiradi;
7. Pul massasining optimal darajasini aniqlashda shu narsa qayd etildiki, Markaziy bank tomonidan pul massasining optimal darajasi kuzatilmoqda.

Modelni takomilashtirish va uni yanada rivojlantirish

- bundan keyin YaIMni prognoz qilish modeli talab va taklifning muvazanatlashganligi, investitsiya imkoniyatlari, mavjud resurslar indikatorlari bilan bog'liqlikda tarkibiy o'zgarishlar masalalarini ko'rib chiqadi;
- YaIMni prognoz qilish modelida joriy va kelgusi iste'molga ta'sir ko'rsatuvchi omillar kengroq taqdim etiladi. Xususan, inqirozdan keyingi davrda rivojlanish modeli oldinga qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari va mavjud an'analarni hisobga olgan holda asosiy omil va jamiyat hayotining asosiy maqsadi sifatida insonlarning uyg'un rivojlanishiga tayanishi lozim.

**Berkinov Bozorboy Berkinovich, Yarmolik Ekaterina Anotolevna,
Quvnoqov Haydar Qosimovich, Djumaniyazov Shavkat Raximovich**

INDIKATIV REJALAShtIRISH

(O'QUV QO'LLANMA)

Mas'ul muharrir i.f.d., prof. Bekmurodov A.Sh.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. Shodiev T.Sh.,

i.f.n., dost. Fayzullaev Yo.Sh.